# ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ

1. 1.1-2 file-» 41 - 4 - - (231601)
Қайси қаторда нг товуши иштирок этган сўзлар берилган?
**A)** *шудринг, янга, денгиз*
B) *сингил, менга, кўнгил*
C) *конгресс, енгил, штанга*
D) *кенглик, инграмоқ, тунги*

2. 1.1-2 file-» 1 - 38 - - (232328)
гапирмасинми? Ушбу сўзда урғу қайси бўғинга тушади?
**A)** *иккинчи бўғинга* B) *учинчи бўғинга*
C) *тўртинчи бўғинга* D) *бешинчи бўғинга*

3. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241361)
Қуйидаги сўзлардан қайсиларида тутуқ белгиси унлининг чўзиқроқ айтилишини ифодалаш учун қўйилади?
1) ma...no; 2) san...at; 3) mo‘...tadil; 4) in...om; 5) shu...la.
A) *1, 2, 3, 4, 5* **B)** *1, 5* C) *1, 3, 5* D) *2, 4*

4. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241362)
Қуйидаги сўзлардан қайсиларида тутуқ белгиси унлини ундошдан ажратиб талаффуз этилишини ифодалаш учун қўйилади?
1) qat...iy; 2) da...vo; 3) mo‘...jiza; 4) sur...at; 5) e...lon.
**A)** *1, 4* B) *2, 3, 5* C) *1, 3, 4, 5* D) *2, 5*

5. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241363)
Қатор ундошли сўзлар берилган жавобни белгиланг.
A) *трактор, пахта, чаққон*
B) *икки, миллион, металл*
**C)** *стол, дўст, дарахт*
D) *пахта, нимча, ўсимлик*

6. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241364)
Китобни қадрламоқ керак, бу тафаккур дарсига иззат-эҳтиром билан қадам қўймоқ лозим.
Ушбу гапда қўш ва қатор ундошли сўзлар миқдорини аниқланг.
A) *1 та қўш ундош, 2 та қатор ундошли сўз*
**B) 2 та қўш ундош, 2 та қатор ундошли сўз**
C) *2 та қўш ундош, 3 та қатор ундошли сўз*
D) *2 та қўш ундош, 4 та қатор ундошли сўз*

7. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241365)
Қайси ҳарф тил олди, портловчи, жарангсиз ундошни ифодалайди?
**A)** *ч* B) *ш* C) *ж* D) *к*

8. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241366)
шудринг сўзи таркибида қандай ундош тил товушлари мавжуд?
**A) 3 та тил олди, 1 та тил орқа ундошлари**
B) *4 та тил олди, 1 та тил орқа ундошлари*
C) *4 та тил олди, 1 та тил ўрта ундошлари*
D) *3 та тил олди, 1 та тил ўрта ундошлари*

9. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241367)
Конгресс сўзи таркибида қандай ундош тил товушлари мавжуд?
A) *2 та тил орқа, 2 та тил олди ундошлари*
**B) 2 та тил орқа, 4 та тил олди ундошлари**
C) *2 та тил орқа, 3 та тил олди ундошлари*
D) *1 та тил орқа, 1 та чуқур тил орқа, 4 та тил олди ундошлари*

10. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241368)
Сўз таркибида н ҳарфи қайси ҳарфлардан олдин келганда баъзан м тарзида талаффуз қилинади?
**A)** *б, м* B) *в, п* C) *ф, т* D) *к, ш*

11. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241369)
Қайси қатордаги сўзда н ҳарфи м тарзида талаффуз қилинади?
**A)** *ўн бир* B) *тандир* C) *ўн сўм*
D) *томонда*

12. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241370)
Синглимнинг анча улғайиб қолган ўғли йиғлаб ўрнидан турди-да, яна онасининг бағрида ухлаб қолди.
Ушбу гапдаги неча сўз таркибида товуш тушиши кузатилади?
A) *3 та сўзда* B) *4 та сўзда* C) *5 та сўзда*
**D)** *6 та сўзда*

13. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (241403)
-а феъл ясовчи қўшимчаси қўшилганда сўз асосида қандай фонетик ўзгариш юз бериши мумкин?
1) товуш тушиши; 2) товуш алмашиниши; 3) товуш иккиланиши; 4) товуш ортиши.
A) *2, 3* B) *2, 4* **C)** *1, 2* D) *фақат 2*

14. 1.1-2 file-» 1 - 41 - - (241720)
**Менинг бу воқеадан хабардорлигимни унга айта кўрма.**
Ушбу гапдаги сўзлар таркибида қандай фонетик ўзгаришлар кузатилади?

A) *товуш тушиши*
B) *товуш алмашиши ва тушиши*
**C) товуш орттирилиши, тушиши, алмашиши**
D) *товуш орттирилиши*

15. 1.1-2 file-» 41 - 4 - - (301001)
Qaysi qatorda ng tovushi ishtirok etgan so‘zlar berilgan?

**A)** *shudring, yanga, dengiz*
B) *singil, menga, ko‘ngil*
C) *kongress, yengil, shtanga*
D) *kenglik, ingramoq, tungi*

16. 1.1-2 file-» 1 - 38 - - (301002)
gapirmasinmi? Ushbu so‘zda urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi?

**A)** *ikkinchi bo‘g‘inga* B) *uchinchi bo‘g‘inga*
C) *to‘rtinchi bo‘g‘inga* D) *beshinchi bo‘g‘inga*

17. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301003)
Quyidagi so‘zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlining cho‘ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi?
1) ma...no; 2) san...at; 3) mo‘...tadil; 4) in...om; 5) shu...la.

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B)** *1, 5* C) *1, 3, 5*
D) *2, 4*

18. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301004)
Quyidagi so‘zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalash uchun qo‘yiladi?
1) qat...iy; 2) da...vo; 3) mo‘...jiza; 4) sur...at; 5) e...lon.

**A)** *1, 4* B) *2, 3, 5* C) *1, 3, 4, 5* D) *2, 5*

19. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301005)
Qator undoshli so‘zlar berilgan javobni belgilang.

A) *traktor, paxta, chaqqon*
B) *ikki, million, metall* **C)** *stol, do‘st, daraxt*
D) *paxta, nimcha, o‘simlik*

20. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301006)
Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur darsiga izzat-ehtirom bilan qadam qo‘ymoq lozim.
Ushbu gapda qo‘sh va qator undoshli so‘zlar miqdorini aniqlang.

A) *1 ta qo‘sh undosh, 2 ta qator undoshli so‘z*
**B) 2 ta qo‘sh undosh, 2 ta qator undoshli so‘z**
C) *2 ta qo‘sh undosh, 3 ta qator undoshli so‘z*
D) *2 ta qo‘sh undosh, 4 ta qator undoshli so‘z*

21. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301007)
Qaysi harf til oldi, portlovchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi?

**A)** *ch* B) *sh* C) *j* D) *k*

22. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301008)
shudring so‘zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

**A) 3 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari**
B) *4 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari*
C) *4 ta til oldi, 1 ta til o‘rta undoshlari*
D) *3 ta til oldi, 1 ta til o‘rta undoshlari*

23. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301009)
Kongress so‘zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

A) *2 ta til orqa, 2 ta til oldi undoshlari*
**B) 2 ta til orqa, 4 ta til oldi undoshlari**
C) *2 ta til orqa, 3 ta til oldi undoshlari*
D) *1 ta til orqa, 1 ta chuqur til orqa, 4 ta til oldi undoshlari*

24. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301010)
So‘z tarkibida n harfi qaysi harflardan oldin kelganda ba’zan m tarzida talaffuz qilinadi?

**A)** *b, m* B) *v, p* C) *f, t* D) *k, sh*

25. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301011)
Qaysi qatordagi so‘zda n harfi m tarzida talaffuz qilinadi?

**A)** *o‘n bir* B) *tandir* C) *o‘n so‘m*
D) *tomonda*

26. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301012)
Singlimning ancha ulg‘ayib qolgan o‘g‘li yig‘lab o‘rnidan turdi-da, yana onasining bag‘rida uxlab qoldi.
Ushbu gapdagi necha so‘z tarkibida tovush tushishi kuzatiladi?

A) *3 ta so‘zda* B) *4 ta so‘zda*
C) *5 ta so‘zda* **D)** *6 ta so‘zda*

27. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (301013)
-a fe’l yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilganda so‘z asosida qanday fonetik o‘zgarish yuz berishi mumkin?
1) tovush tushishi; 2) tovush almashinishi; 3) tovush ikkilanishi; 4) tovush ortishi.

A) *2, 3* B) *2, 4* **C)** *1, 2* D) *faqat 2*

28. 1.1-2 file-» 1 - 41 - - (301014)
**Mening bu voqeadan xabardorligimni unga ayta ko'rma.**
Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?

A) *tovush tushishi*
B) *tovush almashishi va tushishi*
**C) tovush orttirilishi, tushishi, almashishi**
D) *tovush orttirilishi*

29. 1.1-2 file-» 1 - 43 - - (400001)
jo'ja va jirafa so'zlaridagi j tovushlari qaysi jihatdan o'zaro farqlanadi?

A) *til qismlarining harakatiga ko'ra*
B) *jarangli va jarangsizligiga ko'ra*
**C)** *portlovchi va sirg'aluvchiligiga ko'ra*
D) *talaffuzida labning ishtirokiga ko'ra*

30. 1.1-2 file-» 1 - 43 - - (400002)
1) tinmay; 2) o'n besh; 3) qamchin;
4) qantarmoq; 5) manmanlik; 6) sunbul
Berilgan qaysi so'zlarda n harfi m tarzida talaffuz qilinadi?

**A)** *1, 2, 5, 6* B) *1, 3, 4, 5* C) *2, 4, 6*
D) *3, 5, 6*

31. 1.1-2 file-» 1 - 43 - - (400003)
So'z tarkibida qaysi harflardan oldin kelgan n harfi m holida o'qiladi, lekin n yoziladi?

A) *b va p* B) *d va t* **C)** *b va m*
D) *v va f*

32. 1.1-2 file-» 1 - 43 - - (400004)
Qaysi harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalaydi?

**A)** *ng* B) *sh* C) *ch*
D) *bunday harflar birikmasi mavjud emas*

33. 1.1-2 file-» 1 - 43 - - (400005)
ko'ngil, singlisi, kongress so'zlarining birinchi bo'g'ini qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) *har uchala so'zning birinchi bo'g'ini ochiq bo'g'in*
B) *har uchala so'zning birinchi bo'g'ini yopiq bo'g'in*
**C) ko'ngil so'zida ochiq, singlisi, kongress so'zlarida yopiq bo'g'in**
D) *ko'ngil, singlisi so'zlarida ochiq, kongress so'zida yopiq bo'g'in*

34. 1.1-2 file-» 1 - 43 - - (400006)
Berilgan so'zlarning qaysi birida birinchi bo'g'in ochiq bo'g'in hisoblanadi?
1) dengiz; 2) shtanga; 3) singlim; 4) ko'ngil

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3* **C)** *1, 4* D) *1, 3, 4*

35. 1.1-2 file-» 40 - 3 - - (400007)
Quyida berilgan gapda nechta ochiq bo'g'in borligini aniqlang.
**Go'zallik tuyg'usini singdirmay turib, barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas.**

**A)** *12 ta* B) *11 ta* C) *10 ta* D) *9 ta*

36. 1.1-2 file-» 40 - 3 - - (400008)
Qaysi qatorda unli va sirg'aluvchi undoshlardan tarkib topgan so'zlar berilgan?

A) *saxovat, xususiylashtirish, g'azal*
**B)** *vazifa, serhafsala, xo'roz*
C) *suyanish, jirafa, sarosima*
D) *xushbichim, vazifa*

37. 1.1-2 file-» 40 - 3 - - (400009)
Qaysi qatorda unli va portlovchi undoshlardan tarkib topgan so'zlar berilgan?

A) *abadiy, telpak, qadriyat*
**B)** *odob, botiq, qichitqi*
C) *dudutlatdi, qobiliyat, qorabayir*
D) *tekintomoq, qanoat, vazifa*

38. 1.1-2 file-» 40 - 3 - - (400010)
Qaysi so'zning yopiq bo'g'ini unli va jarangli undoshdan iborat?

A) *qadriyat* B) *yoqimli* **C)** *iztirob*
D) *fazilat*

39. 1.1-2 file-» 1 - 44 - - (400011)
Fe'llarning vazifa shakli qo'shimchalari fe'lning qaysi lug'aviy shaklini hosil qilganda, bir unli tovush boshqasiga aylanishi mumkin?

A) *ravishdosh* **B)** *harakat nomi*
C) *ravishdosh va sifatdosh*
D) *ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi*

40. 1.1-2 file-» 1 - 44 - - (400012)
**-a, -ay, -illa** fe'l yasovchi qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganda, qanday tovush hodisasi ro'y beradi?

**A) tovush tushishi, tovush o'zgarishi**
B) *tovush tushishi, tovush orttirilishi*
C) *tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush o'zgarishi*
D) *tovush orttirilishi, tovush o'zgarishi*

41. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (400013)
Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur sabog'iga izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim.
Ushbu gapda qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang.

**A)** *1 ta qator undoshli so'z*
B) *2 ta qator undoshli so'z*
C) *3 ta qator undoshli so'z*
D) *4 ta qator undoshli so'z*

42. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (400014)
dengiz so‘zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

A) *3 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari*

**B) 2 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari**

C) *2 ta til oldi, 1 ta til o‘rta undoshlari*

D) *3 ta til oldi, 1 ta til o‘rta undoshlari*

43. 1.1-2 file-» 1 - 39 - - (400015)
O‘zbek tilida quyidagi tovush almashuvining qaysi ko‘rinishi kuzatilmaydi?

A) *otdan fe’l yasalganda o‘zakdagi o tovushi a tovushiga almashishi*

B) *fe’ldan sifat yasalganda a tovushi o tovushiga almashishi*

C) *fe’ldan ot yasalganda a tovushi o tovushiga almashishi*

**D) otdan sifat yasalganda o‘zakdagi a tovushi o tovushiga almashishi**

44. 1.1-2 file-» 40 - 6 - - (700000)
Qaysi so‘zda hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

**A)** *norasida* B) *mabodo* C) *qarg‘a* D) *ko‘rmana*

45. 1.1-2 file-» 40 - 6 - - (700001)
Qaysi so‘zda hosil bo‘lish usuliga ko‘ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

A) *suzuvchi* B) *bedarak* **C)** *havoyi* D) *dabdabali*

46. 1.1-2 file-» 40 - 6 - - (700002)
Qaysi so‘zda hosil bo‘lish usuliga ko‘ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

**A)** *romanlar* B) *sezuvchi* C) *kitobxon* D) *xushbichim*

47. 1.1-2 file-» 20 - 1 - - (700003)
Sanab sanog‘iga yetolmadi.
Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida jami nechta tovush o‘zgarishi yuz bergan?

A) *2 ta* B) *3 ta* C) *4 ta* **D)** *5 ta*

48. 1.1-2 file-» 20 - 1 - - (700004)
Sanab sanog‘iga yetolmadi.
Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida jami necha marta tovush almashinish hodisasi yuz bergan?

A) *2 ta* B) *3 ta* **C)** *4 ta* D) *5 ta*

49. 1.1-2 file-» 20 - 1 - - (700005)
Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko‘nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so‘roqlamas hech kim.
Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so‘z bor?

A) *4 ta* B) *5 ta* **C)** *6 ta* D) *7 ta*

50. 1.1-2 file-» 20 - 1 - - (700006)
Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko‘nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so‘roqlamas hech kim.
Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan so‘zlar qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan?
1) ega 2) kesim 3) aniqlovchi 4) to‘ldiruvchi

A) *1 va 2* **B)** *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 4* D) *2, 4*

51. 1.1-2 file-» 20 - 1 - - (700007)
Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko‘nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so‘roqlamas hech kim.
Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so‘z bor, ularning nechtasi fe’l so‘z turkumiga mansub?

A) *5 ta so‘z, 3 tasi fe’l*

B) *5 ta so‘z, 2 tasi fe’l*

**C) 6 ta so‘z, 3 tasi fe’l**

D) *6 ta so‘z, 2 tasi fe’l*

52. 1.1-2 file-» 1 - 47 - - (700008)
l, n tovushlari qaysi jihatdan bir guruhga mansub emas?

**A) sirg‘aluvchi undoshlar**

B) *jarangli undoshlar*

C) *til oldi undoshlari*

D) *jarangli va til oldi undoshlari*

53. 1.1-2 file-» 1 - 47 - - (700010)
1) yonbosh; 2) ko‘nmaslik; 3) tutunsimon; 4) bo‘yinturuq; 5) o‘n besh
Berilgan qaysi so‘zlarda n harfi m tarzda talaffuz qilinadi?

A) *1, 2, 4, 5* B) *2, 3, 4* **C)** *1, 2, 5* D) *1, 2*

54. 1.1-2 file-» 1 - 47 - - (700011)
k undoshiga to‘g‘ri tavsif berilgan javobni toping.

A) *til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush*

B) *til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush*

**C) til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush**

D) *chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush*

55. 1.1-2 file-» 1 - 48 - - (700012)
1) barcha; 2) texnika; 3) direksiya; 4) kimdir; 5) kitob
Berilgan so‘zlarning qaysi birida urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi?

**A)** *1, 2, 4* B) *2, 3, 4* C) *1, 2, 3* D) *1, 3, 5*

56. 1.1-2 file-» 1 - 48 - - (700013)
kitob haqida qo‘shilmasida urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi?

A) *haqida so‘zining oxirgi bo‘g‘iniga*

B) *haqida so‘zining birinchi bo‘g‘iniga*

C) *kitob va haqida so‘zlarining oxirgi bo‘g‘iniga*

**D) kitob so‘zining oxirgi bo‘g‘iniga**

57. 1.1-2 file-» 1 - 48 - - (700014)
Qaysi so‘zda til undoshi lab undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

**A)** *manmanlik* B) *qamchin* C) *ingichka* D) *tartib*

58. 1.1-2 file-» 1 - 48 - - (700015)
Undosh tovushlar tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

**A) jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar**

B) *portlovchilar, sirg‘aluvchilar*

C) *lab undoshlari, til yoki til-tish undoshlari*

D) *sof undoshlar, bo‘g‘iz undoshlari*

59. 1.1-2 file-» 1 - 48 - - (700016)
Undoshlar qaysi xususiyatiga ko‘ra jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratiladi?

**A) tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra**

B) *paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra*

C) *aytilish usuliga ko‘ra*

D) *ovozning ishtirokiga ko‘ra*

60. 1.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715000)
Og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rganuvchi bo‘lim . . .

**A)** *fonetika* B) *grafika* C) *orfografiya* D) *orfoepiya*

61. 1.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715007)
1) manba; 2) yonma-yon; 3) tandir; 4) qalampir; 5) tanbal; 6) yonbosh
Ushbu so‘zlarning qaysi birida talaffuzda tovush o‘zgarishi yuz beradi?

**A)** *1, 2, 5, 6* B) *1, 3, 4, 6* C) *2, 3, 4, 5* D) *3, 4, 5, 6*

62. 1.1-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715008)
Men kecha uydan keldim.
Ushbu gapda mantiqiy urg‘u ostiga chizilgan bo‘lakka tushganda, bu gap uchun mos keladigan so‘roq gapni belgilang.

A) *Kim kecha uydan keldi?*

B) *Sen kecha qayerdan kelding?*

**C) Sen qachon uydan kelding?**

D) *Kim kecha qayerdan keldi?*

63. 2.1-2 file-» 1 - 38 - - (231475)
Қайси қатордаги сўзлар имло қоидасига кўра тўғри ёзилган?

A) *улгирмоқ, унитмоқ, урчуқ*

B) *умиргузаронлик, унсир, урчиқ*

C) *умиртқа, унгур, улгурмоқ*

**D)** *унгур, умргузаронлик, учқур*

64. 2.1-2 file-» 1 - 38 - - (231476)
Қайси қатордаги сўзларда қўш ундош қўлланиши керак?

A) *қул..уқ, қум..оқ*

B) *қўқ..исдан, ғиж..иллашмоқ*

C) *ғиж..акчи, ғов..ак* **D)** *мутасад..и, шарт..а*

65. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (241297)
Қўшма сўзларнинг имлоси ҳақидаги қайси ҳукм нотўғри?

A) *Икки ё уч сўз қўшилишидан ҳосил бўлган турдош отлар доим қўшиб ёзилади.*

**B) Қўшма сўзларнинг қисмлари бир-бирини изоҳласа қўшиб ёзилади.**

C) *Хона, нома, поя, сифат каби сўзлар билан ясалган қўшма от ва сифатлар қўшиб ёзилади.*

D) *Қўшма феъл қисмлари ажратилиб ёзилади.*

66. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (241309)
Чизиқча билан ёзиш ҳақидаги қуйидаги қоидалардан қайси бири хато?

A) *Етакчи ва кўмакчи феъл бир хил шаклда бўлса, чизиқча билан ёзилади.*

**B) Жуфт сўздан қўшимча ёрдамида ясалган сўзлар чизиқчасиз ёзилади.**

C) *Сўзнинг -ма, ба- ёрдамида бирлашган қимлари чизиқча билан ёзилади.*

D) *Тартиб сонни кўрсатувчи рим рақамларидан кейин чизиқча қўйилмайди.*

67. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (241310)
**Яшил бўёқ билан бўялган, уст томони қайрилган ўймакор панжарали, катта ва оғир дарвозага етганда, йигитнинг юраги бир оз ўйнаб кетди.**
Гапда фонетик ёзув қоидаси асосида ёзилган сўзлар сони нечта?

**A)** *4 та* B) *2 та* C) *3 та* D) *5 та*

68. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (241315)
Тиниш белгилари номи қайси жавобда тўғри берилган?

A) *нуқта, чизиқча, сўроқ белгиси*

B) *вергул, уч нуқта, ундов белгиси*

C) *қўштирноқ, тире, чизиқча*

**D) кўп нуқта, қавс, нуқтали вергул**

69. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (241388)
Қуйидаги қўшма сўзларнинг қайси бири ажратиб ёзилади?

A) *ошқозон* B) *камҳосил* C) *ширинсўз*
**D)** *осмакўприк*

70. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (241393)
Қуйидаги жуфтликларнинг қайси биридаги иккинчи сўз имло қоидасига кўра хато ёзилган?

A) *шоҳсупа-шосупа*
B) *чиқавермоқ-чиқа бермоқ*
C) *чиқазмоқ-чиқармоқ* **D)** *тазйиқ-тайзиқ*

71. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (241402)
а ёки и унлиси билан тугаган феъл асосларига қайси қўшимча қўшилса а унлиси о га, и унлиси у га айланади ва шундай ёзилади?

A) *-ш* **B)** *-в* C) *-т* D) *-моқ*

72. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (241404)
1) йиғламоқ; 2) ўйнатмоқ; 3) сарғаймоқ; 4) ўрнатмоқ; 5) чанқамоқ; 6) қайноқроқ
Берилган сўзларнинг қайси бирида қўшимчалар қўшилиши натижасида фонетик ўзгариш вужудга келган?

A) *2, 3, 4, 5, 6* **B)** *1, 2, 3, 4, 6* C) *2, 3, 4, 6*
D) *3, 4, 5, 6*

73. 2.1-2 file-» 1 - 41 - - (241715)
Берилган сўзлардан қайси бирининг иккинчи бўғинида у ёзилади?

A) *мушф..қ, муҳ..м* B) *муқ..м, муҳ..т*
**C)** *мушк..л, муг..з* D) *мутр..б, мусл..м*

74. 2.1-2 file-» 1 - 41 - - (241716)
Қўш унлиларсиз ёзилиши керак бўлган сўзни топинг.

A) *манфаатдор* B) *мутаассиб*
**C)** *мутакааббир* D) *мутолаа*

75. 2.1-2 file-» 1 - 38 - - (301015)
Qaysi qatordagi so‘zlar imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan?

A) *ulgirmoq, unitmoq, urchuq*
B) *umirguzaronlik, unsir, urchiq*
C) *umirtqa, ungur, ulgurmoq*
**D)** *ungur, umrguzaronlik, uchqur*

76. 2.1-2 file-» 1 - 38 - - (301016)
Qaysi qatordagi so‘zlarda qo‘sh undosh qo‘llanishi kerak?

A) *qul..uq, qum..oq*
B) *qo‘q..isdan, g‘ij..illashmoq*
C) *g‘ij..akchi, g‘ov..ak*
**D)** *mutasad..i, shart..a*

77. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (301017)
Qo‘shma so‘zlarning imlosi haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri?

A) *Ikki yo uch so‘z qo‘shililishidan hosil bolgan turdosh otlar doim qo‘shib yoziladi.*

**B) Qo‘shma so‘zlarning qismlari bir-birini izohlasa qo‘shib yoziladi.**

C) *Xona, noma, poya, sifat kabi so‘zlar bilan yasalgan qo‘shma ot va sifatlar qo‘shib yoziladi.*

D) *Qo‘shma fe’l qismlari ajratilib yoziladi.*

78. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (301018)
Chiziqcha bilan yozish haqidagi quyidagi qoidalardan qaysi biri xato?

A) *Yetakchi va ko‘makchi fe’l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi.*

**B) Juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar chiziqchasiz yoziladi.**

C) *So‘zning -ma, ba- yordamida birlashgan qimlari chiziqcha bilan yoziladi.*

D) *Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha qo‘yilmaydi.*

79. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (301019)
**Yashil bo‘yoq bilan bo‘yalgan, ust tomoni qayrilgan o‘ymakor panjarali, katta va og‘ir darvozaga yetganda, yigitning yuragi bir oz o‘ynab ketdi.**
Gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so‘zlar soni nechta?

**A)** *4 ta* B) *2 ta* C) *3 ta* D) *5 ta*

80. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (301020)
Tinish belgilari nomi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *nuqta, chiziqcha, so‘roq belgisi*
B) *vergul, uch nuqta, undov belgisi*
C) *qo‘shtirnoq, tire, chiziqcha*
**D) ko‘p nuqta, qavs, nuqtali vergul**

81. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (301021)
Quyidagi qo‘shma so‘zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

A) *oshqozon* B) *kamhosil* C) *shirinso‘z*
**D)** *osmako‘prik*

82. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (301022)
Quyidagi juftliklarning qaysi biridagi ikkinchi so‘z imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan?

A) *shohsupa-shosupa*
B) *chiqavermoq-chiqa bermoq*
C) *chiqazmoq-chiqarmoq* **D)** *tazyiq-tayziq*

83. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (301023)
a yoki i unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa a unlisi o ga, i unlisi u ga aylanadi va shunday yoziladi?

A) *-sh* **B)** *-v* C) *-t* D) *-moq*

84. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (301024)
1) yig'lamoq; 2) o'ynatmoq; 3) sarg'aymoq; 4) o'rnatmoq; 5) chanqamoq; 6) qaynoqroq
Berilgan so'zlarning qaysi birida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

A) *2, 3, 4, 5, 6* **B)** *1, 2, 3, 4, 6* C) *2, 3, 4, 6* D) *3, 4, 5, 6*

85. 2.1-2 file-» 1 - 41 - - (301025)
Berilgan so'zlardan qaysi birining ikkinchi bo'g'inida u yoziladi?

A) *mushf..q, muh..m* B) *muq..m, muh..t* **C)** *mushk..l, mug..z* D) *mutr..b, musl..m*

86. 2.1-2 file-» 1 - 41 - - (301026)
Qo'sh unlilarsiz yozilishi kerak bo'lgan so'zni toping.

A) *manfaatdor* B) *mutaassib* **C)** *mutakaabbir* D) *mutolaa*

87. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400016)
metall so'ziga qanday qo'shimcha qo'shilganda qo'sh undoshning biri yozilmaydi?

A) *faqat l harfi bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda*
B) *undosh harf bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda*
C) *unli harf bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda*
**D) har qanday qo'shimcha qo'shilganda**

88. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400017)
Qaysi qatordagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rnida f harfi qo'yiladi?

A) *a. . . tol, a. . . gor, ta. . . silot*
B) *a. . . zal, a. . . g'on, ta. . . fiq*
**C) a. . . zun, sa. . . sargul, ta. . . tish**
D) *a. . . sona, sha. . . qat, ta. . . siflamoq*

89. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400018)
Qaysi qatordagi so'zlarda tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi?

A) *shu'la, ba'zan* **B)** *qat'iy, jur'at* C) *Is'hoq, as'hob* D) *mo'jiza, mo'tadil*

90. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400019)
Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidasiga ko'ra Is'hoq so'zida ishlatiladigan tutuq belgisi qanday vazifa bajaradi?

A) *unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalaydi*
B) *unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi*
**C) oldin va keyin kelgan tovushlar alohida tovushlar ekanligini ifodalaydi**
D) *so'z urg'usini ifodalaydi*

91. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400020)
Berilgan qaysi so'zda tutuq belgisi noto'g'ri qo'yilgan?

**A)** *ma'sul* B) *ma'sum* C) *ma'mur* D) *ma'qul*

92. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400021)
1) kav. . . sh; 2) kib. . . r; 3) kir. . . m; 4) lut. . . f; 5) moy. . . l
Imlo qoidasiga ko'ra nuqtalar o'rnida i unlisi qo'yilishi kerak bo'lgan so'zlarni belgilang.

A) *1, 2, 3, 5* B) *1, 4, 5* **C)** *3, 5* D) *1, 4*

93. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400022)
Berilgan so'zlarning qaysilarida nuqtalar o'rnida u unlisi yoziladi?
1) junj. . . kish; 2) juld. . . r; 3) zug'. . . m; 4) ibratom. . . z;

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3* **C)** *2, 4* D) *1, 4*

94. 2.1-2 file-» 1 - 43 - - (400023)
**Ayrim paytlarda ko'nglim onamni qo'msaydi-da, qanotim qayrilganini sezib, nafasim bo'g'zimga tiqiladi.**
Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta?

A) *1 ta* B) *2 ta* C) *3 ta* **D)** *4 ta*

95. 2.1-2 file-» 40 - 3 - - (400024)
Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

**A) Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Madaniyat va Sport ishlari vazirligi, Nuroniy jamg'armasi**
B) *Buxoro viloyati hokimligi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Quvasoy sement zavodi*
C) *Oliy xo'jalik sudi, Toshkent agrar universiteti, "Lazzat" oshxonasi*
D) *Vazirlar Mahkamasi, "Sharq gullari" firmasi*

96. 2.1-2 file-» 1 - 38 - - (400025)
Qaysi qatordagi so'zlar imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan?

A) *ulgirmoq, unitmoq, urchuq*
B) *umirguzaronlik, unsir, urchiq*
C) *umirtqa, ungur, ulgurmoq*
**D)** *uchuriq, uchirim, uchunmoq*

97. 2.1-2 file-» 41 - 5 - - (400026)
**Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim sultonim.**
Gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta?
A) *4 ta* B) *2 ta* **C)** *3 ta* D) *5 ta*

98. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (400027)
Imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'zni toping.
A) *ma'yus* B) *ma'zur* C) *ma'sum*
**D)** *ma'sud*

99. 2.1-2 file-» 1 - 39 - - (400028)
1) yig'lamoq; 2) taranmoq; 3) chorlamoq; 4) anglamoq; 5) chanqamoq; 6) qaynoqroq
Berilgan so'zlarning qaysi biri fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan?
A) *2, 3, 4, 5, 6* **B)** *1, 4, 6* C) *3, 4, 6*
D) *4, 5, 6*

100. 2.1-2 file-» 20 - 1 - - (700017)
1) taroqqa 2) buloqqa 3) so'roqqa 4) ilikka 5) kurakka 6) terakka
Jo'nalish kelishigidagi ushbu so'zlarning qaysi birida so'zning ham o'zak, ham qo'shimcha qismida tovush o'zgarishi yuz bergan?
A) *1, 2, 3*
B) *3, 4, 5*
**C) 1, 3**
D) *barchasida faqat qo'shimchada o'zgarish yuz bergan*

101. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700018)
Vatanning baxti, porloq istiqloli, yorqin kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lganda jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.
Ushbu gapdagi nechta so'z tarkibida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishi vujudga kelgan?
A) *2* B) *3* **C)** *4* D) *5*

102. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700019)
Vatanning baxti, porloq istiqloli, yorqin kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lganda jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.
Berilgan gap tarkibida so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y bergan?
A) *tovush tushishi* **B)** *tovush o'zgarishi*
C) *tovush orttirilishi*
D) *tovush o'zgarishi va orttirilishi*

103. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700020)
Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir.
Berilgan gapdagi qo'shimcha qo'shish natijasida tovush o'zgarishi vujudga kelgan so'zlar miqdorini aniqlang
A) *1* B) *2* **C)** *3* D) *4*

104. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700021)
Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir.
Berilgan gap tarkibida so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y bergan?
A) *tovush tushishi* **B)** *tovush o'zgarishi*
C) *tovush orttirilishi*
D) *tovush orttirilishi va o'zgarishi*

105. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700023)
Qaysi qatordagi so'zlarda qo'sh undosh qo'llanishi kerak?
A) *has . . . os, qo'sh . . . a*
**B) ud . . . aburon, tasad . . . uq**
C) *hij . . . alamoq, uv . . . at*
D) *mut . . . asil, jiz . . . illamoq*

106. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700024)
Imlo qoidasiga ko'ra qaysi so'z to'g'ri yozilgan?
A) *uzur* **B)** *mumiyo* C) *mayil*
D) *makir*

107. 2.1-2 file-» 1 - 47 - - (700025)
So'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda so'z tarkibida qanday fonetik o'zgarish yuz berishi mumkin?
A) *tovush tushishi*
B) *tovush almashishi*
**C) tovush orttirilishi va almashishi**
D) *tovush almashishi va tushishi*

108. 2.1-2 file-» 12 - 4 - - (700026)
Quyoshning uyg'onishi sen ta'riflagandan ham antiqa // tong nihoyatda go'zal bo'ladi.
Ushbu gapda // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'llanadi?
A) *vergul* B) *tire* C) *nuqtali vergul*
**D)** *ikki nuqta*

109. 2.1-2 file-» 12 - 4 - - (700027)
Sadaqayrag'och shoxlarida chumchuqlar chirqillashib, ko'klamni olqishlaydi, allaqayoqlardan qaldirg'ochlar o'qday otilib kelib, hovli ichiga kirib ketadi, chug'urlaydi, shiftga osilib uya soladi.
Ushbu gapda nechta yasama fe'l bor?
A) *2* **B)** *3* C) *4* D) *5*

110. 2.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715009)
Yozma nutqning harflar tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi . . . .

A) *fonetika* **B)** *grafika* C) *orfografiya* D) *orfoepiya*

111. 2.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715010)
Og‘zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan qismini toping.

A) *so‘z* B) *asos* **C)** *tovush* D) *qo‘shimcha*

112. 2.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715011)
**qol**, **qor**, **qot** so‘zlarining ma’nolarini farqlashga xizmat qilayotgan tovushlarni aniqlang.

A) *bo‘g‘iz undoshi*
B) *chuqur til orqa undoshi*
**C) til oldi undoshi**
D) *til orqa undoshi*

113. 2.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715012)
Talaffuzda tovush orttirilishi yuz bergan so‘zlar qatorini toping.

**A) tabiat, doim, ilm**
B) *unga, achchiq, issiq*
C) *qadr, do‘st, g‘isht*
D) *go‘sht, yozdir, iliq*

114. 2.1-2 file-» 11 - 6 - - 1 (715013)
- Xo‘sh, menda qanday ishingiz bor, qulog‘im sizda.
Berilgan gapda sintaktik bo‘laklar tartibi qanday?

**A) kirish so‘z, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, ega, kesim, kesim**
B) *kirish so‘z, hol, aniqlovchi, ega, kesim*
C) *kirish so‘z, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim*
D) *kirish so‘z, hol, ega, kesim*

115. 2.1-2 file-» 20 - 2 - - 1 (715015)
Imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan so‘zni toping.

A) *hasharot* **B)** *zalvorli* C) *qaynana* D) *qat’i nazar*

116. 2.1-3 file-» 1 - 38 - - (232318)
1) идрок; 2) терак; 3) иштирок; 4) чок; 5) болалик
Берилган ушбу сўзларнинг қайси бирига эгалик қўшимчаси қўшилганда, асос қисмда фонетик ўзгариш бўлмайди?

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 5* **C)** *1, 3, 4* D) *1, 2, 4*

117. 2.1-3 file-» 1 - 38 - - (232319)
Осмон узра қўшилмасида урғу қайси бўғинга тушади?

A) *осмон ва узра сўзларининг иккинчи бўғинларига*
B) *осмон ва узра сўзларининг биринчи бўғинларига*
C) *осмон узра бирикувида фақат узра сўзининг охирги бўғинига*
**D) осмон узра бирикувида фақат осмон сўзининг охирги бўғинига**

118. 2.1-3 file-» 40 - 1 - - (237898)
Қайси қатордаги ясама феъл фонетик ёзув асосида ёзилган?

A) *Гоҳо мириқиб гаплашиб, ўй суриб ҳам олиш керак-ку?!*
B) *Қулупнай пушталари орасида сув ялтирайди.*
**C) Бола худди шуни кутиб тургандай, баттар йиғлай бошлади.**
D) *Далада машиналар кўпаймоқда.*

119. 2.1-3 file-» 41 - 5 - - (241303)
Бўғин кўчириш ҳақида айтилган қайси қоида нотўғри?

**A) Ҳарфдан иборат шартли белги ўзи тегишли рақамдан ажратиб кўчирилади.**
B) *ўзлашма сўзларнинг бўғинлари чегарасида икки ундош келса, улар кейинги сатрга биргаликда кўчирилади.*
C) *в. б. (ва бошқалар), ш. к. (шу кабилар) сингари ҳарфий қисқартмалар олдинги сўздан ажратиб кўчирилмайди.*
D) *Ўзлашма сўзларнинг бўғинлари чегарасида уч ундош келса, биринчи ундош олдинги сатрда қолдирилиб, қолган икки ундош кейинги сатрга кўчирилади.*

120. 2.1-3 file-» 1 - 39 - - (241392)
Қуйида берилган жуфт сўзнинг қайси бири имло қоидасига кўра тўғри ёзилган?

A) *яроқ-аслаҳа* B) *яроқ-аслаха* **C)** *яроғ-аслаҳа* D) *яроғ-аслаха*

121. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241424)
1) экмоқ; 2) кўрмоқ; 3) чиқмоқ; 4) осмоқ
Ушбу феъллардан пайт равишдоши ясалганда уларнинг қайси бирига жарангсиз ундош билан бошланувчи қўшимча қўшилади?

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 2, 3* **C)** *1, 3* D) *3, 4*

122. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241425)
1) экмоқ; 2) кўрмоқ; 3) чиқмоқ; 4) осмоқ
Ушбу феъллардан пайт равишдоши ясалганда уларнинг қайси бири морфологик (ёзув) қоида асосида ёзилади?

**A)** *2, 4* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 3* D) *1*

123. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241426)
1) экмоқ; 2) кўрмоқ; 3) чиқмоқ; 4) осмоқ
Ушбу феъллардан пайт равишдоши ясалганда уларнинг қайси бири фонетик (ёзув) қоида асосида ёзилади?

A) *2, 4* B) *1, 2, 3, 4* **C)** *1, 3* D) *1*

124. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241445)
Қайси қаторда жуфт сифатлар янги имло қоидасига кўра нотўғри ёзилган?

A) *yakkam-dukkam* **B)** *kattayu kichik*
C) *yakka-yu yagona* D) *sarg'ish-qo'ng'ir*

125. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241446)
Қайси қаторда жуфт сифатлар янги имло қоидасига кўра тўғри ёзилган?

A) *balandu past* B) *kattayu-kichik*
C) *oqu-qora* **D)** *yaxshi-yu yomon*

126. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241451)
**Оғзаки нутқи яхши бўлгани учун даврага бошловчилик қилиш унга топширилди.**
Берилган гапда неча сўз фонетик қоида асосида ёзилган?

A) *1 та* B) *2 та* **C)** *3 та* D) *4 та*

127. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241452)
**Оғзаки нутқи яхши бўлгани учун даврага бошловчилик қилиш унга топширилди.**
Ушбу гапдаги с ўзлар таркибида қандай фонетик ўзгаришлар мавжуд?

A) *товуш тушиши*
B) *товуш тушиши ва алмашуви*
C) *товуш алмашуви ва товуш орттирилиши*
**D) товуш алмашуви, товуш тушиши ва товуш орттирилиши**

128. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241453)
**Оғзаки нутқи яхши бўлгани учун даврага бошловчилик қилиш унга топширилди.**
Ушбу гапдаги фонетик ёзув қоидаси асосида ёзилган ясама сўзлар миқдорини аниқланг.

A) *1 та* **B)** *2 та* C) *3 та* D) *4 та*

129. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241454)
Янги имло қоидасига кўра қуйидаги сўзларнинг қайси бири қўшиб ёзилади?

A) *ланг очиқ* B) *лиқ тўла* C) *оч сариқ*
**D)** *ярим автомат*

130. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (241455)
1995-йилда қабул қилинган имло қоидасига кўра қуйидаги сўзларнинг қайси бири ажратиб ёзилади?

A) *келинтушди, токқайчи*
B) *сўзбоши, аччиқтош*
C) *қирғийкўз, ойболта*
**D)** *дардибедаво, тимқора*

131. 2.1-3 file-» 1 - 38 - - (301027)
1) idrok; 2) terak; 3) ishtirok; 4) chok; 5) bolalik
Berilgan ushbu so'zlarning qaysi biriga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismda fonetik o'zgarish bo'lmaydi?

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 5* **C)** *1, 3, 4*
D) *1, 2, 4*

132. 2.1-3 file-» 1 - 38 - - (301028)
Osmon uzra qo'shilmasida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

A) *osmon va uzra so'zlarining ikkinchi bo'g'inlariga*
B) *osmon va uzra so'zlarining birinchi bo'g'inlariga*
C) *osmon uzra birikuvida faqat uzra so'zining oxirgi bo'g'iniga*
**D) osmon uzra birikuvida faqat osmon so'zining oxirgi bo'g'iniga**

133. 2.1-3 file-» 40 - 1 - - (301029)
Qaysi qatordagi yasama fe'l fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) *Goho miriqib gaplashib, o'y surib ham olish kerak-ku?!*
B) *Qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi.*
**C) Bola xuddi shuni kutib turganday, battar yig'lay boshladi.**
D) *Dalada mashinalar ko'paymoqda.*

134. 2.1-3 file-» 41 - 5 - - (301030)
Bo‘g‘in ko‘chirish haqida aytilgan qaysi qoida noto‘g‘ri?

**A) Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chiriladi.**
B) *o‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi.*
C) *v. b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.*
D) *O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi.*

135. 2.1-3 file-» 1 - 39 - - (301031)
Quyida berilgan juft so‘zning qaysi biri imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan?

A) *yaroq-aslaha* B) *yaroq-aslaxa* **C)** *yarog‘-aslaha* D) *yarog‘-aslaxa*

136. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301032)
1) ekmoq; 2) ko‘rmoq; 3) chiqmoq; 4) osmoq
Ushbu fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biriga jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shiladi?

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 2, 3* **C)** *1, 3* D) *3, 4*

137. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301033)
1) ekmoq; 2) ko‘rmoq; 3) chiqmoq; 4) osmoq
Ushbu fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biri morfologik (yozuv) qoida asosida yoziladi?

**A)** *2, 4* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 3* D) *1*

138. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301034)
1) ekmoq; 2) ko‘rmoq; 3) chiqmoq; 4) osmoq
Ushbu fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biri fonetik (yozuv) qoida asosida yoziladi?

A) *2, 4* B) *1, 2, 3, 4* **C)** *1, 3* D) *1*

139. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301035)
Qaysi qatorda juft sifatlar yangi imlo qoidasiga ko‘ra noto‘g‘ri yozilgan?

A) *yakkam-dukkam* **B)** *kattayu kichik* C) *yakka-yu yagona* D) *sarg‘ish-qo‘ng‘ir*

140. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301036)
Qaysi qatorda juft sifatlar yangi imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan?

A) *balandu past* B) *kattayu-kichik* C) *oqu-qora* **D)** *yaxshi-yu yomon*

141. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301037)
**Og‘zaki nutqi yaxshi bo‘lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.**
Berilgan gapda necha so‘z fonetik qoida asosida yozilgan?

A) *1 ta* B) *2 ta* **C)** *3 ta* D) *4 ta*

142. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301038)
**Og‘zaki nutqi yaxshi bo‘lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.**
Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar mavjud?

A) *tovush tushishi*
B) *tovush tushishi va almashuvi*
C) *tovush almashuvi va tovush orttirilishi*
**D) tovush almashuvi, tovush tushishi va tovush orttirilishi**

143. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301039)
**Og‘zaki nutqi yaxshi bo‘lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.**
Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so‘zlar miqdorini aniqlang.

A) *1 ta* **B)** *2 ta* C) *3 ta* D) *4 ta*

144. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301040)
Yangi imlo qoidasiga ko‘ra quyidagi so‘zlarning qaysi biri qo‘shib yoziladi?

A) *lang ochiq* B) *liq to‘la* C) *och sariq* **D)** *yarim avtomat*

145. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (301041)
1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko‘ra quyidagi so‘zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

A) *kelintushdi, tokqaychi*
B) *so‘zboshi, achchiqtosh*
C) *qirg‘iyko‘z, oybolta*
**D)** *dardibedavo, timqora*

146. 2.1-3 file-» 1 - 44 - - (400029)
Quyidagi talaffuz xususiyatlarining qaysilari yozuvda ham aks etadi?
1) k undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda k undoshining g ga o‘zgarishi; 2) q undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda q undoshining g‘ ga o‘zgarishi; 3) g‘ undoshi bilan tugagan otlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda g‘ undoshining q undoshiga o‘zgarishi; 4) a unlisi bilan tugagan fe’llarga shaxs oti yasovchi -vchi qo‘shimchasi qo‘shilganda a unlisining o ga o‘zgarishi

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *1, 2, 4* C) *1, 2, 3* D) *1, 2*

147. 2.1-3 file-» 1 - 44 - - (400030)
Qaysi gapda imloviy xatoga yo‘l qo‘yilgan?

A) *1-oktabr – Ustozlar va murabbiylar kuni.*

**B) "Bu sirni faqat senga aytayapman", – dedi u.**

C) *U vaqtda Toshkent ikkita shahardan iborat bo‘lib, birini Eski shahar, ikkinchisini Yangi shahar deyishardi.*

D) *Berilgan gaplarda imloviy xatoga yo‘l qo‘yilmagan.*

148. 2.1-3 file-» 1 - 44 - - (400031)
**Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga urilib, shovullab oqayapti.**
Berilgan gapda qaysi turkumga oid so‘zni yozishda imloviy xatoga yo‘l qo‘yilgan?

A) *ravish* **B)** *fe’l* C) *ravishdosh* D) *ot*

149. 2.1-3 file-» 1 - 46 - - (400032)
Berilgan so‘zlarning qaysi biri to‘g‘ri yozilgan?
1) taqiqlamoq; 2) tahqiqlamoq; 3) ta’qiqlamoq

**A)** *1, 2* B) *3* C) *1* D) *2, 3*

150. 2.1-3 file-» 1 - 38 - - (400033)
1) idrok; 2) terak; 3) ishtirok; 4) chok; 5) bolalik;
Berilgan ushbu so‘zlarning qaysi biriga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, asos qismda fonetik o‘zgarish bo‘ladi?

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *2, 5* C) *1, 3, 4*
D) *1, 2, 5*

151. 2.1-3 file-» 1 - 38 - - (400034)
Yil bo‘yi qo‘shilmasida urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi?

A) *yil va bo‘yi so‘zining ikkinchi bo‘g‘iniga*

B) *yil va bo‘yi so‘zining birinchi bo‘g‘iniga*

C) *yil bo‘yi birikuvida faqat bo‘yi so‘zining oxirgi bo‘g‘iniga*

**D) yil bo‘yi birikuvida faqat yil so‘ziga**

152. 2.1-3 file-» 40 - 1 - - (400035)
Qaysi qatordagi yasama fe’l fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) *Goho miriqib gaplashib, o‘y surib ham olish kerak-ku?!*

B) *Qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi.*

**C) Salimjon qo‘ylarini erinmay birma-bir sanadi.**

D) *Dalada mashinalar ko‘paymoqda.*

153. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400036)
Qaysi kelishik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida ba’zi so‘zlar fonetik yozuv qoidasi asosida yozilishi mumkin?
1) qaratqich kelishigi; 2) tushum kelishigi;
3) jo‘nalish kelishigi; 4) o‘rin-payt kelishigi;
5) chiqish kelishigi

A) *1, 2, 3* **B)** *1, 2, 3, 4, 5* C) *3* D) *3, 4*

154. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400037)
1) yozmoq; 2) ko‘rmoq; 3) chiqmoq; 4) osmoq
Ushbu fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biri morfologik (yozuv) qoida asosida yoziladi?

**A)** *1, 2, 4* B) *2, 3, 4* C) *1, 3* D) *1*

155. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400038)
1) ekmoq; 2) ko‘rmoq; 3) chiqmoq; 4) tikmoq
Ushbu fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biri fonetik (yozuv) qoida asosida yoziladi?

A) *2, 4* B) *1, 2, 3* **C)** *1, 3, 4* D) *1*

156. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400039)
**Unga uchragani yuragi dov bermadi, yig‘lab uyga keldi.**
Berilgan gapda necha so‘z fonetik qoida asosida yozilgan?

A) *1 ta* B) *2 ta* **C)** *3 ta* D) *4 ta*

157. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400040)
**Unga uchragani yuragi dov bermadi, yig‘lab uyga keldi.**
Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar mavjud?

A) *tovush tushishi*

B) *tovush tushishi va almashuvi*

C) *tovush almashuvi va tovush orttirilishi*

**D) tovush almashuvi, tovush tushishi va tovush orttirilishi**

158. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400041)
**Qoyalar bag‘ridan o‘ynab oqib tushayotgan shalola unga zavq bag‘ishlardi.**
Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so‘zlar miqdorini aniqlang.

A) *1 ta* B) *2 ta* **C)** *3 ta* D) *4 ta*

159. 2.1-3 file-» 1 - 40 - - (400042)
1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko‘ra quyidagi so‘zlarning qaysi biri xato yozilgan?

A) *parvoyim* B) *obro‘yim* C) *avzoyim*
**D)** *orzuyim*

160. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700028)
Berilgan qaysi gap tarkibidagi so‘zda fonetik jihatdan til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli birgina tovushdan tashkil topgan qo‘shimcha mavjud?

A) *Birdan osmon guldurab, sharros yomg‘ir quydi-yu, tinchidi.*
B) *Mehmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko‘zlari katta ochildi.*
**C) Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini.**
D) *Ishlar shuncha ko‘payib ketdiki, bosh qashishga vaqt yo‘q.*

161. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700029)
Nuqtalar o‘rnida bo‘g‘iz tovushi yoziladigan so‘zlarni toping.
1) xayr . . . ohlik; 2) xayr- e. . . son; 3) hoyu . . . avas; 4) mav . . . um; 5) ma . . . fiy

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B) *2, 3, 4*** C) *1, 3, 5* D) *1, 4*

162. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700030)
1) ko‘chmoq; 2) tikmoq; 3) sog‘moq; 4) chiqmoq; 5) egmoq
Ushbu fe’llardan o‘tgan zamon sifatdoshi yasalganda ularning qaysi biriga jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shiladi?

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 4, 5* **C) *2, 4*** D) *3, 5*

163. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700031)
1) ko‘chmoq; 2) tikmoq; 3) sog‘moq; 4) chiqmoq; 5) egmoq
Ushbu fe’llardan o‘tgan zamon sifatdoshi yasalganda ularning qaysi biriga jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shiladi?

**A) *1, 3, 5*** B) *1* C) *1, 3, 4, 5* D) *2, 3, 4, 5*

164. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700032)
1) ko‘chmoq; 2) tikmoq; 3) sog‘moq; 4) chiqmoq; 5) egmoq
Ushbu fe’llardan o‘tgan zamon sifatdoshi yasalganda ularning qaysi biri morfologik qoida (yozuv) asosida yoziladi?

**A) *1, 3, 5*** B) *2, 3, 4, 5* C) *2, 3, 4* D) *1, 2, 5*

165. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700033)
1) ko‘chmoq; 2) tikmoq; 3) sog‘moq; 4) chiqmoq; 5) egmoq
Ushbu fe’llardan o‘tgan zamon sifatdoshi yasalganda ularning qaysi biri fonetik qoida (yozuv) asosida yoziladi?

**A) *2, 4*** B) *1, 3, 5* C) *2, 3, 4* D) *2, 3, 4, 5*

166. 2.1-3 file-» 1 - 47 - - (700034)
eg(qayir), ek (ko‘chat ek) so‘zlariga –gan qo‘shimchasi qay tarzda qo‘shiladi?

A) *eggan, ekgan*
B) *ekkan, ekkan shaklda qo‘shilib, shakldosh so‘zlar hosil bo‘ladi.*
**C) eggan, ekkan**
D) *egkan, ekkan*

167. 2.1-3 file-» 1 - 48 - - (700035)
Juft so‘z imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan qatorni toping.

A) *sa’yi-harakat* B) *sayi-harakat* C) *saiy-harakat* **D) *sa’y-harakat***

168. 2.1-3 file-» 1 - 48 - - (700036)
Quyidagi yozuvlardan qaysi biri hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi?

A) *o‘rxun-enasoy yozuvi*
B) *o‘rxun- enasoy, uyg‘ur yozuvlari*
**C) o‘rxun-enasoy, uyg‘ur, sug‘d yozuvlari**
D) *o‘rxun-enasoy, sug‘d yozuvlari*

169. 2.1-3 file-» 12 - 4 - - (700037)
Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo‘ydiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig‘ini qamrab oldi.
Ushbu gapda nechta so‘z fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan?

A) *2* **B) *3*** C) *4* D) *5*

170. 2.1-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715016)
Qaysi qatordagi so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi?

**A) qachondir, yozamiz, do‘stlarcha**
B) *yuzta, har bir, o‘qishda*
C) *fidokor, dalalar, hammamiz*
D) *ba’zida, zakovat, pillakor*

171. 2.1-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715017)
Uslubiy jihatdan noto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan gapni toping.
1) Mashina devon tepasiga ko‘tarildi.
2) Otning afzalini shayladi.
3) O‘zbek xalqi ichidan o‘nlab daholar yetishib chiqqan.

A) *1* B) *2* C) *3* **D) *1, 2***

172. 2.1-3 file-» 11 - 6 - - 1 (715018)
Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi yoshligidan ko‘p ijobiy xislatlarga ega edi.
Berilgan gapdagi ismlar guruhiga kiruvchi so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kiradi?

A) *ot, sifat, ravish*
**B) ot, sifat**
C) *ot, sifat, fe’l*
D) *ot, sifat, ravish, fe’l*

173. 2.1-3 file-» 11 - 6 - - 1 (715019)
Men ham eshitgan va ko‘rganimni aytaman-da, jo‘ra.
Berilgan gapda ismlar guruhiga kiruvchi nechta so‘z bor va ular qanday sintaktik vazifada kelgan?

A) *4 ta; ega, to‘ldiruvchi, uyushiq bo‘lak*
B) *3 ta; ega, to‘ldiruvchi, uyushiq bo‘lak*
C) *5 ta; ega, to‘ldiruvchi*
**D) 4 ta; ega, to‘ldiruvchi, undalma**

174. 2.1-3 file-» 45 - 3 - - 1 (715020)
1) boqmoq; 2) bukmoq; 3) sog‘moq; 4) egmoq
Ushbu fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biri fonetik yozuv qoidasi asosida yoziladi?

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 4* C) *1, 2* D) *1*

175. 2.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715021)
Quyidagi berilgan qo‘shimchalardan qaysilari ham fonetik, ham morfologik yozuv asosida yoziladi?
1) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi;
2) o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi;
3) orttirma nisbat qo‘shimchasi;
4) ayrim fe’l yasovchi qo‘shimchalar;
5) jamlovchi son yasovchi qo‘shimchalar;
6) egalik qo‘shimchalari.

A) *1, 2, 4, 5, 6* B) *1, 3, 4* C) *1, 4, 5*
D) *1, 2, 3, 6*

176. 2.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715022)
Qaysi qatordagi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?

A) *Toshkent viloyati hokimligi, Guliston Davlat Universiteti*
B) *Quvasoy sement zavodi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi*
C) *”G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi*
**D) Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Oliy Kengashi**

177. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (232322)
Терма шаклдош сўзи гапда қайси сўз туркуми вазифасида қўлланиши мумкин?

A) *фақат феъл* B) *от, феъл*
C) *сифат, феъл* D) *сифат, феъл, от*

178. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (232323)
Қулоғидан кун кўринади ибораси қандай маънони англатади?

A) *хурсанд* B) *ғийбатчи* C) *жуда озғин*
D) *эшитганини тезда бировга етказувчи*

179. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (232324)
Ҳой, отгинанг нима эди, қулуним, шўрванг совиб қолди? (О. Ёқубов)
Ушбу гапда болани эркалатиш учун қўлланилган қулун сўзи қайси қаторда тўғри изоҳланган?

A) *оҳунинг боласи* B) *туянинг боласи*
C) *отнинг боласи* D) *сигирнинг боласи*

180. 3.1-2 file-» 40 - 2 - - (240470)
**Чин сўз мўътабар, яхши сўз мухтасар.**
Тагига чизилган сўзнинг маъноси тўғри изоҳланган жавобни топинг.

A) *тугалланган* B) *мантиқли* C) *қисқа*
D) *фойдали*

181. 3.1-2 file-» 41 - 5 - - (241307)
Қуйидаги сўзлардан қайсиларининг пароним жуфти йўқ?

A) *уруш, адиб, азим* B) *аҳил, дарс, адл*
C) *авлод, даҳрий, ланж*
D) *бурч, ўқиш, нуфуз*

182. 3.1-2 file-» 41 - 5 - - (241313)
Интибоҳ ва иштибоҳ сўзларининг маъноси қайси жавобда тўғри берилган?

**A) интибоҳ - огоҳлантириш; иштибоҳ - гумон**
B) *интибоҳ - бирор иш ёки фаолиятнинг меъёри; иштибоҳ - натижа, оқибат*
C) *интибоҳ - борлиқнинг ҳақиқати, бор, мавжуд; иштибоҳ - аниқ кўриниб турадиган, аниқ, равшан*
D) *интибоҳ - омонлик бериш; иштибоҳ - шарҳ, изоҳ, тушунтириш*

183. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241317)
**1. Ўт иши - қовурмоқ. 2. Битта ҳам ёввойи ўт қолмасин. 3. Кўчадан ўтсанг, тўғри ўт. 4. Қалбида ишқ ўти алангаланди.**
Ушбу гапларнинг қайсиларида ўт сўзи бир сўзнинг кўп маънолари ҳисобланади?

A) *биринчи ва иккинчи гапларда*
B) *иккинчи ва учинчи гапларда*
**C) биринчи ва тўртинчи гапларда**
D) *барча гапларда*

184. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241336)
Қайси гап таркибида иккита ибора қўлланган?

A) *Икки ғариб бир ёқадан бош чиқарган эдик.*
B) *Пилла хусусида тили қисиқлик жойим йўқ.*
**C) Қизга ўзбек қишлоғининг оқ кўнгил ва бағри кенг одамлари жуда ёқди.**
D) *Ўғлидан кўнгли тўқ бўлгач, яна ниманидир қидирмоққа, теварагига аланглаб қарамоққа бошлади.*

185. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241337)
Қайси қатордаги иборалар белги билдиради?

**A) қулинг ўргилсин, юрак-бағри хун, парвойи фалак**
B) *тили қисиқ, кайфи бузуқ, кулини кўкка совурмоқ*
C) *истараси иссиқ, руҳини кўтармоқ, тили аччиқ*
D) *дили сиёҳ, бош оғриғи, баҳри-дилини очмоқ*

186. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241338)
Ибора қўлланмаган гапни аниқланг.

A) *Тенгқурларим ичида юзим ёруғ бўлди.*
**B) Тилга ихтиёрсиз - элга эътиборсиз.**
C) *Уни қўлга олувчи кишиларимиз ниҳоятда пихини ёрган бўлмоғи шарт.*
D) *Кишиликнинг душманлари ер билан яксон бўлур.*

187. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241347)
**1. Пўлат қиличингни кўрганман ўтда.**
**2. Халқлар бирлиги пўлатдай қудратлидир.**
**3. Бизнинг пўлат қудратимиз бирлигимиздадир.**
**4. Пўлат отни ўйнатиб, тракторчи бўламан.**
Берилган гапларнинг қайси бирида пўлат сўзи кўчма маънода қўлланган?

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 3, 4* C) *1, 2, 3* **D) *3, 4***

188. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241354)
Қайси қатордаги атамалар морфологияга тегишли?

A) *кириш сўз, бош сўз, ундалма*
**B) исмлар, луғавий шакллар, мавҳум отлар**
C) *луғавий маъно, маънодош, кўп маънолилик*
D) *тақлид сўз, жуфт сўз, бадиий услуб*

189. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (241355)
Қайси қаторда паронимлар берилган?

A) *обрў-обрўй* B) *кабутар-каптар*
**C) *аъён-аён*** D) *аъзо-азо*

190. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241372)
Образлилик ва эстетик таъсир этиш қайси услубнинг муҳим белгисидир?

A) *сўзлашув услуби* B) *публицистик услуб*
**C) *бадиий услуб***
D) *расмий ва илмий услублар*

191. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241375)
Ахборот бериш ва таъсир қилиш қайси услубнинг муҳим хусусияти ҳисобланади?

A) *сўзлашув услуби* **B) *публицистик услуб***
C) *расмий услуб* D) *илмий услуб*

192. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241376)
ичи қора, ҳаққи йўқ, мазза каби бирликлар асосан қайси услубга хос?

**A) *сўзлашув услубга***
B) *публицистик услубга* C) *бадиий услубга*
D) *расмий услубга*

193. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241377)
Адабий тилнинг ижтимоий ҳаётнинг маълум соҳа доирасига, маълум нутқий вазиятга хосланган кўриниши ...

A) *адабий тил ҳисобланади*
B) *соҳавий услуб ҳисобланади*
**C) *нутқ услуби ҳисобланади***
D) *адабий сўзлашув услуби ҳисобланади*

194. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241379)
Айрим нутқ услуби доирасидагина қўлланадиган сўзлар қандай номланади?

A) *атамалар* B) *махсус сўзлар*
C) *услубий бетараф сўзлар*
**D) *услубий хосланган сўзлар***

195. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241381)
Тилшуносликнинг аташ маъноларини ўрганувчи бўлими қандай номланади?

A) *морфология* B) *синтаксис*
**C) *лексикология*** D) *луғатшунослик*

196. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (241382)
Сўзларнинг грамматик маънолари тилшуносликнинг қайси бўлимида ўрганилади?

**A) *морфологияда*** B) *синтаксисда*
C) *лексикологияда* D) *услубшуносикда*

197. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (301042)
Terma shakldosh so‘zi gapda qaysi so‘z turkumi vazifasida qo‘llanishi mumkin?

A) *faqat fe’l* B) *ot, fe’l* C) *sifat, fe’l*
**D) *sifat, fe’l, ot***

198. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (301043)
Qulog‘idan kun ko‘rinadi iborasi qanday ma’noni anglatadi?

A) *xursand* B) *g‘iybatchi* **C) *juda ozg‘in***
D) *eshitganini tezda birovga yetkazuvchi*

199. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (301044)
Hoy, otginang nima edi, qulunim, sho‘rvang sovib qoldi? (O. Yoqubov)
Ushbu gapda bolani erkalatish uchun qo‘llanilgan qulun so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?
A) *ohuning bolasi* B) *tuyaning bolasi*
**C)** *otning bolasi* D) *sigirning bolasi*

200. 3.1-2 file-» 40 - 2 - - (301045)
**Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar.**
Tagiga chizilgan so‘zning ma’nosi to‘g‘ri izohlangan javobni toping.
A) *tugallangan* B) *mantiqli* **C)** *qisqa*
D) *foydali*

201. 3.1-2 file-» 41 - 5 - - (301046)
Quyidagi so‘zlardan qaysilarining paronim jufti yo‘q?
A) *urush, adib, azim* B) *ahil, dars, adl*
**C)** *avlod, dahriy, lanj*
D) *burch, o‘qish, nufuz*

202. 3.1-2 file-» 41 - 5 - - (301047)
Intiboh va ishtiboh so‘zlarining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
**A) intiboh - ogohlantirish; ishtiboh - gumon**
B) *intiboh - biror ish yoki faoliyatning me’yori; ishtiboh - natija, oqibat*
C) *intiboh - borliqning haqiqati, bor, mavjud; ishtiboh - aniq ko‘rinib turadigan, aniq, ravshan*
D) *intiboh - omonlik berish; ishtiboh - sharh, izoh, tushuntirish*

203. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301048)
**1. O‘t ishi - qovurmoq. 2. Bitta ham yovvoyi o‘t qolmasin. 3. Ko‘chadan o‘tsang, to‘g‘ri o‘t. 4. Qalbida ishq o‘ti alangalandi.**
Ushbu gaplarning qaysilarida o‘t so‘zi bir so‘zning ko‘p ma’nolari hisoblanadi?
A) *birinchi va ikkinchi gaplarda*
B) *ikkinchi va uchinchi gaplarda*
**C) birinchi va to‘rtinchi gaplarda**
D) *barcha gaplarda*

204. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301049)
Qaysi gap tarkibida ikkita ibora qo‘llangan?
A) *Ikki g‘arib bir yoqadan bosh chiqargan edik.*
B) *Pilla xususida tili qisiqlik joyim yo‘q.*
**C) Qizga o‘zbek qishlog‘ining oq ko‘ngil va bag‘ri keng odamlari juda yoqdi.**
D) *O‘g‘lidan ko‘ngli to‘q bo‘lgach, yana nimanidir qidirmoqqa, tevaragiga alanglab qaramoqqa boshladi.*

205. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301050)
Qaysi qatordagi iboralar belgi bildiradi?
**A) quling o‘rgilsin, yurak-bag‘ri xun, parvoyi falak**
B) *tili qisiq, kayfi buzuq, kulini ko‘kka sovurmoq*
C) *istarasi issiq, ruhini ko‘tarmoq, tili achchiq*
D) *dili siyoh, bosh og‘rig‘i, bahri-dilini ochmoq*

206. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301051)
Ibora qo‘llanmagan gapni aniqlang.
A) *Tengqurlarim ichida yuzim yorug‘ bo‘ldi.*
**B) Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz.**
C) *Uni qo‘lga oluvchi kishilarimiz nihoyatda pixini yorgan bo‘lmog‘i shart.*
D) *Kishilikning dushmanlari yer bilan yakson bo‘lur.*

207. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301052)
**1. Po‘lat qilichingni ko‘rganman o‘tda.**
**2. Xalqlar birligi po‘latday qudratlidir.**
**3. Bizning po‘lat qudratimiz birligimizdadir.**
**4. Po‘lat otni o‘ynatib, traktorchi bo‘laman.**
Berilgan gaplarning qaysi birida po‘lat so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan?
A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 3, 4* C) *1, 2, 3*
**D)** *3, 4*

208. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301053)
Qaysi qatordagi atamalar morfologiyaga tegishli?
A) *kirish so‘z, bosh so‘z, undalma*
**B) ismlar, lug‘aviy shakllar, mavhum otlar**
C) *lug‘aviy ma’no, ma’nodosh, ko‘p ma’nolilik*
D) *taqlid so‘z, juft so‘z, badiiy uslub*

209. 3.1-2 file-» 71 - 5 - - (301054)
Qaysi qatorda paronimlar berilgan?
A) *obro‘-obro‘y* B) *kabutar-kaptar*
**C)** *a’yon-ayon* D) *a’zo-azo*

210. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301055)
Obrazlilik va estetik ta’sir etish qaysi uslubning muhim belgisidir?
A) *so‘zlashuv uslubi* B) *publitsistik uslub*
**C)** *badiiy uslub* D) *rasmiy va ilmiy uslublar*

211. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301056)
Axborot berish va ta’sir qilish qaysi uslubning muhim xususiyati hisoblanadi?
A) *so‘zlashuv uslubi* **B)** *publitsistik uslub*
C) *rasmiy uslub* D) *ilmiy uslub*

212. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301057)
ichi qora, haqqi yo‘q, mazza kabi birliklar asosan qaysi uslubga xos?

**A)** *so‘zlashuv uslubga*
B) *publitsistik uslubga* C) *badiiy uslubga*
D) *rasmiy uslubga*

213. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301058)
Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi . . .

A) *adabiy til hisoblanadi*
B) *sohaviy uslub hisoblanadi*
**C)** *nutq uslubi hisoblanadi*
D) *adabiy so‘zlashuv uslubi hisoblanadi*

214. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301059)
Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo‘llanadigan so‘zlar qanday nomlanadi?

A) *atamalar* B) *maxsus so‘zlar*
C) *uslubiy betaraf so‘zlar*
**D)** *uslubiy xoslangan so‘zlar*

215. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301060)
Tilshunoslikning atash ma'nolarini o‘rganuvchi bo‘limi qanday nomlanadi?

A) *morfologiya* B) *sintaksis*
**C)** *leksikologiya* D) *lug‘atshunoslik*

216. 3.1-2 file-» 1 - 39 - - (301061)
So‘zlarning grammatik ma'nolari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

**A)** *morfologiyada* B) *sintaksisda*
C) *leksikologiyada* D) *uslubshunosikda*

217. 3.1-2 file-» 40 - 3 - - (400043)
Morfologiya bo‘limi haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri?

A) *So‘zlarning grammatik ma'nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o‘rganadi.*
B) *So‘zning asos va qo‘shimchalari tarkibini o‘rganadi.*
**C) So‘zlarning atash va grammatik ma'nolarini o‘rganadi.**
D) *Grammatik ma'nolari ifodalovchi vositalarni o‘rganadi.*

218. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400044)
"Ajralmoq" fe'lining asl (bosh) ma'nosi qaysi misolda berilgan?

A) *Odatda, buloqlar o‘zlarining qaysi tog‘ jinslaridan chiqishiga qarab, bir necha turlarga ajraladi.*
B) *Bu hammadan ajralib chiqqan shaxs - samarqandlik To‘g‘onbek edi.*
**C) Vaqt o‘tishi bilan kesilgan daraxtlarning po‘stlog‘i tanasidan ajraladi.**
D) *Elga qo‘shilsang - er bo‘lasan, eldan ajralsang - yer bo‘lasan.*

219. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400045)
**Soyaga qarab to‘n bichma** maqolidagi **to‘n bichmoq** iborasining ma'nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A) *rag‘batlantirmaslik* B) *andaza olmoq*
**C)** *baho bermoq* D) *xato ish qilmoq*

220. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400046)
**Bo‘lmoq** so‘zi aysi gapda lug‘aviy ma'noga ega emas?

A) *Bugun bir qiziq voqea bo‘ldi.*
**B) Erkak odam bir so‘zli bo‘ladi.**
C) *Samarqandda bir necha marta bo‘lganman.*
D) *Hozir unga qo‘ng‘iroq qilsam bo‘larmikin?*

221. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400047)
**Sarvixon daromadning buromadini eshitib gangib qoldi** gapidagi **buromad** so‘zining lug‘aviy m'nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *hajm, miqdor* **B)** *chiqim, sarf*
C) *natija, nihoya*
D) *bu so‘z o‘z lug‘aviy ma'nosini yo‘qotgan*

222. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400048)
**Baland oxurdan yem yemoq** iborasining ma'nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *boquvi zo‘r bo‘lmoq*
B) *o‘ta takabbur bo‘lmoq*
**C)** *hayot darajasi, maishati yuqori bo‘lmoq*
D) *katta maqsad sari intilmoq*

223. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400049)
Qaysi javobda faqat shakldosh so‘zlar qayd etilgan?

**A)** *savdo, rux, pilla* B) *oqibat, rasta, savat*
C) *soch, baho, sayoz* D) *sado, palata, rasta*

224. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400050)
Qaysi iboralar **og'ziga tolqon solmoq** iborasi bilan mazmunan yaqin?
1) mum tishlamoq; 2) lom-mim demaslik;
3) og'ziga qoqmoq; 4) og'ziga qatiq ivitmoq;
5) og'izga olmaslik; 6) damini chiqarmaslik

A) *1, 2, 6* **B)** *1, 2, 4, 6* C) *1, 2, 5, 6*
D) *1, 2, 3, 6*

225. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400051)
**Ortmoq** so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llangan?

A) *Mehnatdan do'st ortar, g'iybatdan dushman.*
**B) Toza suvga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.**
C) *Qalay, novvoylikdan bir nima ortdimi?*
D) *Xarajatdan ancha pul ortib qoldi.*

226. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400052)
**Oqlamoq** so'zining asl (bosh) ma'nosi qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *sholi oqlamoq, mastavani oqlamoq*
**B) daraxtlarni oqlamoq, devorni oqlamoq**
C) *ishonchni oqlamoq, choyni oqlamoq*
D) *do'stni oqlamoq, ona sutini oqlamoq*

227. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400053)
Bir turkum doirasidagi shakldosh so'zlar qaysi javobda keltirilgan?

A) *yoz, palla, rasta* B) *palata, soch, nor*
C) *oq, savdo, oqibat*
**D)** *savag'ich, sandal, palla*

228. 3.1-2 file-» 1 - 45 - - (400054)
**Musofirman, g'aribman, bekasu ham benavodurman,**
**Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.**
Uvaysiy qalamiga mansub ushbu baytdagi **benavo** so'zining ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

A) *kuysiz, qo'shiqsiz*
B) *ilhom parisidan yiroqda*
**C)** *baxtsiz, sho'rpeshona* D) *kambag'al, faqir*

229. 3.1-2 file-» 1 - 46 - - (400055)
Sarafroz so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

**A)** *mag'rur, yuksak* B) *saodatli, baxtli*
C) *siqiqlik, bukuklik* D) *erkin, quvnoq*

230. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (400056)
Ot, sifat, fe'l so'z turkumi vazifasida qo'llanishi mumkin bo'lgan shakldosh so'zni toping.

**A)** *terma* B) *to'r* C) *qaynatma* D) *soch*

231. 3.1-2 file-» 1 - 38 - - (400057)
**1. Tilak bilan bitmagan bilim bilan bitar.**
**2. Omad kelsa, daraxtda ham non bitar.**
**3. Abdulla xatni chiroyli bitardi.**
Ushbu gaplarda qo'llangan bitmoq so'zlari ma'no munosabatiga ko'ra o'zaro qanday so'z?

**A)** *shakldosh so'z* B) *ma'nodosh so'z*
C) *ko'p ma'noli so'z*
D) *so'zning turli ma'nolarda qo'llanishi*

232. 3.1-2 file-» 40 - 2 - - (400058)
**Shuur** so'zining ma'nosi to'g'ri izohlangan javobni toping.

A) *faxr* B) *shuhrat* **C)** *idrok* D) *g'urur*

233. 3.1-2 file-» 1 - 48 - - (700038)
Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilari to'g'ri qo'llangan shartli belgili javobni toping.

A) *M: "K". M:"K"? M:"K"!*
B) *"K -M, -K"*
**C) "K", -M. "K?"-M. "K!"-M.**
D) *barcha javoblardagi modellar to'g'ri*

234. 3.1-2 file-» 1 - 48 - - (700039)
Qo'yi mingga yetdi iborasining ma'nodoshini toping.

A) *boyib ketmoq*
**B) behad sevinmoq**
C) *maqsadiga erishmoq*
D) *o'zligini unutmoq*

235. 3.1-2 file-» 1 - 48 - - (700040)
Quyidagi qaysi birliklarning shakliy ifodasi bilan mazmuni o'rtasida bog'liqlik yo'q?

**A) ibora**
B) *tasviriy ifoda*
C) *so'z birikmasi*
D) *ibora va tasviriy ifoda*

236. 3.1-2 file-» 1 - 48 - - (700041)
Lug'at turlarining qaysi birida davlat so'zi "Davlat- jamiyatni qonun kuchi bilan boshqaruvchi tashkilot"tarzida ifodalanishi mumkin?

A) *imlo lug'atida*
**B) izohli lug'atda**
C) *tarjima lug'atida*
D) *sinonim (ma'nodosh) so'zlar lug'atida*

237. 3.1-2 file-» 1 - 48 - - (700042)
internet so‘zining ma’nosini qaysi lug‘at orqali bilib olish mumkin?

A) *imlo lug‘ati*
B) *tarjima lug‘ati*
**C) izohli lug‘at**
D) *sinonim (ma’nodosh) so‘zlar lug‘ati*

238. 3.1-2 file-» 1 - 48 - - (700043)
So‘zlarning borliqdagi ma’lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning qanday ma’nolari hisoblanadi?

**A) lug‘aviy ma’nolari**
B) *grammatik ma’nolari*
C) *morfologik ma’nolari*
D) *so‘zlarning ko‘chma ma’nolari*

239. 3.1-2 file-» 12 - 3 - - (700044)
Bahr so‘zi qaysi gapda tug‘yon, to‘fon so‘zlariga ma’nodosh bo‘lib kelgan?

A) *Terdi san’at bahrining qimmatbaho injusidan.*
**B) Buloqlarda qaynadi g‘azabning bahri.**
C) *Yigitlar taltayar qizlar bahrida.*
D) *Bir yoningda Sevanday bahr,*
*Misoli bulutlar ichida qamar.*

240. 3.1-2 file-» 12 - 3 - - (700045)
Bedav boylovda semirar,
Qo‘y-qo‘zi yaylovda. (Maqol)
Ajratib ko‘rsatilgan so‘z qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *yuvosh* **B)** *o‘ynoqi* C) *oriq* D) *yovvoyi*

241. 3.1-2 file-» 12 - 3 - - (700046)
Sen chindan ham go‘zalsan,
Huzuringga keldim bot. (A.Oripov)
Ajratib ko‘rsatilgan so‘z qanday ma’noni anglatadi?

A) *tez* **B)** *yana* C) *umrbod* D) *kech*

242. 3.1-2 file-» 12 - 3 - - (700047)
1. Xufton namozidan so‘ng poychiroq yonida o‘tirib, Fuzuliy devonini varaqlar edi.
2. Ikkisi birga devonga kirdilar.
3. Devonda yonboshlab yotgan Abbosxon Saidiyning hurmatiga g‘imirlab qo‘ydi.
Berilgan gaplarda qo‘llangan devon so‘zi haqidagi to‘g‘ri fikrni belgilang.

A) *Uchala gapda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan.*
**B) Uchala gapda shakldosh so‘zlar qo‘llangan.**
C) *Birinchi va ikkinchi gapdagi devon so‘zi uchinchi gapdagi devon so‘ziga nisbatan shakldosh*
D) *Ikkinchi va uchinchi gapdagi devon so‘zi birinchi gapdagi devon so‘ziga nisbatan shakldosh*

243. 3.1-2 file-» 12 - 3 - - (700048)
Sel so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma’noda qo‘llanmagan?

**A) Har qanday go‘sht tuzlanganda, seli chiqib ketadi.**
B) *Quyoshning seliga miriqib cho‘milgan yam-yashil dala barq uradi.*
C) *Elmurod shunday o‘ylar selida g‘arq bo‘lib, uyqusi qochdi.*
D) *Barcha gaplarda sel so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan.*

244. 3.1-2 file-» 12 - 3 - - (700049)
Qoq so‘zi qaysi gapda yordamchi so‘z bo‘lib kelgan?

A) *O‘rtadagi devorni buzib, qoq kesagini toklarning tagiga solishdi.*
B) *Agar muruvvat qilsanglar, jilla bo‘lmasa, bu yilcha mevalarni qoq bo‘lasizlar-da.*
**C) Butun jonzotga hayot beruvchi quyosh erta bilan ko‘tariladi-yu, qoq tushga kelib, tik turib oladi.**
D) *Bacha gaplarda qoq so‘zi mustaqil so‘z bo‘lib kelgan.*

245. 3.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715023)
**yumshoq non**, **yumshoq ovoz**, **yumshoq gapirmoq** birikuvlaridagi **yumshoq** so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

**A) bir so‘zning turli ma’nolari**
B) *bir xil shakldagi uchta so‘z*
C) *bir xil ma’nodagi uchta so‘z*
D) *o‘zaro paronim so‘zlar*

246. 3.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715024)
**tush ko'rmoq**, **tush payti**, **pastga tush** birikuvlaridagi **tush** so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) *bir so'zning turli ma'nolari*
**B) bir xil shakldagi uchta so'z**
C) *bir xil ma'nodagi uchta so'z*
D) *o'zaro paronim so'zlar*

247. 3.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715025)
Kasbiy atamalar berilgan qatorni toping.

A) *qo'shish, kvadrat, ot, fe'l*
**B) andava, sog'moq, yigirmoq**
C) *hikoya, qissa, roman*
D) *milod, kalendar, kurtak*

248. 3.1-2 file-» 11 - 6 - - 1 (715026)
Shakldosh so'zlarni aniqlang.
1. hadis 2. davr 3. havo 4. bosim 5. vij - vij 6. davlat

A) *2, 3, 4, 5, 6* **B) *1, 3, 4, 5, 6***
C) *2, 3, 4, 6* D) *barchasi shakldosh so'zlar*

249. 3.1-2 file-» 20 - 2 - - 1 (715029)
Tuyg'un so'zining ma'nodoshi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) *masrur* **B) *sezgir*** C) *aniq* D) *mos*

250. 3.1-2 file-» 20 - 2 - - 1 (715030)
Chapdast so'zining ma'nodoshi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

**A) *chaqqon*** B) *chapaqay* C) *chapani*
D) *chaparosta*

251. 3.1-2 file-» 20 - 2 - - 1 (715031)
Tamaddun so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) *poydevor* B) *boshlovchi* C) *kashfiyot*
**D) *madaniyat***

252. 3.1-3 file-» 1 - 38 - - (232326)
Қуйидаги шаклдош (омоним) сўзлардан қайси бири биргина сўз туркуми доирасида ҳам шаклдошликни вужудга келтириши мумкин?
1) ўта; 2) қуймоқ; 3) ўсма; 4) ўрмоқ; 5) мушак

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 5* **C) *1, 3, 4, 5***
D) *2, 5*

253. 3.1-3 file-» 41 - 5 - - (241295)
Хилқат сўзининг маъноси қайси жавобда тўғри изоҳланган?

A) *бирор нарсанинг йиғиндиси*
B) *бирор бир ҳукмдор қўл остидаги мамлакат*
**C) яратилиш, бунёдга келиш**
D) *сирли, мавҳум*

254. 3.1-3 file-» 41 - 5 - - (241301)
Қайси жавобда маънодош сўзлар тўғри берилган?

**A) атайлаб, жўрттага, азза-базза**
B) *субут, бурд, тоб*
C) *севинч, сурур, ҳузур*
D) *жанг, муҳораба, қутқу*

255. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (241321)
Қайси гапда сўз қўллаш билан боғлиқ хатолик мавжуд?

A) *Эрта баҳорда ўн туп мевали дарахт кўчати ўтқаздик.*
B) *Отабек ҳам истеҳзоли табассум орасида Ҳомидга кўз қирини ташлади.*
C) *Йўлчи машаққатлар, қийинчиликлар ичида бўлса ҳам, фақир ҳаётнинг уч йилини Мирзакаримбой эшигида ўтказди.*
**D) Қуёш ҳамал юлдузлар бурчига ўтиши билан кунлар исий бошлади.**

256. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (241322)
Қайси сўзлар ўзидан олдинги сўзнинг таркибий қисми саналади?
1) кўмакчи феъллар; 2) тўлиқсиз феъллар; 3) кўмакчилар; 4) боғловчилар

**A) *1, 2, 3*** B) *1, 2, 4* C) *3, 4* D) *1, 2, 3, 4*

257. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (241327)
**Кумуш ҳам ариқ ёқасига келиб тўхтаган чингилин йигитга беихтиёр қараб қолди.** (А.Қодирий)
Ушбу гапдаги тагига чизилган сўзнинг маънодошини топинг.

A) *озғин* B) *новча* **C) *келишган***
D) *чаққон*

258. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (241343)
**Қишлоқнинг ҳуснига ҳусн қўшган қадди расо тераклар тик қоматларини мағрур кўрсатиб туради.**
Ушбу гапда шакл ва маъно муносабатига кўра қандай сўзлар иштирок этган?

**A) *маънодош*** B) *шаклдош* C) *пароним*
D) *маънодош ва шаклдош сўзлар*

259. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (241349)
**Аддои отанг Юсуфбек ҳожи. Тошканд 27 далв ойида 1264-нчи йилда ёзилди.** (А.Қодирий)
Тагига чизилган сўзнинг маънодошини аниқланг.

A) *тугатувчи* **B) *дуо қилувчи***
C) *давом этувчи* D) *йўлловчи*

260. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241374)
Кўк юзида сузиб юрган булут парчалари офтобни бир зумда юз кўйга соляпти. (А. Қаҳҳор)
Мазкур гапда қўлланган кўй сўзининг маънодошини топинг.

A) *йўл* B) *оҳанг* **C)** *ҳолат* D) *тус*

261. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241394)
Надомат комида қолганлар, айтинг. (А. Орипов)
Ушбу мисрадаги тагига чизилган сўзнинг маънодошини топинг.

A) *ҳузурида* **B)** *ичида* C) *таъсирида* D) *истагида*

262. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241395)
Сенингсиз менга ком йўқдир, Асал ичсам, заҳар бўлғай. (Э. Воҳидов)
Ушбу шеърий парчада қўлланилган ком сўзининг маънодошини топинг.

A) *тинчлик* **B)** *шодлик* C) *муҳаббат* D) *сўз*

263. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241396)
1. Надомат комида қолганлар, айтинг. (А. Орипов)
2. Сенингсиз менга ком йўқдир, Асал ичсам, заҳар бўлғай. (Э. Воҳидов)
Берилган гаплардаги ком сўзи ўзаро маъно муносабатига кўра қандай сўзлар?

A) *маънодош сўзлар* **B)** *шаклдош сўзлар* C) *бир сўзнинг турли маънолари* D) *пароним сўзлар*

264. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241397)
"Маҳбуб ул-қулуб" дунёнинг аччиқ-чучигини тотган, гоҳо "комронлиғ", гоҳо "нотовонлиғ" топган буюк шоир Навоийнинг 60 йиллик ҳаётига якун бўлди.
Ушбу гапда қўлланган комронлиғ сўзининг маъносини аниқланг.

A) *камтарлик* B) *мақтов* C) *буюклик* **D)** *бахтлилик*

265. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241398)
Сўзинг Ширин, ўзунг Хисравдин афзун, Бўлур Лайли сенинг ҳуснунгга Мажнун байтидаги афзун сўзининг луғавий маъноси қайси жавобда кўрсатилган?

A) *гўзал* B) *ақлли* **C)** *ортиқ* D) *жасур*

266. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (241409)
Қайси қатордаги гапда паронимларни қўллаш билан боғлиқ хато мавжуд эмас?

**A) Олисдаги қариндошдан яқиндаги ёт яхши.**
B) *Машҳур боғбон Дарвеш ҳожи шафтоли, олҳирот кўчатларини ўтказди.*
C) *Салимнинг гапи борган сари унга кўпроқ наша қилар эди.*
D) *Даврага дутор, тамбур, ғижжак, най доира кўтариб машшоқлар кириб келди.*

267. 3.1-3 file-» 1 - 38 - - (301062)
Quyidagi shakldosh (omonim) so‘zlardan qaysi biri birgina so‘z turkumi doirasida ham shakldoshlikni vujudga keltirishi mumkin?
1) o‘ta; 2) quymoq; 3) o‘sma; 4) o‘rmoq; 5) mushak

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 5* **C)** *1, 3, 4, 5* D) *2, 5*

268. 3.1-3 file-» 41 - 5 - - (301063)
Xilqat so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *biror narsaning yig‘indisi*
B) *biror bir hukmdor qo‘l ostidagi mamlakat*
**C) yaratilish, bunyodga kelish**
D) *sirli, mavhum*

269. 3.1-3 file-» 41 - 5 - - (301064)
Qaysi javobda ma’nodosh so‘zlar to‘g‘ri berilgan?

**A) ataylab, jo‘rttaga, azza-bazza**
B) *subut, burd, tob*
C) *sevinch, surur, huzur*
D) *jang, muhoraba, qutqu*

270. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (301065)
Qaysi gapda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud?

A) *Erta bahorda o‘n tup mevali daraxt ko‘chati o‘tqazdik.*
B) *Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko‘z qirini tashladi.*
C) *Yo‘lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo‘lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o‘tkazdi.*
**D) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o‘tishi bilan kunlar isiy boshladi.**

271. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (301066)
Qaysi so‘zlar o‘zidan oldingi so‘zning tarkibiy qismi sanaladi?
1) ko‘makchi fe’llar; 2) to‘liqsiz fe’llar; 3) ko‘makchilar; 4) bog‘lovchilar

**A)** *1, 2, 3* B) *1, 2, 4* C) *3, 4* D) *1, 2, 3, 4*

272. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (301067)
**Kumush ham ariq yoqasiga kelib to‘xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi.**
(A.Qodiriy)
Ushbu gapdagi tagiga chizilgan so‘zning ma’nodoshini toping.
A) *ozg‘in* B) *novcha* **C)** *kelishgan*
D) *chaqqon*

273. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (301068)
**Qishloqning husniga husn qo‘shgan qaddi raso teraklar tik qomatlarini mag‘rur ko‘rsatib turadi.**
Ushbu gapda shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday so‘zlar ishtirok etgan?
**A)** *ma’nodosh* B) *shakldosh* C) *paronim*
D) *ma’nodosh va shakldosh so‘zlar*

274. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (301069)
**Addoi otang Yusufbek hoji. Toshkand 27 dalv oyida 1264-nchi yilda yozildi.**
(A.Qodiriy)
Tagiga chizilgan so‘zning ma’nodoshini aniqlang.
A) *tugatuvchi* **B)** *duo qiluvchi*
C) *davom etuvchi* D) *yo‘llovchi*

275. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301070)
Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti.
(A. Qahhor)
Mazkur gapda qo‘llangan ko‘y so‘zining ma’nodoshini toping.
A) *yo‘l* B) *ohang* **C)** *holat* D) *tus*

276. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301071)
Nadomat komida qolganlar, ayting. (A. Oripov)
Ushbu misradagi tagiga chizilgan so‘zning ma’nodoshini toping.
A) *huzurida* **B)** *ichida* C) *ta’sirida*
D) *istagida*

277. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301072)
Seningsiz menga kom yo‘qdir, Asal ichsam, zahar bo‘lg‘ay. (E. Vohidov)
Ushbu she’riy parchada qo‘llanilgan kom so‘zining ma’nodoshini toping.
A) *tinchlik* **B)** *shodlik* C) *muhabbat*
D) *so‘z*

278. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301073)
1. Nadomat komida qolganlar, ayting.
(A. Oripov)
2. Seningsiz menga kom yo‘qdir, Asal ichsam, zahar bo‘lg‘ay. (E. Vohidov)
Berilgan gaplardagi kom so‘zi o‘zaro ma’no munosabatiga ko‘ra qanday so‘zlar?
A) *ma’nodosh so‘zlar* **B)** *shakldosh so‘zlar*
C) *bir so‘zning turli ma’nolari*
D) *paronim so‘zlar*

279. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301074)
”Mahbub ul-qulub” dunyoning achchiq-chuchigini totgan, goho ”komronlig‘”, goho ”notovonlig‘” topgan buyuk shoir Navoiyning 60 yillik hayotiga yakun bo‘ldi.
Ushbu gapda qo‘llangan komronlig‘ so‘zining ma’nosini aniqlang.
A) *kamtarlik* B) *maqtov* C) *buyuklik*
**D)** *baxtlilik*

280. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301075)
So‘zing Shirin, o‘zung Xisravdin afzun,
Bo‘lur Layli sening husnungga Majnun baytidagi afzun so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *go‘zal* B) *aqlli* **C)** *ortiq* D) *jasur*

281. 3.1-3 file-» 1 - 39 - - (301076)
Qaysi qatordagi gapda paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq xato mavjud emas?
**A) Olisdagi qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi.**
B) *Mashhur bog‘bon Darvesh hoji shaftoli, olhirot ko‘chatlarini o‘tkazdi.*
C) *Salimning gapi borgan sari unga ko‘proq nasha qilar edi.*
D) *Davraga dutor, tambur, g‘ijjak, nay doira ko‘tarib mashshoqlar kirib keldi.*

282. 3.1-3 file-» 5 - 1 - - (400059)
Qaysi gapda paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xato mavjud?
1. Besh asirkim nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir she’r.
2. Urish, noming o‘chsin jahonda!
3. Sanat saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.
4. Og‘zi kuygan qattiqni ham puflab ichadi.
A) *1, 3* B) *2, 3* C) *1, 2, 3* **D)** *1, 2, 3, 4*

283. 3.1-3 file-» 5 - 1 - - (400060)
Qaysi qatorda berilgan so‘zlarning uchalasi ham shakldosh (omonim) iga ega?
A) *mushak, kadr, chang*
B) *karam, kuy, et*
C) *davlat, oz, qil*
**D) berilganlarning barchasi shakldosh so‘zlar**

284. 3.1-3 file-» 1 - 43 - - (400061)
**Yana bir istagim shuki, falakiyot, riyoziyot, handasa, tibbiyot, jug‘rofiya, adabiyot ilmidan xabar topsagina alloma deb tan olinsa. (Tohir Malik)**
Ushbu gapda qo‘llangan **handasa** so‘zining ma’nodoshini toping.
A) *psixologiya* B) *geodeziya*
**C)** *geometriya* D) *hadisshunoslik*

285. 3.1-3 file-» 1 - 43 - - (400062)
intiboh so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) *biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib berish, izohlash*

B) *nizo, kelishmovchilik*

**C) ogohlik, ogohlantirish**

D) *oxiriga yetkazish, tugatish*

286. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400063)
Qaysi gapda **yomon** so'zi **qattiq, juda, nihoyatda** so'zlariga sinonim bo'la oladi?

A) *Bugun Ahmad yomon uxladi.*

B) *Ishqilib yomon xabar kelmasin-da!*

**C) Inoyat oqsoqol uni ko'pchilik o'rtasida yomon haqorat qilgan edi. (S.Ahmad, "Ufq")**

D) *Eng yomoni - xona g'oyatda sovuq edi. (Mirmuhsin)*

287. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400064)
**Alisher qalamga qilganda xitob, Dovoti yodidan ko'tariladimu?** baytidagi **dovot** so'zining ma'nosi qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *qalamdon* **B)** *siyohdon* C) *qog'oz* D) *qalam*

288. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400065)
**Kengash qilgan el ozmas, keng bichilgan to'n to'zmas.**
Berilgan maqoldagi **ozmoq** fe'lining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda keltirilgan?

A) *toyib ketmoq, yiqilmoq* **B)** *to'g'ri yo'ldan adashmoq* C) *kamaymoq* D) *ozg'in tortmoq, oriqlamoq*

289. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400066)
Shakldosh so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) *omil, chap, qir, past*

B) *ravon, yoz, ranj, salmoq*

**C) oz, nor, palla, nota**

D) *soch, pilla, otash, rusum*

290. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400067)
Shakldosh so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) *ravon, ko'z, dunyo* **B)** *palata, oqibat, rasta* C) *oq, savdo, ravish* D) *soch, palla, otash*

291. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400068)
**"Devonu lug'atit turk"da sayrar sanduloch.** (X.Davron)
Berilgan misradagi sanduloch so'zi qanday so'z?

A) *tarixiy so'z* **B)** *arxaik so'z* C) *ramziy so'z* D) *badiiy so'z*

292. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400069)
Qaysi javobda shakldosh iboralar qayd etilgan?

A) *Shu kunlarda sevinchimni ichimga sig'dira olmayapman: ishlarim besh! Davronov shodligi ichiga sig'may, atrofga zavq bilan qarab o'tirardi.*

B) *Tashabbus - katta gap! Men o'z aravamni tortsam ham, katta gap.*

**C) Shabada ham, toza havo ham uning ko'nglini ocholmasdi. Ko'nglini ochmasa, uning dardi nimaligini qayerdan bilay?**

D) *Qo'rqqanimdan nafasim ichimga tushib ketdi. Sultonning nomini eshitish bilan Bozorovning dami ichiga tushdi.*

293. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400070)
**Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil**
**Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina.**
Muhammad Rizo Ogahiyning ushbu baytidagi bod so'zining ma'nodoshi qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *bo'ron* **B)** *shamol* C) *suv* D) *koinot*

294. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400071)
**Kezib dashtu biyobon bahru barlar yig'lasam tong yo'q,**
**To'kib yosh o'rniga guharlar yig'lasam, tong yo'q.**
Furqat qalamiga mansub ushbu baytdagi bahru bar so'zining ma'nodoshi qaysi?

A) *yeru osmon* B) *zamin va gardun* **C)** *butun dunyo* D) *okean va dengiz*

295. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400072)
**Menga sen bo'lmasang, jon hojat ermas,**
**Bihishtu huru rizvon hojat ermas.**
Atoyining mazkur baytida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llangan?

A) *ko'p ma'noli so'zlar* **B)** *ma'nodosh so'zlar* C) *takroriy so'zlar* D) *zid so'zlar*

296. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400073)
**Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,**
**Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.**
Navoiyning ushbu baytidagi arjumand so'zining ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

A) *munosib, tanlangan* B) *ixtiyoriy* **C)** *aziz, loyiq* D) *orzu qilingan*

297. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400074)
**Visoli lazzatidin zavq topmoqlig‘ erur dushvor,**
**Firoqi shiddatinda yo‘qsa jon bermaklik osondur.**
Bobur qalamiga mansub ushbu baytda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qaysi turi qo‘llangan?

A) *ma’nodosh so‘zlar* **B)** *zid so‘zlar*
C) *shakldosh so‘zlar* D) *paronim so‘zlar*

298. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400075)
**Chokar hazilga, zarofatga o‘ch yigit edi.** (S.Siyoyev)
Berilgan gapdagi zarofat so‘zining ma’nodoshini toping.

**A)** *hozirjavoblik* B) *fahm-farosat*
C) *chiroyli gaplar* D) *maqol*

299. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400076)
**Olam hodis, qo‘lga tushib qolsang, so‘roq kezida aybni faqaz o‘z bo‘yningga olib, oraga meni qotishtirmaysan!** (A.Qodiriy)
Berilgan gapdagi olam hodis birikmasining ma’nodoshi qaysi javobda keltirilgan?

A) *masalan* **B)** *ehtimol* C) *avvalo*
D) *xullas*

300. 3.1-3 file-» 1 - 45 - - (400077)
**Atrof-tumonat oppoq edi. Bu oqlik jamiki puchmoqlar-u xilvat go‘shalarga ham allanechuk g‘ayritabiiy kuch orqali tarqalgan.** (Sh.Bo‘tayev)
Berilgan matndagi puchmoq so‘zining ma’nodoshi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *qorong‘ulik, zulmat* **B)** *ovloq, burchak*
C) *qo‘rqinchli, vahimali*
D) *chuqurlik, tubsizlik*

301. 3.1-3 file-» 1 - 46 - - (400078)
Muhabbat dardidan bemor qalblarmiz,
O‘gay bo‘lsak, netong, sog‘lar orasida.
(A.Oripov)
netong so‘zining ma’nosini aniqlang.

A) *na baxt* **B)** *ne ajab* C) *shubhasiz*
D) *ilojsiz*

302. 3.1-3 file-» 71 - 5 - - (400079)
Qaysi gapda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud?

A) *Erta bahorda o‘n tup mevali daraxt ko‘chati o‘tqazdik.*
B) *Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko‘z qirini tashladi.*
**C) Yo‘lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo‘lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o‘tqazdi.**
D) *Quyosh hamal yulduzlar burjiga o‘tishi bilan kunlar isiy boshladi.*

303. 3.1-3 file-» 1 - 48 - - (700050)
1. Do‘sting uchun zahar yut.
2. Huvullab qolgan uyda yolg‘iz yashash qiyin. Hovli yutaman deydi. (S.Ahmad)
3. Arslon degan bir yigit kurashda tengqurlarini yutdi.
Ushbu gaplarda qo‘llangan yutmoq fe’llari ma’no munosabatiga ko‘ra o‘zaro qanday so‘zlar hisoblanadi?

**A) birinchi va ikkinchi gaplarda bir so‘zning ikki ma’nosi, uchinchi gapdagi yutmoq fe’li birinchi va ikkinchi gaplardagi yutmoq fe’liga nisbatan shakldosh so‘z**
B) *uchala gapdagi yutmoq so‘zlari o‘zaro shakldosh so‘zlar*
C) *birinchi gapdagi yutmoq so‘zi ikkinchi va uchinchi gapdagi yutmoq so‘zlariga nisbatan shakldosh so‘z, ikkinchi va uchinchi gapdagi yutmoq so‘zi o‘zaro bir so‘zning ikki ma’nosi*
D) *uchala gapdagi yutmoq so‘zi bir so‘zning, ya’ni ko‘p ma’noli so‘zning uch xil ma’nosi*

304. 3.1-3 file-» 1 - 48 - - (700051)
1. Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo. (A.Oripov)
2. Mana shu daryodan Mirzacho‘l suv ichadi, ekin bitadi.
3. Katta Farg‘ona kanali qirq besh kunda bitdi.
Ushbu gaplarda qo‘llanilgan bitmoq so‘zining o‘zaro ma’no munosabati qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A) *har uchala gapda bir so‘zning turli ma’nolari, ya’ni polisemantik so‘z*
**B) har uchala gapda mustaqil uchta so‘z, ya’ni o‘zaro shakldosh so‘z**
C) *birinchi gapdagi bitmoq so‘zi ikkinchi va uchinchi gapdagi bitmoq so‘zlari bilan o‘zaro shakldosh, ikkinchi va uchinchi gapdagi bitmoq so‘zi o‘zaro bir so‘zning turli ma’nolari*
D) *uchinchi gapdagi bitmoq so‘zi birinchi va ikkinchi gapdagi bitmoq so‘zlari bilan o‘zaro shakldosh, birinchi va ikkinchi gapdagi bitmoq so‘zi o‘zaro bir so‘zning turli ma’nolari*

305. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700052)
Andalib bir savt ila bo‘ldi giriftori qafas.
(Hamza)
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning ma’nodoshini toping.

A) *to‘ti* B) *qumri* C) *sa’va* **D)** *bulbul*

306. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700053)
1. Doka ro‘molin dol qo‘ygan,
O‘ng betiga xol qo‘ygan.
2. Ertasiga haligi she’r gazetaning ikkinchi beti boshida bosilib chiqdi.
3. Yer ketmonning betini qayiradigan darajada tosh-metin bo‘lib muzladi.
Ushbu gaplarda qo‘llangan bet so‘zi haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.

**A) Barcha gaplarda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan.**
B) *Barcha gaplarda shakldosh so‘zlar qo‘llangan.*
C) *Birinchi va uchinchi gapda shakldosh so‘zlar qo‘llangan*
D) *Birinchi va ikkinchi gapda shakldosh so‘z qo‘llangan*

307. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700054)
Ma’lumingiz, ulardan Azizbek bilan Yusufbek Toshkentda bilfe’l isyon chiqarib yotadirlar. (A.Qodiriy)
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?
A) *muntazam* B) *bamaslahat* **C) *o‘zicha*** D) *kutilmaganda*

308. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700055)
Quyidagi so‘zlarning qaysilari shakldosh so‘zlar hisoblanadi?
1) bas; 2) band; 3) banda; 4) bal; 5) bog‘
A) *1, 2, 5* **B) *1, 2, 3, 5*** C) *1, 2, 3, 4, 5* D) *2, 5*

309. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700056)
O‘ng qo‘lidagi dastro‘mol bilan diydasini artdi.
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning ma’nodoshi qaysi javobda berilgan?
A) *yosh* B) *bosh* C) *peshona* **D) *ko‘z***

310. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700057)
Quyidagi uyadosh so‘zlarning o‘sib borish ketma-ketligi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.
**A) *qulun, toy, do‘non*** B) *qulun, do‘non, toy* C) *toy, qulun, do‘non* D) *toy, do‘non, qulun*

311. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700058)
Zaynab lappos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradigan edi. (A.Qodiriy)
lappos so‘zining ma’nodoshi qaysi javobda keltirilgan?
A) *xotirjam* B) *ozg‘in* **C) *to‘ladan kelgan*** D) *uyatchan*

312. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700059)
Sahn yuzida uch-to‘rt yuz musallah yigitlarni birovni kutgan holda ko‘rdim. (A.Qodiriy)
”O‘tkan kunlar” romanidan olingan ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?
A) *otliq* **B) *qurollangan*** C) *xizmatkor* D) *isyonchi*

313. 3.1-3 file-» 12 - 3 - - (700060)
To‘g‘risi, zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim. (A.Qodiriy)
olud so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?
**A) *qorishgan*** B) *yanglig‘* C) *achchiq* D) *alamli*

314. 3.1-3 file-» 11 - 6 - - 1 (715032)
I ustunda berilgan so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanganda II ustundagi qaysi so‘zga sinonim bo‘la oladi?

| I | II |
|---|---|
| 1) yugurmoq | a) paydo bo‘lmoq |
| 2) o‘ymoq | b) muddat; davr |
| 3) bahor | c) azob bermoq |

A) *1-b; 2-c; 3-b* B) *1-c; 2-a; 3-c* **C) *1-a; 2-c; 3-b*** D) *bu so‘zlar o‘zaro sinonim bo‘la olmaydi*

315. 3.1-3 file-» 11 - 6 - - 1 (715033)
E’timod so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *ishonch yorlig‘i* **B) *ishonch*** C) *hurmat* D) *samimiyat*

316. 3.1-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715034)
Qaysi javobda shakldosh so‘zlar berilgan?
**A) elchilik, chars, sug‘ur**
B) *bez, farq, zor*
C) *qon, zang, bo‘ydor*
D) *safar, palla, sor*

317. 3.1-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715035)
Berilgan shakldosh so‘zlarning qaysilari faqat bir so‘z turkumi doirasida bo‘ladi?
**A) shira, qayin, g‘oz, dastalamoq**
B) *shon, qadoq, yopiq, ko‘klamoq*
C) *gazak, o‘rim, qotmoq, tuyg‘un*
D) *bog‘, qoplamoq, o‘tin, qozon*

318. 3.1-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715036)
Ne bir buyuk zotlar bosh egdi nochor
Tomug‘dan yo‘l topmay nurli hayotga . . .
(A.Oripov)
Ostiga chizilgan so‘zning ma’nodoshi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) *haqiqat* B) *jannat* **C) *do‘zax*** D) *razolat*

319. 3.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715037)
Shakldosh so'zlar qaysi javobda qayd etilgan?
A) *yosh, mol, jumla* B) *kon, omad, dala* **C)** *kurash, jar, partiya* D) *mezon, kuz, adir*

320. 4.1-2 file-» 41 - 4 - - (231599)
Сўзнинг маъноли қисмлари жойлашуви қайси жавобда тўғри берилган?
**A) асос+сўз ясовчи+луғавий шакл ясовчи+синтактик шакл ясовчи**
B) *асос+сўз ясовчи+синтактик шакл ясовчи+луғавий шакл ясовчи*
C) *асос+луғавий шакл ясовчи+сўз ясовчи+синтактик шакл ясовчи*
D) *асос+синтактик шакл ясовчи+сўз ясовчи+луғавий шакл ясовчи*

321. 4.1-2 file-» 1 - 38 - - (232329)
Санъаткорнинг ижросини тинимсиз гулдурос қарсаклар билан олқишлардилар.
Ушбу гапдаги ясама сўзларнинг миқдорини аниқланг.
A) *2 та* B) *3 та* C) *4 та* **D)** *5 та*

322. 4.1-2 file-» 1 - 39 - - (241384)
Сўзнинг муносабат шакллари бу . . .
A) *сўз ясовчи қўшимчалар*
B) *луғавий шакл ясовчилар*
**C) синтактик шакл ясовчилар**
D) *сўзга қўшимча маъно юкловчи қўшимчалар*

323. 4.1-2 file-» 1 - 39 - - (241385)
Эгалик қўшимчалари қайси қўшимчалар сирасига киради?
A) *сўзга қўшимча маъно юкловчи қўшимчалар*
B) *луғавий шакл ясовчилар*
**C) муносабат шаклларини ҳосил қилувчи**
D) *сўз ясовчи*

324. 4.1-2 file-» 1 - 39 - - (241387)
Қайси сўз таркиби **асос + сўз ясовчи+луғавий шакл ясовчи+синтактик шакл ясовчи** тартибида жойлашмаган?
A) *англаганим* B) *қорайишнинг* **C)** *иситкичларни* D) *экинларга*

325. 4.1-2 file-» 1 - 40 - - (241415)
Қайси бирликлар таркибидаги қисм(сўз)лар доим маъно мустақиллигини сақлаган бўлади?
1) қўшма сўзларда; 2) сўз бирикмаларида;
3) турғун боғламаларда.
A) *1, 2, 3* B) *1, 2* C) *1* **D)** *2*

326. 4.1-2 file-» 1 - 40 - - (241441)
-ма қўшимчаси ёрдамида ясалган қайси сўз шаклдошлик хусусиятига эга эмас?
**A)** *қисқартма* B) *қўлланма* C) *қайнатма* D) *қотишма*

327. 4.1-2 file-» 1 - 40 - - (241447)
Данғиллама сўзи таркибида қандай қўшимчалар мавжуд?
A) *-илла+-ма*
B) *-ла+-ма*
C) *-иллама*
**D) данғиллама сўзи маъноли қисмларга бўлинмайди**

328. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (241717)
Орттирма нисбат ҳосил қилувчи -газ, -каз, -қаз қўшимчалари ўтмоқ феълига қай тарзда қўшилиши мумкин?
A) *ўтгаз, ўтказ, ўтқаз тарзида*
**B)** *ўтказ, ўтқаз тарзида*
C) *фақат ўтказ тарзида*
D) *фақат ўтқаз тарзида*

329. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (241731)
**Ушбу тўпламда тинчликни, Ватанни улуғловчи шеърлар бор.**
Берилган гапдаги сўзлар таркибида неча сўз ясовчи қўшимча мавжуд?
A) *3* B) *4* C) *5* **D)** *6*

330. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (241732)
**Ушбу тўпламда тинчликни, Ватанни улуғловчи шеърлар бор.**
Мазкур гапдаги сўзлар таркибида неча от ясовчи қўшимча мавжуд?
**A)** *2* B) *3* C) *4* D) *5*

331. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (241737)
**Ақлли ўзини айблар,**
**Ақлсиз - дўстини.**
Ушбу мақолдаги луғавий шакл ясовчи қўшимчалар миқдорини белгиланг.
**A) 1 та**
B) *2 та*
C) *3 та*
D) *мақолда луғавий шакл ясовчи қўшимчалар қўлланмаган*

332. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (241741)
Туб сўзлар берилган қаторни белгиланг.
**A) оқиш (сифат), оқиш (феъл)**
B) *оқим, оқова*
C) *оқин (сув йўналиши), оқма (феъл)*
D) *берилганларнинг барчаси ясама сўз*

333. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (241743)
Қайси қатордаги сўзда иккита сўз ясовчи қўшимча мавжуд?

A) *айланма* B) *кесатиқ* C) *ачитма* **D)** *боғлам*

334. 4.1-2 file-» 41 - 4 - - (301077)
So‘zning ma’noli qismlari joylashuvi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

**A) asos+so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi+sintaktik shakl yasovchi**
B) *asos+so‘z yasovchi+sintaktik shakl yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi*
C) *asos+lug‘aviy shakl yasovchi+so‘z yasovchi+sintaktik shakl yasovchi*
D) *asos+sintaktik shakl yasovchi+so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi*

335. 4.1-2 file-» 1 - 38 - - (301078)
San’atkorning ijrosini tinimsiz gulduros qarsaklar bilan olqishlardilar.
Ushbu gapdagi yasama so‘zlarning miqdorini aniqlang.

A) *2 ta* B) *3 ta* C) *4 ta* **D)** *5 ta*

336. 4.1-2 file-» 1 - 39 - - (301079)
So‘zning munosabat shakllari bu ...

A) *so‘z yasovchi qo‘shimchalar*
B) *lug‘aviy shakl yasovchilar*
**C) sintaktik shakl yasovchilar**
D) *so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklovchi qo‘shimchalar*

337. 4.1-2 file-» 1 - 39 - - (301080)
Egalik qo‘shimchalari qaysi qo‘shimchalar sirasiga kiradi?

A) *so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklovchi qo‘shimchalar*
B) *lug‘aviy shakl yasovchilar*
**C) munosabat shakllarini hosil qiluvchi**
D) *so‘z yasovchi*

338. 4.1-2 file-» 1 - 39 - - (301081)
Qaysi so‘z tarkibi **asos + so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi+sintaktik shakl yasovchi** tartibida joylashmagan?

A) *anglaganim* B) *qorayishning* **C)** *isitkichlarni* D) *ekinlarga*

339. 4.1-2 file-» 1 - 40 - - (301082)
Qaysi birliklar tarkibidagi qism(so‘z)lar doim ma’no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi?
1) qo‘shma so‘zlarda; 2) so‘z birikmalarida; 3) turg‘un bog‘lamalarda.

A) *1, 2, 3* B) *1, 2* C) *1* **D)** *2*

340. 4.1-2 file-» 1 - 40 - - (301083)
-ma qo‘shimchasi yordamida yasalgan qaysi so‘z shakldoshlik xususiyatiga ega emas?

A) *qisqartma* B) *qo‘llanma* C) *qaynatma* **D)** *qotishma*

341. 4.1-2 file-» 1 - 40 - - (301084)
Dang‘illama so‘zi tarkibida qanday qo‘shimchalar mavjud?

A) *-illa+-ma*
B) *-la+-ma*
C) *-illama*
**D) dang‘illama so‘zi ma’noli qismlarga bo‘linmaydi**

342. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (301085)
Orttirma nisbat hosil qiluvchi -gaz, -kaz, -qaz qo‘shimchalari o‘tmoq fe’liga qay tarzda qo‘shilishi mumkin?

A) *o‘tgaz, o‘tkaz, o‘tqaz tarzida*
**B)** *o‘tkaz, o‘tqaz tarzida*
C) *faqat o‘tkaz tarzida*
D) *faqat o‘tqaz tarzida*

343. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (301086)
**Ushbu to‘plamda tinchlikni, Vatanni ulug‘lovchi she’rlar bor.**
Berilgan gapdagi so‘zlar tarkibida necha so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud?

A) *3* B) *4* C) *5* **D)** *6*

344. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (301087)
**Ushbu to‘plamda tinchlikni, Vatanni ulug‘lovchi she’rlar bor.**
Mazkur gapdagi so‘zlar tarkibida necha ot yasovchi qo‘shimcha mavjud?

A) *2* **B)** *3* C) *4* D) *5*

345. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (301088)
**Aqlli o‘zini ayblar,**
**Aqlsiz - do‘stini.**
Ushbu maqoldagi lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar miqdorini belgilang.

**A) 1 ta**
B) *2 ta*
C) *3 ta*
D) *maqolda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘llanmagan*

346. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (301089)
Tub so‘zlar berilgan qatorni belgilang.

**A) oqish (sifat), oqish (fe’l)**
B) *oqim, oqova*
C) *oqin (suv yo‘nalishi), oqma (fe’l)*
D) *berilganlarning barchasi yasama so‘z*

347. 4.1-2 file-» 1 - 41 - - (301090)
Qaysi qatordagi so‘zda ikkita so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud?

A) *aylanma* B) *kesatiq* C) *achitma* **D)** *bog‘lam*

348. 4.1-2 file-» 5 - 1 - - (400080)
Qaysi gapda so‘z yasovchi qo‘shimcha lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchadan keyin qo‘shilgan?

A) *Shu-shu quyon changalzorga yolg‘iz bormaydigan bo‘libdi.*
B) *Bolalarning beg‘ubor qalbi to‘lib-toshib oqayotgan daryoday jo‘shqin.*
C) *Ipakday mayin, buloq suviday tiniq xayollaringizga hech kim xalal bermaydi.*
**D) Boboxon goh o‘chirg‘ichga, goh bug‘doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga qarab hang-mang bo‘lib qolgan edi.**

349. 4.1-2 file-» 5 - 1 - - (400081)
Qaysi gapda uchta yasama so‘z ishtirok etgan?

**A) Ha, bu yurtlar chiroyli, daraxtzor bo‘lgani bilan sovuq.**
B) *Mehmon jiddiylashdi, nimanidir isbotlamoqchi bo‘lganday keskin gapirdi.*
C) *Semizlikni qo‘y ko‘tarar deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi.*
D) *U bolalikdan dorbozlarning o‘yinlarini yoqtirar edi.*

350. 4.1-2 file-» 40 - 3 - - (400082)
Faqat lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etgan so‘zlarni toping.

A) *giyohlarni, ajratildi, topilgan*
B) *asabiylashmoq, kelinchak, keltirish*
**C)** *kulimsiramoq, ellardagi, ketguncha*
D) *aybsitmoq, ulg‘aytirgan, bormadi*

351. 4.1-2 file-» 40 - 3 - - (400083)
**Sherikchilik - bir yilchilik, qudachilik - ming yilchilik.**
Ushbu maqoldagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar miqdorini toping.

**A)** *4 ta* B) *8 ta* C) *6 ta* D) *2 ta*

352. 4.1-2 file-» 40 - 3 - - (400084)
Qaysi javobda tarkibi **asos + so‘z yasovchi + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi** shaklidagi so‘z berilgan?

**A)** *insoniyatniki* B) *oromgohlarimiz*
C) *unumdorlikni* D) *bog‘dorchilik*

353. 4.1-2 file-» 1 - 44 - - (400085)
**Iste’dodli, bilimdon yoshlar o‘qish uchun chet ellarga yuborilmoqda.**
Mazkur gapdagi qo‘shimchalar soni va turi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *2 ta so‘z yasovchi, 4 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 2 ta sintaktik shakl yasovchi*
**B) 3 ta so‘z yasovchi, 4 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 2 ta sintaktik shakl yasovchi**
C) *2 ta so‘z yasovchi, 3 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 2 ta sintaktik shakl yasovchi*
D) *2 ta so‘z yasovchi, 2 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 4 ta sintaktik shakl yasovchi*

354. 4.1-2 file-» 1 - 44 - - (400086)
**Oqqirov kasalligi g‘o‘za barglarida uy quradi, tuproqda, o‘simlik chirindilari orasida qishlaydi.**
Berilgan gapda nechta yasama so‘z bor va ular qaysi turkumga mansub?

**A)** *3 ta yasama ot, 1 ta yasama fe’l*
B) *2 ta yasama ot, 1 ta yasama fe’l*
C) *2 ta yasama ot, 2 ta yasama fe’l*
D) *3 ta yasama ot*

355. 4.1-2 file-» 1 - 44 - - (400087)
**Eshitib tursam, hadeb bir xil gapni takrorlayotibdi.**
Ushbu gapdagi fe’llar kesimga xos qaysi qo‘shimchalarni olgan?

A) *-ib, -di, -m* **B)** *-di, -sa, -m, -yotib*
C) *-ib, -yotib, -m, -di* D) *-ib, -la, -yotib, -di*

356. 4.1-2 file-» 1 - 44 - - (400088)
**Qani qo‘lni bering, bir tabriklab qo‘yay** gapidagi fe’llar kesimga xos qaysi qo‘shimchalarni olgan?

A) *-b, -ay* B) *-la, -b* **C)** *-ing, -ay*
D) *-ing, -b*

357. 4.1-2 file-» 1 - 44 - - (400089)
Qaysi kelishik shaklidagi so‘z doim bir xil sintaktik vazifada keladi?

A) *jo‘nalish kelishigi* **B)** *tushum kelishigi*
C) *jo‘nalish va tushum kelishigi*
D) *o‘rin-payt kelishigi*

358. 4.1-2 file-» 1 - 44 - - (400090)
Quyida berilgan gapda nechta yasama so‘z bor?
**Oybek domla nihoyatda tiyraklik bilan, ko‘pchilik nomdor insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg‘uborlik bilan opaning gaplarini tasdiqladi.**

A) *6 ta* **B)** *7 ta* C) *5 ta* D) *8 ta*

359. 4.1-2 file-» 40 - 6 - - (700061)
Aqlli, es-hushli, tadbirli inson so‘z boshlar, suhbatdosh jim bo‘lgan zamon. (S.Sheroziy) Ushbu gapda nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud?

A) *3* B) *4* **C)** *5* D) *6*

360. 4.1-2 file-» 40 - 6 - - (700062)
Asos+lug‘aviy shakl yasovchi+so‘z yasovchi shaklida bo‘lmagan so‘zni toping.

A) *o‘chirg‘ich* B) *maqtanchoq*
C) *sovutkich* **D)** *qizg‘anchiq*

361. 4.1-2 file-» 40 - 6 - - (700063)
Quyida keltirilgan so‘zlardagi **-in** qo‘shimchasi qanday qo‘shimcha?
1) ekin; 2) to‘kin; 3) ko‘rin; 4) yig‘in; 5) kiyin; 6) otashin

**A) 1-4- ot yasovchi, 2-6- sifat yasovchi, 3-5- lug‘aviy shakl yasovchi**
B) *1-3- ot yasovchi, 2-5- sifat yasovchi, 4-6- lug‘aviy shakl yasovchi*
C) *2-3- ot yasovchi, 1-4- sifat yasovchi, 5-6- lug‘aviy shakl yasovchi*
D) *4-6- ot yasovchi, 1-3- sifat yasovchi, 2-4- lug‘aviy shakl yasovchi*

362. 4.1-2 file-» 20 - 1 - - (700064)
Qaysi gapda omonim (shakldosh) qo‘shimchalar ishtirok etgan?
1.Yuz tilim bo‘ldi dilim bir bevafoning dastidan.
2.Barnoxon kutubxonamizning faol kitobxonlaridan.
3.Bu gapni direktorga siz aytasiz.
4.Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q.

A) *faqat 2* **B)** *1 va 2* C) *1, 2, 3*
D) *2, 4*

363. 4.1-2 file-» 20 - 1 - - (700065)
Qaysi qatorda lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha orasida omonimlik (shakldoshlir) munosabati yuzaga kelgan?

A) *ko‘kish-borish* B) *otam-ko‘rdim*
C) *do‘sti- boyi* **D)** *buloqqa-chayqa*

364. 4.1-2 file-» 20 - 1 - - (700066)
Qaysi qatorda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar o‘zaro omonimlik (shakldoshlik) hosil qilgan?

A) *to‘plam-akam*
**B) ishlang-opang**
C) *do‘sti-boyi*
D) *barchasi to‘g‘ri*

365. 4.1-2 file-» 20 - 1 - - (700067)
Yig‘in, yog‘in, erkin, yashirin, ko‘rin, artin
Ushbu so‘zlar tarkibidagi-in qo‘shimchasi ma’no va vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha?

A) *ot va sifat yasovchi*
B) *ot yasovchi va nisbat shakli*
C) *sifat yasovchi va nisbat shakli*
**D) so‘z yasovchi va nisbat shakli**

366. 4.1-2 file-» 1 - 47 - - (700068)
Mehmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko‘zlari katta ochildi. Ushbu gapda birgina nutq tovushidan iborat qo‘shimchalar miqdorini aniqlang.

A) *1* B) *2* C) *3* **D)** *4*

367. 4.1-2 file-» 1 - 48 - - (700069)
-moq, -ma, -sa qo‘shimchalarining qaysi biri ham so‘z yasovchi, ham shakl yasovchi shakldosh qo‘shimcha vazifasini bajarishi mumkin?

A) *-ma* B) *-sa, -moq* C) *-ma, -moq*
**D)** *-moq, -ma, -sa*

368. 4.1-2 file-» 1 - 48 - - (700070)
avaylaylik so‘zi qaysi qatorda ma’noli qism(morfema)larga to‘g‘ri ajratilgan?

A) *ava+y+la+y+lik* B) *avay+la+y+lik*
**C)** *avayla+y+lik* D) *avaylay+lik*

369. 4.1-2 file-» 12 - 4 - - (700071)
Ilmsiz iliksiz so‘ngak kabi bo‘shdir, iliksiz so‘ngakka qo‘l urilmaydi.
Ushbu gapda nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha ishtirok etgan?

**A)** *3* B) *4* C) *5* D) *6*

370. 4.1-2 file-» 12 - 4 - - (700072)
Bilim bilan kishining martabasi oshadi, ilmsizlik kishini tubanlashtiradi.
Ushbu gapda nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha ishtirok etgan?

**A)** *4* B) *3* C) *5* D) *2*

371. 4.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715038)
O‘zak va qo‘shimchaga ajratish bilan bo‘g‘inga ajratish teng kelgan so‘zlarni toping.
1) o‘yna; 2) o‘yla; 3) sabrsizlikdan; 4) bargi; 5) suvsizlik; 6) ko‘nglim; 7) tongga

A) *1, 2, 3, 6, 7* **B)** *2, 3, 5, 7* C) *1, 2, 5, 7*
D) *1, 2, 4, 7*

372. 4.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715039)
Asos + so'z yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha shaklidagi so'zlar qatorini toping.

A) *kechikmoq, unumdorlik, uzumchilik*
B) *qo'rqinch, isitma, taraqqiyot*
**C) epchillik, sanoq, tinimsiz**
D) *jismoniy, bilimdon, qadimiy*

373. 4.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715040)
So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar shakldosh (omonim) qo'llangan qatorni toping.

A) *bitir, eskir, tushuntir*
**B) chiqar, ko'kar, kelar**
C) *oshat, ishlat, isit*
D) *boray, uxlat, taray*

374. 4.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715045)
**Maqsadim – a'lo o'qish.**
**O'quvchilar she'rni baravar o'qishdi.**
Ushbu gaplardagi fe'llar tarkibida kelgan -sh qo'shimchasi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) *bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, 1-gapda nisbat shakli, 2-gapda vazifa shakli qo'shimchasi*
**B) bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, 1-gapda vazifa shakli, 2-gapda nisbat shakli qo'shimchasi**
C) *bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, har ikkala gapda vazifa shakli qo'shimchasi*
D) *bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, 1-gapda ot yasovchi, 2-gapda nisbat shakli qo'shimchasi*

375. 4.1-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715046)
Turnalar!
Kelinglar, yelkamga qo'ning!
Qo'llarimga qo'ning,
Boshim,
Ko'ksimga ...
Ne tog'lardan oshgan ho'l qanotingiz
Tars-tars urilsinlar yuzim-ko'zimga.
O.Matjon she'ridan olingan ushbu parchada nechta munosabat shakli bor?

A) *14 ta* B) *16 ta* C) *13 ta* D) *15 ta*

376. 5.1-2 file-» 41 - 4 - - (231593)
Қайси жавобда ҳам от, ҳам сифат ясовчи шаклдош (омоним) қўшимчалар берилган?

A) *-боз, -дор, -к, -лик, -чи*
B) *-дўз, -ги, -чан, -к, -ма*
C) *-қ, -ин, -кор, -дон, -дош*
D) *-а, -гар, -ч, -каш, -и*

377. 5.1-2 file-» 1 - 38 - - (232327)
Феълдан сифат ясовчи қўшимчалар қайси қаторда берилган?

A) *-қи, -вий, -к* B) *-аки, -оқ, -чоқ*
C) *-қ, -иқ, -ий* D) *-қ, -ин, -ма*

378. 5.1-2 file-» 1 - 38 - - (232331)
Қайси қатордаги ясама сўзлар таркибида фақат жарангсиз ундошлар мавжуд?

A) *тошлоқ, қайноқ* B) *пахтакор, сочиқ*
C) *тўшак, ички* D) *кўмакдош, кўргазма*

379. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (237880)
Қайси қатордаги гапда содда туб феъл иштирок этган?

**A) Кунлардан бир куни Дуррож: "Мен тузоққа тушдим!"- деб шерни алдади.**
B) *Бутун мавжудот қайтадан яшармоқда.*
C) *Бир-биримиз билан эски қадрдонлардек суҳбатлашдик.*
D) *Дунёда пок одамлар қанчалик кўпайса, нопок одамлар шунчалик камаяди.*

380. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (237881)
Қайси гапда равишдан ясалган феъллар берилган?

**A) Миртурсун Халифанинг теракзорига яқинлашгач, қадамини секинлатди.**
B) *Пешонангиз деворга қарсиллаб урилганидан кейин эсингиз киради.*
C) *Изғириндан кўзлар ёшланди, оёқ остидаги қор ғирчиллайди.*
D) *Шокарим ухладими, йўқми, билолмади.*

381. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (237882)
Қайси қатордаги гапда қўшма феъллар берилган?

A) *Дадасининг қўлидан ушлаб, дикир-дикир сакраб, ўйноқлаб кета берди.*
**B) Ҳаким бобо ҳар бир ниҳолни парвариш қиларди.**
C) *Бугун ҳаво жуда исиб кетди.*
D) *Машинада у-буларни юборасиз.*

382. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (237894)
Қайси гапдаги феъл таркибида кўмакчи феъл мавжуд?

A) *Ҳаким бобо ҳар бир ниҳолни парвариш қиларди.*
**B) Ўйин-кулги, аския ярим кечагача чўзилиб кетди.**
C) *Онам билан мириқиб суҳбатлашдик.*
D) *Чойхоначи патнисда нон билан қанд- қурс, кабобпаз кабоб олиб келди.*

383. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (237897)
Одобли ва адолатли инсон қўлидаги қалам бахт-саодат учун хизмат қилувчи одамларни завқлантиради, бир-бирига яқинлаштириб, дўстликни мустаҳкамлайди.
Ушбу гапдаги ясама сўзлар миқдорини топинг.
A) *4* B) *5* C) *6* **D) *7***

384. 5.1-2 file-» 71 - 5 - - (241325)
Қайси қаторда сўз ясовчи ва луғавий шакл ясовчи қўшимча ўзаро шаклдошлик ҳосил қилган?
**A) билинди - экинлар**
B) *кўришмоқ - ўрганиш*
C) *ўқилди - бурилди*
D) *қўлланма - қазилма*

385. 5.1-2 file-» 71 - 5 - - (241335)
-қ қўшимчаси қайси ўзаклардан фақат сифат ясайди?
A) *титра, чанқа, сува*
**B) *порла, тарқа, қайна*** C) *ўта, тая, сана*
D) *тара, қула, ата*

386. 5.1-2 file-» 71 - 5 - - (241344)
Қайси шаклдош сўзлардаги қўшимчалар таркиби бир хил эмас?
A) *Инсонларнинг асосий алоқа воситаси тилдир. Юрагингни бевафога тилдир.*
**B) Бу кўзлар нимани кўзлар.**
C) *Шўрвани косага сузди. Сувда беармон сузди.*
D) *Меҳмонлар олдига дастурхон ёзилди. У тўгаракка ёзилди.*

387. 5.1-2 file-» 1 - 39 - - (241386)
Муносабат шаклларини ҳосил қилувчи қўшимчалар қайси қаторда берилган?
A) *-оқ, -чи, -зор* B) *-лар, -ган, -иб*
**C) *-и, -им, -нинг*** D) *-гунча, -май, -мас*

388. 5.1-2 file-» 1 - 39 - - (241400)
Судраттирмоқ сўзи таркибидаги қўшимчалар вазифасига кўра қандай қўшимча ҳисобланади?
**A) луғавий шакл ясовчи**
B) *сўз ясовчи, луғавий шакл ясовчи*
C) *луғавий шакл ясовчи ва синтактик шакл ясовчи*
D) *синтактик шакл ясовчи*

389. 5.1-2 file-» 1 - 40 - - (241442)
Қуйидаги сўзлардан қайси бири бугунги кунда ясама сўз ҳисобланмайди?
1) юмшоқ; 2) илиқ; 3) силлиқ; 4) моддий.
A) *4* B) *1, 3, 4* C) *2, 3, 4* **D) *3, 4***

390. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241718)
Қайси ясама сўзда лаб ундоши иштирок этган?
A) *савлат* B) *гулзор* **C) *билимдон***
D) *ошиқ*

391. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241719)
Қандай ҳолатда сўз охиридаги жарангсиз ундош жаранглига айланиши мумкин?
A) *сўзга жарангли товуш билан бошланган қўшимча қўшилганда*
B) *сўзга жарангсиз товуш билан бошланган қўшимча қўшилганда*
**C) сўзга унли билан бошланган қўшимча қўшилганда**
D) *сўзга жўналиш келишиги қўшимчаси қўшилганда*

392. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241729)
Қайси қатордаги жуфт сифатларнинг қисмлари ясама сўзлардан ташкил топган?
**A) *узуқ-юлуқ*** B) *увада-чувада*
C) *яримта-юримта* D) *нозик-ниҳол*

393. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241730)
тинчликсевар сўзи таркибида нечта сўз ясовчи қўшимча мавжуд?
A) *1 та* **B) *2 та*** C) *3 та* D) *4 та*

394. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241740)
Берилган бирликлардан қайси бири ясама сўз ҳисобланмайди?
A) *шаршараларни* B) *жавоб бермоқ*
**C) *айтиб қўймоқ*** D) *қораймоқ*

395. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241742)
Таркибида ясама сўз мавжуд бўлган гапни топинг.
**A) Эртани деган узоқни кўзлар.**
B) *Жой олма, қўшни ол.*
C) *Олимдан от қолади, нодондан - дод.*
D) *Текиннинг миннати кўп, меҳнатнинг - зийнати.*

396. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241744)
Туб сўзни топинг.
A) *санамоқ* B) *ранжимоқ* C) *йўламоқ*
**D) *тақамоқ***

397. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241745)
-ир қўшимчаси вазифасига кўра қандай қўшимча ҳисобланади?
A) *сўз ясовчи* B) *луғавий шакл ясовчи*
C) *синтактик шакл ясовчи*
**D) *сўз ясовчи ва луғавий шакл ясовчи***

398. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241746)
-ин қўшимчаси билан ясалган сифатлар қайси қаторда берилган?

A) *тиқин, йиғин* B) *чиркин, ёғин*
**C)** *тўкин, эркин* D) *қўшин, оташин*

399. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (241747)
Берилган қайси сўзларда бе- ва - сиз қўшимчаларини ўзаро маънодош қўшимча сифатида қўллаб бўлмайди?

A) *файз, ахлоқ*
B) *ҳафсала, гуноҳ*
**C) бош, чора**
D) *берилган сўзларда ўзаро маънодош қўшимча сифатида қўллаш мумкин*

400. 5.1-2 file-» 41 - 4 - - (301091)
Qaysi javobda ham ot, ham sifat yasovchi shakldosh (omonim) qo‘shimchalar berilgan?

**A)** *-boz, -dor, -k, -lik, -chi*
B) *-do‘z, -gi, -chan, -k, -ma*
C) *-q, -in, -kor, -don, -dosh*
D) *-a, -gar, -ch, -kash, -i*

401. 5.1-2 file-» 1 - 38 - - (301092)
Fe’ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda berilgan?

A) *-qi, -viy, -k* B) *-aki, -oq, -choq*
C) *-q, -iq, -iy* **D)** *-q, -in, -ma*

402. 5.1-2 file-» 1 - 38 - - (301093)
Qaysi qatordagi yasama so‘zlar tarkibida faqat jarangsiz undoshlar mavjud?

A) *toshloq, qaynoq* B) *paxtakor, sochiq*
**C)** *to‘shak, ichki* D) *ko‘makdosh, ko‘rgazma*

403. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (301094)
Qaysi qatordagi gapda sodda tub fe’l ishtirok etgan?

**A) Kunlardan bir kuni Durroj: ”Men tuzoqqa tushdim!”- deb sherni aldadi.**
B) *Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.*
C) *Bir-birimiz bilan eski qadrdonlardek suhbatlashdik.*
D) *Dunyoda pok odamlar qanchalik ko‘paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi.*

404. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (301095)
Qaysi gapda ravishdan yasalgan fe’llar berilgan?

**A) Mirtursun Xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, qadamini sekinlatdi.**
B) *Peshonangiz devorga qarsillab urilganidan keyin esingiz kiradi.*
C) *Izg‘irindan ko‘zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qor g‘irchillaydi.*
D) *Shokarim uxladimi, yo‘qmi, bilolmadi.*

405. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (301096)
Qaysi qatordagi gapda qo‘shma fe’llar berilgan?

A) *Dadasining qo‘lidan ushlab, dikir-dikir sakrab, o‘ynoqlab keta berdi.*
**B) Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.**
C) *Bugun havo juda isib ketdi.*
D) *Mashinada u-bularni yuborasiz.*

406. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (301097)
Qaysi gapdagi fe’l tarkibida ko‘makchi fe’l mavjud?

A) *Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.*
**B) O‘yin-kulgi, askiya yarim kechagacha cho‘zilib ketdi.**
C) *Onam bilan miriqib suhbatlashdik.*
D) *Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi.*

407. 5.1-2 file-» 40 - 1 - - (301098)
Odobli va adolatli inson qo‘lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qiluvchi odamlarni zavqlantiradi, bir-biriga yaqinlashtirib, do‘stlikni mustahkamlaydi.
Ushbu gapdagi yasama so‘zlar miqdorini toping.

A) *4* B) *5* C) *6* **D)** *7*

408. 5.1-2 file-» 71 - 5 - - (301099)
Qaysi qatorda so‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha o‘zaro shakldoshlik hosil qilgan?

**A) bilindi - ekinlar**
B) *ko‘rishmoq - o‘rganish*
C) *o‘qildi - burildi*
D) *qo‘llanma - qazilma*

409. 5.1-2 file-» 71 - 5 - - (301100)
-q qo‘shimchasi qaysi o‘zaklardan faqat sifat yasaydi?

A) *titra, chanqa, suva* **B)** *porla, tarqa, qayna*
C) *o‘ta, taya, sana* D) *tara, qula, ata*

410. 5.1-2 file-» 71 - 5 - - (301101)
Qaysi shakldosh so‘zlardagi qo‘shimchalar tarkibi bir xil emas?

A) *Insonlarning asosiy aloqa vositasi tildir. Yuragingni bevafoga tildir.*
**B) Bu ko‘zlar nimani ko‘zlar.**
C) *Sho‘rvani kosaga suzdi. Suvda bearmon suzdi.*
D) *Mehmonlar oldiga dasturxon yozildi. U to‘garakka yozildi.*

411. 5.1-2 file-» 1 - 39 - - (301102)
Munosabat shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar qaysi qatorda berilgan?
A) *-oq, -chi, -zor* B) *-lar, -gan, -ib*
C) *-i, -im, -ning* D) *-guncha, -may, -mas*

412. 5.1-2 file-» 1 - 39 - - (301103)
Sudrattirmoq so‘zi tarkibidagi qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha hisoblanadi?
**A) lug‘aviy shakl yasovchi**
B) *so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi*
C) *lug‘aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi*
D) *sintaktik shakl yasovchi*

413. 5.1-2 file-» 1 - 40 - - (301104)
Quyidagi so‘zlardan qaysi biri bugungi kunda yasama so‘z hisoblanmaydi?
1) yumshoq; 2) iliq; 3) silliq; 4) moddiy.
A) *4* B) *1, 3, 4* C) *2, 3, 4* D) *3, 4*

414. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301105)
Qaysi yasama so‘zda lab undoshi ishtirok etgan?
A) *savlat* B) *gulzor* C) *bilimdon*
D) *oshiq*

415. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301106)
Qanday holatda so‘z oxiridagi jarangsiz undosh jarangliga aylanishi mumkin?
A) *so‘zga jarangli tovush bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilganda*
B) *so‘zga jarangsiz tovush bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilganda*
**C) so‘zga unli bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilganda**
D) *so‘zga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda*

416. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301107)
Qaysi qatordagi juft sifatlarning qismlari yasama so‘zlardan tashkil topgan?
A) *uzuq-yuluq* B) *uvada-chuvada*
C) *yarimta-yurimta* D) *nozik-nihol*

417. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301108)
tinchliksevar so‘zi tarkibida nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud?
A) *1 ta* B) *2 ta* C) *3 ta* D) *4 ta*

418. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301109)
Berilgan birliklardan qaysi biri yasama so‘z hisoblanmaydi?
A) *sharsharalarni* B) *javob bermoq*
C) *aytib qo‘ymoq* D) *qoraymoq*

419. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301110)
Tarkibida yasama so‘z mavjud bo‘lgan gapni toping.
**A) Ertani degan uzoqni ko‘zlar.**
B) *Joy olma, qo‘shni ol.*
C) *Olimdan ot qoladi, nodondan - dod.*
D) *Tekinning minnati ko‘p, mehnatning - ziynati.*

420. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301111)
Tub so‘zni toping.
A) *sanamoq* B) *ranjimoq* C) *yo‘lamoq*
D) *taqamoq*

421. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301112)
-ir qo‘shimchasi vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha hisoblanadi?
A) *so‘z yasovchi* B) *lug‘aviy shakl yasovchi*
C) *sintaktik shakl yasovchi*
D) *so‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi*

422. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301113)
-in qo‘shimchasi bilan yasalgan sifatlar qaysi qatorda berilgan?
A) *tiqin, yig‘in* B) *chirkin, yog‘in*
C) *to‘kin, erkin* D) *qo‘shin, otashin*

423. 5.1-2 file-» 1 - 41 - - (301114)
Berilgan qaysi so‘zlarda be- va -siz qo‘shimchalarini o‘zaro ma’nodosh qo‘shimcha sifatida qo‘llab bo‘lmaydi?
A) *fayz, axloq*
B) *hafsala, gunoh*
**C) bosh, chora**
D) *berilgan so‘zlarda o‘zaro ma’nodosh qo‘shimcha sifatida qo‘llash mumkin*

424. 5.1-2 file-» 1 - 43 - - (400091)
**”Manmanlik insonga yarashmaydi, birlik doimo kishini kamolot sari yetaklaydi”, - dedi bobo sevinchdan ko‘zlari chaqnab.**
Berilgan gapdagi mavhum otlar qaysi so‘z turkumidan yasalgan?
A) *sifat, son, ot, fe’l*
B) *olmosh, son, sifat, fe’l* C) *olmosh, ot, sifat*
D) *ot, sifat*

425. 5.1-2 file-» 40 - 3 - - (400092)
**Bir bola ulg‘aygach, otasi unga ishlab pul topib kelishni buyurdi.**
Ushbu gapdagi yasama so‘zlar sonini toping.
A) *1 ta* B) *2 ta* C) *3 ta* D) *4 ta*

426. 5.1-2 file-» 40 - 3 - - (400093)
Quyida berilgan gapda qaysi so'z turkumiga mansub yasama so'zlar qo'llangan?
**Devor bo'ylab yuksalgan daraxtlarning tepasida yirik-yirik oshqovoqlar quyoshning so'nggi shu'lalari bilan oltinlanardi.**
A) *ot va fe'l* B) *ot, ravish, fe'l*
**C)** *ot, sifat, fe'l* D) *sifat va fe'l*

427. 5.1-2 file-» 40 - 3 - - (400094)
**-choq** qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?
A) *lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi*
B) *sintaktik shakl yasovchi, so'z yasovchi*
C) *lug'aviy shakl yasovchi, sifat yasovchi*
**D) lug'aviy shakl yasovchi, ot va sifat yasovchi**

428. 5.1-2 file-» 40 - 3 - - (400095)
**Men vazifani bajaray. U hovlisini ancha kengaytirdi.**
Ushu gaplardagi fe'llar tarkibida kelgan **-ay** qo'shimchasi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
**A) bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, 1-gapda buyruq-istak mayli, 2-gapda fe'l yasovchi qo'shimcha**
B) *bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, 1-gapda fe'l yasovchi, 2-gapda buyruq-istak mayli qo'shimchasi*
C) *bu qo'shimcha shakldosh bo'lib, 1-gapda ravishdosh shakli, 2-gapda fe'l yasovchi qo'shimcha*
D) *har ikkala gapda buyruq-istak mayli qo'shimchasi*

429. 5.1-2 file-» 40 - 3 - - (400096)
Qaysi qo'shimcha xoslik belgisini bildiruvchi sifat yasaydi?
**A)** *-iy (-viy)* B) *-simon* C) *-gi (-qi)*
D) *-mand*

430. 5.1-2 file-» 1 - 46 - - (400097)
Darvoqe, pand bersang bir jonga,
U ham tinch turarmi hech zamon.
Deydilar, tuflasang osmonga,
Yuzingga tushgaydir begumon. (A.Oripov)
Ushbu misralarda qo'llangan so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini aniqlang.
A) *1 ta* B) *2 ta* **C)** *3 ta* D) *4 ta*

431. 5.1-2 file-» 1 - 46 - - (400098)
-ay qo'shimchasi qaysi so'z turkumlaridan fe'l yasaydi?
A) *sifatdan* B) *ravishdan*
C) *sifat va ravishdan*
**D)** *ot, sifat va ravishdan*

432. 5.1-2 file-» 1 - 38 - - (400099)
Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?
A) *-qi, -viy, -k* B) *-aki, -oq, -choq*
C) *-q, -iq, -iy* **D)** *-li, -iq, -a*

433. 5.1-2 file-» 5 - 1 - - (400100)
**Dunyoviy bilimga ega, odobli, ilmli, barkamol va shijoatli farzandlarni tarbiyalash shu kunning bosh vazifasidir.**
Ushbu gapda yasama so'zlar soni –
A) *5 ta* B) *6 ta* **C)** *7 ta* D) *8 ta*

434. 5.1-2 file-» 1 - 44 - - (400101)
Quyida berilgan gapdagi ism asoslariga qanday shakllar qo'shilib kelgan?
**Ra'noning yerga qaragan ko'zi sekin Anvarga ko'tarilib, yana yerga og'di.** (A.Qodiriy)
A) *lug'aviy shakl qo'shimchasi*
**B) munosabat shakllari**
C) *munosabat shakllari, lug'aviy shakl qo'shimchasi*
D) *munosabat shakllari, kichraytirish-erkalash qo'shimchasi*

435. 5.1-2 file-» 1 - 44 - - (400102)
Quyida berilgan gapda qanday qo'shimcha yo'q?
**Yaxshilik insonning umrini ziyoda qiladi.**
**A) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha**
B) *lug'aviy shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimchalar*
C) *sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar*
D) *qo'shimchalarning barcha turi bor*

436. 5.1-2 file-» 1 - 44 - - (400103)
**Mehmon jiddiylashdi, bir narsani isbotlamoqchiday bir keskin gapirdi.**
Ushbu gapdagi yasama so'zlarning qaysi so'z turkumidan yasalganligini aniqlang.
A) *fe'l, ot, ravish* B) *ot, ravish*
**C)** *fe'l, ot, sifat* D) *ot, fe'l*

437. 5.1-2 file-» 1 - 44 - - (400104)
**Odobli va adolatli inson qo'lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavqlantiradi, bir-biriga yaqinlashtirib, do'stlikni mustahkamlaydi.**
Berilgan gapdagi sodda fe'llar qaysi turkumdan yasalgan?
**A)** *sifat, ot* B) *sifat* C) *ot*
D) *ot, sifat, ravish*

438. 5.1-2 file-» 1 - 44 - - (400105)
**Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga urilib, shovullab oqyapti.**
Berilgan gapdagi yasama so'z qanday sintaktik vazifani bajargan?
A) *aniqlovchi* B) *to'ldiruvchi* **C)** *hol*
D) *kesim*

439. 5.1-2 file-» 1 - 44 - - (400106)
Qaysi gapda sifatdan yasalgan fe'l bor?
A) *Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik.*
B) *Peshonangiz devorga qarsillab urilgandan keyin esingiz kiradi.*
**C) Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.**
D) *Dunyoda pok odamlar qanchalik ko'paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi.*

440. 5.1-2 file-» 40 - 6 - - (700073)
Fe'l+fe'l shaklidagi qo'shma fe'llarni toping.
A) *sotib yubormoq, o'ylab qolmoq*
**B) olib qochmoq, ishlab chiqarmoq**
C) *quvonib keldi, shoshirib qo'ydi*
D) *isib ketdi, yozib bordi*

441. 5.1-2 file-» 40 - 6 - - (700074)
Qaysi so'zda so'z yasovchi qo'shimcha sintaktik shakl yasovchidan keyin qo'shilgan?
**A)** *o'zicha* B) *eskicha* C) *ko'nikma*
D) *atroflicha*

442. 5.1-2 file-» 40 - 6 - - (700075)
Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi.
Ushbu gapdagi mustaqil so'zlar sonini aniqlang.
A) *9* **B)** *7* C) *8* D) *6*

443. 5.1-2 file-» 40 - 6 - - (700076)
To'qlikda ochlikni o'yla, boyiganda muhtojlikni.
Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang.
**A)** *5* B) *4* C) *3* D) *2*

444. 5.1-2 file-» 20 - 1 - - (700077)
Qaysi qatorda sifatning orttirma darajasi yasama sifatdan hosil qilingan?
A) *Qorboboning ko'm-ko'k ko'zlarida rango-rang lampochkalarga mahliyo bo'lib turgan bolalarni ko'raman.*
**B) Qirg'ovul O'rta Osiyodagi eng chiroyli qushlardan biridir.**
C) *Hovli ham, uy ham bo'm-bo'sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi.*
D) *Barcha javoblar to'g'ri*

445. 5.1-2 file-» 20 - 1 - - (700078)
Qaysi gapda so'z yasovchi qo'shimchani qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?
1.Buqrotdan so'radilar: ”Baodob bilan noodobning o'rtasidagi farq nimada?”
2.Bir hakimdan: ”Ko'rkam, yaxshi xulqdor kishi kim?”-deb so'radilar.
3.Vatanning meni jon-u tanim, sajdagohimdir.
**A)** *1, 2* B) *1, 2, 3* C) *1, 3* D) *2, 3*

446. 5.1-2 file-» 20 - 1 - - (700079)
Qaysi misollarda so'z yasovchi qo'shimcha shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik (shakldoshlik) hosil qilgan?
1) qalamdon, bilimdon 2) toshqin, jo'shqin 3) kelinchak, erinchak 4) qo'llanma, gapirma
A) *1, 2* **B)** *3, 4* C) *1, 3, 4* D) *1, 2, 3, 4*

447. 5.1-2 file-» 20 - 1 - - (700080)
Gapirganda ovozi xuddi ichidan chiqqanday guldurab, jaranglab eshitiladi.
Ushbu gapda nechta yasama fe'l bor va ular qaysi so'z turkumlaridan hosil bo'lgan?
**A) 3 ta, ot va taqlid so'zdan**
B) *2 ta, ot va taqlid so'zdan*
C) *3 ta, ot, taqlid so'z va undov so'zdan*
D) *2 ta, ot va fe'ldan*

448. 5.1-2 file-» 20 - 1 - - (700081)
Azizlar! Bir kuni kelib afsus-nadomatning zahar-zaqqum sharobini ichmaslik uchun qo'lning kiri bo'lgan mol-mulkni insoniy qadr-qiymatdan yuqori qo'ymaylik.
Ushbu gapda juft so'zlar qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?
1) vositali to'ldiruvchi 2) vositasiz to'ldiruvchi 3) sifatlovchi aniqlovchi 4) qaratqich aniqlovchi 5) ega 6) kesim
A) *1, 2, 4* **B)** *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 4, 6*
D) *1, 2, 4, 5*

449. 5.1-2 file-» 20 - 1 - - (700082)
Barcha maqtanchoqlarning birdan-bir qismati shuki, ular ertami, kechmi pand yeyishadi.
Ushbu gapda ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh bilan ifodalangan qaysi gap bo'lagini izohlab kelgan?
A) *egani* **B)** *kesimni* C) *to'ldiruvchini*
D) *aniqlovchini*

450. 5.1-2 file-» 1 - 48 - - (700083)
Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida qaysi so'z turkumlaridan yasalishi mumkin?
1) otlardan; 2) fe'llardan; 3) ravishlardan; 4) olmoshlardan; 5) sifatlardan
A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 5* **C)** *1, 3, 4, 5*
D) *1, 2, 5*

451. 5.1-2 file-» 1 - 48 - - (700084)
Ota-bobolarimiz hamisha astoydil olg‘a intilganlar.
Ushbu gapda qo‘llangan ravishning ma’no turini aniqlang.

A) *o‘rin ravishi* B) *payt va holat ravishari*
**C)** *holat, o‘rin va payt ravishlari*
D) *o‘rin va payt ravishlari*

452. 5.1-2 file-» 20 - 2 - - (700085)
Taqlid so‘zlardan ko‘proq qaysi turkumdagi so‘zlar yasaladi?

A) *sifat* B) *ot* **C)** *fe’l*
D) *taqlid so‘zlardan so‘z yasalmaydi*

453. 5.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715047)
Vatan tuyg‘usi – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatning fidoyi fuqarosi bo‘lmoqqa intilish tuyg‘usidir.
Ushbu gapdagi qo‘shimchalar turi va miqdorini toping.

**A) 3 ta so‘z yasovchi, 2 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 8 ta sintaktik shakl yasovchi**
B) *2 ta so‘z yasovchi, 2 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 7 ta sintaktik shakl yasovchi*
C) *1 ta so‘z yasovchi, 1 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 6 ta sintaktik shakl yasovchi*
D) *2 ta so‘z yasovchi, 2 ta lug‘aviy shakl yasovchi, 8 ta sintaktik shakl yasovchi*

454. 5.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715048)
Qaysi qatordagi gapda yasama so‘z qo‘llangan?

A) *O‘ktam ham yo‘g‘on arqonni siltab-siltab ko‘rdi.*
B) *Dor atrofida aylanib uning uskunasini qiziqib ko‘zdan kechirdi.*
C) *Oy nurida uzoqdagi qirlar oppoq ko‘rinadi.*
**D) Chol daryo yoqasiga baliq ovlagani ketibdi.**

455. 5.1-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715053)
Qaysi qatordagi narsa oti yasovchi qo‘shimchalar omonimlik (shakldoshlik) xususiyatiga ega?

**A) -g‘ich, -don, -gi, -ma**
B) *-oq, -don, -kor, -paz*
C) *-moq, -gich, -dor, -paz*
D) *-kash, -k, -furush, -qi*

456. 5.1-3 file-» 20 - 1 - - (700086)
1) sayroqi-tutatqi 2) otashin-g‘ishtin 3) qishlik-yoshlik 4) chizg‘ich-yulg‘ich 5) oqshomgi-sezgi 6) erinchoq-maqtanchoq
Berilgan juftliklarning qaysilarida ot va sifat yasovchi omonim (shakldosh) qo‘shimchalar ishtirok etgan?

A) *2, 3, 4, 5, 6*
**B) 1, 3, 4, 5**
C) *1, 2, 4, 5*
D) *barchasida omonim qo‘shimchalar ishtirok etgan*

457. 5.1-3 file-» 20 - 1 - - (700087)
Chin do‘st uldirkim, do‘stidan hech qachon ranjimaydi, agar xafa bo‘lsa ham, uzrini qabul qiladi.
Ushbu gapda nechta yasama fe’l bor?

A) *1 ta*
B) *2 ta*
**C) 3 ta**
D) *yasama fe’l mavjud emas*

458. 5.1-3 file-» 20 - 1 - - (700088)
Bilimdon, madaniyatli odam bilan johil, nodon, savodsiz o‘rtasida katta farq bor. Bu dunyoning go‘zalligi, boyligi, betakror saxovati ilm-hunar, san’at tufaylidir.
Ushbu gaplarda so‘z yasovchi qo‘shimchalar soni nechta?

A) *6 ta* B) *7 ta* **C)** *8 ta* D) *9 ta*

459. 5.1-3 file-» 1 - 47 - - (700089)
Qanday so‘zlar vazifadosh bog‘lovchilar bo‘lishi mumkin?
1) ko‘makchilar; 2) yuklamalar; 3) modal so‘zlar; 4) taqlid so‘zlar; 5) bog‘lovchilar

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 4* **C)** *1, 2, 3*
D) *1, 2*

460. 5.1-3 file-» 1 - 47 - - (700090)
Gap bo‘laklari va gaplarni tobelantirib bog‘lovchi, ular orasidagi shart ma’nosini ifodalovchi bog‘lovchini toping.

A) *ya’ni* B) *negaki* **C)** *garchi*
D) *balki*

461. 5.1-3 file-» 1 - 47 - - (700091)
Binobarin so‘zi qaysi so‘z turkumiga oid so‘z hisoblanadi?

A) *ko‘makchi* B) *yuklama*
**C)** *modal so‘z* D) *ravish*

462. 5.1-3 file-» 1 - 47 - - (700092)
Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ust tomoni qayrilgan o'ymakor panjarali, katta va og'ir darvozaga yetganda, yigitning yuragi bir oz o'ynab ketdi.
Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'zlar soni nechta?

A) *1 ta*
**B) 2 ta**
C) *3 ta*
D) *fonetik qoida asosida yozilgan yasama so'z mavjud emas*

463. 5.1-3 file-» 1 - 48 - - (700093)
-(a) r qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlardan sifatdoshning bo'lishsiz shakli hosil qilinganda qanday fonetik o'zgarish vujudga keladi?

**A) tovush almashinishi**
B) *tovush tushishi*
C) *tovush orttirilishi*
D) *tovush o'zgarishi sodir bo'lmaydi*

464. 5.1-3 file-» 1 - 48 - - (700094)
Qaysi qatordagi yasama so'zda so'z yasovchi shakl yasovchidan so'ng joylashgan?

A) *kesatmoq* **B) *qaqshatqich*** C) *buyruq* D) *torayish*

465. 5.1-3 file-» 11 - 6 - - (700095)
Quyidagi qaysi so'zlar bir asosdan yasalgan?
1. botiniy 2. botir 3. botiq 4. botqoq 5. botartib 6. botmon

**A) *3, 4*** B) *1, 2, 3* C) *2, 3, 5* D) *1, 3, 4, 6*

466. 5.1-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715054)
Mehmon jiddiylashdi, nimanidir isbotlamoqchiday bir keskin gapirdi.
Ushbu gapdagi yasama so'zlar miqdorini toping.

**A) *4 ta*** B) *3 ta* C) *2 ta* D) *5 ta*

467. 5.1-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715057)
Quyidagi gapda nechta yasama so'z qo'llangan?
**Atirgul ushlagan og'iroyoq ayolga boqib, to'g'risi, bolalarcha sodda xayollar olamiga sho'ng'ib, uning sevinch to'la nigohidan ertakdagi baxt malikalarining porloq orzularini his etdim.**

A) *6 ta* B) *3 ta* C) *5 ta* **D) *7 ta***

468. 5.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715058)
Qaysi qatordagi so'zlar fe'lning nisbat shakliga qo'shimcha qo'shish orqali hosil bo'lgan?

A) *o'roq, tugma, qirg'ich*
**B) o'chirg'ich, qurilma, achitqi**
C) *tishkovlagich, yutuq, suzma*
D) *barcha so'zlar*

469. 6.1-2 file-» 1 - 38 - - (231471)
чоғли, бўйлаб каби кўмакчилар қайси келишик шаклидаги сўзларга қўшилади?

**A) *бош келишигидаги***
B) *қаратқич келишигидаги*
C) *жўналиш келишигидаги*
D) *чиқиш келишигидаги*

470. 6.1-2 file-» 1 - 38 - - (231472)
олд, ост, уст сингари вазифадош кўмакчилар қайси келишик шаклидаги сўзларга қўшилади?

A) *бош келишиги* **B) *қаратқич келишиги*** C) *жўналиш келишиги* D) *чиқиш келишиги*

471. 6.1-2 file-» 1 - 38 - - (231477)
-гина қўшимчаси қайси туркумга оид сўзларга қўшилиб, маънони кучайтириш, эркалаш, таъкидлаш учун ишлатилади?

A) *от, сифат, равиш, феъл*
**B) *от, равиш, сифат*** C) *от, сифат*
D) *фақат отларга*

472. 6.1-2 file-» 41 - 4 - - (231602)
Исмларнинг муносабат шакллари қайси жавобда нотўғри кўрсатилган?

A) *исмларнинг эгалик шакли*
**B) исмларнинг кўплик шакли**
C) *-ман, -сан, -дир қўшимчалари*
D) *бўлмоқ, саналмоқ, ҳисобланмоқ сўзлари*

473. 6.1-2 file-» 41 - 4 - - (231603)
Турланиш нима?

A) *исмларнинг эгалик қўшимчалари билан ўзгариши*
B) *исмларнинг келишик қўшимчалари билан ўзгариши*
**C) исмларнинг эгалик ва келишик қўшимчалари билан ўзгариши**
D) *исмларнинг кўплик қўшимчаси билан қўлланиши*

474. 6.1-2 file-» 41 - 4 - - (231604)
Жўналиш келишиги қўшимчасини олган сўзлар гапда қандай бўлак вазифасини бажаради?

**A) воситали тўлдирувчи, ўрин ҳоли, пайт ҳоли**
B) *воситали тўлдирувчи, ўрин ҳоли*
C) *фақат воситали тўлдирувчи*
D) *воситали тўлдирувчи, ўрин ҳоли, вазият ҳоли*

475. 6.1-2 file-» 40 - 1 - - (237876)
Қайси қўшимчалар сўзларнинг муносабат шаклларини ҳосил қилади?

A) *кўплик, кичрайтириш ва эркалаш қўшимчалари*
**B) эгалик, келишик, -ман, -сан, -дир қўшимчалари**
C) *феъл нисбатлари ва феъл замонлари қўшимчалари*
D) *берилганларнинг барчаси сўзларнинг муносабат шаклларини ҳосил қилади.*

476. 6.1-2 file-» 40 - 1 - - (237877)
Қайси қатордаги гапда эгалик қўшимчаси қўлланган?

A) *Кечаси ишлайди, кундузи ухлайди.*
**B) Орадан икки кун ўтгандан кейин Теша Саидийнинг ҳужрасига келди.**
C) *Туни билан мижжа қоқмади.*
D) *Берилган гапларнинг барчасида эгалик қўшимчаси мавжуд.*

477. 6.1-2 file-» 40 - 1 - - (237891)
Бола бошини қўллари орасига қўйиб, Бойсун тоғи узра чарх ураётган булутларга қараб жим қолди.
Ушбу гапда нечта ўринда феълнинг вазифа шакллари қўлланган?

A) *4* B) *2* C) *5* **D) 3**

478. 6.1-2 file-» 78 - 1 - - (241018)
Исмларнинг луғавий шакллари қўлланган жавобни белгиланг.

A) *китобнинг, китобим, ўқувчилар*
**B) уйча, одамлар, ойижон, қуёшдек**
C) *дафтарча, коптокка, қаламим*
D) *фарзандмиз, болам, мушукча*

479. 6.1-2 file-» 78 - 1 - - (241019)
Исмларнинг муносабат шаклларини топинг.
1) -лар; 2) -им; 3) -имиз; 4) -жон; 5) -да; 6) -ча; 7) -дир; 8) -ман; 9) -га; 10) -дай

A) *2, 3, 4, 5, 6, 7* B) *4, 6, 8, 10*
C) *2, 3, 5, 7, 8, 9* D) *6, 9, 10*

480. 6.1-2 file-» 78 - 1 - - (241020)
Исмларни кесим сифатида шакллантирувчи ва эга билан муносабатини ифодаловчи қўшимчаларни топинг.

A) *-ча, -лар, -ман*
B) *-га, -да, -дан*
C) *-дир, -дай, -дек*
**D) -ман, -сан, -дир**

481. 6.1-2 file-» 71 - 5 - - (241333)
-ч қўшимчаси қайси қатордаги сўзлардан от ясайди?

A) *жиркан, тин, севин* B) *ишон, таян, қувон*
C) *ўтин, шошил, ая* D) *қўрқ, тин, қувон*

482. 6.1-2 file-» 1 - 39 - - (241390)
Бош келишикдаги сўз ёки отли бирикма билан ифодаланадиган бир таркибли гап қандай номланади?

A) *тўлиқсиз гап* B) *атов гап* C) *сўз - гап*
D) *киритмалар*

483. 6.1-2 file-» 1 - 40 - - (241440)
Отлар қандай сўроқларга жавоб бўлади?

A) *ким? нима?* B) *ким? нима? қаер?*
C) *ким? нима? қайси?*
D) *ким? нима? қаер? қайси?*

484. 6.1-2 file-» 1 - 38 - - (301115)
chog'li, bo'ylab kabi ko'makchilar qaysi kelishik shaklidagi so'zlarga qo'shiladi?

A) *bosh kelishigidagi*
B) *qaratqich kelishigidagi*
C) *jo'nalish kelishigidagi*
D) *chiqish kelishigidagi*

485. 6.1-2 file-» 1 - 38 - - (301116)
old, ost, ust singari vazifadosh ko'makchilar qaysi kelishik shaklidagi so'zlarga qo'shiladi?

A) *bosh kelishigi* B) *qaratqich kelishigi*
C) *jo'nalish kelishigi* D) *chiqish kelishigi*

486. 6.1-2 file-» 1 - 38 - - (301117)
-gina qo'shimchasi qaysi turkumga oid so'zlarga qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkalash, ta'kidlash uchun ishlatiladi?

A) *ot, sifat, ravish, fe'l* B) *ot, ravish, sifat*
C) *ot, sifat* D) *faqat otlarga*

487. 6.1-2 file-» 41 - 4 - - (301118)
Ismlarning munosabat shakllari qaysi javobda noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) *ismlarning egalik shakli*
**B) ismlarning ko'plik shakli**
C) *-man, -san, -dir qo'shimchalari*
D) *bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq so'zlari*

488. 6.1-2 file-» 41 - 4 - - (301119)
Turlanish nima?

A) *ismlarning egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi*

B) *ismlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi*

**C) ismlarning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi**

D) *ismlarning ko‘plik qo‘shimchasi bilan qo‘llanishi*

489. 6.1-2 file-» 41 - 4 - - (301120)
Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘zlar gapda qanday bo‘lak vazifasini bajaradi?

**A) vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi, payt holi**

B) *vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi*

C) *faqat vositali to‘ldiruvchi*

D) *vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi, vaziyat holi*

490. 6.1-2 file-» 40 - 1 - - (301121)
Qaysi qo‘shimchalar so‘zlarning munosabat shakllarini hosil qiladi?

A) *ko‘plik, kichraytirish va erkalash qo‘shimchalari*

**B) egalik, kelishik, -man, -san, -dir qo‘shimchalari**

C) *fe’l nisbatlari va fe’l zamonlari qo‘shimchalari*

D) *berilganlarning barchasi so‘zlarning munosabat shakllarini hosil qiladi.*

491. 6.1-2 file-» 40 - 1 - - (301122)
Qaysi qatordagi gapda egalik qo‘shimchasi qo‘llangan?

A) *Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi.*

**B) Oradan ikki kun o‘tgandan keyin Tesha Saidiyning hujrasiga keldi.**

C) *Tuni bilan mijja qoqmadi.*

D) *Berilgan gaplarning barchasida egalik qo‘shimchasi mavjud.*

492. 6.1-2 file-» 40 - 1 - - (301123)
Bola boshini qo‘llari orasiga qo‘yib, Boysun tog‘i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi. Ushbu gapda nechta o‘rinda fe’lning vazifa shakllari qo‘llangan?

A) *4* B) *2* C) *5* **D)** *3*

493. 6.1-2 file-» 78 - 1 - - (301124)
Ismlarning lug‘aviy shakllari qo‘llangan javobni belgilang.

A) *kitobning, kitobim, o‘quvchilar*

**B) uycha, odamlar, oyijon, quyoshdek**

C) *daftarcha, koptokka, qalamim*

D) *farzandmiz, bolam, mushukcha*

494. 6.1-2 file-» 78 - 1 - - (301125)
Ismlarning munosabat shakllarini toping.
1) -lar; 2) -im; 3) -imiz; 4) -jon; 5) -da; 6) -cha; 7) -dir; 8) -man; 9) -ga; 10) -day

A) *2, 3, 4, 5, 6, 7* B) *4, 6, 8, 10* **C)** *2, 3, 5, 7, 8, 9* D) *6, 9, 10*

495. 6.1-2 file-» 78 - 1 - - (301126)
Ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi qo‘shimchalarni toping.

A) *-cha, -lar, -man*

B) *-ga, -da, -dan*

C) *-dir, -day, -dek*

**D) -man, -san, -dir**

496. 6.1-2 file-» 71 - 5 - - (301127)
-ch qo‘shimchasi qaysi qatordagi so‘zlardan ot yasaydi?

A) *jirkan, tin, sevin* **B)** *ishon, tayan, quvon* C) *o‘tin, shoshil, aya* D) *qo‘rq, tin, quvon*

497. 6.1-2 file-» 1 - 39 - - (301128)
Bosh kelishikdagi so‘z yoki otli birikma bilan ifodalanadigan bir tarkibli gap qanday nomlanadi?

A) *to‘liqsiz gap* **B)** *atov gap* C) *so‘z - gap* D) *kiritmalar*

498. 6.1-2 file-» 1 - 40 - - (301129)
Otlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

A) *kim? nima?* **B)** *kim? nima? qayer?*
C) *kim? nima? qaysi?*
D) *kim? nima? qayer? qaysi?*

499. 6.1-2 file-» 1 - 43 - - (400107)
**Borish-kelish qilmaysiz, kimdan qoldi ko‘nglingiz.**
Ushbu gapdagi juft so‘z qaysi so‘z turkumiga xos va uning sintaktik vazifasini aniqlang.

**A)** *ot, to‘ldiruvchi* B) *ot, ega*
C) *harakat nomi, ega*
D) *harakat nomi, to‘ldiruvchi*

500. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400108)
Tub otlar berilgan qatorni toping.

A) *saroydagi, ijodkorlar, sartarosh*
B) *qassob, zargarlik, quroldosh*
**C)** *qalpoqcha, do‘stlarimizga, zavqini*
D) *g‘azalxonlar, ijodkorlik, qo‘lqop*

501. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400109)
Yasama otlar berilgan qatorni toping.

A) *saroydagi, ijodkorlar, sartarosh*
B) *qassob, zargarlik, quroldosh*
C) *qalpoqcha, do‘stlarimizga, zavqini*
**D)** *g‘azalxonlar, ijodkorlik, qo‘lqop*

502. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400110)
Qaysi qatorda narsa otlarini yasovchi qo‘shimchalar berilgan?
**A)** *-gi, -k -don, -gich*
B) *-ma, -boz, -kor, -g‘ich*
C) *-indi, -goh, -im, -lik* D) *-oq, -g‘i, -gar, -ak*

503. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400111)
Qaysi qatorda faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar berilgan?
**A) chorvachilik, tanlov, chopiq, loygarchilik, terim**
B) *ezmalik, terim, baxt, hunar, qalam*
C) *chaquv, umum, xayol, yalqovlik, guzar*
D) *xayrlashuv, serobgarchilik, hayot, go‘zallik, hasad*

504. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400112)
Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma’noli asoslardan tarkib topgan otlar . . .
A) *qo‘shma otlardir* **B)** *juft otlardir*
C) *takroriy otlardir*
D) *qo‘shma yoki juft otlar bo‘la oladi*

505. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400113)
Qismlari mavhum otlardan iborat bo‘lgan juft otlar qaysi qatorda berilgan?
A) *yig‘im-terim, kam-ko‘st, huzur-halovat*
B) *orzu-armon, ko‘cha-ko‘y, savdo-sotiq*
**C)** *kuch-g‘ayrat, his-tuyg‘u, aql-idrok*
D) *fan-texnika, arzon-garov, odob-axloq*

506. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400114)
Asosga qo‘shilib, qo‘shimcha ma’no hosil qiluvchi qo‘shimcha qanday qo‘shimcha sanaladi?
A) *so‘z yasovchi qo‘shimcha*
**B)** *lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha*
C) *sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha*
D) *munosabat shakllari*

507. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400115)
Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlarni aniqlang.
A) *tanlov, qaysarlik, uyqu*
**B)** *ipakchilik, sinov, terim*
C) *falokat, muhtojlik, qurilma*
D) *xayrlashuv, namgarchilik, mahalla*

508. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400116)
**Shu sevinch, ikkovlariga ham kuch-g‘ayrat, dadillik baxsh etgandek bo‘ldi.**
Ushbu gapda mavhum otlar sonini aniqlang.
**A)** *3* B) *4* C) *5* D) *6*

509. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400117)
Mavhum otlarni toping.
**A)** *qo‘rqinch, odamiylik, tarovat*
B) *ishonch, dehqonchilik, haqiqat*
C) *suyanch, duradgorlik, samimiyat*
D) *yupanch, ustachilik, qabohat*

510. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400118)
O‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi otlarni aniqlang.
A) *mahalla, bostirma, bezak*
**B)** *ko‘cha, guzar, shahar*
C) *qishloq, to‘plam, toshloq*
D) *tugma, achitqi, qamishzor*

511. 6.1-2 file-» 40 - 3 - - (400119)
Quyidagi birikmalardan qaysilarida shaxs yoki narsaga qarashlilik ma’nosi ifodalanmagan?
A) *ozodlik qadri, ona mehri*
B) *Toshkent ko‘chalari, mahalla idorasi*
**C)** *Mustaqillik bayrami, o‘qish kitobi*
D) *erk tuyg‘usi, ilon zahri*

512. 6.1-2 file-» 40 - 4 - - (400120)
Ismlarning munosabat shakllaridan qaysi biri faqat hokim qism tarkibda qo‘llanadi?
A) *kelishik shakllari*
B) *shaxs-son shakllari*
**C) ismlarni kesimga xoslovchi shakllar**
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

513. 6.1-2 file-» 40 - 4 - - (400121)
Ismlarning munosabat shakllaridan qaysi biri faqat tobe qism tartibida qo‘llanadi?
**A) kelishik shakllari**
B) *egalik shakllari*
C) *shaxs-son shakllari*
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

514. 6.1-2 file-» 40 - 4 - - (400122)
Ismlarning qaysi qo‘shimchalar bilan o‘zgarishi turlanish deyiladi?
A) *kelishik qo‘shimchalari*
B) *egalik qo‘shimchalari*
C) *shaxs-son qo‘shimchalari*
**D) egalik va kelishik qo‘shimchalari**

515. 6.1-2 file-» 40 - 4 - - (400123)
Quyida berilgan she’rda nechta ot turkumiga mansub so‘z qo‘llangan?
**O‘zbekiston - go‘zal diyor,**
**Saodatga mehnati yor,**
**O‘zgacha bir hikmati bor,**
**Halollikka aytar alyor.**
**A)** *8 ta* B) *7 ta* C) *6 ta* D) *5 ta*

516. 6.1-2 file-» 40 - 6 - - (700096)
U bexosdan kelib, yigitning belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit gandiraklab borib, tizzalab qoldi.
Ushbu gapda qaysi turkumga mansub yasama so‘zlar mavjud?

**A) ot, fe’l**
B) *ravish, ot, fe’l*
C) *ravish, fe’l, fe’l*
D) *ravish, sifat, fe’l*

517. 6.1-2 file-» 40 - 6 - - (700097)
Odamlar baravariga qarsak chalishar, Alimardonning raqibini olqishlashardi.
Ushbu gapda qaysi turkumga mansub yasama so‘zlar mavjud?

**A)** *ravish, ot, fe’l* B) *ot, fe’l* C) *ot, ot, fe’l* D) *ravish, fe’l*

518. 6.1-2 file-» 40 - 6 - - (700098)
Ko‘chada, xiyobonlarda baqir-chaqir, yugur-yugur, ur-yiqit boshlanib ketgan edi.
Ushbu gapdagi otlar sonini aniqlang.

A) *4* B) *3* **C)** *5* D) *2*

519. 6.1-2 file-» 40 - 6 - - (700099)
Qaratqich kelishigi quyidagilardan qaysi biriga qo‘shilganda belgili qo‘llanadi?
1) turdosh otlar; 2) atoqli otlar; 3) olmoshlar; 4) sifatdoshlar; 5) mavhum otlar

A) *1, 2, 3* **B)** *2, 3, 4* C) *1, 2, 5* D) *2, 3, 5*

520. 6.1-2 file-» 20 - 1 - - (700100)
Yaxshi tarbiya ko‘rgan odam ... xislatlari ... biri shuki, bunday odam o‘z faoliyati ... boshqalar ... bir qadam oldin ... o‘tsa, sheriklari ... yordam qo‘li ... uzatadi, safi ... kengaytirib, yangi g‘alaba ... ko‘zlaydi.
Ushbu gapda nuqtalar o‘rnida ishlatilishi kerak bo‘lgan qo‘shimchalar tartibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *-ni, -dan, -da, -dan, -ga, -ga, -ni, -ni, -ni*
B) *-ning, -dan, -da, -dan, -ga, -ga, -ni, -ni*
**C) -ning, -dan, -da, -dan, -ga, -ga, -ni, -ni, -ni**
D) *-ning, -dan, -da, -dan, -ga, -ni, -ni, -ni, -ni*

521. 6.1-2 file-» 20 - 1 - - (700101)
Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, yomondan burun o‘lasan,
Yaxshi bilan sirdosh bo‘lsang, yaxshilik bilan unasan.
Ushbu maqolda nechta sifat otlashib kelgan?

A) *1ta* B) *2ta* **C)** *3ta* D) *4ta*

522. 6.1-2 file-» 20 - 1 - - (700102)
Qaysi qatorda ot va fe’l yasovchi omonim (shakldosh) qo‘shimchalar berilgan?

A) *tilak, kechik*
B) *yugurik, ko‘zik*
**C) ko‘rik, birik**
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

523. 6.1-2 file-» 20 - 1 - - (700103)
Berilgan misollarning qaysi birida ot va sifat yasovchi qo‘shimchalar orasida shakldoshlik(omonimlik) hodisasi yuz bermagan?

A) *chiziq-tiniq, sezgi-qadimgi*
B) *bosqin-sotqin, qirg‘in-so‘lg‘in*
**C) otashin-yashirin, tilak-elak**
D) *barchasida ot va sifat yasovchi qo‘shimchalar o‘zaro omonimlik hosil qilgan*

524. 6.1-2 file-» 1 - 47 - - (700104)
O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilgan otlar gapda qanday vazifada kelishi mumkin?

A) *o‘rin holi* B) *payt holi, o‘rin holi* C) *to‘ldiruvchi* **D)** *o‘rin holi, payt holi, to‘ldiruvchi*

525. 6.1-2 file-» 1 - 47 - - (700106)
Qaysi kelishik qo‘shimchasi shaxs va narsa otlariga qo‘shilganda ular gapda to‘ldiruvchi vazifasida keladi?
1) tushum kelishigi; 2) .jo‘nalish kelishigi; 3) o‘rin-payt kelishigi; 4) chiqish kelishigi

A) *1* B) *1, 2, 4* C) *1, 3, 4* **D)** *1, 2, 3, 4*

526. 6.1-2 file-» 1 - 48 - - (700107)
Quyida sanalgan ma’nolardan qaysilari olmalarni so‘zining atash ma’nosi hisoblanadi?
1) ”mevali daraxt” ma’nosi; 2) ”olma daraxti mevasi” ma’nosi; 3) ”ko‘plik” ma’nosi; 4) ”kelishik” ma’nosi

**A)** *1, 2* B) *2, 4* C) *1, 4* D) *3, 4*

527. 6.1-2 file-» 1 - 48 - - (700108)
Quyida sanalgan ma’nolardan qaysilari olmalarni so‘zining grammatik ma’nosi hisoblanadi?
1) ”mevali daraxt” ma’nosi; 2) ”olma daraxti mevasi” ma’nosi; 3) ”ko‘plik” ma’nosi; 4) ”kelishik”ma’nosi

A) *1, 2* B) *2, 4* C) *1, 4* **D)** *3, 4*

528. 6.1-2 file-» 1 - 48 - - (700109)
So‘zlarning grammatik ma’nolarini ifodalovchi grammatik shakllar tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

**A)** *morfologiyada* B) *leksikologiyada* C) *sintaksisda* D) *fonetikada*

529. 6.1-2 file-» 1 - 48 - - (700110)
Grammatik ma’no qaysi qo‘shimchalarni so‘z asosiga qo‘shish orqali vujudga keltiriladi?
1)so‘z yasovchi; 2)lug‘aviy shakl yasovchi; 3)sintaktik shakl yasovchi

A) *1* B) *1, 2* **C) *2, 3*** D) *3*

530. 6.1-2 file-» 12 - 4 - - (700111)
Iste’dodli shoirlar: Suvon Soqiy, Ismoil To‘xtamishev, Rustam Musurmon, Sharofat Ashurova, Rustam Ochil va boshqa ijodkorlar yangi-yangi she’rlari bilan kitobxonlar qalbiga kirib bormoqdalar.
Ushbu gapda nechta shaxs oti ishtirok etgan hamda ularning nechtasi yasama hisoblanadi?

**A) 3 ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 2 tasi yasama**
B) *5 ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 2 tasi yasama*
C) *5 ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 5 tasi yasama*
D) *8 ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 7 tasi yasama*

531. 6.1-2 file-» 12 - 4 - - (700112)
Osmon mo‘tabar otaxonlarimiz va onaxonlarimizning duolari singari oppoq va dilga yaqin.
Ushbu gapda nechta lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etgan?

A) *2* B) *3* C) *4* **D) *5***

532. 6.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715059)
Endilikda ma’lumki, o‘simliklar asosiy ozuqani quyosh nuri va havodan oladi.
Ushbu gapdagi ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar sonini toping.

A) *3* B) *4* **C) *5*** D) *6*

533. 6.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715060)
To‘g‘rilik bilan xiyonat, yolg‘on bilan diyonat chiqisha olmaydi.
Ushbu gapdagi mavhum otlar sonini va gapdagi vazifasini toping.

A) *4 ta, to‘ldiruvchi va ega vazifasida*
B) *3 ta, barchasi ega vazifasida*
C) *3 ta, to‘ldiruvchi va ega vazifasida*
**D) 4 ta, barchasi ega vazifasida**

534. 6.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715061)
Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir.
Ushbu gapda nechta o‘rinda ot turkumiga mansub so‘z qo‘llangan?

A) *3* B) *4* **C) *5*** D) *6*

535. 6.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715062)
Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi.
Ushbu gapda nechta o‘rinda sifat turkumiga mansub so‘z qo‘llangan?

A) *2* B) *3* **C) *4*** D) *5*

536. 6.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715067)
Qaysi gapda aniqlovchi shaxs nomi bilan ifodalangan?

A) *Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog‘ ortiga jo‘nadi.*
**B) Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek.**
C) *Mehmondo‘st, oqibatli, bolajon xalqimiz bor.*
D) *Men pinak buzmayman, hadik tortmayman, Onamning duosi meni asraydi.*

537. 6.2-2 file-» 40 - 1 - - (237893)
Қайси қатордаги равишдош ҳолат маъносини ифодалаган?

A) *Тоққа чиққач, осмоннинг пастлигини ҳис қилди.*
B) *Бобур гулни яна бир ҳидлаб, бошидаги салласининг қатига қистириб қўйди.*
**C) Гапни билиб-билмай гапирмаслик керак.**
D) *Муродхонларникига қараб секин йўлга тушдим.*

538. 6.2-2 file-» 1 - 39 - - (241383)
Тилшуносликнинг қайси бўлимларида сўз ўрганилади?

**A) морфология ва лексикологияда**
B) *фақат лексикологияда*
C) *синтаксис ва лексикологияда*
D) *синтаксис ва морфологияда*

539. 6.2-2 file-» 1 - 40 - - (241443)
Хослик белгисини билдирувчи сифатлар ясовчи қўшимчани топинг.

A) *-симон* B) *-ги* C) *-ма* **D) *-ий***

540. 6.2-2 file-» 1 - 40 - - (241448)
Берилган сифатлардан қайси бири аслий сифат ҳисобланади?

**A) *ҳовлиқма (одам)*** B) *қайнатма (шўрва)* C) *бурама (мих)* D) *ясама (тиш)*

541. 6.2-2 file-» 1 - 40 - - (241449)
Қандай сифатлар аслий сифатлар бўлиши мумкин?

A) *фақат туб сифатлар*
B) *содда ясама сифатлар*
C) *қўшма сифатлар*
**D) *туб, содда ясама ва қўшма сифатлар***

542. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (241733)
Сўз асосида ифодаланган белгига эгаликни билдирувчи қуйидаги қўшимчалардан қайси бири бе- қўшимчаси билан зид маъноли эмас?
A) *-дор* B) *ба-* C) *-ли* **D) *-манд***

543. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (241734)
Пайтга хос белгини билдирувчи сифатлар ясовчи қўшимчани топинг.
A) *-ли* B) *-ий* **C) *-ги*** D) *-симон*

544. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (241735)
-лик қўшимчаси ёрдамида қайси сўз туркумларидан отлар ясаб бўлмайди?
A) *сонлардан*
B) *равишлардан*
**C) феъллардан**
D) *берилган сўз туркумларидан отлар ясалади*

545. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (241736)
Қайси гапда сифат отлашмаган?
A) *Камбағални туянинг устида ит қопар.*
**B) Ахир, мусулмон одамман, айланай! - деди Ҳожи хола.**
C) *Тонг отишига яқин уч ярим сотихча жойнинг паст-баландини текислаб бўлганди.*
D) *Мусофирга йўл кўрсатиб, сув бериш савоб.*

546. 6.2-2 file-» 40 - 1 - - (301130)
Qaysi qatordagi ravishdosh holat ma'nosini ifodalagan?
A) *Toqqa chiqqach, osmonning pastligini his qildi.*
B) *Bobur gulni yana bir hidlab, boshidagi sallasining qatiga qistirib qo'ydi.*
**C) Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak.**
D) *Murodxonlarnikiga qarab sekin yo'lga tushdim.*

547. 6.2-2 file-» 1 - 39 - - (301131)
Tilshunoslikning qaysi bo'limlarida so'z o'rganiladi?
**A) morfologiya va leksikologiyada**
B) *faqat leksikologiyada*
C) *sintaksis va leksikologiyada*
D) *sintaksis va morfologiyada*

548. 6.2-2 file-» 1 - 40 - - (301132)
Xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasovchi qo'shimchani toping.
A) *-simon* B) *-gi* C) *-ma* **D) *-iy***

549. 6.2-2 file-» 1 - 40 - - (301133)
Berilgan sifatlardan qaysi biri asliy sifat hisoblanadi?
**A) *hovliqma (odam)*** B) *qaynatma (sho'rva)* C) *burama (mix)* D) *yasama (tish)*

550. 6.2-2 file-» 1 - 40 - - (301134)
Qanday sifatlar asliy sifatlar bo'lishi mumkin?
A) *faqat tub sifatlar*
B) *sodda yasama sifatlar* C) *qo'shma sifatlar*
**D) *tub, sodda yasama va qo'shma sifatlar***

551. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (301135)
So'z asosida ifodalangan belgiga egalikni bildiruvchi quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri be- qo'shimchasi bilan zid ma'noli emas?
A) *-dor* B) *ba-* C) *-li* **D) *-mand***

552. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (301136)
Paytga xos belgini bildiruvchi sifatlar yasovchi qo'shimchani toping.
A) *-li* B) *-iy* **C) *-gi*** D) *-simon*

553. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (301137)
-lik qo'shimchasi yordamida qaysi so'z turkumlaridan otlar yasab bo'lmaydi?
A) *sonlardan*
B) *ravishlardan*
**C) fe'llardan**
D) *berilgan so'z turkumlaridan otlar yasaladi*

554. 6.2-2 file-» 1 - 41 - - (301138)
Qaysi gapda sifat otlashmagan?
A) *Kambag'alni tuyaning ustida it qopar.*
**B) Axir, musulmon odamman, aylanay! - dedi Hoji xola.**
C) *Tong otishiga yaqin uch yarim sotixcha joyning past-balandini tekislab bo'lgandi.*
D) *Musofirga yo'l ko'rsatib, suv berish savob.*

555. 6.2-2 file-» 1 - 43 - - (400124)
Mashina uchun ehtiyot qismlar birikmasidagi hokim so'zni aniqlang.
A) *qismlar* B) *ehtiyot* C) *mashina uchun* **D) *ehtiyot qismlar***

556. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400125)
Qaysi qatordagi gapda yasama sifat mavjud?
A) *Kech kirib, ajib bir so'lim payt boshlandi.*
B) *Do'mbirachi qadim qozoq kuylaridan dostonlar kuylamoqda.*
**C) Otin bibi qari, jiddiy, sersavlat xotin.**
D) *Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go'yo sahrolar, tog'lar kezaman.*

557. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400126)
**Sifat+ot** shaklidagi qo‘shma sifatlar qatnashgan gapni toping.

**A) Shirinsuxan, oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi.**
B) *Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag‘ishlaydi.*
C) *Toshbag‘ir odamdan yaxshilik kutma.*
D) *Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o‘ynaydi.*

558. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400127)
**Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi.**
Yasama sifatlar miqdorini toping.

A) *1 ta* **B)** *2 ta* C) *3 ta* D) *4 ta*

559. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400128)
Qaysi gap tarkibida ikkita o‘rinda yasama sifat qo‘llangan?

**A) Tuproq qatlami qalin, sersuv yerlarda o‘sgan archalar yo‘g‘on va bo‘ydor bo‘ladi.**
B) *Keng, ulug‘vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan.*
C) *Bo‘m-bo‘sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi.*
D) *Tiniq, ko‘m-ko‘k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.*

560. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400129)
Qaysi qatorda asliy sifatlar berilgan?

**A)** *mayda, aqlli, yuzaki*
B) *achchiq, chuchuk, qishki*
C) *xushbo‘y, ko‘chma, jahldor*
D) *yangi, do‘ppili, devoriy*

561. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400130)
Qaysi qatorda nisbiy sifatlar berilgan?

**A)** *mevali, tonggi, oilaviy*
B) *mazmundor, xayoliy, chiroyli*
C) *chillaki, serunum, chaqqon*
D) *xushbichim, yasama, aqlli*

562. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400131)
Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat qo‘llangan?

A) *G‘iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi.*
**B) Hovlimizda ko‘cha eshikdan kiraverishda kichkina, g‘ishtin uycha bor.**
C) *Inson tabiatning eng ongli farzandi.*
D) *Cho‘ponlar sezgir, itlar ham ziyrak, bo‘ridan ayyor.*

563. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400132)
Qaysi gapda orttirma darajadagi sifat qo‘langan?

A) *Mevasi yetilib pishganda sershira bo‘ladi.*
B) *Nomus jondan ham qimmatliroq.*
**C) Hovli ham, uy ham bo‘m-bo‘sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi.**
D) *Uning nazarida bundan ham suyumliroq, bundan ham zavqliroq va shavqliroq ish yo‘q edi.*

564. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400133)
Qaysi gapda xususiyat bildiruvchi sifat qo‘langan?

A) *Mamat olachipor, yashil tepalikdan pastlikka tomon yayov ketmoqda.*
B) *Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak.*
C) *Hovli tor, devorlari baland edi.*
**D) Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, yap-yangi ”Moskvich” kelib to‘xtadi.**

565. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400134)
Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni toping.

**A) Shu yaqindan o‘tib ketayotgan ikkita ovchi urishqoqni aravaga ortib ketishdi.**
B) *Elmurod chaynaganini yutib, nonga tikilib qoldi.*
C) *Ko‘z tashlab ko‘rilsa, ko‘m-ko‘k suv ko‘k charxiga o‘xshaydi.*
D) *Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak.*

566. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400135)
Qaysi qatordagi gapda yasama ravish qo‘llangan?

**A) Choyni naridan-beri ichib, oshxonaga yugurdim.**
B) *Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib yo‘rtib ketishdi.*
C) *Bayramga taraddud hozirdanoq qizib ketdi.*
D) *Yig‘ilishga faollardan vakillar kirib kelishdi.*

567. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400136)
**Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir.**
Ushbu gapdagi sifatlar miqdori va turini aniqlang.

A) *3 ta: 2 ta qo‘shma, 1 ta sodda yasama*
B) *4 ta: 2 ta qo‘shma, 2 ta sodda tub*
C) *4 ta: 2 ta qo‘shma, 2 ta sodda yasama*
**D)** *3 ta: 2 ta qo‘shma, 1 ta sodda tub*

568. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400137)
Qaysi qatordagi gap tarkibida **ot+ot** tipidagi qo‘shma sifat berilgan?

**A) Toshbag‘ir odamdan yaxshilik kutma.**
B) *Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir.*
C) *Nodon va kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.*
D) *Shirinsuhan, oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi.*

569. 6.2-2 file-» 40 - 3 - - (400138)
Qaysi gapdagi juft sifatlar **yasama+yasama** so‘z shaklida tuzilgan?

A) *Kasbning katta-kichigi bo‘lmaydi.*
B) *U paytda qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar ko‘p bo‘lgan.*
**C) Menga o‘xshash esli-hushli yigitga zoriqib o‘tirgan ekan.**
D) *U yoshligidan ota-onasiz katta bo‘lgan.*

570. 6.2-2 file-» 40 - 6 - - (700113)
Hoshimjon maktabning nomiga e’tibor bermagan ekan. U nima qilishni bilmasdan ishlarni nomiga qilardi.
Berilgan gaplardagi **nomiga** so‘ziga qaysi javobda to‘g‘ri izoh berilgan?

**A) 1-gapda turlangan ot, 2-gapda ravish**
B) *1-gapda ravish, 2-gapda turlangan ot*
C) *har ikkala gapda ham turlangan ot*
D) *1-gapda turlangan ravish, 2-gapda yasama ravish*

571. 6.2-2 file-» 40 - 6 - - (700114)
1) Yaxshiyam, universitet yaqinda. 2) Yaqinda o‘qishni tugatadi.
Ushbu gaplardagi **yaqinda** so‘zi haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri?

**A) 1-gapda o‘rin ravishi, 2-gapda payt ravishi**
B) *1-gapda payt ravishi, 2-gapda o‘rin ravishi*
C) *har ikkala gapda o‘rin ravishi*
D) *har ikkala gapda payt ravishi*

572. 6.2-2 file-» 40 - 6 - - (700115)
1. Partalarni nari-beri surdik. 2. Akbar nari-beri dars qildi.
Ushbu gaplardagi **nari-beri** so‘zi haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri?

**A) 1-gapda o‘rin ravishi, 2-gapda holat ravishi**
B) *1-gapda holat ravishi, 2-gapda o‘rin ravishi*
C) *har ikkala gapda holat ravishi*
D) *har ikkala gapda o‘rin ravishi*

573. 6.2-2 file-» 40 - 6 - - (700117)
1. Salmon ota gapni uzoqdan boshladi.
2. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho‘kiz uni to‘xtovsiz chaqirib kelyapti.
Ushbu gaplardagi **uzoqdan** so‘zini izohlang.

**A) birinchisida holat, ikkinchisida o‘rin bildiruvchi ravish**
B) *birinchisida o‘rin, ikkinchisida holat bildiruvchi ravish*
C) *har ikkalasida o‘rin bildiruvchi ravish*
D) *har ikkalasida payt bildiruvchi ravish*

574. 6.2-2 file-» 40 - 6 - - (700118)
Kunduzi o‘ralashib yurganlardan qittay ham qolmagan.
Ushbu gapdagi ravishlar sonini aniqlang.

A) *4* B) *3* **C) *2*** D) *1*

575. 6.2-2 file-» 40 - 6 - - (700119)
1. Kampir ba’zan mudrar, ba’zan o‘g‘li bilan nimalarnidir gaplashardi. 2. Ba’zan yaxshilik maqsadida aytilgan yolg‘on so‘z ham ziyon emas.
Ushbu gaplardagi **ba’zan** so‘zini izohlang.

**A) 1-gapda ayiruv bog‘lovchisi, 2-gapda ravish**
B) *1-gapda ravish, 2-gapda ayiruv bog‘lovchisi*
C) *har ikkalasida ham ravish*
D) *har ikkalasida ham ayiruv bog‘lovchisi*

576. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700120)
Tarkibida juft sifat ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) *Uyga kelib qarasa, hamma yoq ag‘dar-to‘ntar bo‘lib yotibdi.*
B) *Bu masalani uzil-kesil hal qilish vaqti kelmadimi?*
**C) Shag‘al to‘kilgan o‘ydim-chuqur yo‘ldan yurish it azobini beradi.**
D) *Barcha javoblar to‘g‘ri*

577. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700121)
Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega bo‘lgan buyuk shaxs edi.
Ushbu gapda qatnashgan sifatlar haqidagi to‘g‘ri hukmlarni aniqlang.
1) asliy sifat 2) nisbiy sifat 3) tub sifat 4) yasama sifat 5) aniqlovchi vazifasida 6) hol vazifasida

A) *1, 3, 4, 5* **B) *1, 3, 5*** C) *2, 4, 5, 6*
D) *1, 2, 3, 5*

578. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700122)
Qaysi gaplar tarkibida yasama sifat mavjud?
1. Yo'lning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marvariddek tovlanadi.
2. Uning chanqoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta bardoshini, sadoqatini, aqlini aks ettirib turardi.
3. Pastdagi bog'dan xazon hidi ko'tarilib, uning xayollarini to'lin oy sehrlagan dalalarga olib ketar edi.

A) *1 va 2* B) *1 va 3* C) *2 va 3*
**D)** *1, 2, 3*

579. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700123)
Ozaytirma daraja shaklidagi sifat egaga bog'langan qatorni aniqlang.

A) *Yorug'lik uning oqish yuzlari, quyuq kipriklarini bir zumgina yoritdi.*
B) *Qoramtir yuzi, siyrak soqolidan yoshini chamalash qiyin edi.*
**C) Shamning qizg'ish shu'lasi kulbaga fayz berib turar edi.**
D) *Barcha javoblar to'g'ri*

580. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700124)
Ho'kiz kechqurun qorni ochib, charchab kelsa, uning oldiga bir bog' quruq poyani tashlab qo'yar ekan. ( "Susambil")
Ushbu gapda yasama so'z qaysi so'z turkumiga mansub va qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

**A)** *sifat, aniqlovchi* B) *ravish, hol*
C) *fe'l, kesim* D) *fe'l shakli, hol*

581. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700125)
Orttirma darajadagi sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

A) *Ular yolg'izoyoq yo'ldan nihoyatda sekin borishardi.*
B) *Quvvatsizligidan juda tez charchab qolardi.*
**C) Dunyoda eng orzumand xalq o'zbek bo'lsa ajabmas.**
D) *Barcha javoblar to'g'ri*

582. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700126)
Takroriy sifatlar berilgan gapni aniqlang.

A) *Tabassumdan gul-gul yondi qizning yanog'i.*
B) *O'z onamni elas-elas xotirlayman.*
**C) Kimdir yelpib-yelpib barra-barra go'shtlardan kabob pishiryapti.**
D) *Barcha javoblar to'g'ri*

583. 6.2-2 file-» 20 - 1 - - (700127)
Qizil qalpoq, jigarrang kurtka kiygan bu bolaginaning tim qora ko'zlari, dum-dumaloq lo'ppi yuzi negadir g'amli, ma'yus edi.
Ushbu gapda sifat turkumiga mansub nechta so'z bor, ularning nechtasi orttirma darajada?

A) *6 ta sifat, 2 tasi orttirma darajada*
B) *6 ta sifat, 1 tasi orttirma darajada*
**C) 7 ta sifat, 2 tasi orttirma darajada**
D) *7 ta sifat, 1 tasi orttirma darajada*

584. 6.2-2 file-» 20 - 2 - - 1 (715076)
Qaysi javobdagi so'z birikmalari tarkibida sifatlashuv hodisasi ro'y bergan?

A) *chiroyli gul, ajoyib kitob, murakkab tushuncha*
B) *ifodali o'qimoq, ta'sirchan gapirmoq, qattiq yo'talmoq*
**C) chinni piyola, piyoda askarlar, billur qandil**
D) *oltin kuz, singan ko'za, mis tanga*

585. 6.2-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715077)
Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat qo'llangan?

A) *Yaxshi fazilat insonning ziynatidir.*
B) *Shirin oshing bo'lguncha, shirin so'zing bo'lsin.*
C) *Tovus o'zining chiroyli patini har doim asrab-avaylaydi.*
**D) Do'ppili odamni ko'rsam, go'zal vodiy, ona qishlog'im ko'z oldimga keladi.**

586. 6.3-1 file-» 41 - 4 - - (231581)
Олмошлар ҳақида билдирилган қайси ҳукм нотўғри?

A) **бир** *сўзи гумон олмоши ўрнида қўлланиши мумкин.*
B) *олмошларни гап ўрнида алмаштириб қўллаш мумкин.*
C) *ясама содда олмош қисмлари қўшиб, қўшма олмош қисмлари эса ажратиб ёзилади.*
**D) барча ҳукмлар тўғри.**

587. 6.3-1 file-» 1 - 38 - - (232316)
Тўпдан ажратилган нарса, шахс, белги, ҳаракат-ҳолатларни ифодалайдиган олмошлар турини белгиланг.

A) *кишилик олмошлари*
B) *кўрсатиш олмошлари*
**C)** *белгилаш олмошлари* D) *ўзлик олмоши*

588. 6.3-1 file-» 1 - 38 - - (232330)
Олмош+от шаклидаги битишув йўли билан ҳосил бўлган отли бирикмаларда, олмошнинг қайси турлари тобе сўз вазифасида кела олади?

**A) кўрсатиш, сўроқ ва белгилаш олмошлари**

B) *кишилик, ўзлик ва кўрсатиш олмошлари*

C) *бўлишсизлик олмошидан ташқари барча олмошлар*

D) *кишилик, ўзлик, кўрсатиш ва сўроқ олмошлари*

589. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237866)
Қайси қаторда кўрсатиш олмоши гап ўрнида қўлланилган?

A) *Ким кўп ўқиса, у кўп билади.*

B) *У Саидий билан дўст эди, бу дўстлик оталарини ҳам муносабатдор қилган эди.*

**C) Истагим шуки, доимо тинчлик бўлсин.**

D) *Китобни кўп ўқисангиз, ундан кўп ҳикмат топасиз.*

590. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237868)
Қайси қатордаги гапда ўзлик олмоши ўрнида кишилик олмошини қўллаб бўлмайди?

A) *Ростини айтсам, ўзим ҳам унчалик ёмон бола эмасман.*

**B) Қурвонбиби фотиҳа тўйидан кейин бироз ўзига келган эди.**

C) *Бу ишларни қилган ўзи.*

D) *Ютуқлар ўзимизники.*

591. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237869)
Қайси гапда нарса-ҳодиса сўроғи белги-хусусият сўроғи ўрнида қўлланган?

A) *Нега уни отдами, аравадами элтиб қўймади?*

B) *Кечаги гаплардан кейин қайси юзи билан боради?*

**C) Нима ишлари бор экан? - сўради Зулайҳо хола.**

D) *Ё қудратингдан, бу қандай одам?*

592. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237870)
Қайси гапда белгилаш олмоши от ўрнида қўлланган?

A) *Дилдорнинг бари гаплари ҳақиқат эди.*

B) *Ҳар бир инсон ўз бахти учун курашади.*

C) *Овози ҳар қачонгидан ҳам таъсирлироқ эди.*

**D) Ҳамма перронда, ҳамма ўз жигарини қидиради.**

593. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237872)
Қайси гапда бўлишсизлик олмоши иштирок этган?

**A) Мажлисда бу масала ҳақида ҳеч ким чурқ этмади.**

B) *Ҳеч вақт аёл қалбини оғритманг.*

C) *Ҳеч банданинг бошига фарзанд доғини солмасин экан.*

D) *Берилган гапларнинг барчасида бўлишсизлик олмоши иштирок этган.*

594. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237873)
Қайси қатордаги гапда тўртта ўринда олмош қўлланган?

A) *Ҳозир ҳам ҳеч ким ўз исмини айтмайди.*

**B) Ҳаммаси жойида, дўстлар, мен ҳеч кимдан, ҳеч нарсадан хафа эмасман.**

C) *Сизга не бўлди, икки ҳафтадан буён фақирингизни зориқтириб қўйдингиз.*

D) *Ҳамма унга ўгирилиб қарар, аммо Саттор Розиядан бошқа ҳеч кимни кўрмас эди.*

595. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (237874)
Қайси гапда қўшма олмош мавжуд?

A) *Сиз ўзингизни тупроқ билан тенглаштирмоқчи бўлгансиз, лекин мен ҳозир Кумушга ҳам қаноатланмай, Олтинбиби деб атамоқ фикрига тушдим.*

B) *Шу-шу бўлди-ю, Турсунбойнинг қулоғидан Зебихоннинг овози нари кетмай қолди.*

**C) Ҳамма унга ўгирилиб қарар, аммо Саттор Розиядан бошқа ҳеч кимни кўрмас эди.**

D) *Ўзбошимча унмас, ўзбилармон ёлчимас.*

596. 6.3-1 file-» 1 - 40 - - (241450)
Сон туркумига оид қандай сўзларни ҳосил қилишда баъзи саноқ сонлар таркибида товуш тушиши кузатилади?

A) *чама сонларда* B) *тартиб сонларда*

**C)** *жамловчи сонларда* D) *тақсим сонларда*

597. 6.3-1 file-» 1 - 41 - - (241739)
Кишилик олмошларига қуйидаги қўшимчалардан қайси бири қўшилмайди?

A) *сўз ясовчи қўшимча*

**B) эгалик қўшимчаси**

C) *келишик қўшимчаси*

D) *Саналган қўшимчалар кишилик олмошларига қўшилади.*

598. 6.3-1 file-» 41 - 4 - - (301139)
Olmoshlar haqida bildirilgan qaysi hukm noto‘g‘ri?

A) **bir** *so‘zi gumon olmoshi o‘rnida qo‘llanishi mumkin.*
B) *olmoshlarni gap o‘rnida almashtirib qo‘llash mumkin.*
C) *yasama sodda olmosh qismlari qo‘shib, qo‘shma olmosh qismlari esa ajratib yoziladi.*
**D) barcha hukmlar to‘g‘ri.**

599. 6.3-1 file-» 1 - 38 - - (301140)
To‘pdan ajratilgan narsa, shaxs, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydigan olmoshlar turini belgilang.

A) *kishilik olmoshlari*
B) *ko‘rsatish olmoshlari*
C) *belgilash olmoshlari*
D) *o‘zlik olmoshi*

600. 6.3-1 file-» 1 - 38 - - (301141)
Olmosh+ot shaklidagi bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan otli birikmalarda, olmoshning qaysi turlari tobe so‘z vazifasida kela oladi?

**A) ko‘rsatish, so‘roq va belgilash olmoshlari**
B) *kishilik, o‘zlik va ko‘rsatish olmoshlari*
C) *bo‘lishsizlik olmoshidan tashqari barcha olmoshlar*
D) *kishilik, o‘zlik, ko‘rsatish va so‘roq olmoshlari*

601. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301142)
Qaysi qatorda ko‘rsatish olmoshi gap o‘rnida qo‘llanilgan?

A) *Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi.*
B) *U Saidiy bilan do‘st edi, bu do‘stlik otalarini ham munosabatdor qilgan edi.*
**C) Istagim shuki, doimo tinchlik bo‘lsin.**
D) *Kitobni ko‘p o‘qisangiz, undan ko‘p hikmat topasiz.*

602. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301143)
Qaysi qatordagi gapda o‘zlik olmoshi o‘rnida kishilik olmoshini qo‘llab bo‘lmaydi?

A) *Rostini aytsam, o‘zim ham unchalik yomon bola emasman.*
**B) Qurvonbibi fotiha to‘yidan keyin biroz o‘ziga kelgan edi.**
C) *Bu ishlarni qilgan o‘zi.*
D) *Yutuqlar o‘zimizniki.*

603. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301144)
Qaysi gapda narsa-hodisa so‘rog‘i belgi-xususiyat so‘rog‘i o‘rnida qo‘llangan?

A) *Nega uni otdami, aravadami eltib qo‘ymadi?*
B) *Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi?*
**C) Nima ishlari bor ekan? - so‘radi Zulayho xola.**
D) *Yo qudratingdan, bu qanday odam?*

604. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301145)
Qaysi gapda belgilash olmoshi ot o‘rnida qo‘llangan?

A) *Dildorning bari gaplari haqiqat edi.*
B) *Har bir inson o‘z baxti uchun kurashadi.*
C) *Ovozi har qachongidan ham ta’sirliroq edi.*
**D) Hamma perronda, hamma o‘z jigarini qidiradi.**

605. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301146)
Qaysi gapda bo‘lishsizlik olmoshi ishtirok etgan?

**A) Majlisda bu masala haqida hech kim churq etmadi.**
B) *Hech vaqt ayol qalbini og‘ritmang.*
C) *Hech bandaning boshiga farzand dog‘ini solmasin ekan.*
D) *Berilgan gaplarning barchasida bo‘lishsizlik olmoshi ishtirok etgan.*

606. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301147)
Qaysi qatordagi gapda to‘rtta o‘rinda olmosh qo‘llangan?

A) *Hozir ham hech kim o‘z ismini aytmaydi.*
**B) Hammasi joyida, do‘stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.**
C) *Sizga ne bo‘ldi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qo‘ydingiz.*
D) *Hamma unga o‘girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko‘rmas edi.*

607. 6.3-1 file-» 40 - 1 - - (301148)
Qaysi gapda qo‘shma olmosh mavjud?

A) *Siz o‘zingizni tuproq bilan tenglashtirmoqchi bo‘lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay, Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim.*
B) *Shu-shu bo‘ldi-yu, Tursunboyning qulog‘idan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi.*
**C) Hamma unga o‘girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko‘rmas edi.**
D) *O‘zboshimcha unmas, o‘zbilarmon yolchimas.*

608. 6.3-1 file-» 1 - 40 - - (301149)
Son turkumiga oid qanday so‘zlarni hosil qilishda ba’zi sanoq sonlar tarkibida tovush tushishi kuzatiladi?

A) *chama sonlarda* B) *tartib sonlarda*
**C)** *jamlovchi sonlarda* D) *taqsim sonlarda*

609. 6.3-1 file-» 1 - 41 - - (301150)
Kishilik olmoshlariga quyidagi qo‘shimchalardan qaysi biri qo‘shilmaydi?

A) *so‘z yasovchi qo‘shimcha*
**B) egalik qo‘shimchasi**
C) *kelishik qo‘shimchasi*
D) *Sanalgan qo‘shimchalar kishilik olmoshlariga qo‘shiladi.*

610. 6.3-1 file-» 1 - 43 - - (400139)
Qaysi gapda to‘pdan ajratilgan shaxsni ifodalagan olmosh qo‘llangan?

A) *Rostini aytsam, o‘zim ham unchalik yomon bola emasman. (X.To‘xtaboyev)*
B) *Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi.*
C) *Men kelajagi buyuk Vatanning farzandiman.*
**D) Vatan har bir inson uchun aziz va muqaddasdir.**

611. 6.3-1 file-» 40 - 3 - - (400140)
Hisob so‘zi bilan birga qo‘llangan gapni toping.

A) *Poyezddan tushgan uch-to‘rt yo‘lovchi tarqalib, bekatda Yigitalining yolg‘iz o‘zi qoldi.*
B) *Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi.*
**C) Ikki hafta davomida erta tongdan qorong‘i tushguncha loy tashishdi.**
D) *Cho‘ponlar har kuni tunda bittadan qo‘y g‘oyib bo‘layotganini sezib qolishdi.*

612. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400141)
Qaysi gapda uyushiq to‘ldiruvchi faqat shaxs otlari bilan ifodalangan?

A) *Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo‘yardi.*
**B) Men onam, otam va opam bilan xayrlashib, yo‘lga tushdim.**
C) *Maxdum bo‘ychan, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi.*
D) *O‘n-o‘n bir yoshli bola dushmanlar keltirgan ochlik va boshqa kulfatlarni kattalar qatori boshidan kechirdi.*

613. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400142)
Qaysi gapda to‘ldiruvchi shaxs oti bilan ifodalangan?

A) *Bittasi toshkentlik Yusufbek Hojining o‘g‘li Otabek!*
B) *Aravakash mo‘mingina, muloyim, kamtar kishi.*
C) *Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog‘ ortiga jo‘nadi.*
**D) ”Qo‘shiq aytolsa, demak, cho‘ponlikka yaraydi”, - debdi otam cho‘lig‘iga.**

614. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400143)
Qaysi gapda ega shaxs oti bilan ifodalangan?

A) *Bittasi toshkentlik Yusufbek Hojining o‘g‘li Otabek!*
**B) Aravakash mo‘mingina, muloyim, kamtar kishi.**
C) *Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog‘ ortiga jo‘nadi.*
D) *”Qo‘shiq aytolsa, demak, cho‘ponlikka yaraydi”, - debdi Qurbon cho‘lig‘iga.*

615. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400144)
Qaysi gapda aniqlovchi shaxs oti bilan ifodalangan?

A) *Bittasi toshkentlik Yusufbek Hojining o‘g‘li Otabek!*
B) *Aravakash mo‘mingina, muloyim, kamtar kishi.*
**C) Rashidboy ertasi kuni qassobning mashinasida tog‘ ortiga jo‘nadi.**
D) *”Qo‘shiq aytolsa, demak, cho‘ponlikka yaraydi”, - debdi otam cho‘lig‘iga.*

616. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400145)
**Kampir Tolibjonni bag‘ridan bo‘shatib hovli tomonga qichqirdi:**
**- Nima qilib turibsanlar, ayangni chaqirmaysanlarmi? Dadalaringga xabar qilmaysanlarmi? Yugur, pochchangga chop, tog‘am keldi, deb ayt.**
Berilgan matnda nechta shaxs oti bor va ular qanday sintaktik vazifani bajargan?

A) *4 ta; to‘ldiruvchi*
B) *6 ta; ega, hol, to‘ldiruvchi*
C) *6 ta; ega va to‘ldiruvchi*
**D)** *5 ta; ega va to‘ldiruvchi*

617. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400146)
**Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan baxt va omad ketadi.**
Berilgan gapda ismlar qanday sintaktik vazifani bajargan?

A) *to‘ldiruvchi, ega*
**B)** *aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega*
C) *to‘ldiruvchi, hol, ega*
D) *ega, aniqlovchi, hol*

618. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400147)
Quyida berilgan matnda ismlar guruhiga kiruvchi nechta so‘z bor?
**Savobdir jilg‘aga soysan, deb aytsang,**
**Yo xunuk ayolga oysan deb**
**aytsang.** (A.Oripov)

A) *4 ta* **B)** *6 ta* C) *7 ta* D) *5 ta*

619. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400148)
O‘rin-joy otlari qaysi javobda qayd etilgan?

A) *Sirdaryo, Amudaryo, Orol dengizi*
**B)** *qishloq, maydon, qo‘ra*
C) *guzar, Oltiariq, saylgoh*
D) *barcha javoblarda o‘rin-joy otlari bor*

620. 6.3-1 file-» 1 - 44 - - (400149)
Shaxs otlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
1) Zuhra; 2) Amper; 3) Hasan; 4) rentgen;
5) murabbiy; 6) Asal; 7) muxlis; 8) Anor

A) *barchasi shaxs otlari hisoblanadi*
B) *1, 2, 3, 6, 8* **C)** *5, 7* D) *1, 3*

621. 6.3-1 file-» 1 - 46 - - (400150)
Qanday so‘zlar ismlar atamasi ostida birlashtiriladi?

A) *ot turkumiga mansub so‘zlar*
B) *barcha mustaqil so‘zlar*
**C) egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar**
D) *turlanish va tuslanish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar*

622. 6.3-1 file-» 1 - 46 - - (400151)
Donalab sanaladigan narsalarning turini ta’kidlash uchun qo‘llanuvchi nafar so‘zi asosan qanday holatda ishlatiladi?

A) *har qanday donalab sanaladigan narsalarning miqdorini ko‘rsatishda*
B) *jonli narsalarni donalab sanashda*
**C) shaxslarga nisbatan miqdorni ko‘rsatishda**
D) **nima?** *so‘rog‘iga javob bo‘luvchi barcha otlardan oldin kelib, uning miqdorini ko‘rsatadi*

623. 6.3-1 file-» 40 - 6 - - (700128)
1) Endi nima qilsam ekan, – deya Otabek o‘z-o‘zidan so‘radi.
2) Qizcha o‘z-o‘zidan raqsga tushib ketdi.
3) O‘z-o‘zidan, mamlakat taqdiri hammani qiziqtiradi.
Berilgan gaplardagi **o‘z-o‘zidan** so‘zining qaysi turkumga mansubligini izohlang.

**A) 1-gapda olmosh, 2-gapda ravish, 3-gapda modal so‘z**
B) *1-2-gaplarda olmosh, 3-gapda kirish so‘z*
C) *1-gapda olmosh, 2-gapda ravish, 3-gapda kirish so‘z*
D) *har uchta gapda ham olmosh*

624. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700129)
Qaysi gaplarda orttirma darajadagi sifat kesim vazifasida kelgan?
1. Ish juda nozik, g‘oyatda qo‘rqinchli edi.
2. Hovli ham, uy ham bo‘m-bo‘sh, hammayoq suv quygandek jimjit edi.
3. Dunyoda o‘zbekdir eng orzumand xalq.
4. Mevasi tillarang, sershira.

A) *1, 2, 4* **B)** *1, 2* C) *1, 4* D) *2, 3, 4*

625. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700130)
Berilgan gaplarning qaysi birida olmosh sifat o‘rnida qo‘llangan?

A) *Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat berdi.*
**B) Gullarning ko‘pi pushtirang. Ana shu rang menga juda yoqadi.**
C) *Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog‘bonning jahlini chiqardi.*
D) *Barchasi to‘g‘ri*

626. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700131)
Berilgan gaplarning qaysi birida olmosh fe’l o‘rnida qo‘llangan?

A) *Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat berdi.*
B) *Gullarning ko‘pi pushtirang. Ana shu rang menga juda yoqadi.*
**C) Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog‘bonning jahlini chiqardi.**
D) *Xolid toshni o‘n marta ko‘tardi. Men ham shuncha ko‘tarishni orzu qilaman.*

627. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700132)
Qaysi gapda qo‘llangan o‘lchov so‘zi alohida olinganda predmet nomini bildirib, matn ichidagina o‘lchov ma’nosini bildiradi?

A) *Shahargacha hali uch chaqirim bor.*
**B) Uygacha yuz qadam qoldi.**
C) *Uyning orqasida 4 sotix ekin maydoni bor.*
D) *To‘rt nafar talaba darsga qatnashmadi.*

628. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700133)
Berilgan oʻlchov soʻzlarining qaysilari faqat oʻlchov-hisob maʼnosini bildiradi, qaysilari alohida olinganda predmet nomini bildirib, matn ichidagina oʻlchov birligi maʼnosini bildiradi?
1) qarich 2) qadam 3) quchoq 4) bochka 5) paqir 6) shisha

A) *1, 4-faqat oʻlchov-hisob;2, 3, 5, 6-ham oʻlchov-hisob, ham predmet maʼnosini bildiradi*

B) *1, 2, 4-faqat oʻlchov-hisob, 3, 5, 6-ham oʻlchov-hisob, ham predmet maʼnosini bildiradi*

C) *berilganlarning barchasi faqat oʻlchov-hisob maʼnosini bildiradi*

**D) berilganlarning barchasi ham oʻlchov-hisob, ham predmet maʼnosini bildiradi**

629. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700134)
Ega belgilash-jamlash olmoshi bilan ifodalangan gapni aniqlang.

A) *Dildorning bari gaplari haqiqat edi.*

**B) Kela berdilar bari kattakon chinor sari.**

C) *Har bir inson oʻz baxti uchun kurashadi.*

D) *Gilosning yonidan oʻtayotganimda allanima baloga turtinib ketdim.*

630. 6.3-1 file-» 20 - 1 - - (700135)
Ayol qalbi tosh boʻlsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin boʻladi.
Ushbu gapda gumon olmoshi qaysi gap boʻlagi vazifasida kelgan?

A) *oʻrin holi* B) *toʻldiruvchi* **C)** *ega*
D) *aniqlovchi*

631. 6.3-1 file-» 1 - 48 - - (700136)
U bu xabarni eshitib, yarim kechasi otda yoʻlga tushibdi.
Berilgan gap tarkibida qaysi soʻz turkumlariga oid soʻzlar mavjud?

A) *ot, olmosh, feʼl*
**B)** *ot, olmosh, feʼl, ravish, son*
C) *ot, olmosh, feʼl, ravish*
D) *ot, olmosh, feʼl, son*

632. 6.3-1 file-» 12 - 4 - - (700137)
Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.
Bosh gapdagi olmoshning sintaktik vazifasini aniqlang.

A) *qaratqich aniqlovchi*
**B)** *sifatlovchi aniqlovchi*
C) *vositasiz toʻldiruvchi*
D) *vositali toʻldiruvchi*

633. 6.3-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715085)
Nisbiy soʻz yordamida birikkan toʻldiruvchi ergash gapli qoʻshma gap berilgan qatorni aniqlang.

A) *Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat boʻlmaydi.*

B) *Unga kim yaxshi gapirsa, oʻsha yaxshi odam boʻlib koʻrinardi.*

**C) Kim odamlarga yaxshilik qilsa, yaxshi inson deyishadi.**

D) *Kimning koʻngli togʻ boʻlsa, uning yoʻli ham toʻgʻri boʻladi.*

634. 6.3-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715086)
Qaysi qatordagi gapda belgilash olmoshi ishtirok etmagan?

**A) Dildora hali yosh boʻlsa ham, aqli butun.**

B) *Dunyoning shodligi yigʻilsa, butun Doʻstlar diydoridan boʻlolmas ustun.*

C) *Barcha shodlik senga boʻlsin, Bor sitam, zorlik menga . . .*

D) *Har kim oʻz quvonch ham orzularini bildirib turarkan.*

635. 6.4-1 file-» 5 - 1 - - (400152)
**Yoʻq demang, aka. Biz ham tushunadigan odammiz. Xafa qilmaymiz, - Alimardonning oʻylanib turganini oʻzicha tushundi.**
Ushbu gapda ostiga chizilgan birlikning shaxs-soni haqida ifodalangan toʻgʻri hukmni aniqlang.

**A) I shaxs koʻplik shakli I shaxs birlik maʼnosida**

B) *I shaxs koʻplik shakli II shaxs birlik maʼnosida*

C) *I shaxs koʻplik shakli II shaxs koʻplik maʼnosida*

D) *I shaxs koʻplik shakli III shaxs birlik maʼnosida*

636. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400153)
Oʻtimsiz feʼllar qaysi vositalar yordamida oʻtimli feʼlga aylanadi?

A) *tushum kelishigi shakli*
B) *oʻzlik va majhul nisbat shakli*
C) *bosh kelishik shakli*
**D)** *orttirma nisbat shakli*

637. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400154)
Koʻmakchi feʼlni qabul qiluvchi ravishdosh shakli. . .

A) *koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi sanaladi*

B) *qoʻshma feʼl sanaladi*

**C) yetakchi feʼl sanaladi**

D) *qoʻshma feʼl hosil qiluvchi yetakchi feʼl sanaladi*

638. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400155)
Qaysi gapda orttirma nisbat shakli yetakchi fe’lga qo‘shilgan?

**A) Tushga yaqin dadam bizga ovqat keltirib berdi.**
B) *Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman.*
C) *Birdan bozor boshida dod-faryod ko‘tarilib qoldi.*
D) *U eng avval malikalar-u nabiralarini Samarqandga jo‘natdi.*

639. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400156)
Fe’lning qaysi vazifa shakli zamon, bo‘lishli-bo‘lishsizik, nisbat ma’nolarini ifodalaydi?

A) *harakat nomi* **B)** *sifatdosh*
C) *ravishdosh* D) *sifatdosh va ravishdosh*

640. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400157)
Faqat ko‘makchi fe’llar tarkibida qo‘llanuvchi shakllarni toping.
1) nisbat; 2) bo‘lishsizlik; 3) zamon; 4) shaxs-son; 5) fe’lning vazifa shakllari

A) *3, 4* **B)** *3, 4, 5* C) *1, 2, 3, 4, 5*
D) *1, 2, 3, 4*

641. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400158)
**U yuziga belbog‘ini tashlab ko‘rpachaga cho‘zildi. Lag‘mon ingichka qilib cho‘zildi.**
Ushbu gaplardagi **cho‘zildi** so‘zining nisbatini aniqlang.

A) *1-gapda majhul nisbat, 2-gapda o‘zlik nisbat*
**B) 1-gapda o‘zlik nisbat, 2-gapda majhul nisbat**
C) *1-gapda aniq nisbat, 2-gapda majhul nisbat*
D) *har ikkala gapda majhul nisbat*

642. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400159)
Quyidagi shakllardan qaysi biri ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasida faqat ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi?
1) zamon; 2) nisbat; 3) fe’lning vazifa shakllari; 4) shaxs-son; 5) bo‘lishsizlik

A) *2, 4, 5* B) *3, 4, 5* C) *1, 2, 4*
**D)** *1, 3, 4*

643. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400160)
**1. Gul ochildi. 2. Yig‘ilish ochildi.**
Ushbu gaplardagi fe’llarning nisbatini aniqlang.

**A) 1-gapda o‘zlik nisbat, 2-gapda majhul nisbat**
B) *1-gapda majhul nisbat, 2-gapda o‘zlik nisbat*
C) *1-gapda aniq nisbat, 2-gapda majhul nisbat*
D) *har ikkala gapda majhul nisbat*

644. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400161)
**Bu gapni eshitib, Bahromning ko‘zi charaqlab ketdi.**
Ushbu gapdagi fe’llar qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *3 ta ravishdosh shaklidagi mustaqil fe’l, 1 ta ko‘makchi fe’l*
**B) 2 ta ravishdosh shaklidagi mustaqil fe’l, 1 ta ko‘makchi fe’l**
C) *2 ta ravishdosh shaklidagi mustaqil fe’l, 1 ta qo‘shma fe’l*
D) *3 ta ravishdosh shaklidagi mustaqil fe’l, 1 ta qo‘shma fe’l*

645. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400162)
Fe’l asosiga zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan shakllanadigan maylni belgilang.

**A) xabar**
B) *shart*
C) *buyruq-istak*
D) *Barcha fe’l mayllari zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan shakllanadi.*

646. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400163)
Quyidagi shakllardan qaysi biri kelasi zamon hosil qiladi?
1) -(a)y; 2) -(a)r; 3) -di; 4) -moqda; 5) -ajak; 6) -gandi; 7) -moqchi

A) *2, 3, 6, 7* B) *3, 5, 6, 7* C) *1, 4, 5, 7*
**D)** *1, 2, 5, 7*

647. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400164)
Ikkita mustaqil fe’l asosining birikishidan hosil bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

**A)** *chaqirib kelmoq, qaytarib olmoq*
B) *aytib yubormoq, kulib qo‘ymoq*
C) *kelishib olmoq, oqib kelmoq*
D) *tuzatib qo‘ymoq, ko‘rib qolmoq*

648. 6.4-1 file-» 40 - 3 - - (400165)
**Otasini hovlining chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi.**
Ushbu gapdagi fe’lning nisbatini aniqlang.

A) *aniq nisbat* B) *o‘zlik nisbat*
C) *majhul nisbat* **D)** *orttirma nisbat*

649. 6.4-1 file-» 40 - 4 - - (400166)
Qaysi qatorda aqliy faoliyat fe’llari keltirilgan?

A) *fahmlamoq, pichirlamoq, ma’qullamoq*
B) *fikrlamoq, sevinib ketmoq, chaqirmoq*
**C) ijod qilmoq, tushunmoq, o‘ylanmoq**
D) *imzolamoq, susaymoq, sergaklanmoq*

650. 6.4-1 file-» 40 - 4 - - (400167)
Qaysi qatordagi fe'llar tarkibida munosabat shakllari qo'llangan?

**A) ko'rding, chiqsin, qichqirmoqda**
B) *ko'paydi, kelayotgan, kiyinmoq*
C) *o'ylandim, ketguncha, kiribsan*
D) *aytgani, kuylashadi, qarasa*

651. 6.4-1 file-» 40 - 4 - - (400168)
Fe'lning zamon, shaxs-son qo'shimchalarisiz qismi ...

A) *o'tgan zamon shakli sanaladi*
B) *fe'lning noaniq shakli sanaladi*
C) *sof fe'l shakli sanaladi*
**D) buyruq-istak mayli shakli sanaladi**

652. 6.4-1 file-» 40 - 4 - - (400169)
Qaysi qatorda shaxs-son shakllarining xususiyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) *harakat va holatni bildiruvchi shaxsni ko'rsatadi*
B) *fe'lni kesim sifatida shakllantiradi*
C) *fe'l-kesimni ega bilan bog'lab keladi*
**D) ismlarni kesimlik shakliga xoslaydi**

653. 6.4-1 file-» 1 - 44 - - (400170)
Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) *-gach, -t, -ir, -n, -i*
B) *-guncha, -la, -in, -il, -gan*
C) *-gach, -guncha, -gani, -ib*
**D)** *-in, -t, -ir, -ish, -il*

654. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700138)
1. Salim uyga borguncha yo'l-yo'lakay gapirib ketdi. 2. O'g'li bir yoshligidayoq gapirib ketdi. Ushbu gaplardagi **gapirib ketdi** birligi qaysi javobda to'g'ri tahlil qilingan?

A) *har ikkalasi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi*
B) *birinchisida qo'shma fe'l, ikkinchisida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi*
**C) birinchisida so'z birikmasi, ikkinchisida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi**
D) *birinchisida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, ikkinchisida qo'shma fe'l*

655. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700139)
Qaysi qatorda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi berilmagan?

A) *haydab yubormoq, to'kib solmoq*
**B) jo'shib kuylamoq, qaytarib olmoq**
C) *kelisha olmoq, chiqara bilmoq*
D) *tebranib bormoq, qarab qo'ymoq*

656. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700140)
Qaysi gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining yetakchi qismi qo'shma fe'ldan tuzilgan?

**A) Uyga tez-tez qo'ng'iroq qilib tur.**
B) *Akasi bor gapni aytdi-qo'ydi.*
C) *U gapni aytib bera olmay qoldi.*
D) *Akbar o'rtog'iga tura solib tashlandi.*

657. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700141)
Qaysi gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ishtirok etgan?

A) *Karim darsga ataylab kelmadi.*
B) *Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar.*
**C) U to'nini yelkasiga tashlagan holda kechasi bilan yurib chiqdi.**
D) *Salim ota yuqoriga charchab, hansirab chiqdi.*

658. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700142)
Qaysi gapdagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining ko'makchi qismi bitta so'zdan iborat emas?

A) *Malika ko'rganini oqizmay-tomizmay gapirib berdi.*
B) *U borini bilib-bilmay sovurib yubordi-ku!*
**C) Qo'shnisi buni bilsa-da, indamay-netmay qo'ya qoldi.**
D) *Ular ba'zi-ba'zida kirib-chiqib turishadi.*

659. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700143)
Quyidagilardan qaysilar fe'lning munosabat shakllari hisoblanadi?
1) shaxs-son; 2) o'timli-o'timsizlik; 3) zamon; 4) bo'lishli-bo'lishsizlik; 5) vazifa shakli; 6) mayl

A) *1, 2, 6* B) *2, 3, 4, 5* **C)** *1, 3, 6*
D) *2, 4, 5, 6*

660. 6.4-1 file-» 40 - 6 - - (700144)
Qaysi gapda o'tgan zamon sifatdoshi qatnashmagan?

A) *Salima yaxshi dars tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo'ldi.*
**B) Bolalar o'ynab kelgani ko'chaga chiqdi.**
C) *Shuncha o'qisa ham, uning bilganidan bilmagani ko'p ekan.*
D) *Yaxshi o'qigani uchun u mukofotlandi.*

661. 6.4-1 file-» 20 - 1 - - (700145)
Qaysi qatorda bo'lishsizlik shakli orqali davomiy bo'lishsizlik ma'nosi ifodalangan?

**A) U darslarini tayyorlamay qo'ydi.**
B) *U darslarini tayyorlab qo'ymadi.*
C) *U darslarini tayyorlamay qo'ymadi.*
D) *Barcha javoblarda davomiy bo'lishsizlik ifodalangan.*

662. 6.4-1 file-» 20 - 1 - - (700146)
Faqat ko'makchi fe'l vazifasini bajaruvchi fe'llar berilgan qatorni aniqlang.
1) bo'l 2) qil 3) boshla 4) yot 5) tur 6) ko'r 7) chiq 8) yubor 9) yoz 10) tush

A) *faqat 1 va 3*
B) *4, 5, 6, 7, 8, 10*
C) *1, 3, 4, 5, 6, 7, 8*
**D) bunday fe'llar yo'q**

663. 6.4-1 file-» 20 - 1 - - (700147)
Berilgan fe'llarning qaysilari ko'makchi fe'l vazifasida kela olmaydi?

A) *yoz, tush*
B) *qara, boq*
C) *o'tir, tashla*
**D) barchasi ko'makchi fe'l vazifasida kela oladi**

664. 6.4-1 file-» 20 - 1 - - (700148)
Yasama fe'l ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) *Shabada endigina qad ko'targan yosh nihollarni tebratar edi.*
B) *Xolida gulzorga chiqmoqchi edi, oyisi to'xtatdi.*
**C) Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, -dedi Kamol.**
D) *Berilgan gaplarda yasama fe'l mavjud emas.*

665. 6.4-1 file-» 1 - 48 - - (700149)
-(a) r qo'shimchasi bilan fe'lning xoslangan shakllaridan qaysi biri hosil qilinadi?

**A) sifatdosh**
B) *ravishdosh*
C) *harakat nomi*
D) *harakatning holatini anglatuvchi ravishdoshlar*

666. 6.4-1 file-» 1 - 48 - - (700150)
Fe'lning noaniq shakli tarkibida qanday qo'shimchalar bo'lishi mumkin?

A) *zamon shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar*
B) *mayl shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar*
**C) nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar**
D) *shaxs-son shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar*

667. 6.4-1 file-» 1 - 48 - - (700151)
Yemoq, demoq fe'llaridan majhul nisbat qay tarzda hosil qilinadi?

A) *yemoq, demoq fe'llaridan majhul nisbat yasalmaydi*
B) *so'z asosiga -il qo'shimchasini qo'shish orqali*
C) *so'z asosi unli tovush bilan tugaganligi uchun -l undoshini qo'shish orqali*
**D) so'z asosi va majhul nisbat qo'shimchasi orasida y tovushini orttirish orqali**

668. 6.4-1 file-» 1 - 48 - - (700152)
Qaysi qo'shimchalar fe'llarga qo'shilib, bajaruvchining harakat-holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini ifodalaydi?

A) *shaxs-son qo'shimchalari*
B) *mayl hosil qiluvchi qo'shimchalar*
**C) nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar**
D) *zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimchalar*

669. 6.4-1 file-» 40 - 5 - - 1 (715087)
Quyida keltirilgan gaplardagi fe'l nisbatlarini aniqlang.
1) Yigit otasini hovlining chekkasidagi uyga ko'chirdi.
2) Mashqni qunt bilan ko'chirdi.
3) Bo'lgan voqealarning barchasini ko'nglidan kechirdi.

A) *orttirma va o'zlik nisbat shakllarida*
**B) barchasi orttirma nisbat shaklida**
C) *orttirma, aniq va o'zlik nisbat shaklida*
D) *orttirma va aniq nisbat shaklida*

670. 6.4-1 file-» 20 - 2 - - 1 (715093)
Fikrni o'rinsiz takrordan xalos qiluvchi, ixchamlashtiruvchi turkum so'zlari ishtirok etgan javobni toping.

A) *MDH davlatalari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi Toshkentda bo'lib o'tdi.*
B) *To'g'risi, Anvar voqealarning chigallashuvini oldin hech o'ylab ko'rmagandi.*
C) *Binafshalar, lolalar – bahor gullari ochildi.*
**D) Oradan uch-to'rt kun o'tmas Bo'taboy akaning butun umidi puchga chiqadigan ko'rinib qoldi.**

671. 6.4-1 file-» 20 - 2 - - 1 (715094)
Oygul turishi bilan
Saroy charaqlab ketdi,
Hamma yoq bo'lib ravshan,
Uylar yaraqlab ketdi.
Ushbu she'riy parchadagi qo'shma fe'llar nechta?

A) *2 ta* B) *3 ta* C) *1 ta*
**D)** *qo'shma fe'llar yo'q*

672. 6.4-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715095)
Qaysi qatordagi ko‘makchi fe’llar ish-harakat tarzini bildiradi?

A) *pishib yotmoq, yozib olmoq,*
B) *yoza boshlamoq, o‘qib chiqmoq*
**C) yoza olmoq, gapirib yubormoq**
D) *bilib yurmoq, sevib qolmoq*

673. 6.4-3 file-» 41 - 4 - - (231594)
Феълнинг равишдош шакли ҳақида билдирилган қайси ҳукм тўғри?

A) *-ганча (-канча, -қанча) қўшимчали равишдош фақат ҳаракатнинг ҳолатини англатади*
B) *равишдошнинг -б(-иб), -а(-й) шакллари ҳаракатнинг сабабини англатиши мумкин*
C) *-гани (-кани, -қани, -гали) қўшимчали равишдош фақат ҳаракатнинг мақсадини англатади*
**D) Барча ҳукмлар тўғри.**

674. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (237883)
Қайси қаторда ҳолат феъллари берилган?

**A)** *унмоқ, жимирламоқ, иккиланмоқ*
B) *йиқилмоқ, бўялмоқ, ўйламоқ*
C) *порламоқ, кетмоқ, тегмоқ*
D) *сарғаймоқ, текисламоқ, бермоқ*

675. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (237884)
Қайси қаторда ўтимли феъллар қўлланган?

A) *алмашмоқ, жойлашмоқ, куймоқ*
B) *ўхшамоқ, жиринглaмоқ, сўрамоқ*
C) *ўқимоқ, жилмаймоқ, кийинмоқ*
**D) жойлаштирмоқ, алмашмоқ, яхши кўрмоқ**

676. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (237887)
Қайси гапда ўзлик нисбат шаклидаги гап берилган?

**A) Аммо кампирнинг додига одам тез тўпланди.**
B) *Белбоғимга битта кулча тугилган.*
C) *Шундан кейин йигит отасини ҳовлининг бир чеккасидаги зах уйга кўчирди.*
D) *Бахтни ҳар ким ўзича тушунади.*

677. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (237889)
1. Қушлар уни яхши кўришиб, Майна деб исм қўйишибди. 2. Ёзувчи турмушни ҳар тарафлама ўрганиши, бунинг учун унинг ҳамма соҳаларидан хабардор бўлиши керак. Ушбу гаплардаги феълларда қўлланган -иш қўшимчаси ҳақидаги қайси ҳукм тўғри?

A) *ҳар иккала гапда биргалик нисбат шаклини ҳосил қилган*
B) *биринчи гапда ҳаракат номи, иккинчи гапда биргалик нисбат шаклини ҳосил қилган*
**C) биринчи гапда биргалик нисбат, иккинчи гапда ҳаракат номи шаклини ҳосил қилган**
D) *ҳар иккала гапда ҳаракат номи шаклини ҳосил қилган*

678. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (237892)
Бойсарибой ўн минг уйли Қўнғирот эли билан кўчиб боргач, Кўкқамиш кўли атрофида молларини семиртириб, яйловда яйраб ётади. Ушбу гапда нечта ўринда равишдош қўлланган ва улар қайси нисбат шаклларида?

A) *уч ўринда; ўзлик, орттирма ва аниқ нисбатларда*
B) *тўрт ўринда; аниқ, орттирма нисбатларда*
C) *икки ўринда; аниқ ва ўзлик нисбатларда*
**D) уч ўринда; аниқ ва орттирма нисбатларда**

679. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (237895)
Қайси қаторда берилган кўмакчи феъллар етакчи феълга қўшилиб, ҳаракатнинг тез ва осон бажарилишини ифодалайди?

A) *ётмоқ, юрмоқ, турмоқ*
**B)** *юбормоқ, ташламоқ, қўймоқ*
C) *бошламоқ, турмоқ, бўлмоқ*
D) *кетмоқ, бўлмоқ, турмоқ*

680. 6.4-3 file-» 1 - 39 - - (241389)
Ундалма қатнашган гапнинг кесими кўпинча қандай шаклда бўлади?

**A) биринчи ва иккинчи шахс-сон шаклларида**
B) *биринчи, иккинчи, учинчи шахс-сон шаклларида*
C) *биринчи ва учинчи шахс-сон шаклларида*
D) *иккинчи ва учинчи шахс-сон шаклларида*

681. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241416)
Инсоннинг ички кечикмаларини ифодаловчи феъллар нимани атаб келишига кўра қандай номланади?

A) *ўтимсиз феъллар* B) *ўтимли феъллар*
**C)** *ҳолат феъллари* D) *ҳаракат феъллари*

682. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241417)
Ҳолат феъллари берилган қаторни топинг.

A) *уҳламоқ, ўкинмоқ*
**B)** *қизармоқ, ғазабланмоқ*
C) *суғормоқ, яшармоқ* D) *ўтмоқ, қувонмоқ*

683. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241422)
Қайси нисбат ҳосил қилувчи қўшимчалар доим ўтимли феълларга қўшилади?

**A) ўзлик нисбати**
B) *биргалик нисбати*
C) *орттирма нисбат*
D) *нисбат ҳосил қилувчи барча қўшимчалар ўтимли ва ўтимсиз феълларга қўшилиши мумкин*

684. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241423)
Ўтимли ва ўтимсиз феълларни ҳосил қилишда қайси нисбат шакллари ўзаро зидланади?

A) *мажҳул нисбат билан биргалик нисбати*
B) *орттирма нисбат билан биргалик нисбати*
**C) ўзлик нисбат билан орттирма нисбати**
D) *ўзлик нисбат билан мажҳул нисбати*

685. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241428)
Ҳаракатнинг тез ва осон бажаралишини ифодаловчи кўмакчи феълни топинг.

**A)** *қўймоқ* B) *бошламоқ* C) *юрмоқ*
D) *турмоқ*

686. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241429)
Етакчи ва кўмакчи феълли бирикувларда фақат кўмакчи феълларга қўшиладиган қўшимчаларни топинг.

A) *-ил, -иш, -иб* B) *-ма, -т, -гиз*
**C)** *-моқда, -ди, -ган* D) *-ин, -дир, -ма*

687. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241434)
Титрамоқ сўзи феълнинг қайси маъновий гуруҳига мансуб?

A) *нутқий фаолият феъли*
B) *ақлий фаолият феъли*
C) *жисмоний фаолият феъли*
**D)** *ҳолат феъли*

688. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241435)
Феълнинг ноаниқ шакли берилган қаторни топинг.

**A)** *ўқимоқ* B) *ишламоқда* C) *ёзса*
D) *билган эди*

689. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (241438)
Феъл асосида ифодаланган ҳаракат-ҳолат ҳақидаги хабар маъносини ифодаловчи феъл шакли қандай шакл саналади?

A) *замон шакли* B) *шахс-сон шакли*
**C)** *майл шакли* D) *нисбат шакли*

690. 6.4-3 file-» 1 - 38 - - (301151)
Ergashgan qo‘shma gaplarning qaysi turida shart mayli qo‘shimchasi gaplarni bog‘lovchi vosita sifatida ishtirok etishi mumkin?
1) kesim ergash gapli qo‘shma gap; 2) ega ergash gapli qo‘shma gap; 3) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap; 4) aniqovchi ergash gapli qo‘shma gap; 5) hol ergash gapli qo‘shma gap

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B)** *2, 3, 4, 5* C) *3, 4, 5*
D) *1, 3, 4, 5*

691. 6.4-3 file-» 41 - 4 - - (301152)
Fe’lning ravishdosh shakli haqida bildirilgan qaysi hukm to‘g‘ri?

A) *-gancha (-kancha, -qancha) qo‘shimchali ravishdosh faqat harakatning holatini anglatadi*
B) *ravishdoshning -b(-ib), -a(-y) shakllari harakatning sababini anglatishi mumkin*
C) *-gani (-kani, -qani, -gali) qo‘shimchali ravishdosh faqat harakatning maqsadini anglatadi*
**D) Barcha hukmlar to‘g‘ri.**

692. 6.4-3 file-» 41 - 4 - - (301153)
Qaysi ko‘makchi fe’l harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi?

A) *yurmoq* **B)** *qo‘ymoq* C) *yotmoq*
D) *chiqmoq*

693. 6.4-3 file-» 41 - 4 - - (301154)
Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida kerak, darkor, shart so‘zlari bo‘lganda, ega bilan kesim moslashsa . . .

**A) harakat nomi tarkibida shaxs-son qo‘shimchalari bo‘ladi**
B) *harakat nomi tarkibida shaxs-son qo‘shimchalari bo‘lmaydi*
C) *harakat nomiga shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilsa, ega vazifasini bajaradi*
D) *kerak, lozim, darkor, shart so‘zlari alohida ot-kesim sanaladi*

694. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301155)
Qaysi qatorda holat fe’llari berilgan?

**A)** *unmoq, jimirlamoq, ikkilanmoq*
B) *yiqilmoq, bo‘yalmoq, o‘ylamoq*
C) *porlamoq, ketmoq, tegmoq*
D) *sarg‘aymoq, tekislamoq, bermoq*

695. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301156)
Qaysi qatorda o‘timli fe’llar qo‘llangan?

A) *almashmoq, joylashmoq, kuymoq*
B) *o‘xshamoq, jiringlamoq, so‘ramoq*
C) *o‘qimoq, jilmaymoq, kiyinmoq*
**D) joylashtirmoq, almashmoq, yaxshi ko‘rmoq**

696. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301157)
Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi.
Ushbu gapda qaysi nisbatdagi fe’llar berilgan?

A) *o‘zlik, majhul, orttirma nisbatlar*
**B) aniq, majhul, orttirma nisbatlar**
C) *orttirma, birgalik, aniq nisbatlar*
D) *majhul, birgalik, aniq nisbatlar*

697. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301158)
Qaysi gapda o‘zlik nisbat shaklidagi gap berilgan?

**A) Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi.**
B) *Belbog‘imga bitta kulcha tugilgan.*
C) *Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi.*
D) *Baxtni har kim o‘zicha tushunadi.*

698. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301159)
1. Qushlar uni yaxshi ko‘rishib, Mayna deb ism qo‘yishibdi. 2. Yozuvchi turmushni har taraflama o‘rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo‘lishi kerak.
Ushbu gaplardagi fe’llarda qo‘llangan -ish qo‘shimchasi haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?

A) *har ikkala gapda birgalik nisbat shaklini hosil qilgan*
B) *birinchi gapda harakat nomi, ikkinchi gapda birgalik nisbat shaklini hosil qilgan*
**C) birinchi gapda birgalik nisbat, ikkinchi gapda harakat nomi shaklini hosil qilgan**
D) *har ikkala gapda harakat nomi shaklini hosil qilgan*

699. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301160)
Boysariboy o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borgach, Ko‘kqamish ko‘li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi.
Ushbu gapda nechta o‘rinda ravishdosh qo‘llangan va ular qaysi nisbat shakllarida?

A) *uch o‘rinda; o‘zlik, orttirma va aniq nisbatlarda*
B) *to‘rt o‘rinda; aniq, orttirma nisbatlarda*
C) *ikki o‘rinda; aniq va o‘zlik nisbatlarda*
**D) uch o‘rinda; aniq va orttirma nisbatlarda**

700. 6.4-3 file-» 40 - 1 - - (301161)
Qaysi qatorda berilgan ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lga qo‘shilib, harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi?

A) *yotmoq, yurmoq, turmoq*
**B)** *yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq*
C) *boshlamoq, turmoq, bo‘lmoq*
D) *ketmoq, bo‘lmoq, turmoq*

701. 6.4-3 file-» 1 - 39 - - (301162)
Undalma qatnashgan gapning kesimi ko‘pincha qanday shaklda bo‘ladi?

**A) birinchi va ikkinchi shaxs-son shakllarida**
B) *birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs-son shakllarida*
C) *birinchi va uchinchi shaxs-son shakllarida*
D) *ikkinchi va uchinchi shaxs-son shakllarida*

702. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301163)
Insonning ichki kechikmalarini ifodalovchi fe’llar nimani atab kelishiga ko‘ra qanday nomlanadi?

A) *o‘timsiz fe’llar* B) *o‘timli fe’llar*
**C)** *holat fe’llari* D) *harakat fe’llari*

703. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301164)
Holat fe’llari berilgan qatorni toping.

A) *uhlamoq, o‘kinmoq*
**B)** *qizarmoq, g‘azablanmoq*
C) *sug‘ormoq, yasharmoq*
D) *o‘tmoq, quvonmoq*

704. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301165)
O‘timli fe’llar qaysi qatorda berilgan?

**A)** *quvontirmoq, yozmoq, almashmoq*
B) *ko‘rsatmoq, jiringlamoq, ko‘rmoq*
C) *o‘qimoq, qaramoq, uxlamoq*
D) *ichmoq, tanishmoq, yurmoq*

705. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301166)
Qaysi nisbat qo‘shimchasi qo‘shilsa ishla fe’li o‘timli fe’lga aylanadi?

A) *o‘zlik nisbat qo‘shimchasi*
B) *majhul nisbat qo‘shimchasi*
C) *birgalik nisbat qo‘shimchasi*
**D)** *orttirma nisbat qo‘shimchasi*

706. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301167)
Quyidagi qaysi qo‘shimchalar ishla fe’liga qo‘shilib uni o‘timli fe’lga aylantiradi?
1) -t; 2) -tir; 3) -dir; 4) -giz; 5) -sh.

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 4*
**D)** *1*

707. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301168)
Nisbat hosil qiluvchi quyidagi qo‘shimchalardan qaysilari doim o‘timli fe’llarga qo‘shiladi?
1) -in; 2) -t; 3) -sh, -ish; 4) -tir.

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 4* C) *3* **D)** *1*

708. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301169)
Qaysi nisbat hosil qiluvchi qo‘shimchalar doim o‘timli fe’llarga qo‘shiladi?

**A) o‘zlik nisbati**
B) *birgalik nisbati*
C) *orttirma nisbat*
D) *nisbat hosil qiluvchi barcha qo‘shimchalar o‘timli va o‘timsiz fe’llarga qo‘shilishi mumkin*

709. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301170)
O‘timli va o‘timsiz fe’llarni hosil qilishda qaysi nisbat shakllari o‘zaro zidlanadi?

A) *majhul nisbat bilan birgalik nisbati*
B) *orttirma nisbat bilan birgalik nisbati*
**C) o‘zlik nisbat bilan orttirma nisbati**
D) *o‘zlik nisbat bilan majhul nisbati*

710. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301171)
Qaysi ko‘makchi fe’l harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma’nosini ifodalaydi?

A) *yotmoq* B) *yurmoq* C) *boshlamoq* **D)** *olmoq*

711. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301172)
Harakatning tez va oson bajaralishini ifodalovchi ko‘makchi fe’lni toping.

**A)** *qo‘ymoq* B) *boshlamoq* C) *yurmoq* D) *turmoq*

712. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301173)
Yetakchi va ko‘makchi fe’lli birikuvlarda faqat ko‘makchi fe’llarga qo‘shiladigan qo‘shimchalarni toping.

A) *-il, -ish, -ib* B) *-ma, -t, -giz* **C)** *-moqda, -di, -gan* D) *-in, -dir, -ma*

713. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301174)
Yetakchi fe’l tarkibida ham, ko‘makchi fe’l tarkibida ham kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimchalarni toping.

A) *-di, -dir, -sh* B) *-gan, -ma, -in* C) *-man, -(i) m, -ma* **D)** *-il, -ma, -ish*

714. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301175)
Boshlamoq ko‘makchi fe’li ravishdoshning qaysi shakliga qo‘shiladi?

A) *-i (-b)* **B)** *-a (-y)* C) *-gach* D) *-(i) b, -a (-y)*

715. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301176)
Qaysi qatorda fe’llar ma’noviy guruhlariga ko‘ra to‘g‘ri izohlangan?

**A) gapirmoq - nutqiy faoliyat fe’li; ijod qilmoq - aqliy faoliyat fe’li; ekmoq - jismoniy faoliyat fe’li; muzlamoq - holat fe’li**
B) *gapirmoq - jismoniy faoliyat fe’li; ijod qilmoq - aqliy faoliyat fe’li; ekmoq - holat fe’li; muzlamoq - holat fe’li*
C) *gapirmoq - holat fe’li; ijod qilmoq - nutqiy faoliyat fe’li; ekmoq va muzlamoq - jismoniy faoliyat fe’llari*
D) *gapirmoq, ekmoq, muzlamoq - jismoniy faoliyat fe’llari ijod qilmoq - nutqiy faoliyat fe’li*

716. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301177)
Otam so‘zimni eshitdi. Yelkasi osha qaradi-da:- Ha! - deb to‘ng‘illab qo‘ydi. (Sh. Xolmirzayev) Mazkur gapdagi fe’llarning ma’noviy guruhlari qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

**A) eshitmoq, to‘ng‘illab qo‘ymoq - nutqiy harakat fe’llari; qaramoq - jismoniy harakat fe’li**
B) *eshitmoq - nutqiy harakat fe’li; to‘ng‘illab qo‘ymoq - holat fe’li; qaramoq - jismoniy faoliyat fe’li*
C) *eshitmoq, to‘ng‘illab qo‘ymoq - jismoniy faoliyat fe’li; qaramoq - nutqiy faoliyat fe’li*
D) *eshitmoq, qaramoq, to‘ng‘illab qo‘ymoq - jismoniy faoliyat fe’llari*

717. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301178)
Titramoq so‘zi fe’lning qaysi ma’noviy guruhiga mansub?

A) *nutqiy faoliyat fe’li* B) *aqliy faoliyat fe’li* C) *jismoniy faoliyat fe’li* **D)** *holat fe’li*

718. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301179)
Fe’lning noaniq shakli berilgan qatorni toping.

**A)** *o‘qimoq* B) *ishlamoqda* C) *yozsa* D) *bilgan edi*

719. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301180)
Ikki fe’l juftligidan tashkil topgan qaysi birliklar fe’l turkumiga oid so‘zlar hisoblanadi?

A) *bordi-keldi* B) *keldi-ketdi* C) *ur-yiqit* **D)** *aytdi-qo‘ydi*

720. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301181)
To‘liqsiz fe’llar mustaqil (yetakchi) fe’lning qanday shakllaridan so‘ng keladi?

A) *munosabat shakllari mavjud bo‘lmagan fe’l asoslaridan so‘ng*

**B) zamon shakllari mavjud bo‘lgan fe’llardan so‘ng**

C) *shaxs-son shakllari mavjud bo‘lgan fe’llardan so‘ng*

D) *nisbat, zamon va shaxs-son shakllari mavjud bo‘lgan fe’llardan so‘ng*

721. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301182)
Fe’l asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar ma’nosini ifodalovchi fe’l shakli qanday shakl sanaladi?

A) *zamon shakli* B) *shaxs-son shakli*
**C)** *mayl shakli* D) *nisbat shakli*

722. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301183)
Fe’lning zamon, shaxs-son qo‘shimchalarsiz qismi fe’lning qaysi munosabat shaklini ifodalashga xizmat qiladi?

A) *xabar mayli* B) *shart mayli*
**C)** *II shaxs buyruq-istak mayli*
D) *III shaxs buyruq-istak mayli*

723. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (301184)
1. Oqibati nima bilan tugashini o‘ylab ham ko‘rmadi.
2. Bu sirni hech kimga ayta ko‘rma.
Har ikkala gapdagi ko‘rma fe’lini izohlang.

A) *ikkala gapda ham yetakchi fe’l*

**B) ikkala gapda ham ko‘makchi fe’l**

C) *ikkala gapda ham qo‘shma fe’lning tarkibiy qismi*

D) *birinchi gapda - yetakchi fe’l, ikkinchi gapda - ko‘makchi fe’l*

724. 6.4-3 file-» 40 - 3 - - (400171)
Qaysi qatorda o‘zlik va majhul nisbatdagi fe’llar juftligi berilgan?

**A) tarandi-taraldi, kiyindi-kiyildi**

B) *ajraldi-ajratdi, maqtadi-maqtandi*

C) *eshitdi-eshitildi, tashladi-tashlandi*

D) *yuvindi-yuuvundi, chaqirdi-chaqirildi*

725. 6.4-3 file-» 1 - 38 - - (400172)
Ergashgan qo‘shma gaplarning qaysi turida shart mayli qo‘shimchasi gaplarni bog‘lovchi vosita sifatida ishtirok etishi mumkin?
1) kesim ergash gapli qo‘shma gap; 2) ega ergash gapli qo‘shma gap; 3) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap; 4) aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap; 5) hol ergash gapli qo‘shma gap

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B)** *2, 3, 4, 5* C) *3, 4, 5*
D) *1, 3, 4, 5*

726. 6.4-3 file-» 41 - 4 - - (400173)
Qaysi ko‘makchi fe’l harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi?

A) *yurmoq* **B)** *qo‘ymoq* C) *yotmoq*
D) *chiqmoq*

727. 6.4-3 file-» 41 - 4 - - (400174)
Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida kerak, darkor, shart so‘zlari bo‘lganda, ega bilan kesim moslashsa . . .

**A) harakat nomi tarkibida shaxs-son qo‘shimchalari bo‘ladi**

B) *harakat nomi tarkibida shaxs-son qo‘shimchalari bo‘lmaydi*

C) *harakat nomiga shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilsa, ega vazifasini bajaradi*

D) *kerak, lozim, darkor, shart so‘zlari alohida ot-kesim sanaladi*

728. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400175)
O‘timli fe’llar qaysi qatorda berilgan?

**A)** *quvontirmoq, yozmoq, almashmoq*
B) *ko‘rsatmoq, jiringlamoq, ko‘rmoq*
C) *o‘qimoq, qaramoq, uxlamoq*
D) *ichmoq, tanishmoq, yurmoq*

729. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400176)
Qaysi nisbat qo‘shimchasi qo‘shilsa ishla fe’li o‘timli fe’lga aylanadi?

A) *o‘zlik nisbat qo‘shimchasi*
B) *majhul nisbat qo‘shimchasi*
C) *birgalik nisbat qo‘shimchasi*
**D)** *orttirma nisbat qo‘shimchasi*

730. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400177)
Quyidagi qaysi qo‘shimchalar ishla fe’liga qo‘shilib uni o‘timli fe’lga aylantiradi?
1) -t; 2) -tir; 3) -dir; 4) -giz; 5) -sh.

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 4*
**D)** *1*

731. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400178)
Nisbat hosil qiluvchi quyidagi qo‘shimchalardan qaysilari doim o‘timli fe’llarga qo‘shiladi?
1) -in; 2) -t; 3) -sh, -ish; 4) -tir.

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 4* C) *3* **D)** *1*

732. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400179)
Qaysi ko‘makchi fe’l harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma’nosini ifodalaydi?

A) *yotmoq* B) *yurmoq* C) *boshlamoq*
**D)** *olmoq*

733. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400180)
Yetakchi fe’l tarkibida ham, ko‘makchi fe’l tarkibida ham kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimchalarni toping.

A) *-di, -dir, -sh* B) *-gan, -ma, -in*
C) *-man, -(i) m, -ma* **D)** *-il, -ma, -ish*

734. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400181)
Boshlamoq ko‘makchi fe’li ravishdoshning qaysi shakliga qo‘shiladi?

A) *-i (-b)* **B)** *-a (-y)* C) *-gach*
D) *-(i) b, -a (-y)*

735. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400182)
Qaysi qatorda fe’llar ma’noviy guruhlariga ko‘ra to‘g‘ri izohlangan?

**A) gapirmoq - nutqiy faoliyat fe’li; ijod qilmoq - aqliy faoliyat fe’li; ekmoq - jismoniy faoliyat fe’li; muzlamoq - holat fe’li**

B) *gapirmoq - jismoniy faoliyat fe’li; ijod qilmoq - aqliy faoliyat fe’li; ekmoq - holat fe’li; muzlamoq - holat fe’li*

C) *gapirmoq - holat fe’li; ijod qilmoq - nutqiy faoliyat fe’li; ekmoq va muzlamoq - jismoniy faoliyat fe’llari*

D) *gapirmoq, ekmoq, muzlamoq - jismoniy faoliyat fe’llari;ijod qilmoq - nutqiy faoliyat fe’li*

736. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400183)
Otam so‘zimni eshitdi. Yelkasi osha qaradi-da:
- Ha! - deb to‘ng‘illab qo‘ydi. (Sh. Xolmirzayev)
Mazkur gapdagi fe’llarning ma’noviy guruhlari qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

**A) eshitmoq, to‘ng‘illab qo‘ymoq - nutqiy harakat fe’llari; qaramoq - jismoniy harakat fe’li**

B) *eshitmoq - nutqiy harakat fe’li; to‘ng‘illab qo‘ymoq - holat fe’li; qaramoq - jismoniy faoliyat fe’li*

C) *eshitmoq, to‘ng‘illab qo‘ymoq - jismoniy faoliyat fe’li; qaramoq - nutqiy faoliyat fe’li*

D) *eshitmoq, qaramoq, to‘ng‘illab qo‘ymoq - jismoniy faoliyat fe’llari*

737. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400184)
Ikki fe’l juftligidan tashkil topgan qaysi birliklar fe’l turkumiga oid so‘zlar hisoblanadi?

A) *bordi-keldi* B) *keldi-ketdi* C) *ur-yiqit*
**D)** *aytdi-qo‘ydi*

738. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400185)
To‘liqsiz fe’llar mustaqil (yetakchi) fe’lning qanday shakllaridan so‘ng keladi?

A) *munosabat shakllari mavjud bo‘lmagan fe’l asoslaridan so‘ng*

**B) zamon shakllari mavjud bo‘lgan fe’llardan so‘ng**

C) *shaxs-son shakllari mavjud bo‘lgan fe’llardan so‘ng*

D) *nisbat, zamon va shaxs-son shakllari mavjud bo‘lgan fe’llardan so‘ng*

739. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400186)
Fe’lning zamon, shaxs-son qo‘shimchalarisiz qismi fe’lning qaysi munosabat shaklini ifodalashga xizmat qiladi?

A) *xabar mayli* B) *shart mayli*
**C)** *II shaxs buyruq-istak mayli*
D) *III shaxs buyruq-istak mayli*

740. 6.4-3 file-» 1 - 40 - - (400187)
1. Oqibati nima bilan tugashini o‘ylab ham ko‘rmadi.
2. Bu sirni hech kimga ayta ko‘rma.
Har ikkala gapdagi ko‘rma fe’lini izohlang.

A) *ikkala gapda ham yetakchi fe’l*

**B) ikkala gapda ham ko‘makchi fe’l**

C) *ikkala gapda ham qo‘shma fe’lning tarkibiy qismi*

D) *birinchi gapda - yetakchi fe’l, ikkinchi gapda - ko‘makchi fe’l*

741. 6.4-3 file-» 40 - 6 - - (700153)
Qaysi gapda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasining yetakchi qismi juft fe’ldan tuzilgan?

A) *Ukalaring yaxshi, o‘ynab-kulib yurishibdi.*

**B) Akmal bo‘lib o‘tgan voqeadan xursandligidan yelib-yugurib qoldi.**

C) *Ikki oila anchadan beri bordi-keldi qilishadi.*

D) *Ona bir necha marta o‘z dardini aytib-aytib qo‘ydi.*

742. 6.4-3 file-» 40 - 6 - - (700154)
1. U uzoq yillar kasalligi sababli muntazam ukol olib keldi. 2. Saida yuklarini uyiga olib keldi.
Ushbu gaplardagi fe’llarni tahlil qiling.

**A) birinchisida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi, ikkinchisida qo‘shma fe’l**

B) *birinchisida qo‘shma fe’l, ikkinchisida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi*

C) *birinchisida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi, ikkinchisida so‘z birikmasi*

D) *birinchisida so‘z birikmasi, ikkinchisida qo‘shma fe’l*

743. 6.4-3 file-» 40 - 6 - - (700155)
Qaysi qatorda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi orttirma nisbat shaklida?

**A) Kuchli to‘lqin uni oqizib ketdi.**

B) *Majnuntol kokillari yo‘lni to‘sib turardi.*

C) *O‘qituvchi yana intizom haqida gapirib o‘tdi.*

D) *Karima u qizni surishtirib qoldi.*

744. 6.4-3 file-» 40 - 6 - - (700156)
Quyida keltirilgan fe'llardan qaysilari orttirma nisbat shaklida?
1) bitirmoq; 2) qizarmoq; 3) qochirmoq;
4) tushirmoq; 5) solishtirmoq; 6) surishtirmoq;
7) uyg'otmoq; 8) yupatmoq; 9) oshirmoq

A) *2, 8, 9* **B)** *1, 3, 4, 9* C) *1, 4, 5, 9*
D) *3, 6, 7, 9*

745. 6.4-3 file-» 20 - 1 - - (700157)
Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida- ma bo'lishsizlik qo'shimchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

**A) yetakchi fe'lga qo'shilsa -davomiy bo'lishsizlik ma'nosi, ko'makchi fe'lga qo'shilsa-bir martalik harakat inkorini ifodalaydi.**

B) *yetakchi fe'lga qo'shilganda-bir martalik harakat inkorini, ko'makchi fe'lga qo'shilganda -davomiy bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydi.*

C) *yetakchi fe'lga qo'shilganda-inkor, ko'makchi fe'lga qo'shilganda-tasdiq ma'nosini ifodalaydi.*

D) *yetakchi va ko'makchi fe'lga qo'shilganda ma'no farqiga ega bo'lmaydi.*

746. 6.4-3 file-» 20 - 1 - - (700158)
Qaysi gapda o'tgan zamon sifatdoshi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan?
1.Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi.
2.Bu ovoz hali mag'zi ilimagan dalalarga tegib aks-sado berayotgandek tuyulardi.
3.Qoradaryo hamisha to'lib oqqan, lekin hech qachon bunday suvsiz bo'lmagan.

A) *1 va 2* B) *2 va 3* **C)** *2* D) *1*

747. 6.4-3 file-» 1 - 48 - - (700159)
Ergashgan qo'shma gaplarning qaysi turida ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi ?

A) *ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplarda*

B) *deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplarda*

C) *ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplarda*

**D) nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarda**

748. 6.4-3 file-» 1 - 48 - - (700160)
Harakatning holatini anglatuvchi ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi?
1) -(i)b, a(-y); 2) -gancha; 3) -gani; 4) -gach

**A)** *1, 2* B) *2, 3* C) *3, 4* D) *1, 4*

749. 6.4-3 file-» 1 - 48 - - (700161)
Fe'lning vazifa shakllaridan qaysi biriga egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush almashishi ro'y beradi?

**A)** *harakat nomi* B) *ravishdosh*
C) *sifatdosh* D) *ravishdosh, sifatdosh*

750. 6.4-3 file-» 12 - 3 - - (700162)
1. To'g'ri kelgan odamning ko'ksiga o'zini tashlab, uvvos soladi.
2. Normat qo'shiqqa quloq solib, ichkaridagi odamning chiqishini kuta boshladi.
Gaplarda qo'llangan solmoq fe'li haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

A) *birinchi gapda mustaqil fe'l, ikkinchi gapda qo'shma fe'l tarkibida*

B) *birinchi gapda qo'shma fe'l tarkibida, ikkinchi gapda mustaqil fe'l*

**C) ikkala gapda qo'shma fe'l tarkibida**

D) *ikkala gapda mustaqil fe'l*

751. 6.4-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715096)
Qaysi qatorda o'timsiz fe'llar vosita yordamida o'timli fe'lga aylangan?

A) *joylashtirmoq, terilmoq, kuzatmoq*

B) *o'qishmoq, yig'latmoq, ko'rsatmoq*

C) *bajartirmoq, o'qitmoq, berishmoq*

**D) quvontirmoq, tarqatmoq, chiqarmoq**

752. 6.4-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715097)
Quyidagi fe'llarning qaysilari o'zlik nisbat shaklida qo'llana olmaydi?
1) o'ylamoq; 2) gullamoq; 3) yaraqlamoq;
4) uzmoq; 5) otmoq; 6) kulmoq; 7) turmoq

**A)** *2, 3, 6, 7* B) *1, 2, 3, 4, 5, 6* C) *2, 6, 7*
D) *2, 3, 5, 6, 7*

753. 6.4-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715098)
Quyidagi birikmalarning qaysi birida orttirma nisbat shakli qo'llanilgan?
1) suvni to'lat; 2) pulni to'lat; 3) mehmonlarni kuzat; 4) darvozani yangilat

**A)** *2, 4* B) *1, 2, 3* C) *1, 2, 3, 4*
D) *2, 3, 4*

754. 6.4-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715099)
Qaysi qatordagi harakat nomining shakldosh (omonim)i mavjud?

A) *kerish, bilish* **B)** *ilmoq, quymoq*
C) *chiqish, tashvish* D) *qolish, tanishish*

755. 6.4-3 file-» 40 - 5 - - 1 (715100)
Qaysi qatordagi harakat nomlari tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘llangan?

**A) kechikish, bo‘zarish, o‘ynash**
B) *kuzatish, kerilish, ko‘tarish*
C) *ho‘plash, sanash, chaqish*
D) *qidirish, yugurish, sindirish*

756. 6.4-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715103)
Qaysi qatordagi fikr noto‘g‘ri?

A) *Buyruq-istak mayli shakllari shaxs-son ma’nosini ham ifodalaydi.*
B) *Shart mayli shakli orzu-istak ma’nosini ham ifodalaydi.*
**C) Fe’lning hech qanday qo‘shimchalarsiz asosining o‘zi xabar mayli hisoblanadi.**
D) *Shart mayli shakli kerak so‘zini olib kelganda, taxmin-gumon ma’nosini bildiradi.*

757. 6.4-4 file-» 1 - 38 - - (231464)
Эргашган қўшма гапларнинг қайси турида шарт майли қўшимчаси гапларни боғловчи восита сифатида иштирок этиши мумкин?
1) кесим эргаш гапли қўшма гап; 2) эга эргаш гапли қўшма гап; 3) тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гап; 4) аниқловчи эргаш гапли қўшма гап; 5) ҳол эргаш гапли қўшма гап

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B) *2, 3, 4, 5*** C) *3, 4, 5*
D) *1, 3, 4, 5*

758. 6.4-4 file-» 41 - 4 - - (231595)
Қайси кўмакчи феъл ҳаракатнинг тез ва осон бажарилишини ифодалайди?

A) *юрмоқ* **B) *қўймоқ*** C) *ётмоқ*
D) *чиқмоқ*

759. 6.4-4 file-» 41 - 4 - - (231606)
Ҳаракат номи билан ифодаланган кесим таркибида керак, даркор, шарт сўзлари бўлганда, эга билан кесим мослашса ...

**A) ҳаракат номи таркибида шахс-сон қўшимчалари бўлади**
B) *ҳаракат номи таркибида шахс-сон қўшимчалари бўлмайди*
C) *ҳаракат номига шахс-сон қўшимчаси қўшилса, эга вазифасини бажаради*
D) *керак, лозим, даркор, шарт сўзлари алоҳида от-кесим саналади*

760. 6.4-4 file-» 40 - 1 - - (237886)
Бир куни чол бечора қўли титраб, ош сузиб берилган косасини тушириб синдирди. Ушбу гапда қайси нисбатдаги феъллар берилган?

A) *ўзлик, мажҳул, орттирма нисбатлар*
**B) аниқ, мажҳул, орттирма нисбатлар**
C) *орттирма, биргалик, аниқ нисбатлар*
D) *мажҳул, биргалик, аниқ нисбатлар*

761. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241418)
Ўтимли феъллар қайси қаторда берилган?

**A) *қувонтирмоқ, ёзмоқ, алмашмоқ***
B) *кўрсатмоқ, жиринглaмоқ, кўрмоқ*
C) *ўқимоқ, қарамоқ, ухламоқ*
D) *ичмоқ, танишмоқ, юрмоқ*

762. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241419)
Қайси нисбат қўшимчаси қўшилса ишла феъли ўтимли феълга айланади?

A) *ўзлик нисбат қўшимчаси*
B) *мажҳул нисбат қўшимчаси*
C) *биргалик нисбат қўшимчаси*
**D) *орттирма нисбат қўшимчаси***

763. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241420)
Қуйидаги қайси қўшимчалар ишла феълига қўшилиб уни ўтимли феълга айлантиради?
1) -т; 2) -тир; 3) -дир; 4) -гиз; 5) -ш.

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 4*
**D) *1***

764. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241421)
Нисбат ҳосил қилувчи қуйидаги қўшимчалардан қайсилари доим ўтимли феълларга қўшилади?
1) -ин; 2) -т; 3) -ш, -иш; 4) -тир.

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 4* C) *3* **D) *1***

765. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241427)
Қайси кўмакчи феъл ҳаракатни бажаришга имконият мавжудлиги маъносини ифодалайди?

A) *ётмоқ* B) *юрмоқ* C) *бошламоқ*
**D) *олмоқ***

766. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241430)
Етакчи феъл таркибида ҳам, кўмакчи феъл таркибида ҳам келиши мумкин бўлган қўшимчаларни топинг.

A) *-ди, -дир, -ш* B) *-ган, -ма, -ин*
C) *-ман, -(и) м, -ма* **D) *-ил, -ма, -иш***

767. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241431)
Бошламоқ кўмакчи феъли равишдошнинг қайси шаклига қўшилади?

A) *-и (-б)* **B) *-а (-й)*** C) *-гач*
D) *-(и) б, -а (-й)*

768. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241432)
Қайси қаторда феъллар маъновий гуруҳларига кўра тўғри изоҳланган?

**A) гапирмоқ - нутқий фаолият феъли; ижод қилмоқ - ақлий фаолият феъли; экмоқ - жисмоний фаолият феъли; музламоқ - ҳолат феъли**

B) *гапирмоқ - жисмоний фаолият феъли; ижод қилмоқ - ақлий фаолият феъли; экмоқ - ҳолат феъли; музламоқ - ҳолат феъли*

C) *гапирмоқ - ҳолат феъли; ижод қилмоқ - нутқий фаолият феъли; экмоқ ва музламоқ - жисмоний фаолият феъллари*

D) *гапирмоқ, экмоқ, музламоқ - жисмоний фаолият феъллари ижод қилмоқ - нутқий фаолият феъли*

769. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241433)
Отам сўзимни эшитди. Елкаси оша қаради-да:- Ҳа! - деб тўнғиллаб қўйди. (Ш. Холмирзаев)
Мазкур гапдаги феълларнинг маъновий гуруҳлари қайси қаторда тўғри изоҳланган?

**A) эшитмоқ, тўнғиллаб қўймоқ - нутқий ҳаракат феъллари; қарамоқ - жисмоний ҳаракат феъли**

B) *эшитмоқ - нутқий ҳаракат феъли; тўнғиллаб қўймоқ - ҳолат феъли; қарамоқ - жисмоний фаолият феъли*

C) *эшитмоқ, тўнғиллаб қўймоқ - жисмоний фаолият феъли; қарамоқ - нутқий фаолият феъли*

D) *эшитмоқ, қарамоқ, тўнғиллаб қўймоқ - жисмоний фаолият феъллари*

770. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241436)
Икки феъл жуфтлигидан ташкил топган қайси бирликлар феъл туркумига оид сўзлар ҳисобланади?

A) *борди-келди* B) *келди-кетди*
C) *ур-йиқит* **D) <u>*айтди-қўйди*</u>**

771. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241437)
Тўлиқсиз феъллар мустақил (етакчи) феълнинг қандай шаклларидан сўнг келади?

A) *муносабат шакллари мавжуд бўлмаган феъл асосларидан сўнг*

**B) замон шакллари мавжуд бўлган феъллардан сўнг**

C) *шахс-сон шакллари мавжуд бўлган феъллардан сўнг*

D) *нисбат, замон ва шахс-сон шакллари мавжуд бўлган феъллардан сўнг*

772. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241439)
Феълнинг замон, шахс-сон қўшимчаларсиз қисми феълнинг қайси муносабат шаклини ифодалашга хизмат қилади?

A) *хабар майли* B) *шарт майли*
**C)** <u>*II шахс буйруқ-истак майли*</u>
D) *III шахс буйруқ-истак майли*

773. 6.4-4 file-» 1 - 40 - - (241444)
1. Оқибати нима билан тугашини ўйлаб ҳам кўрмади.
2. Бу сирни ҳеч кимга айта кўрма.
Ҳар иккала гапдаги <u>кўрма</u> феълини изоҳланг.

A) *иккала гапда ҳам етакчи феъл*

**B) иккала гапда ҳам кўмакчи феъл**

C) *иккала гапда ҳам қўшма феълнинг таркибий қисми*

D) *биринчи гапда - етакчи феъл, иккинчи гапда - кўмакчи феъл*

774. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (231459)
Қайси боғловчилар билан боғланган қўшма гап қисмларида ифодаланган воқеа-ҳодисаларнинг фақат биттаси юзага чиқиши таъкидланиши мумкин?

A) *зидлов боғловчилари ёрдамида боғланган қўшма гапларда*

**B) айирув боғловчилари ёрдамида боғланган қўшма гапларда**

C) *<u>бўлса, эса</u> сўзлари ёрдамида боғланган қўшма гапларда*

D) *эргаштирувчи боғловчилар ёрдамида боғланган қўшма гапларда*

775. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (231463)
<u>мабодо</u> боғловчиси ёрдамида боғланган эргашган қўшма гап қандай маъно ифодалайди?

A) *сабаб* **B)** <u>*шарт*</u> C) *мақсад*
D) *қиёслаш-чоғиштирув*

776. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (231470)
<u>балки</u> модал сўзи яна қандай вазифани бажариши мумкин?

A) *юклама* B) *кўмакчи* **C)** <u>*боғловчи*</u>
D) *гумон олмоши*

777. 6.5-3 file-» 41 - 4 - - (231579)
Қайси қаторда вазифадош модал сўзлар берилган?

**A) эҳтимол, афтидан, шубҳасиз**

B) *аттанг, албатта, балки*

C) *чамаси, дарҳақиқат, аввало*

D) *афсуски, тахминан, аттанг*

778. 6.5-3 file-» 41 - 4 - - (231596)
Қайси жавобда кучайтирув-таъкид юкламалари берилган?

**A)** *ҳам, ғирт* B) *-да, -гина (-кина, -қина)*
C) *фақат, -оқ (-ёқ)* D) *-ку, -дир*

779. 6.5-3 file-» 41 - 4 - - (231597)
Қайси жавобда соф кўмакчилар берилган?

A) *билан, учун, атаб* **B)** *қадар, узра, сари*
C) *сайин, кўра, қадар*
D) *каби, туфайли, бўйлаб*

780. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (232320)
балки сўзи боғловчиларнинг қайси турига мансуб?

A) *айирув боғловчиларга*
**B)** *зидлов боғловчиларга*
C) *бириктирув боғловчиларга*
D) *эргаштирувчи боғловчиларга*

781. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (232321)
Вазифадош боғловчилар яна қандай вазифада келиши мумкин?
1) юклама; 2) кўмакчи; 3) модал сўз; 4) ундов сўз

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *1, 2, 3* C) *1, 2* D) *1*

782. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241022)
Аташ маъносини тамоман йўқотиб, фақат ўзи бириккан сўзни бошқа сўзга тобелантириб боғлаш учун хизмат қиладиган сўзларни топинг.

A) *лекин, шунинг учун, ҳамда*
**B) учун, сингари, каби, туфайли**
C) *ахир, наҳотки, менимча, чамаси*
D) *томон, кейин, мисоли, қадар*

783. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241023)
Соф кўмакчилар берилган жавобни топинг.

A) *сари, сайин, сўнг, бошида*
B) *сингари, мисоли, ҳақида, бўйла*
C) *томон, бошида, учун, орқали*
**D)** *узра, туфайли, ҳақида, қадар*

784. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241024)
Қайси кўмакчилар мақсад маъносини ифодалайди?

**A)** *сабабли, туфайли, учун*
B) *учун, бўйлаб, сари*
C) *томон, учун, сабабли*
D) *туфайли, қадар, томон*

785. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241025)
Вазифадош кўмакчилар берилган қаторни топинг.

A) *ост, рўпара, билан, каби*
**B)** *томон, орқа, қош, атаб*
C) *аввал, қадар, бўйлаб, деб*
D) *сўнг, қараб, орқали, сари*

786. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241026)
Қаратқич келишиги шаклидаги исмларга қўшилиб келадиган вазифадош кўмакчиларни аниқланг.

A) *қадар, сайин, бири* **B)** *олд, ост, уст*
C) *билан, каби, томон*
D) *ҳақида, тўғрисида, қаршисида*

787. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241027)
Билан қандай ҳолларда кўмакчи вазифасини бажаради?

A) *уюшиқ бўлакларни боғлаб келганда*
B) *уюшиқ бўлаклар ва қўшма гап таркибидаги содда гапларни боғлаганда*
**C) ўзаро тобе боғланувчи сўзларни боғлаб келганда**
D) *бош келишикдаги сўзларни бошқа келишикдаги отлар билан боғлаб келганда*

788. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241028)
Балки сўзи вазифадош боғловчи сифатида қўлланган гапни топинг.

**A) Халқни қўрқитган эмас, балки халқ дардига шерик бўлган одам марддир.**
B) *Балки, эрталаб ўзига иситиб бериш учун шунақа деяётгандир.*
C) *Бўлиб ўтган воқеа, балки сени шошириб қўйди?*
D) *Балки сўзи вазифадош боғловчи сифатида қўлланилмайди.*

789. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241029)
Ўзаро тобе муносабатда бўлган гап бўлаги ва гапларни боғлаш учун ишлатиладиган боғловчиларни белгиланг.

A) *ҳамда, билан, чунки, агар*
B) *шунинг учун, ҳамда, яъни, -ки*
**C) негаки, башарти, гарчи, агар**
D) *балки, чунки, билан*

790. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241030)
1) нақ; 2) ҳатто; 3) ғирт; 4) ҳеч; 5) сира; 6) -оқ (-ёқ); 7) -у (-ю); 8) ҳам; 9) -а (-я); 10) наҳотки
Берилган юкламалардан кучайтирув-таъкид юкламаларини белгиланг.

**A)** *2, 3, 6, 7, 8, 10* B) *1, 2, 6, 7, 10*
C) *2, 5, 6, 7, 8* D) *2, 4, 5, 8, 10*

791. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241032)
Таркибида соф модал сўз иштирок этган гапни топинг.

A) *Онажоним, балки бир кун Мен ҳам шоир бўларман.*
B) *Мен, шубҳасиз, бу ҳақда дўстимга хабар бераман.*
**C) Ота-онам, аввало, бу ишни бошлашдан илгари мен билан маслаҳатлашишади.**
D) *Афтидан, Ғуломжон бу ғалваларни атайлаб бошлаган.*

792. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (241033)
Қуйидаги гапда остига чизилган сўз тўғри изоҳланган жавобни белгиланг.
**Ҳа, майли, буни ҳозирча очиқ қолдирамиз.**

A) *ундов сўз* **B)** *тасдиқ сўз* C) *кириш сўз*
D) *модал сўз*

793. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (241405)
Боғланган қўшма гапнинг сабаб-натижа муносабатларида бўлган қисмларини қайси боғловчилар боғлаб келади?

**A)** *бириктирув боғловчилар*
B) *зидлов боғловчилар*
C) *айирув боғловчилар*
D) *эргаштирувчи боғловчилар*

794. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (241406)
Боғланган қўшма гапнинг пайт муносабатида бўлган қисмларини қайси боғловчилар боғлаб келади?

**A)** *бириктирув боғловчилар*
B) *зидлов боғловчилар*
C) *айирув боғловчилар*
D) *эргаштирувчи боғловчилар*

795. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (241407)
Машҳур қора қашқа айғирининг чилвирини хирмондаги болаларга тутқазди-да, дабдурустдан чоллар билан гаплашиб турган Комилага юзланди.
Мазкур қўшма гап қисмлари орасида қандай муносабат ифодаланган?

A) *сабаб-натижа муносабати*
**B)** *пайт муносабати* C) *зидлик муносабати*
D) *қиёслаш муносабати*

796. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (241408)
Боғловчи воситалардан қайси бири қўшма гап қисмларини боғлаш билан бирга, улар орасида қиёслаш муносабати мавжудлигини ифодалайди?

**A)** *бўлса, эса сўзлари* B) *нисбий сўзлар*
C) *бириктирувчи боғловчилар*
D) *айирув боғловчилар*

797. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (241413)
Дўстликдан ўтадиган ҳеч нарса йўқ, шунинг учун дўст орттириш имкониятларини сира қўлдан бой берма.
Ушбу қўшма гап қисмлари ўзаро қайси боғловчи воситасида боғланган?

A) *эргаштирувчи боғловчи*
B) *нисбий сўзлар* **C)** *кўмакчили қурилма*
D) *оҳанг*

798. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (301185)
Qaysi bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gap qismlarida ifodalangan voqea-hodisalarning faqat bittasi yuzaga chiqishi ta’kidlanishi mumkin?

A) *zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda*
**B) ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda**
C) *bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda*
D) *ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda*

799. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (301186)
mabodo bog‘lovchisi yordamida bog‘langan ergashgan qo‘shma gap qanday ma’no ifodalaydi?

A) *sabab* **B)** *shart* C) *maqsad*
D) *qiyoslash-chog‘ishtiruv*

800. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (301187)
balki modal so‘zi yana qanday vazifani bajarishi mumkin?

A) *yuklama* B) *ko‘makchi* **C)** *bog‘lovchi*
D) *gumon olmoshi*

801. 6.5-3 file-» 41 - 4 - - (301188)
Qaysi qatorda vazifadosh modal so‘zlar berilgan?

**A) ehtimol, aftidan, shubhasiz**
B) *attang, albatta, balki*
C) *chamasi, darhaqiqat, avvalo*
D) *afsuski, taxminan, attang*

802. 6.5-3 file-» 41 - 4 - - (301189)
Qaysi javobda kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari berilgan?

**A)** *ham, g‘irt* B) *-da, -gina (-kina, -qina)*
C) *faqat, -oq (-yoq)* D) *-ku, -dir*

803. 6.5-3 file-» 41 - 4 - - (301190)
Qaysi javobda sof ko‘makchilar berilgan?

A) *bilan, uchun, atab* **B)** *qadar, uzra, sari*
C) *sayin, ko‘ra, qadar*
D) *kabi, tufayli, bo‘ylab*

804. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (301191)
balki so‘zi bog‘lovchilarning qaysi turiga mansub?

A) *ayiruv bog‘lovchilarga*
**B)** *zidlov bog‘lovchilarga*
C) *biriktiruv bog‘lovchilarga*
D) *ergashtiruvchi bog‘lovchilarga*

805. 6.5-3 file-» 1 - 38 - - (301192)
Vazifadosh bog‘lovchilar yana qanday vazifada kelishi mumkin?
1) yuklama; 2) ko‘makchi; 3) modal so‘z; 4) undov so‘z

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *1, 2, 3* C) *1, 2* D) *1*

806. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301193)
Atash ma’nosini tamoman yo‘qotib, faqat o‘zi birikkan so‘zni boshqa so‘zga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiladigan so‘zlarni toping.

A) *lekin, shuning uchun, hamda*
**B) uchun, singari, kabi, tufayli**
C) *axir, nahotki, menimcha, chamasi*
D) *tomon, keyin, misoli, qadar*

807. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301194)
Sof ko‘makchilar berilgan javobni toping.

A) *sari, sayin, so‘ng, boshida*
B) *singari, misoli, haqida, bo‘yla*
C) *tomon, boshida, uchun, orqali*
**D)** *uzra, tufayli, haqida, qadar*

808. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301195)
Qaysi ko‘makchilar maqsad ma’nosini ifodalaydi?

**A)** *sababli, tufayli, uchun*
B) *uchun, bo‘ylab, sari*
C) *tomon, uchun, sababli*
D) *tufayli, qadar, tomon*

809. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301196)
Vazifadosh ko‘makchilar berilgan qatorni toping.

A) *ost, ro‘para, bilan, kabi*
**B)** *tomon, orqa, qosh, atab*
C) *avval, qadar, bo‘ylab, deb*
D) *so‘ng, qarab, orqali, sari*

810. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301197)
Qaratqich kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shilib keladigan vazifadosh ko‘makchilarni aniqlang.

A) *qadar, sayin, biri* **B)** *old, ost, ust*
C) *bilan, kabi, tomon*
D) *haqida, to‘g‘risida, qarshisida*

811. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301198)
Bilan qanday hollarda ko‘makchi vazifasini bajaradi?

A) *uyushiq bo‘laklarni bog‘lab kelganda*
B) *uyushiq bo‘laklar va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘laganda*
**C) o‘zaro tobe bog‘lanuvchi so‘zlarni bog‘lab kelganda**
D) *bosh kelishikdagi so‘zlarni boshqa kelishikdagi otlar bilan bog‘lab kelganda*

812. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301199)
Balki so‘zi vazifadosh bog‘lovchi sifatida qo‘llangan gapni toping.

**A) Xalqni qo‘rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo‘lgan odam marddir.**
B) *Balki, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.*
C) *Bo‘lib o‘tgan voqea, balki seni shoshirib qo‘ydi?*
D) *Balki so‘zi vazifadosh bog‘lovchi sifatida qo‘llanilmaydi.*

813. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301200)
O‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘lagi va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilarni belgilang.

A) *hamda, bilan, chunki, agar*
B) *shuning uchun, hamda, ya’ni, -ki*
**C) negaki, basharti, garchi, agar**
D) *balki, chunki, bilan*

814. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301201)
1) naq; 2) hatto; 3) g‘irt; 4) hech; 5) sira; 6) -oq (-yoq); 7) -u (-yu); 8) ham; 9) -a (-ya); 10) nahotki
Berilgan yuklamalardan kuchaytiruv-ta’kid yuklamalarini belgilang.

**A)** *2, 3, 6, 7, 8, 10* B) *1, 2, 6, 7, 10*
C) *2, 5, 6, 7, 8* D) *2, 4, 5, 8, 10*

815. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301202)
Tarkibida sof modal so‘z ishtirok etgan gapni toping.

A) *Onajonim, balki bir kun*
*Men ham shoir bo‘larman.*
B) *Men, shubhasiz, bu haqda do‘stimga xabar beraman.*
**C) Ota-onam, avvalo, bu ishni boshlashdan ilgari men bilan maslahatlashishadi.**
D) *Aftidan, G‘ulomjon bu g‘alvalarni ataylab boshlagan.*

816. 6.5-3 file-» 78 - 1 - - (301203)
Quyidagi gapda ostiga chizilgan so'z to'g'ri izohlangan javobni belgilang.
**Ha, mayli, buni hozircha ochiq qoldiramiz.**
A) *undov so'z* **B)** *tasdiq so'z*
C) *kirish so'z* D) *modal so'z*

817. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (301204)
Bog'langan qo'shma gapning sabab-natija munosabatlarida bo'lgan qismlarini qaysi bog'lovchilar bog'lab keladi?
**A)** *biriktiruv bog'lovchilar*
B) *zidlov bog'lovchilar*
C) *ayiruv bog'lovchilar*
D) *ergashtiruvchi bog'lovchilar*

818. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (301205)
Bog'langan qo'shma gapning payt munosabatida bo'lgan qismlarini qaysi bog'lovchilar bog'lab keladi?
**A)** *biriktiruv bog'lovchilar*
B) *zidlov bog'lovchilar*
C) *ayiruv bog'lovchilar*
D) *ergashtiruvchi bog'lovchilar*

819. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (301206)
Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.
Mazkur qo'shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalangan?
A) *sabab-natija munosabati*
**B)** *payt munosabati* C) *zidlik munosabati*
D) *qiyoslash munosabati*

820. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (301207)
Bog'lovchi vositalardan qaysi biri qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular orasida qiyoslash munosabati mavjudligini ifodalaydi?
**A)** *bo'lsa, esa so'zlari* B) *nisbiy so'zlar*
C) *biriktiruvchi bog'lovchilar*
D) *ayiruv bog'lovchilar*

821. 6.5-3 file-» 1 - 39 - - (301208)
Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatlarini sira qo'ldan boy berma.
Ushbu qo'shma gap qismlari o'zaro qaysi bog'lovchi vositasida bog'langan?
A) *ergashtiruvchi bog'lovchi* B) *nisbiy so'zlar*
**C)** *ko'makchili qurilma* D) *ohang*

822. 6.5-3 file-» 5 - 1 - - (400188)
**Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi, dona-dona gapirdi, vazifaning muhimligini takror-takror ta'kidladi, jon kuydirib tushuntirdi.**
Ushbu gapda nechta murakkab hol mavjud?
A) *2 ta* B) *3 ta* **C)** *4 ta* D) *5 ta*

823. 6.5-3 file-» 1 - 43 - - (400189)
Ko'makchilarga xos xususiyat qaysi qatorda noto'g'ri izohlangan?
A) *Ko'makchilar harakat nomidan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi.*
B) *Ko'makchilar sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi.*
**C) Ko'makchilar ravishdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi.**
D) *Ko'makchilar olmoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi.*

824. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400190)
Sof ko'makchi qo'llangan gapni toping.
**A) Barchasidan qovun soz, paykal uzra dumalar.**
B) *Gap futbol o'yini ustida ketardi.*
C) *Gapirishdan avval yaxshilab o'ylash lozim.*
D) *Muxbirimiz telefon orqali xabar berdi.*

825. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400191)
Qaysi qatorda vazifadosh ko'makchi otlashgan so'zdan keyin qo'llangan?
A) *Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi.*
**B) Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas.**
C) *To'ydan keyin nog'ora chalmoq – nodonlar ishi.*
D) *Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqat yotadi.*

826. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400192)
Vazifadosh bog'lovchi berilgan gapni toping.
A) *Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi.*
B) *Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir.*
**C) Onam bilan men ertalab yo'lga chiqdik.**
D) *Barcha gaplarda vazifadosh bog'lovchilar qo'llangan.*

827. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400193)
**Na . . . , na** inkor bog‘lovchisi qo‘llangan gaplarning kesimi qanday shaklda bo‘ladi?

A) *bo‘lishsiz shaklda*
**B) bo‘lishli shaklda**
C) *o‘rni bilan bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda*
D) *barcha javob to‘g‘ri*

828. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400194)
Qaysi qatorda ismlarning munosabat shakllari berilgan?

A) *egalik, kelishik shakllari*
B) *bog‘lamalar*
C) *shaxs-son qo‘shimchalari*
**D) egalik va kelishik shakllari, bog‘lamalar**

829. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400195)
Qaysi qatordagi gapda vazifadosh ko‘makchi ishtirok etgan?

A) *Avval o‘yla, keyin so‘yla.*
**B) Bu kitob qo‘liga tushgandan keyin, bosh ko‘tarmay mutolaaga tushdi.**
C) *Ish bilan ovora bo‘lib, kunning o‘tganini ham sezmay qolasan.*
D) *Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg‘oq bo‘lmog‘i darkor.*

830. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400196)
Qaysi gapda uchta o‘rinda yordamchi so‘z turkumiga oid birliklar qo‘llangan?

A) *Men ham eshitgan va ko‘rganimni aytaman-da, jo‘ra.*
B) *Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirddan, yoki tengdoshdan.*
C) *Biladilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a.*
**D) berilgan barcha gaplarda**

831. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400197)
Qaysi gapda vazifadosh bog‘lovchi qo‘llangan?

A) *Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshladi.*
B) *Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir.*
**C) Badia bilan Ma’suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi.**
D) *Sen ham, men ham shunga ishonibmiz-a?*

832. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400198)
Qaysi gapda zidlov bog‘lovchisi vazifasidagi so‘z qo‘llangan?

A) *U turmushidan, o‘tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmasdi.*
**B) Bo‘rondan so‘ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko‘paydi.**
C) *Ma’nisiz hayot kechirish yomon turmush kechirish degani emas, ammo sekin-asta o‘lish demakdir.*
D) *Berilgan barcha gaplarda*

833. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400199)
Qaysi qatorda faqat kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari berilgan?

**A) hatto, -ku, ham, nahotki**
B) *-da, -u, -yu, axir, faqat*
C) *-oq (-yoq), -dir, ham, xuddi*
D) *-ki, -chi, -a, sira*

834. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400200)
**U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi ham edi.**
Mazkur gapda atash ma’nosiga ega bo‘lmagan so‘zlar miqdorini toping.

A) *4 ta* B) *3 ta* **C) *6 ta*** D) *5 ta*

835. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400201)
**O‘rtada bo‘lsin deb qadr ham izzat**
**Ayriliq va o‘lim yaralganmi yo?**
Ushbu misralarda berilgan yordamchi so‘zlar turi va miqdorini toping.

A) *bitta yuklama, uchta teng bog‘lovchi*
**B) bitta ko‘makchi, ikkita biriktiruv bog‘lovchisi, bitta ayiruv bog‘lovchisi**
C) *bitta ko‘makchi, bitta yuklama, ikkita teng bog‘lovchi*
D) *bitta yuklama, ikkita teng bog‘lovchi*

836. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400202)
Gumon yuklamasi qo‘llanmagan gapni toping.

A) *U sizni yo‘qlab kelgandir?*
**B) Suv hayot manbaidir.**
C) *Urug‘ingdir, aymog‘ingdir,*
*Biror og‘zi maymog‘ingdir?*
D) *Barcha gaplarda gumon yuklamasi qo‘llangan.*

837. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400203)
Qaysi qatorda undov so'zlarga xos xususiyat noto'g'ri berilgan?

A) *undov so'zlar o'zi undov gap bo'lib kelishi mumkin*

B) *gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin*

C) *undov so'zlar otlashganda gapda ma'lum vazifada qo'llanishi mumkin*

**D) undov so'zlar gap bilan grammatik jihatdan bog'lanishi mumkin**

838. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400204)
Modal so'zlarni toping.
1) attang; 2) faqat; 3) birdan; 4) aftidan; 5) masalan; 6) nihoyat; 7) nahotki; 8) xayriyat; 9) biroq; 10) ehtimol

A) *1, 3, 6, 8, 10* B) *4, 5, 7, 8*
C) *1, 4, 7, 8, 9, 10* **D)** *1, 4, 5, 6, 8, 10*

839. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400205)
Qaysi qatorda vazifadosh modal so'zlar berilgan?

A) *afsuski, haqiqatan, avvalo, xullas*

**B) balki, ehtimol, chamasi, aftidan**

C) *attang, umuman, taxminan, shubhasiz*

D) *albatta, shekilli, tabiiy, to'g'ri*

840. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400206)
Qaysi qatorda sof modal so'zlar berilgan?

**A) haqiqatan, afsuski, attang, taxminan**

B) *avvalo, xullas, shubhasiz, baxtimga*

C) *masalan, umuman, aftidan, chamasi*

D) *avvalambor, darhaqiqat, jumladan, shaksiz*

841. 6.5-3 file-» 40 - 4 - - (400207)
Qaysi gapdagi modal so'z fikrning tartibini bildiradi?

A) *Alqissa, xaloyiq va har tarafdan kelgan kishilar to'da bo'lishib maslahat qildilar.*

**B) Nihoyat, unday inson ham ko'rindi.**

C) *Xullas, kayfim chog' edi.*

D) *Darhaqiqat, chang-to'zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi.*

842. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700164)
1. Devor usti yomg'irdan iviy boshladi. 2. Kitob ustida uzoq ishladi. 3. Nosir o'z ustida ko'p ishlardi.
Ushbu gaplardagi **usti** so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) *1- va 3-gaplarda vazifadosh ko'makchi, 2-gapda mustaqil so'z*

B) *1- va 2-gaplarda mustaqil so'z, 2-gapda vazifadosh ko'makchi*

**C) 2- va 3-gaplarda vazifadosh ko'makchi, 1-gapda mustaqil so'z**

D) *2- va 3-gaplarda mustaqil so'z, 1-gapda vazifadosh ko'makchi*

843. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700165)
Qaysi gapda ko'makchi mavjud emas?

A) *Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas.*

B) *Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin.*

**C) Badia bilan Mas'uma beka arava tagiga kirib yashirindi.**

D) *Otni soy bo'yiga bog'ladi-da, o'zi yuqoriga chiqib ketdi.*

844. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700166)
Qaysi javobda vazifadosh bog'lovchi berilgan?

**A) Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi.**

B) *Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa hamma vaqt qayg'u ostida bo'ladi.*

C) *Balki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.*

D) *Go'yo sharpa o'tganday bo'ldi.*

845. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700167)
1) Umarali o'rnidan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi.
2) Samar shoshib-pishib do'konga kirib chiqdi.
3) U bu gapni eshitib chiqdi-ketdi.
4) Direktor hujjatlar bilan tanishib chiqdi.
Ushbu gaplardagi **chiqdi** fe'li haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

**A) 1-3-gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 2-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 4-gapda ko'makchi fe'l**

B) *3-gapda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 1-2-gaplarda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 4-gapda ko'makchi fe'l*

C) *2-4-gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 3-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 1-gapda ko'makchi fe'l*

D) *1-2-3-gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 4-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi*

846. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700168)
Gaplarning qaysi birida yuklama ishtirok etmagan?

A) *Haykal ham qo‘yingiz bamisli xayol.*
**B) Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruratdir.**
C) *U o‘z ishini sira vaqtida qilmaydi.*
D) *Nihoyat, unday inson ham ko‘rindi.*

847. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700169)
Qaysi gapda zidlov bog‘lovchisi uyushiq bo‘laklarni bog‘lab kelgan?

**A) U nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham shunday muomalada bo‘lar edi.**
B) *Dunyoda kasblar ko‘p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug‘dir.*
C) *U turmushidan, o‘tgan kunidan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi.*
D) *Hamma gullarning hidi bor, ammo rayhonning hidi bo‘lakcha.*

848. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700170)
Gaplarning qaysi birida vazifadosh modal so‘z ishtirok etmagan?

A) *Shubhasiz, u shunday fikrga kelgan.*
B) *Bu, ehtimol, achchiq alamning oqibatidir.*
C) *Onajonim, balki bir kun, Men ham shoir bo‘larman.*
**D) Bu fikr, umuman, eng zarur va to‘g‘ri deb o‘ylamayman.**

849. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700171)
Qaysi bog‘lovchilar ergash gap boshida keladi?

A) *ko‘makchili qurilmalar*
**B) shart bog‘lovchilari**
C) *-ki yuklamasi*
D) *deb so‘zi*

850. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700172)
Yuklama qatnashgan gapni toping.

A) *Abdumalik ota nevaralarim yeyishar deb, bahorda ko‘chat ekadi.*
B) *Vatanimiz poytaxtida, ya’ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko‘p.*
C) *Bu xabar unda hech qanday norozilik tug‘dirmadi.*
**D) Ahmad bu gapni sira kutmagandi, tok urgandek eti jimirlashib ketdi.**

851. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700173)
Quyidagilardan qaysi biri yuklama?
1) balki; 2) nahotki; 3) nihoyat; 4) axir; 5) agar; 6) hech; 7) sira

**A)** *2, 4, 6, 7* B) *1, 2, 4, 7* C) *2, 3, 5, 6* D) *2, 3, 4, 7*

852. 6.5-3 file-» 40 - 6 - - (700174)
Qaysi gapda vazifadosh bog‘lovchi ishtirok etmagan?

A) *Bulut bo‘ldi-da, yomg‘ir yog‘madi.*
B) *Birrov kirdi-da, chiqib ketdi.*
C) *. . . chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurillab ketdi.*
**D) Choy qaynatib ichishni-da unutdi.**

853. 6.5-3 file-» 20 - 1 - - (700175)
Qaysi gapda teng bog‘lovchi qo‘llangan?

A) *Haqiqat tikanli gulga o‘xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.*
B) *El netib topgay menikim,*
*Gar o‘zimni topmasam.*
**C) Menga Pushkin bir jahon-u,**
**Menga Bayron bir jahon,**
**Lek Navoiydek bobom bor,**
**Ko‘ksi qalqon o‘zbegim.**
D) *Barcha gaplarda teng bog‘lovchi mavjud.*

854. 6.5-3 file-» 20 - 1 - - (700176)
Qaysi gapda ham yuklamasi bog‘lovchi vazifasida qo‘llangan?

A) *Sekin unga yaqin bordim:bu manzara bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon!*
B) *Men ham eshitgan va ko‘rganimni aytaman-da, jo‘ra.*
**C) O‘zi balo tog‘ining boshida o‘tirarmish kun-u tun, yoz ham qish.**
D) *Barcha javoblarda yuklama sifatida qo‘llangan.*

855. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700178)
Yana ular futbol haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lishimizni talab qiladilar.
Ushbu gapdagi ko‘makchining ma’no turini belgilang.

A) *maqsad ma’nosi* B) *yo‘nalish ma’nosi* C) *chegara ma’nosi* **D)** *fikr mavzusi ma’nosi*

856. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700179)
O‘xshatish, qiyoslash ma’nosini ifodalovchi ko‘makchini toping.

**A)** *yanglig‘* B) *qarab* C) *qadar* D) *to‘g‘risida*

857. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700180)
Faqat vazifadosh ko‘makchilar ishtirok etgan qatorni toping.

A) *tomon, haqida, ko‘ra*
B) *so‘ng, singari, bo‘ylab*
C) *tufayli, avval, to‘g‘risida*
**D)** *qarab, keyin, ust*

858. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700181)
Faqat sof ko'makchilar berilgan qatorni toping.

**A)** *sayin, uzra, qadar*
B) *kabi, bo'ylab, muvofiq*
C) *uchun, doir, so'ng* D) *sari, yarasha, tomon*

859. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700182)
Ko'makchilar qaysi kelishik shakllaridagi ismlar bilan qo'llanishi mumkin?
1)bosh kelishik; 2)qaratqich kelishigi; 3)jo'nalish kelishigi; 4)tushum kelishigi; 5)o'rin-payt kelishigi; 6)chiqish kelishigi

A) *1, 2, 3, 4, 5, 6* B) *2, 3, 4, 5, 6*
**C)** *1, 2, 3, 6* D) *3, 4, 5*

860. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700183)
Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi?
1) sabab ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda;
2) maqsad ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda;
3) shart ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda;
4) qiyoslash-chog'ishtiruv ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda.

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 2* C) *3, 4* **D)** *3*

861. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700184)
Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi?

A) *chunki, negaki* B) *toki*
C) *go'yoki, xuddi* **D)** *basharti, mabodo*

862. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700185)
Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi?
1) sabab ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda;
2) maqsad ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda;
3) shart ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda;
4) qiyoslash-chog'ishtiruv ergashtiruvchi bog'lovchilari bilan bog'langanda.

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *1, 2, 4* C) *2, 3* D) *3, 4*

863. 6.5-3 file-» 1 - 48 - - (700186)
Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi?

**A)** *toki* B) *agarda* C) *basharti*
D) *mabodo*

864. 6.5-3 file-» 20 - 3 - - (700187)
Qismlari bog'lovchi vazifasidagi bo'lsa so'zi yordamida bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

A) *Ilm bir daraxt bo'lsa, odob uning mevasidir.*
B) *Kitob bir bog' bo'lsa, yozuvlar uning gullaridir.*
**C) Aql eskirmas kiyim, bilim bo'lsa tuganmas buloqdir.**
D) *barcha javoblar to'g'ri*

865. 6.5-3 file-» 20 - 3 - - (700188)
1. Aql qancha oz bo'lsa, shuhratparastlik shuncha kuchayadi.
2. Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayadi.
3. Kimda aql oz bo'lsa, unda shuhratparastlik shuncha kuchayadi.
Berilgan ergashgan qo'shma gaplar qaysi turga mansub?

A) *1, 2, 3 - miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplar*
B) *1 - miqdor-daraja, 2, 3 -to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar*
**C) 1 - miqdor-daraja, 2 -aniqlovchi, 3 -to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap**
D) *1, 2 - miqdor-daraja, 3 -to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap*

866. 6.5-3 file-» 12 - 4 - - (700189)
Polvonlar epchillikda bir-biridan o'tadi, kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi.
Ushbu gapdagi ayiruv bog'lovchisi nimaga xizmat qilgan?

A) *qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun*
**B) uyushgan bo'laklarni bog'lash uchun**
C) *qo'shma gap qismlari va uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun*
D) *o'zaro tobe bo'laklarni bog'lash uchun*

867. 6.5-3 file-» 12 - 4 - - (700190)
Nisbiy so'zlar ishtirokida qanday qo'shma gaplar hosil bo'ladi?
1) bog'langan qo'shma gaplar;
2) ergashgan qo'shma gaplar;
3) bog'lovchisiz qo'shma gaplar

A) *1, 3* **B)** *2* C) *3* D) *1, 2*

868. 6.5-3 file-» 12 - 4 - - (700191)
Quyidagi vositalardan qaysi biri ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita hisoblanmaydi?

A) *ergashtiruvchi bog'lovchilar*
B) *nisbiy so'zlar* C) *yuklamalar*
**D)** *teng bog'lovchilar*

869. 6.5-3 file-» 12 - 4 - - (700192)
Bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi ma’nosini izohlash uchun qo‘llangan ergash gaplar bosh gapga qanday vosita yordamida bog‘lanadi?

**A)** *-ki yuklamasi*
B) *shart mayli qo‘shimchasi*
C) *teng bog‘lovchilar* D) *ko‘makchili qurilma*

870. 6.5-3 file-» 12 - 4 - - (700193)
Sevgi shunday navbahorki, u tikondan gul qilur. Bosh gap tarkibidagi aniqlovchi qaysi bo‘lakka tobelangan?

A) *egaga* B) *fe’l-kesimga* **C)** *ot-kesimga*
D) *to‘ldiruvchiga*

871. 6.5-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715107)
Qaysi gapda vazifadosh ko‘makchi ishtirok etgan?

**A) Ukasining mantiqi qarshisida Hakimboyvachcha ham esankirab qoldi. (Oybek)**
B) *Onasidan mash’um xabarni eshitgandan boshlab tinmay yig‘ladi, suyaklariga qadar zirqirab og‘riydi.*
C) *Sizning haqingizda ko‘p yaxshi gaplar bo‘ldi.*
D) *Adirdagi lolalar ko‘m-ko‘k maysa uzra chiroy kasb etgan.*

872. 6.5-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715108)
Uzoq yurdim keksa tog‘ sari
Goh odimlab, gohida chopdim.
Nuragan tosh, qoya tagidan,
Go‘yoki tog‘ ko‘zlarin topdim. (Sh.Rahmon)
She’rdagi yordamchi so‘z turkumlariga mansub so‘zlar miqdori qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *2 ta* B) *3 ta* **C)** *4 ta* D) *5 ta*

873. 6.5-3 file-» 20 - 2 - - 1 (715109)
Faqat o‘tmish bilan yashamas inson,
Garchand bo‘lolmaydi hech undan ozod.
Kechagi g‘animni o‘ylasa obdon
Bukchayib qolardi bugun odamzod. (A.Oripov)
Ushbu she’riy parchadagi yordamchi so‘z turkumlariga mansub so‘zlar miqdori qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *3 ta* **B)** *4 ta* C) *2 ta* D) *5 ta*

874. 6.5-3 file-» 45 - 3 - - 1 (715110)
Quyidagi modal so‘zlar ichidan vazifadoshlarini ajrating.
1) balki; 2) chamasi; 3) albatta; 4) shekilli; 5) ehtimol; 6) xullas; 7) afsuski; 8) aftidan

A) *1, 3, 4, 6* **B)** *1, 2, 5, 8* C) *2, 6, 7, 8*
D) *5, 6, 7, 8*

875. 7.1-2 file-» 41 - 4 - - (231592)
Киритмалар ҳақида билдирилган қайси фикр нотўғри?

A) *киритмалар содда ва мураккаб бўлади*
B) *содда киритмалар сўзлар билан ифодаланади*
**C) мураккаб киритмалар сўз-гаплар билан ифодаланади**
D) *мураккаб киритмалар сўз бирикмалари билан ифодаланади*

876. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240435)
Қуйида берилган гапда нечта сўз мавжуд?
**Тебраниб ёнаётган шам зўр мўъжизадай ҳамманинг диққатини жалб қилганди.**

A) *9 та* **B)** *8 та* C) *7 та* D) *6 та*

877. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240436)
Ҳар қандай тил ўзининг сўзлари, иборалари ва қўшимчаларидаги имкониятларини қайси бўлимда тўлиқ намоён қилади?

A) *лексикологияда*
B) *морфологияда*
**C) синтаксисда**
D) *лексикологияда, морфологияда, синтаксисда*

878. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240437)
Қайси бирикмаларда тобе сўз сифат билан ифодаланган?

A) *ишончли сўз, оқ кабутар, қизарган олма*
B) *дўстона муносабат, ғоят қизиқарли, ўзбекча нутқ*
C) *ҳовлининг ўртаси, қушнинг қаноти, дўстимнинг мактуби*
**D) қизиқарли суҳбат, беқиёс ўлка, катта қишлоқ**

879. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240438)
**Биринчи бор баҳорни таниган, илк бор варрак учирган, биринчи марта ҳайитлик олган жойинг, биринчи ўқитувчи, биринчи муҳаббатингни танитган макон – Ватандир!**
Ушбу гапда нечта тўлдирувчили бирикма мавжуд?

A) *3 та* B) *4 та* **C)** *5 та* D) *6 та*

880. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240440)
Қуйидаги бирликлардан қайсилари ҳам эркин, ҳам турғун бирикма (ибора) саналади?

**A) бошига етмоқ, яхши кўрмоқ, қулоғига қуймоқ, ўз ёғига қовурилмоқ**

B) *бошини кўтармоқ, кўнглига келтирмоқ, қўл кўтармоқ, тўнини тескари киймоқ*

C) *кўзини ёғ босган, кўнглидан ўтказмоқ, қўлини силтамоқ, тош отмоқ*

D) *бўйнига қўймоқ, капалаги учмоқ, жонидан ўтмоқ, кўзини тикмоқ*

881. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240441)
Қайси қаторда берилган сўз бирикмаларини гапга айлантириш мумкин?

A) *қизиқарли машғулот, ойдин кеча, мақола ўқимоқ*

B) *берилган топшириқ, ўқишли асар, ғазал ёдламоқ*

**C) қаттиқ совуқ, ширин қовун, чиройли гул**

D) *самарали ишламоқ, кўчат ўтқазиш, барқарор тинчлик*

882. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (240442)
**Заргаров саҳродаги ишларнинг миқёсини яхши тасвирлаб берди.**
Ушбу гапда нечта сўз бирикмаси мавжуд?

**A)** *4 та* B) *5 та* C) *3 та* D) *6 та*

883. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (241296)
Гап бўлаклари ҳақида берилган қайси фикр нотўғри?

A) *Аниқловчи эга, от-кесим, тўлдирувчи ва ҳолга боғланади.*

B) *Тўлдирувчилар бошқа гап бўлаклари каби, бирикмали ҳолда ҳам қўлланади.*

C) *Боғламасиз ва боғламали от-кесимлар мустақил кесимдир.*

**D) Истак гаплар кесими шарт майлида бўлса номустақил кесимдир.**

884. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (241304)
**Музаффарнинг лўппи юзидаги ачиниш аломати хушнуд табассум билан алмашди.**
Ушбу гапда отли сўз бирикмаларининг сони нечта?

**A)** *5 та* B) *6 та* C) *4 та* D) *7 та*

885. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (241311)
**"Унсия"даги Навоий хонасида, унинг ҳар вақтдаги яқинларидан ташқари, ашъорлар, олимлар бор эди.**
Бу гапда ажратилган бўлакнинг қайси тури мавжуд?

A) *ажратилган ҳол*

B) *ажратилган изоҳловчи*

C) *ажратилган аниқловчи*

**D)** *ажратилган тўлдирувчи*

886. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (241312)
**Улжон, вазмин бўлиш билан бирга, ҳар нарсани синчиклаб қарайдиган зийрак она эди.**
Мазкур гапда қайси гап бўлаги ажратилган?

A) *эга* B) *ҳол* **C)** *тўлдирувчи* D) *аниқловчи*

887. 7.1-2 file-» 71 - 5 - - (241323)
Қайси гапда иккита пайт ҳоли ва битта ўрин ҳоли қўлланган?

**A) Кеча Салималарникига бордим, кўпдан бери бормаган эдим.**

B) *Автобус қош қорайганда шаҳарга кириб келди.*

C) *Токчадаги чироқ ҳамон ожиз липиллар, тепамда ойим, бобом, Комил табиб энгашиб туришарди.*

D) *Эрталаб тоғнинг этагига келиб, бир чойхона ёнида тўхтадик.*

888. 7.1-2 file-» 71 - 5 - - (241358)
**Қоратой ўзини тута олмади, бойни сўкиб, оғзидан боди кириб, шоди чиқа бошлади.** (Ойбек)
Ушбу гапда қўлланган иборалар сони ва гапдаги вазифасини аниқланг.

**A)** *2 та: кесим, кесим*

B) *3 та: кесим, ҳол, кесим*

C) *4 та: кесим, ҳол, ҳол, кесим*

D) *1 та: кесим*

889. 7.1-2 file-» 1 - 39 - - (241411)
Ҳар бир одамнинг дўстлари олдида бурч ва масъулиятлари борки, уларни адо этолмаса, дўстлари унинг дўстлигини эътироф этмайдилар, тан олмайдилар.
Ушбу гапда қайси бўлаклар уюшиб келган?

**A)** *эга ва кесим* B) *фақат кесим*

C) *тўлдирувчи ва кесим*

D) *аниқловчи ва кесим*

890. 7.1-2 file-» 1 - 39 - - (241412)
Биз, ватан ёшлари, элимиз ва юртимиз учун хизмат қиламиз.
Берилган гапда қайси бўлаклар уюшиб келган?

A) *эга ва тўлдирувчи* B) *фақат эга*
C) *тўлдирувчи ва аниқловчи*
**D)** *фақат тўлдирувчи*

891. 7.1-2 file-» 41 - 4 - - (301209)
Kiritmalar haqida bildirilgan qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) *kiritmalar sodda va murakkab bo‘ladi*
B) *sodda kiritmalar so‘zlar bilan ifodalanadi*
**C) murakkab kiritmalar so‘z-gaplar bilan ifodalanadi**
D) *murakkab kiritmalar so‘z birikmalari bilan ifodalanadi*

892. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301210)
Quyida berilgan gapda nechta so‘z mavjud?
**Tebranib yonayotgan sham zo‘r mo‘jizaday hammaning diqqatini jalb qilgandi.**

A) *9 ta* **B)** *8 ta* C) *7 ta* D) *6 ta*

893. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301211)
Har qanday til o‘zining so‘zlari, iboralari va qo‘shimchalaridagi imkoniyatlarini qaysi bo‘limda to‘liq namoyon qiladi?

A) *leksikologiyada*
B) *morfologiyada*
**C) sintaksisda**
D) *leksikologiyada, morfologiyada, sintaksisda*

894. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301212)
Qaysi birikmalarda tobe so‘z sifat bilan ifodalangan?

A) *ishonchli so‘z, oq kabutar, qizargan olma*
B) *do‘stona munosabat, g‘oyat qiziqarli, o‘zbekcha nutq*
C) *hovlining o‘rtasi, qushning qanoti, do‘stimning maktubi*
**D) qiziqarli suhbat, beqiyos o‘lka, katta qishloq**

895. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301213)
**Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o‘qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan makon – Vatandir!**
Ushbu gapda nechta to‘ldiruvchili birikma mavjud?

A) *3 ta* B) *4 ta* **C)** *5 ta* D) *6 ta*

896. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301214)
Quyidagi birliklardan qaysilari ham erkin, ham turg‘un birikma (ibora) sanaladi?

**A) boshiga yetmoq, yaxshi ko‘rmoq, qulog‘iga quymoq, o‘z yog‘iga qovurilmoq**
B) *boshini ko‘tarmoq, ko‘ngliga keltirmoq, qo‘l ko‘tarmoq, to‘nini teskari kiymoq*
C) *ko‘zini yog‘ bosgan, ko‘nglidan o‘tkazmoq, qo‘lini siltamoq, tosh otmoq*
D) *bo‘yniga qo‘ymoq, kapalagi uchmoq, jonidan o‘tmoq, ko‘zini tikmoq*

897. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301215)
Qaysi qatorda berilgan so‘z birikmalarini gapga aylantirish mumkin?

A) *qiziqarli mashg‘ulot, oydin kecha, maqola o‘qimoq*
B) *berilgan topshiriq, o‘qishli asar, g‘azal yodlamoq*
**C) qattiq sovuq, shirin qovun, chiroyli gul**
D) *samarali ishlamoq, ko‘chat o‘tqazish, barqaror tinchlik*

898. 7.1-2 file-» 40 - 2 - - (301216)
**Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi.**
Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi mavjud?

**A)** *4 ta* B) *5 ta* C) *3 ta* D) *6 ta*

899. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (301217)
Gap bo‘laklari haqida berilgan qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) *Aniqlovchi ega, ot-kesim, to‘ldiruvchi va holga bog‘lanadi.*
B) *To‘ldiruvchilar boshqa gap bo‘laklari kabi, birikmali holda ham qo‘llanadi.*
C) *Bog‘lamasiz va bog‘lamali ot-kesimlar mustaqil kesimdir.*
**D) Istak gaplar kesimi shart maylida bo‘lsa nomustaqil kesimdir.**

900. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (301218)
**Muzaffarning lo‘ppi yuzidagi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi.**
Ushbu gapda otli so‘z birikmalarining soni nechta?

**A)** *5 ta* B) *6 ta* C) *4 ta* D) *7 ta*

901. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (301219)
**"Unsiya"dagi Navoiy xonasida, uning har vaqtdagi yaqinlaridan tashqari, ash’orlar, olimlar bor edi.**
Bu gapda ajratilgan bo‘lakning qaysi turi mavjud?

A) *ajratilgan hol* B) *ajratilgan izohlovchi*
C) *ajratilgan aniqlovchi*
**D)** *ajratilgan to‘ldiruvchi*

902. 7.1-2 file-» 41 - 5 - - (301220)
**Uljon, vazmin bo'lish bilan birga, har narsani sinchiklab qaraydigan ziyrak ona edi.**
Mazkur gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?
A) *ega* B) *hol* **C)** *to'ldiruvchi*
D) *aniqlovchi*

903. 7.1-2 file-» 71 - 5 - - (301221)
Qaysi gapda ikkita payt holi va bitta o'rin holi qo'llangan?
**A) Kecha Salimalarnikiga bordim, ko'pdan beri bormagan edim.**
B) *Avtobus qosh qorayganda shaharga kirib keldi.*
C) *Tokchadagi chiroq hamon ojiz lipillar, tepamda oyim, bobom, Komil tabib engashib turishardi.*
D) *Ertalab tog'ning etagiga kelib, bir choyxona yonida to'xtadik.*

904. 7.1-2 file-» 71 - 5 - - (301222)
**Qoratoy o'zini tuta olmadi, boyni so'kib, og'zidan bodi kirib, shodi chiqa boshladi.** (Oybek)
Ushbu gapda qo'llangan iboralar soni va gapdagi vazifasini aniqlang.
**A)** *2 ta: kesim, kesim*
B) *3 ta: kesim, hol, kesim*
C) *4 ta: kesim, hol, hol, kesim*
D) *1 ta: kesim*

905. 7.1-2 file-» 1 - 39 - - (301223)
Har bir odamning do'stlari oldida burch va mas'uliyatlari borki, ularni ado etolmasa, do'stlari uning do'stligini e'tirof etmaydilar, tan olmaydilar.
Ushbu gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?
**A)** *ega va kesim* B) *faqat kesim*
C) *to'ldiruvchi va kesim*
D) *aniqlovchi va kesim*

906. 7.1-2 file-» 1 - 39 - - (301224)
Biz, vatan yoshlari, elimiz va yurtimiz uchun xizmat qilamiz.
Berilgan gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?
A) *ega va to'ldiruvchi* B) *faqat ega*
C) *to'ldiruvchi va aniqlovchi*
**D)** *faqat to'ldiruvchi*

907. 7.1-2 file-» 5 - 1 - - (400208)
Berilgan gaplarning qaysi biri istak gapga mansub emas?
1. Qani endi, dunyodagi barcha bolalar baxtli bo'lsa.
2. Hammamiz o'quv yilini muvaffaqiyatli yakunlaylik.
3. Millatning dardiga darmon bo'linglar.
4. Xorijiy tillarni o'rganib, chet ellarga o'qishga borsam.
A) *2* B) *3* **C)** *2, 3*
D) *Berilgan barcha gaplar istak gap.*

908. 7.1-2 file-» 5 - 1 - - (400209)
Berilgan birliklarning qaysilari ham so'z birikmasi, ham turg'un birikma sifatida qo'llanishi mumkin?
1) boshiga yetmoq; 2) qulog'iga quymoq; 3) o'z yog'iga qovurilmoq; 4) yaxshi ko'rmoq; 5) to'nini teskari kiymoq; 6) ko'nglidan o'tkazmoq
A) *2, 4, 5* B) *2, 3, 4, 5* **C)** *1, 2, 3, 4, 5*
D) *1, 2, 3, 4, 5, 6*

909. 7.1-2 file-» 5 - 1 - - (400210)
**Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi.**
Ushbu gapda nechta so'z birikmasi bor, ularning nechtasi bitishuvli birikmaga mansub?
A) *5 ta; 3 ta* **B)** *6 ta; 3 ta* C) *5 ta; 2 ta*
D) *6 ta; 2 ta*

910. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400211)
Quyidagi gapda nechta so'z birikmasi borligini aniqlang.
**Katta sement ko'prik ustidan mashinalar tinimsiz o'tib turibdi.**
A) *3 ta* **B)** *4 ta* C) *5 ta* D) *6 ta*

911. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400212)
Hokim so'z sifat bilan ifodalangan so'z birikmalari qatorini toping.
A) *tiniq suv, qorday oq, ipakday mayin*
B) *tosh yo'l, bepoyon paxtazor, juda yaxshi*
**C) hammadan katta, hayot uchun zarur, yurishga qulay**
D) *G'ofirning xursandligi, o'zbekcha nutq, do'st ishonchi*

912. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400213)
Hokim so'z olmosh bilan ifodalangan so'z birikmalari qatorini toping.
**A) gullarning barchasi, qizlarning har biri, bolalarning o'zi**
B) *bu hayot, qanday go'zal, mening o'zim*
C) *har bir vazifa, o'z uying, kimning kitobi*
D) *hammadan go'zal, g'oyat qiziqarli, o'z ukang*

913. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400214)
Qaysi gapda moslashuv va boshqaruv aloqasi mavjud?

**A) Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan.**
B) *O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.*
C) *Biz rostgo'ylik va halollikni hamisha ulug'laymiz.*
D) *Yillar mana shu xilda osoyishta o'tar edi.*

914. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400215)
Qaysi gapda so'zlarning teng bog'lanishi mavjud?

**A) Vatan mung'aygan tandirli, pastakkina tomli kulbangdan boshlanadi.**
B) *Ularga choyni achchiq-achchiq damlanglar.*
C) *Birga-birga o'ynab o'sgan mehribonlarga salom!*
D) *Kecha kechqurun Salim biznikiga keldi.*

915. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400216)
Qaysi qatordagi turg'un birikmalar so'z birikmasi bo'la oladi?

**A) boshiga yetmoq, yaxshi ko'rmoq, bo'yniga ilmoq**
B) *ketiga tushmoq, oq ko'ngil, po'stagini qoqmoq*
C) *qo'li ochiq, bo'yniga qo'ymoq, dili xira*
D) *ko'nglidan o'tkazmoq, barmog'ini tishlamoq, ichi qora*

916. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400217)
**Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi.**
Ushbu gapda nechta fe'lli birikma mavjud?

A) *4 ta* **B)** *3 ta* C) *2 ta* D) *5 ta*

917. 7.1-2 file-» 40 - 4 - - (400218)
Ravish holi kesimga qaysi yo'l bilan birikadi?

A) *moslashuv, bitishuv*
**B)** *boshqaruv, bitishuv*
C) *boshqaruv, moslashuv*
D) *moslashuv, boshqaruv, bitishuv*

918. 7.1-2 file-» 40 - 6 - - (700194)
Qaysi gapda fe'l+fe'l shaklidagi bitishuvli so'z birikmasi berilmagan?

A) *Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy.*
B) *Uning kulgusi ham o'ziga o'xshash shiringina edi, qonib, yoyilib kuldi.*
C) *Xudoyqul baland yig'i ovozidan cho'chib uyg'ondi.*
**D) Uning sho'xligi, o'yinqaroqligi bilinib turibdi.**

919. 7.1-2 file-» 40 - 6 - - (700195)
Qaysi qatorda bitishuvli so'z birikmasi berilmagan?

**A)** *o'qimay qo'ydi* B) *indamay o'tirdi*
C) *sog'inib keldi* D) *ikkilanmay javob berdi*

920. 7.1-2 file-» 40 - 6 - - (700196)
Qaysi javobdagi birlik qo'shma so'z hisoblanmaydi?

A) *mazax qildi* B) *isyon ko'tardi*
C) *javob qaytardi* **D)** *kasbini sharafladi*

921. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700197)
Berilgan birikmalarning qaysilarida sifat boshqaruvchi vazifasida kelgan?

A) *kamalakdek egik, onadek aziz*
**B) qalampirdan achchiq, men uchun aziz**
C) *asalday shirin, nonday aziz*
D) *barchasida sifat boshqaruvchi vazifasida kelgan*

922. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700198)
Qaysi qatorda hokim so'zi sifat bilan ifodalangan so'z birikmalari berilgan?
1) sevimli qo'shiq 2) hayoti achinarli 3) otdan baland 4) ukamdek ishchan 5) gul chiroyli 6) gulning chiroyi.

A) *2, 3, 4, 5, 6* B) *2, 3, 4, 5* C) *2, 3, 4*
**D)** *3, 4*

923. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700199)
Berilgan gaplarning qaysi biri tarkibida sifat boshqaruvi mavjud?

A) *Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib*
*Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.*
**B) Men suygan suyukli shunchalar go'zal,**
**Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal.**
C) *Shoirlar bor, o'z yurtin butun*
*Olam aro atagan tanho.*
D) *Barcha javoblarda sifat boshqaruvi mavjud*

924. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700200)
Qaysi gap tarkibida ot + sifat tarzidagi boshqaruvli birikma mavjud?

A) *Inson tarixni yaratuvchi eng oliy xilqatdir.*
**B) Mehmon otangdan ulug'ligini unutma.**
C) *Alifdek tik qomati asir qildi.*
D) *Berilgan barcha gaplarda.*

925. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700201)
1) dardli nigoh 2) dardli xo'rsinish 3) kumush kabi tola 4) kumush kabi tovlanmoq 5) chiroyli kiyim 6) chiroyli kiyingan.
Berilgan birikmalarning qaysilari holli birikma sanaladi?

A) *3, 4, 6* B) *2, 3, 4, 6* C) *faqat 3 va 4*
**D)** *2, 4, 6*

926. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700202)
1) yaxshi o'qish 2) yomon taassurot 3) ko'p charchash 4) ozgina bola 5) yoqutdek olma 6) marvariddek tovlanish
Berilgan birikmalarning qaysilari sifatlovchi aniqlovchili birikma sanaladi?

A) *1, 2, 5, 6*
B) *1, 2, 4, 5*
**C) 2, 4, 5**
D) *berilganlarning barchasi sifatlovchi aniqlovchili birikma sanaladi*

927. 7.1-2 file-» 20 - 1 - - (700203)
1. gul tergani kelganmiz
2. o'qish uchun kelganmiz
3. dam olishga kelganmiz
4. ataylab kelganmiz
Berilgan sintaktik birliklarning qaysi birida tobe so'z maqsad ma'nosini ifodalaydi?

A) *1, 4*
B) *1, 3, 4*
C) *2, 3*
**D) barchasida maqsad ma'nosi ifodalangan.**

928. 7.1-2 file-» 1 - 47 - - (700204)
So'z birikmasida tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositalarning qo'shilish o'rni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) *kelishik tobe qismga, egalik qo'shimchasi hokim qismga qo'shiladi, ko'makchi va ohang hech qaysi qismga qo'shilmaydi*
B) *kelishik hokim qismga, egalik qo'shimchasi tobe qismga qo'shiladi, ko'makchi va ohang hech qaysi qismga qo'shilmaydi*
**C) kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi**
D) *kelishik, ko'makchi va ohang hokim qismga, egalik qo'shimchasi esa tobe qismga qo'shiladi*

929. 7.1-2 file-» 1 - 47 - - (700205)
So'z birikmasida hokim bo'lak egalik qo'shimchasidagi ot bilan ifodalangan bo'lsa, tobe bo'lak qaysi kelishikdagi ot bilan ifodalanadi?

A) *qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi*
B) *chiqish va o'rin-payt kelishigidagi*
C) *qaratqich va tushum kelishigidagi*
**D) qaratqich kelishigidagi**

930. 7.1-2 file-» 1 - 47 - - (700206)
So'z birikmasida hokim bo'lak belgi bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so'z qaysi kelishik shakli orqali bog'lanadi?

A) *qaratqich, tushum, jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishigi*
B) *qaratqich kelishigi*
**C) chiqish kelishigi**
D) *tushum va jo'nalish kelishigi*

931. 7.1-2 file-» 1 - 47 - - (700207)
Sintaksisda teng aloqa atamasi qanday izohlanadi?

A) *so'z birikmasida sintaktik jihatdan boshqa so'zga tobe bo'lmagan munosabat*
B) *gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bog'lovchi yoki sanash ohangi bilan bog'langan so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabat*
C) *faqat qo'shma gaplarning teng huquqli qismlari orasidagi sintaktik munosabat*
**D) teng huquqli gap bo'laklari, qo'shma gapning qismlari orasidagi sintaktik munosabat**

932. 7.1-2 file-» 1 - 47 - - (700208)
Biri ikkinchisiga tobe bo'lgan bo'laklar o'zaro grammatik shakllar yordamisiz bog'lansa, qanday aloqa sanaladi?

A) *teng aloqa* **B)** *bitishuvli aloqa*
C) *boshqaruvli aloqa* D) *moslashuvli aloqa*

933. 7.1-2 file-» 1 - 48 - - (700209)
So'z birikmasida egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shilsa, tobe bo'lak qanday shaklda bo'ladi?

A) *tobe bo'lakdan so'ng ko'makchi keladi*
B) *tobe bo'lakdan so'ng tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalaridan biri kelishi mumkin*
**C) tobe bo'lak qaratqich kelishigida bo'ladi**
D) *tobe bo'lak ko'makchi yoki kelishik qo'shimchalarini olgan shaklda bo'ladi*

934. 7.1-2 file-» 1 - 48 - - (700210)
So‘z birikmasida hokim bo‘lak belgi bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vositasini bajarsa, qiyoslanuvchi (tobe) so‘z qaysi kelishik orqali bog‘lanadi?

A) *qaratqich kelishigi vositasida*
B) *jo‘nalish kelishigi vositasida*
C) *tushum kelishigi vositasida*
**D) chiqish kelishigi vositasida**

935. 7.1-2 file-» 12 - 4 - - (700211)
Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman.
She’riy parchada gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan nechta bo‘lak qatnashgan?

A) *2*
**B) 3**
C) *4*
D) *she’rda bunday bo‘lak ishtirok etmagan*

936. 7.1-2 file-» 40 - 5 - - 1 (715111)
Qaysi gapda teng bog‘lanishli birliklar qo‘llangan?

A) *Hasad va baxillik nafratdan ham murosasizroqdir.*
B) *Ayol – go‘zallik, nafosat va muhabbat timsoli.*
C) *Sohibqiron ayol qadriga, go‘zalligiga ichki bir muhabbat bilan qaragan.*
**D) barcha gaplarda**

937. 7.1-2 file-» 1 - 47 - - 1 (715119)
Tobe so‘zning hokim so‘z talabi bilan ma’lum shaklga kirishi qanday aloqa turiga xos?

A) *tobe aloqaga*
**B) moslashuvli va boshqaruvli aloqaga**
C) *boshqaruvli va bitishuvli aloqaga*
D) *moslashuvli va bitishuvli aloqaga*

938. 7.1-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715121)
Biz ajdodlar jasoratidan ruhlanib, bebaho madaniy – ma’naviy merosdan kuch olib, g‘ayrat-shijoat va sabr-toqat bilan mehnat qilib, ushbu murakkab va sharafli tarixiy jarayonda yangi davlat barpo etish yo‘lida o‘z qalbimizni, tafakkurimizni, ruhiy dunyomizni namoyon etayotgan xalqmiz.
(I.Karimov)
Ushbu gapda qanday gap bo‘laklari uyushib kelgan va ularning soni nechta?

A) *2 ta kesim, 5 ta to‘ldiruvchi, 2 ta hol*
B) *3 ta kesim, 5 ta to‘ldiruvchi, 2 ta aniqlovchi*
**C) 3 ta kesim, 3 ta to‘ldiruvchi, 2 ta aniqlovchi, 2 ta hol**
D) *2 ta kesim, 5 ta to‘ldiruvchi, 3 ta aniqlovchi, 2 ta hol*

939. 7.1-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715122)
Qaysi qatorda bitishuvli so‘z birikmasi keltirilgan?

**A)** *birdan yangramoq* B) *kitob muqovasi*
C) *kino ko‘rmoq* D) *mehnat qilmoq*

940. 7.2-1 file-» 1 - 38 - - (231462)
**Виждонни асрангиз ҳар недан ортиқ, Боболардан қолган ноёб бу тортиқ, Токи авлодларга етолсин омон.** (А.Орипов)
Ушбу эргаш гапнинг қандай маъно ифодалаётганини аниқланг.

A) *сабаб маъноси* B) *шарт маъноси*
**C)** *мақсад маъноси*
D) *қиёслаш-чоғиштирув маъноси*

941. 7.2-1 file-» 1 - 38 - - (231466)
Боғловчисиз қўшма гаплар қуйидаги мураккаб қўшма гапларнинг қайси турида иштирок этиши мумкин?
1. Бир неча эргаш гапли мураккаб қўшма гапларда
2. Бир неча бош гапли мураккаб қўшма гапларда
3. Аралаш мураккаб қўшма гапларда

A) *1, 2, 3* B) *2, 3* C) *2* **D)** *3*

942. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240443)
Қайси қатордаги гап икки грамматик асосга эга?

A) *Аҳиллик бор ерда темир ҳам сувга чўкмайди.*
**B) Кампирнинг кўзлари алланечук олайиб кетди, юзининг суякка ёпишган чандир териси оқарди.**
C) *Бу шаҳарда таниш-билиш йўқлиги Мирзаевга шу бугун билинди.*
D) *Мен синфга киргач, дераза олдида турган Шаҳнозани кўрдим.*

943. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240444)
Қайси қатордаги гапда феъл кесим мавжуд?

A) *Луқмони ҳакимнинг жаҳли чиқибди.*
B) *Деҳқоннинг гаплари Луқмонга қаттиқ таъсир қилибди.*
**C) Бошқа хонада болалар ухлаб қолишибди.**
D) *Берилган барча гапларда феъл кесим мавжуд.*

944. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240445)
Қайси гапда кесим ибора билан ифодаланган?

A) *Дадам қўли очиқ, қувноқ одам эдилар.*
**B) У бирданига тўнини тескари кийиб олди.**
C) *Қўл югуриги - ошга, тил югуриги - бошга*
D) *Озод юракларга бахт нури тўлган.*

945. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240446)
Қайси гапда номустақил кесим шакли қўлланган?

**A) Қалб саломат бўлса, ақл ҳам, фикр ҳам саломат бўлади.**
B) *Қани тил бўлса-ю, у билан суҳбатлаша қолса!*
C) *Бугундан бошлаб аравачилар сиз билан боришса.*
D) *Берилган гапларнинг барчасида номустақил кесим шакли қўлланган.*

946. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240448)
Қайси қаторда эгаси яширинган гап берилган?

A) *Хонага кирган аввал салом беради.*
B) *Манзилга мана шу йўлдан борилади.*
C) *Топшириқни ўз вақтида бажариш керак.*
**D) Ҳурмат қилсанг, ҳурмат кўрасан.**

947. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240449)
Қайси қаторда эгасиз гап берилган?

A) *Мурожаат матни ёзилди, имзолар чекилди.*
B) *Эшик очиқ бўлса ҳам сўраб кир.*
**C) Дам олиш куни китобхонлар йиғинига бориш керак.**
D) *Бугун тўгаракка боришимиз лозим эди.*

948. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240450)
Қайси гапда эга қўлланган?

A) *Ўзбошимчаликка йўл қўйилмасин.*
**B) Уқуви йўқ ҳар қадамда қоқилади.**
C) *Тарбиячи ва ўқитувчи бўлиш учун чидам билан ўқилади.*
D) *Ўзинигина ўйловчи кишини яхши одам деб бўлмайди.*

949. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240451)
Қайси гапда сифат аниқловчи вазифасида қўлланган?

A) *Тўғри юрсанг муродингга осон етарсан.*
B) *Аёл сочлари паришон, оёқлари яланг, ёқаси очиқ кўчага отилди.*
C) *Бир хотин сабзавотлар солинган халтасини кўтариб келаётганди.*
**D) Ҳар нарсага қизиқиш - биз учун эски одат.**

950. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240452)
Равиш билан ифодаланган ҳол қўлланган гапни топинг.

A) *Уй ичида одам кўп эди.*
B) *Шодмонбек зарбдан кўзи тиниб ҳушдан кетди.*
C) *Йиғлаб-йиғлаб марза олсанг, ўйнаб- ўйнаб суғорасан.*
**D) У ўйчан кўзлари билан Ботирга қараб секин гапирди.**

951. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240453)
**Жони ҳалқумига келган Саттор аламидан бақириб йиғлаб юборди.**
Ушбу гап қандай гап бўлакларидан иборат?

A) *эга, кесим, иккита равиш ҳолидан*
**B) эга, кесим, сифатловчи аниқловчи, сабаб ва равиш ҳолидан**
C) *эга, кесим, иккита равиш ҳоли ва битта сабаб ҳолидан*
D) *эга, кесим, сифатловчи аниқловчи ва иккита равиш ҳолидан*

952. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240454)
**Эга + аниқловчи + аниқловчи + тўлдирувчи + ҳол + кесим** қолипидаги гапни аниқланг.

**A) Зеби онасининг берадиган жавобини илгаридан биларди.**
B) *Боғбон кўм-кўк ажриқ устида ўтириб ҳордиқ чиқарди.*
C) *Дадаш меҳрибон одамларнинг суҳбатлашишидан завқланар эди.*
D) *Аъзам тиззасидаги маҳсини ҳафсала билан пишиқ тикади.*

953. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240455)
Фақат равиш ҳоли билан кенгайган гапни топинг.

A) *Турсунали бир-бир босиб минбарга чиқди ва дона-дона гапирди.*
**B) Бола эпчиллик билан турди, қисқа ва лўнда жавоб берди.**
C) *Тиниқ сувдан ҳовуч-ҳовуч олди, қониб-қониб ичди.*
D) *Қувватсизлигидан тез чарчарди.*

954. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (240456)
Ҳаракат номи билан ифодаланган воситасиз тўлдирувчи қўлланган гапни топинг.

**A) Унинг кулиб боқишларини бир зум ҳам унутмайман.**
B) *Ўқувчилар дам олишга дала шийпонига келишди.*
C) *Менинг боришимдан сизга нима фойда?*
D) *Сўрашдан уялма, билмасликдан уял.*

955. 7.2-1 file-» 1 - 38 - - (301225)
**Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon.** (A.Oripov)
Ushbu ergash gapning qanday ma’no ifodalayotganini aniqlang.

A) *sabab ma’nosi* B) *shart ma’nosi*
**C)** *maqsad ma’nosi*
D) *qiyoslash-chog‘ishtiruv ma’nosi*

956. 7.2-1 file-» 1 - 38 - - (301226)
Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar quyidagi murakkab qo‘shma gaplarning qaysi turida ishtirok etishi mumkin?
1. Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplarda
2. Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gaplarda
3. Aralash murakkab qo‘shma gaplarda

A) *1, 2, 3* B) *2, 3* C) *2* **D)** *3*

957. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301227)
Qaysi qatordagi gap ikki grammatik asosga ega?

A) *Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi.*
**B) Kampirning ko‘zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.**
C) *Bu shaharda tanish-bilish yo‘qligi Mirzayevga shu bugun bilindi.*
D) *Men sinfga kirgach, deraza oldida turgan Shahnozani ko‘rdim.*

958. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301228)
Qaysi qatordagi gapda fe’l kesim mavjud?

A) *Luqmoni hakimning jahli chiqibdi.*
B) *Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta’sir qilibdi.*
**C) Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi.**
D) *Berilgan barcha gaplarda fe’l kesim mavjud.*

959. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301229)
Qaysi gapda kesim ibora bilan ifodalangan?

A) *Dadam qo‘li ochiq, quvnoq odam edilar.*
**B) U birdaniga to‘nini teskari kiyib oldi.**
C) *Qo‘l yugurigi - oshga, til yugurigi - boshga*
D) *Ozod yuraklarga baxt nuri to‘lgan.*

960. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301230)
Qaysi gapda nomustaqil kesim shakli qo‘llangan?

**A) Qalb salomat bo‘lsa, aql ham, fikr ham salomat bo‘ladi.**
B) *Qani til bo‘lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa!*
C) *Bugundan boshlab aravachilar siz bilan borishsa.*
D) *Berilgan gaplarning barchasida nomustaqil kesim shakli qo‘llangan.*

961. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301231)
Qaysi qatorda egasi yashiringan gap berilgan?

A) *Xonaga kirgan avval salom beradi.*
B) *Manzilga mana shu yo‘ldan boriladi.*
C) *Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish kerak.*
**D) Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.**

962. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301232)
Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?

A) *Murojaat matni yozildi, imzolar chekildi.*
B) *Eshik ochiq bo‘lsa ham so‘rab kir.*
**C) Dam olish kuni kitobxonlar yig‘iniga borish kerak.**
D) *Bugun to‘garakka borishimiz lozim edi.*

963. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301233)
Qaysi gapda ega qo‘llangan?

A) *O‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yilmasin.*
**B) Uquvi yo‘q har qadamda qoqiladi.**
C) *Tarbiyachi va o‘qituvchi bo‘lish uchun chidam bilan o‘qiladi.*
D) *O‘zinigina o‘ylovchi kishini yaxshi odam deb bo‘lmaydi.*

964. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301234)
Qaysi gapda sifat aniqlovchi vazifasida qo‘llangan?

A) *To‘g‘ri yursang murodingga oson yetarsan.*
B) *Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko‘chaga otildi.*
C) *Bir xotin sabzavotlar solingan xaltasini ko‘tarib kelayotgandi.*
**D) Har narsaga qiziqish - biz uchun eski odat.**

965. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301235)
Ravish bilan ifodalangan hol qo‘llangan gapni toping.

A) *Uy ichida odam ko‘p edi.*
B) *Shodmonbek zarbdan ko‘zi tinib hushdan ketdi.*
C) *Yig‘lab-yig‘lab marza olsang, o‘ynab-o‘ynab sug‘orasan.*
**D) U o‘ychan ko‘zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi.**

966. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301236)
**Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig‘lab yubordi.**
Ushbu gap qanday gap bo‘laklaridan iborat?

A) *ega, kesim, ikkita ravish holidan*
**B) ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, sabab va ravish holidan**
C) *ega, kesim, ikkita ravish holi va bitta sabab holidan*
D) *ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi va ikkita ravish holidan*

967. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301237)
**Ega + aniqlovchi + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + hol + kesim** qolipidagi gapni aniqlang.

**A) Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi.**
B) *Bog‘bon ko‘m-ko‘k ajriq ustida o‘tirib hordiq chiqardi.*
C) *Dadash mehribon odamlarning suhbatlashishidan zavqlanar edi.*
D) *A’zam tizzasidagi mahsini hafsala bilan pishiq tikadi.*

968. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301238)
Faqat ravish holi bilan kengaygan gapni toping.

A) *Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi va dona-dona gapirdi.*
**B) Bola epchillik bilan turdi, qisqa va lo‘nda javob berdi.**
C) *Tiniq suvdan hovuch-hovuch oldi, qonib-qonib ichdi.*
D) *Quvvatsizligidan tez charchardi.*

969. 7.2-1 file-» 40 - 2 - - (301239)
Harakat nomi bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchi qo‘llangan gapni toping.

**A) Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.**
B) *O‘quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi.*
C) *Mening borishimdan sizga nima foyda?*
D) *So‘rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal.*

970. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400219)
Qaysi gapda ravishdosh bilan ifodalangan kesim qo‘llangan?

A) *Oftoboyim eridan ham qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urgan edi.*
**B) Motor gurillab, mashina olg‘a intildi.**
C) *Biz tomonlarga ham borib turing.*
D) *It hurar - karvon o‘tar.*

971. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400220)
Qaysi gapda sodda ot kesim qo‘llangan?

**A) Oltita bolani bag‘riga olgan Mahkam taqachi - shu.**
B) *Mo‘tabar eshikni sekin yopib chiqib ketdi.*
C) *Bu hovlining teng yarmi mevazor edi.*
D) *Qo‘shni xona doimo ozoda bo‘ladi.*

972. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400221)
Qaysi qatorda nomustaqil kesim shakli qo‘llangan?

A) *Bugun bir osh qilsak.*
**B) Agar shu ko‘rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar.**
C) *Bu inshoga reja tuzasan.*
D) *Barcha javoblarda nomustaqil kesim shakli qo‘llangan*

973. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400222)
Uyushiq kesimli gapni toping.

A) *Odamga andisha kerak, lekin undan ham ilgariroq insof kerak.*
B) *Tomog‘im qurib borar, suv ichgim kelar, lekin ko‘nglim aynardi.*
**C) Uning so‘zlari sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan edi.**
D) *Oygul bilan qul Tarlon bo‘ldilar yo‘lga ravon.*

974. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400223)
Qaysi gapda uyushiq aniqlovchi qo‘llangan?

A) *Ba’zilari qayroqtoshday uzunchoq va silliq edi.*
B) *Ko‘lning atrofi o‘siq tollar, qalin qamishlar bilan o‘ralgan.*
**C) Quyosh yorug‘ida ko‘k, sariq, qizg‘ish qum zarrachalari yaltirardi.**
D) *Hulkar kulib, quvnab o‘yinga tushdi.*

975. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400224)
Ayiruv bog‘lovchisi bilan birikkan uyushiq to‘ldiruvchili gapni toping.

A) *Goh oyim, goh buvim kelib turadi.*
B) *Ortiq ishongisi kelmay, avval Avazga, so‘ng Turdiga qaradi.*
**C) Qizlar goh undan, goh bundan gaplashib, hovli aylanishdi.**
D) *Dam yig‘laydi, dam otasining bo‘yniga osiladi.*

976. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400225)
Ajratilgan bo‘laklar haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri?

**A) Ajratilgan bo‘lak o‘zi izohlayotgan bo‘lakdan oldin yoki keyin keladi.**
B) *Ajratilgan bo‘lak mantiqiy urg‘u oladi.*
C) *Ajratilgan bo‘laklar yozuvda vergul, tire yoki qavs bilan ajratiladi.*
D) *Barcha hukmlar to‘g‘ri.*

977. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400226)
Ajratilgan izohlovchili gapni toping.

A) *Bizning, o‘quvchi yoshlarning, o‘zimizga yarasha or-nomusimiz bor.*
B) *Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam!*
**C) O‘g‘lim, qo‘zichog‘im, orom olib uxlayapti.**
D) *Fabrikada qizlar ijodkor, ozod mehnat zavqin suradi.*

978. 7.2-1 file-» 40 - 4 - - (400227)
Kiritma gaplar nutqning qaysi ko‘rinishida ko‘proq qo‘llanadi?

A) *she’riy nutqda* B) *nasriy nutqda*
**C)** *dramatik nutqda*
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

979. 7.2-1 file-» 11 - 4 - - (400228)
Bir xil mazmun-munosabatni bildirgan hollar qaysi gapda qatnashgan?

A) *U kecha to‘satdan biznikiga kirib keldi.*
**B) U dam hazil bilan, dam jiddiy so‘radi.**
C) *Chumchuqlar daraxtlarda tinimsiz chirqillaydi.*
D) *Dadamning kayfiyati yaxshi bo‘lgani sababli zavq bilan xoxolab kulardi.*

980. 7.2-1 file-» 11 - 4 - - (400229)
Qaysi bo‘laklar doimo o‘zi izohlayotgan bo‘lakdan keyin keladi?

A) *izohlovchilar* B) *tobe bo‘laklar*
**C)** *ajratilgan bo‘laklar* D) *uyushiq bo‘laklar*

981. 7.2-1 file-» 11 - 4 - - (400230)
**U hech kim bilan gaplashmadi - to‘nini teskari kiyib oldi.**
Ushbu gapdagi "**to‘nini teskari kiyib oldi**" birikmasi qaysi qatorda to‘g‘ri tavsiflangan?

A) *gapning kesimi* **B)** *ajratilgan bo‘lak*
C) *qo‘shma gapning qismi* D) *uyushiq bo‘lak*

982. 7.2-1 file-» 11 - 4 - - (400231)
**Qor yog‘ardi bo‘ralab,**
**Qolishmasdi dovuldan.**
**To‘yga aytib ketishdi**
**Shundoq qo‘shni ovuldan.** (A.Oripov)
Berilgan she’riy parchada nechta sodda gap bor?

A) *2 ta* **B)** *3 ta* C) *4 ta* D) *1 ta*

983. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700212)
Qaysi gapda ravish holi ishtirok etmagan?

A) *Bu gapni eshitgach, da’vogarlar bir-birlariga mo‘ltillab, javdirab qarab qolishdi.*
B) *U ko‘chadan kiyimlari yirtilib, titilib kirdi.*
C) *Roziya buvi inqillab, sinqillab, bir amallab yetib keldi.*
**D) Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha jaranglab turardi.**

984. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700213)
Qaysi gapda ikkita gap bo‘lagi uyushib kelgan?

**A) Olgan bilim va tajribangiz, odob-axloq, kasb-hunar bobidagi kamolingiz faqat yaxshilikka, bunyodkorlikka buyursin.**
B) *Bevaning, ayniqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g‘amli ohlariga u qanday chidar ekan?*
C) *"Avesto"da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo‘lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqichlardan muhofaza qila bilishni o‘rganishlari shartligi aytilgan.*
D) *Ona Vatanga muhabbat, millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot faravonligi va tinchligini dildan jo‘shib kuyladilar.*

985. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700214)
Qaysi qatorda ritorik so‘roq gap berilmagan?

**A) Xo‘sh, sen o‘tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak?**

B) *Bilmayman, bu ijod kishilarisiz qanday olar edim qalbimga o‘tni?*

C) *Nahotki Alimardonning shuncha mehnatlari bemaqsad ketsa?*

D) *Onang seni nahotki shu umid bilan katta qilgan bo‘lsa?*

986. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700215)
Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo‘ladi.
Ushbu gap qanday gap bo‘laklaridan tuzilgan?

A) *kiritma, ega, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim*

**B) kiritma, ega, to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi, kesim**

C) *undalma, to‘ldiruvchi, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim*

D) *undalma, ega, to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim*

987. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700216)
Egasi mavjud gapni toping.

A) *Inim, kitoblarni sandiqqa joylashtiravering.*

B) *Sobir, eski oshnalaringni topib keldim.*

**C) Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo‘lning azobidan ham ortiqroq bo‘ladi.**

D) *Xayriyat, vaqtida yetib keldik.*

988. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700217)
Qaysi gapda ega uyushgan?

A) *Jamilovning egnida oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyog‘ida kavkazcha etik, boshida chust do‘ppi edi.*

B) *Bola qoshida ota-onaning so‘zi bilan ishi bir bo‘lmasligi ularning o‘z izzat-hurmatlari ildiziga o‘z qo‘llari bilan urilgan boltadir.*

C) *Munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko‘k, qizil, oq, pushti, sariq, qora gullari yulduzlardek yasanib, uyga bir hayotiylik berar edi.*

**D) Mana shu o‘yin-kulgilar, qo‘shiqlar va kuylar, yoshlar va keksalarning diliga orom va quvonch bag‘ishlagan lola sayli yaqindagina bo‘lgan edi.**

989. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700218)
Berilgan fikrlardan qaysi biri noto‘g‘ri?

A) *Ravish holi ravish va ravishdoshlar bilan ifodalanadi.*

**B) Ravish holi kesimga bitishuv va boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi.**

C) *Ravish holi qanday? qanday qilib? qanday ahvolda? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.*

D) *Ravish holi ko‘pincha o‘zi ergashgan so‘zdan oldin keladi.*

990. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700219)
Berilgan gaplarning qaysi birida sabab holi qatnashgan?

**A) Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig‘lab yubordi.**

B) *Qoratoy do‘stining dov-daragini surishtirish uchun yelib-yugurdi.*

C) *Bir chimdim uxlash uchun ko‘zini yumdi.*

D) *Eshik oldi gul hovuz, Gul tergali kelganmiz.*

991. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700220)
O‘ylamasdan berilgan topshiriqni bajarish shart emas.
Ushbu gap . . .

A) *egasi ma’lum gap.*

B) *egasi umumlashgan gap.*

**C) egasi noma’lum gap.**

D) *atov gap.*

992. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700221)
Yoyiq atov gapni toping.

A) *Hovli zim-ziyo. Ariqdagi suv sharqirab oqadi.*

B) *Butun sinf jimjit. Bolalar goh Akramga qarashadi, goh Muhabbat opaga.*

C) *Subhidam. Quyosh yotog‘idan bosh ko‘tardi.*

**D) Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib nur socha boshladi.**

993. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700222)
O‘rin-payt kelishigining to‘ldiruvchi tarkibida kelishi qaysi gapda berilgan?

A) *Kech kuzakda sochib don, kelguncha yoz – saraton, Bug‘doyzorda ter to‘kar.*

B) *To‘lishganda boshoqlar, O‘rimga o‘zin chog‘lar.*

C) *Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir.*

**D) Usmon she’rlarida jimjimadorlik ko‘rinmas, fikr-tuyg‘u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi.**

994. 7.2-1 file-» 40 - 6 - - (700223)
Taqlid so‘z qaysi gapda hol vazifasida kelgan?

A) *Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozdan uyg‘onib ketdi.*

**B) Jigarim ostiga tegardi jiz-jiz, Sochlarim oqargan shunda ehtimol.**

C) *Shunday bo‘lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi.*

D) *Qo‘qqisdan osmon kaptarlari g‘uv-g‘uvlab qolishdi.*

995. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700224)
Qaysi gapda fe’l bilan ifodalangan fe’l kesim qatnashgan?

A) *Tabiatda hech qanday sirli kuch ta’sirida ro‘y beradigan narsa yo‘q.*

B) *Mardga o‘lim yo‘q.*

**C) Yo‘qoling, siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo‘q!**

D) *Barcha gaplarning kesimi modal so‘z bilan ifodalangan ot kesimdir.*

996. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700225)
Qaysi gapda o‘rin holi kesim vazifasida kelmagan so‘zga bog‘langan?

A) *Dalalarda bahorgi dala ishlari boshlandi.*

**B) Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi.**

C) *Osmonda sanoqsiz yulduzlar charaqlaydi.*

D) *Barcha javoblar to‘g‘ri*

997. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700226)
1. Bir chimdim uxlab oldi.
2. Ko‘p kitob o‘qigan.
3. Oz so‘z – soz so‘z.
4.Uch marta chopiq qilindi.
Berilgan gaplarning qaysi birida daraja-miqdor holi ishtirok etgan?

A) *1, 3, 4* B) *2, 3* **C) 1, 4** D) *1, 2, 3, 4*

998. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700227)
Mustaqillik!
Barcha jabr-u sitamlardan o‘tgan, endigina sening qo‘lingdan tutgan, seni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun butun vujudi bilan sen uchun yashayotganlarning orzusisan.
Ushbu gapning kesimi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *o‘tgan, tutgan*

B) *o‘tgan, tutgan, yashayotganlarning*

C) *o‘tgan, tutgan, orzusisan*

**D) orzusisan**

999. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700228)
Qaysi qatorda istak gap berilgan?
1.O‘qiylik, do‘stlar, o‘qishning qadriga yetaylik, savodsizlik gumrohlik ekanligini tushunib yetaylik!
2.Yozning issiq kunlari g‘animat ekanligini esdan chiqarmangiz!
3.Istaymanki, shoirning orzulari, umidlari haqiqatga aylansin.

A) *faqat 1*

B) *1 va 3*

C) *1 va 2*

**D) istak gap berilmagan**

1000. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700229)
-Odam kimdan hazar qilishi lozim?
– Maqtanchoqdan, chaqimchidan hamda xasis boydan.
To‘liqsiz gap tarkibida qaysi gap bo‘lagi tushib qolgan?

A) *kesim*

**B) ega va kesim**

C) *hol va kesim*

D) *aniqlovchi va ot kesim*

1001. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700230)
Kiritma gap va ajratilgan bo‘lak bilan murakkablashgan sodda gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Biz Xorazmda, Ma’mun ibn Ma’mun saroyida, besh yil birga xizmat qilganmiz, begim.*

B) *Xojam, yaxshiyamki, Sulton Mahmud yoshlik chog‘larida, yuragida insof va adolat tuyg‘usi tamoman so‘nib bitmagan mahallarda, bu adolatli farmonni bergan ekan.*

C) *Uni tanishsa kerak (Farg‘onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.*

**D) Biz (bu safar menga Maktuba xola hamroh bo‘ldi) qishloqqa kechqurun, qosh qorayganda, kirib bordik.**

1002. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700231)
Berilgan dialoglarning qaysi birida to‘liqsiz gap ishtirok etgan?

A) *- Sizning bunday yo‘qolganingizni Mahmud akangiz ham bilmasmidilar?*
*-Yo‘q.*

**B) - Qaytganlaringdan keyin sheriklaringni ko‘rdilaringmi?**
**-Ko‘rdik.**

C) *- Kimga bog‘lanish kerakligini aytishdimi?*
*-Ha.*

D) *Barchasida to‘liqsiz gap mavjud.*

1003. 7.2-1 file-» 20 - 1 - - (700232)
To'ldiruvchi bilan bog'liq berilgan hukmlarning qaysi biri noto'g'ri?

A) *vositasiz to'ldiruvchi faqat o'timli fe'lga bog'lanadi*
B) *vositali to'ldiruvchi o'timli yoki o'timsiz fe'lga bog'lanishi mumkin*
C) *vositali to'ldiruvchi fe'l bo'lmagan so'zlarga bog'lanishi mumkin*
**D) barcha hukmlar to'g'ri**

1004. 7.2-1 file-» 20 - 3 - - (700233)
**Shuni bilingki, kitob bolani ham aqlan, ham ma'nan boyitadi. Istiqlol davri bolalari g'ayratli va shijoatlidir. Biz mana shu shijoat va shiddatni to'g'ri yo'lga yo'naltira olishimiz kerak. Shundagina o'z maqsadimizga erishamiz va farovon hayot bizga muyassar bo'ladi.**
Ushbu matnda sodda gaplar tarkibida qaysi gap bo'laklari uyushib kelgan?

A) *hol va to'ldiruvchi* B) *hol va kesim*
C) *hol, to'ldiruvchi va kesim*
**D)** *to'ldiruvchi va kesim*

1005. 7.2-1 file-» 20 - 3 - - (700234)
**Gavharshodbegim shunday dedi: "Sirdaryoning suvi Zarafshonnikidan ham ko'p, amirzodam. Agar undan shohariq chiqarilsa, qancha suvsiz joylar obod bo'lardi".**
Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, amirzodam so'zi qaysi gap bo'lagi shaklida keladi?

A) *undalma* B) *ega*
**C)** *vositali to'ldiruvchi*
D) *vositasiz to'ldiruvchi*

1006. 7.2-1 file-» 20 - 3 - - (700235)
**Gavharshodbegim shunday dedi: "Sirdaryoning suvi Zarafshonnikidan ham ko'p, amirzodam. Agar undan shohariq chiqarilsa, qancha suvsiz joylar obod bo'lardi".**
Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, ko'p so'zi qaysi gap bo'lagiga aylanadi?

A) *daraja-miqdor holi* B) *kesim*
C) *aniqlovchi* **D)** *to'ldiruvchi*

1007. 7.2-1 file-» 20 - 3 - - (700236)
**Gavharshodbegim shunday dedi: "Sirdaryoning suvi Zarafshonnikidan ham ko'p, amirzodam. Agar undan shohariq chiqarilsa, qancha suvsiz joylar obod bo'lardi".**
Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapda joylar so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan, bu gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, u qaysi gap bo'lagi shaklini oladi?

A) *o'rin holi; o'rin holi sifatida qoladi*
B) *ega; ega sifatida qoladi*
**C) ega; qaratqich aniqlovchiga aylanadi**
D) *o'rin holi; belgisiz qaratqich aniqlovchiga aylanadi*

1008. 7.2-1 file-» 12 - 4 - - (700237)
Oqshomdan boshlangay, odatda, tonglar,
Sukutdan uzilgay gulduros, bonglar.
Boshing bukma sira, xokisor banda,
Erta ruhing topgay oliy ohanglar.
Ushbu she'riy parchada nechta gap mavjud?

A) *2* B) *3* **C)** *4* D) *5*

1009. 7.2-1 file-» 12 - 4 - - (700238)
Oqshomdan boshlangay, odatda, tonglar,
Sukutdan uzilgay gulduros, bonglar.
Boshing bukma sira, xokisor banda,
Erta ruhing topgay oliy ohanglar.
Ushbu she'riy parchada nechta undalmali gap mavjud?

**A) 1**
B) *2*
C) *3*
D) *undalmali gap qatnashmagan*

1010. 7.2-1 file-» 12 - 4 - - (700239)
Baxtim shuki, seni uchratdim.
Ushbu gapda gap bo'laklari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) *ega, kesim, ega, kesim*
B) *ega, kesim, kesim*
**C) ega, kesim, to'ldiruvchi, kesim**
D) *to'ldiruvchi, kesim, to'ldiruvchi, kesim*

1011. 7.2-1 file-» 20 - 2 - - 1 (715134)
Oqshomdan boshlangay, odatda, tonglar,
Sukutdan uzilgay gulduros bonglar.
Boshing bukma sira, xokisor banda,
Erta ruhing topgay oliy ohanglar. (A.Oripov)
Ushbu she'riy parchada gap bo'lagi vazifasini bajargan so'zlar miqdorini aniqlang.

**A)** *14 ta* B) *17 ta* C) *16 ta* D) *15 ta*

1012. 7.2-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715135)
Qaysi qatorda keltirilgan fikr undalma uchun xos emas?

A) *so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi*
**B) grammatik jihatdan gap bo'laklari bilan bog'lanadi**
C) *undalmali gapning kesimi ko'pincha I va II shaxs-son shakllarida bo'ladi*
D) *undalmaning gapdagi o'rni erkindir*

1013. 7.2-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715136)
Qaysi qatordagi gapda yoyiq undalmalar uyushiq holda kelgan?

A) *Muhtaram otalar, munis onaxonlarimiz bizni duo qilib o'tiribdi.*
B) *Qadrli ustozlar, aziz talabalarni bayram bilan muborakbod etaman!*
C) *Seni unutolmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.*
**D) Salom, yashil vodiylar, ko'm-ko'k o'rmonlar!**

1014. 7.2-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715137)
**Hamma gap tadbirni uyushqoqlik bilan tashkil etishda qoldi.**
Berilgan gapdagi yasama so'z qanday sintaktik vazifani bajargan?

A) *hol* B) *to'ldiruvchi* C) *aniqlovchi* D) *kesim*

1015. 7.2-2 file-» 1 - 38 - - (231457)
Кўчирма гапларни ўзлаштирма гапга айлантиришда кўчирма гап таркибидаги ундалма қай шаклда бўлади?

A) *ундалма тушириб қолдирилади*
**B) чиқиш келишигидаги тўлдирувчига айлантирилади**
C) *қаратувчи аниқловчига айлантирилади*
D) *тушум келишигидаги сифатдош ёки ҳаракат номи билан ифодаланган тўлдирувчига айлантирилади*

1016. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240457)
Қайси гапдаги аниқловчи нарса-буюмнинг қарашлилигини ифодалаган?

A) *Бу китоблар кимники?*
**B) Янги бинолар қишлоқнинг ҳуснига ҳусн қўшмоқда.**
C) *Шу пайт ичкаридан шип-шип қадам товуши эшитилди.*
D) *Узоқ-яқин ерлардан одамлар йиғила бошлади.*

1017. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240458)
Сўз бирикмалари занжири гапнинг эгаси атрофида бирлашган ҳолатни топинг.

A) *Баданни жунжиктирувчи совуқ шамол изғиб қолди.*
B) *Бобонинг табиати равшан бўлиб кетди.*
**C) Дарвешалининг зиндонда ётиши Алишернинг юрагида душманлик оловини тўлдиради.**
D) *Саёҳатчилар даранинг пиллапоя каби ётиқроқ ерларидан юқорига интилдилар.*

1018. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240459)
Маълум матнда гаплар қайси жиҳатдан боғланади?

A) *морфологик жиҳатдан*
B) *синтактик жиҳатдан*
**C) мантиқий жиҳатдан**
D) *морфологик, синтактик, мантиқий жиҳатлардан*

1019. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240460)
Қуйида берилган гапларнинг қайсисида оҳанг ўзгариши орқали фарқли фикр ҳосил қилиш мумкин?

A) *Тоғ қушларининг сайраши қўйиларнинг маъраган овозларига жўр бўлмоқда.*
**B) Ҳалиги сумка кўтарган қизини чақирди.**
C) *Гулчеҳра мўйсафидга нима жавоб қилишни билмай, ўзини трамвайга отди.*
D) *- Нима бўлди, қизим, нега йиғлаяпсан?*

1020. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240461)
Қайси гапда гапнинг ўзгарган тартиби эга ва кесимга тегишли?

**A) Шовуллади тун бўйи шамол.**
B) *Қалдироқлар кўчди ларзакор.*
C) *Мен нечун севаман Ўзбекистонни?!*
D) *Арра тортар, Носирнинг*
*Боши эгик, кўзи нам.*

1021. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240462)

Қайси қаторда уюшиқ бўлакли гап ва қўшма гап жуфтлиги берилган?

A) *Тиғ яраси тузалади, лекин тил яраси тузалмайди.*
*Ҳамма чуқур хўрсинди, Анорхон пиқ-пиқ йиғлади.*

**B) Пулемёт, милтиқларнинг овозига хотин- халаж, бола чақаларнинг йиғиси, дод- войи қўшилиб кетди.**
**Турғуной биринчи товушни эшитганда сесканди, сўнггилари эса уни ваҳимага солди.**

C) *Бу ернинг об-ҳавоси, иқлими ва шароити яхши эди.*
*Биз ҳарбий учувчи ва Ватан посбонлари бўламиз.*

D) *Боғчада ёш-ёш қизчалар ва ўғил болалар давра қуриб ўйнашмоқда.*
*Дарё гоҳ шовқин солиб, гоҳ тинч оқар эди.*

1022. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240463)

Қайси қатордаги гапда уюшиқ ҳол от ва феъл сўз туркумлари билан ифодаланган?

A) *У ҳаяжон билан, тез-тез ва бўғилиб сўзлар эди.*

**B) Подшо гоҳ кулиб, гоҳ жиддий ўй билан қулоқ солди.**

C) *Саида гоҳ афсусланиб, гоҳ куйиб, гоҳ кулиб гапириб берди.*

D) *Уфққа туташиб кетган полизлар ва токзорлар қизғиш, қаҳрабо тусда товланади.*

1023. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240464)

**Сорахон шунча кундан бери етолмаган ниятга - Розияни аввалгидай гўзал, шод кўриш ниятига - Саттор бир лаҳзада етди.**

Ушбу гап ҳақидаги қайси ҳукм тўғри?

A) *уюшиқ бўлакли гап*

**B) уюшиқ ва ажратилган бўлакли гап**

C) *ажратилган бўлакли гап*

D) *бир неча эргаш гапли қўшма гап*

1024. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240466)

Кўмакчили бошқарув қатнашган гапни топинг.

A) *Бу тепаликка чиқиш орқада қолган йўлнинг азобидан ҳам ортиқроқ бўлди.*

B) *Қизим, бунақа йигитдан совчи бир марта келади.*

**C) Ота юз-қўлларини ювгандан сўнг сал нарига бориб ўтирди.**

D) *Ўқувчи болаларга, йигит ва қизларга бағишлаб ёзилган қўшиқлар кўп.*

1025. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240467)

Қайси қаторда содда гап берилган?

A) *Юртим, далаларинг бебаҳо, тупроғинг табаррук.*

B) *Аёл кишига, аввало, она деб қарасак, ҳаммаси жой-жойига тушади.*

**C) Кучли шовқин нафақат катта ёшдаги кишилар, шунингдек, ўқувчиларнинг фаолиятига ҳам зарар келтиради.**

D) *Йигит-қизларимиз Ўзбекистоннинг, инсониятнинг боласи бўлса, ҳамма фахрланади.*

1026. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240468)

Қўшма гап берилган қаторни топинг.

**A) Баҳром канизагига кўз ташлайди, аммо унинг ҳайратланмаганлиги Баҳромни дарғазаб этади.**

B) *Бир куни саркарда овдан қайтаётиб, Баҳромни ўз оромгоҳига таклиф қилади.*

C) *Ҳақиқатан, бу келажакка дадил интилаётган қалбнинг ўз ҳаётидан мамнунлиги, холос.*

D) *Ҳар бир инсон фикр юритиш қобилиятига эга.*

1027. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (240473)

Қайси гапда <u>ҳам</u> боғловчиси уюшиқ кесимларни боғлаган?

A) *Қалам ҳам дафтар бўлсин йўлдошинг.*

**B) Ҳусайн Бойқаро ҳазратлари ҳам шоир, ҳам илмпарвар эмишлар.**

C) *Ҳафталар ўтди ҳам тугади савдо.*

D) *Ишим тўғриланиб кетди ҳам ерим ўзимга қолди.*

1028. 7.2-2 file-» 71 - 5 - - (241357)

Қайси гапда ибора эга вазифасида қўлланган?

**A) Аёл кишига қўл кўтариш эркакнинг иши эмас.**

B) *Кўзимнинг остига олиб юрган бир попукдай қиз бор.*

C) *Саида унинг кеча тўқими тескари бўлиб юргани ва ҳозир қилдан қийиқ топаётганининг сабабини дарров фаҳмлади.*

D) *Бир одам ёзда меҳнатимни "сув" қиди.*

1029. 7.2-2 file-» 1 - 39 - - (241410)

Ҳосилимиз мўл бўлса, уйимиз донга тўлса, турмиш бўлар фаровон.

Берилган гапдаги биринчи ва иккинчи гаплар қандай гаплар ҳисобланади?

A) *аниқловчи эргаш гап*

B) *тўлдирувчи эргаш гап*

<u>C) *ҳол эргаш гап*</u>

D) *бош гап*

1030. 7.2-2 file-» 1 - 39 - - (241414)
Қуйидаги қўшма гап қисмлари қандай муносабатни ифодалаяпти?
Шу пайт бошимиз устида чақмоқ ярқ этди ва момақалдироқ гумбурлади.

A) *пайт муносабатини*

**B) сабаб-натижа муносабатини**

C) *зидлик муносабатини*

D) *биринчи гап мазмуни иккинчи гап орқали изоҳланмоқда*

1031. 7.2-2 file-» 1 - 38 - - (301240)
Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirishda ko‘chirma gap tarkibidagi undalma qay shaklda bo‘ladi?

A) *undalma tushirib qoldiriladi*

**B) chiqish kelishigidagi to‘ldiruvchiga aylantiriladi**

C) *qaratuvchi aniqlovchiga aylantiriladi*

D) *tushum kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to‘ldiruvchiga aylantiriladi*

1032. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301241)
Qaysi gapdagi aniqlovchi narsa-buyumning qarashliligini ifodalagan?

A) *Bu kitoblar kimniki?*

**B) Yangi binolar qishloqning husniga husn qo‘shmoqda.**

C) *Shu payt ichkaridan ship-ship qadam tovushi eshitildi.*

D) *Uzoq-yaqin yerlardan odamlar yig‘ila boshladi.*

1033. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301242)
So‘z birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatni toping.

A) *Badanni junjiktiruvchi sovuq shamol izg‘ib qoldi.*

B) *Boboning tabiati ravshan bo‘lib ketdi.*

**C) Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to‘ldiradi.**

D) *Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.*

1034. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301243)
Ma’lum matnda gaplar qaysi jihatdan bog‘lanadi?

A) *morfologik jihatdan*

B) *sintaktik jihatdan*

**C) mantiqiy jihatdan**

D) *morfologik, sintaktik, mantiqiy jihatlardan*

1035. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301244)
Quyida berilgan gaplarning qaysisida ohang o‘zgarishi orqali farqli fikr hosil qilish mumkin?

A) *Tog‘ qushlarining sayrashi qo‘ylarning ma’ragan ovozlariga jo‘r bo‘lmoqda.*

**B) Haligi sumka ko‘targan qizini chaqirdi.**

C) *Gulchehra mo‘ysafidga nima javob qilishni bilmay, o‘zini tramvayga otdi.*

D) *- Nima bo‘ldi, qizim, nega yig‘layapsan?*

1036. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301245)
Qaysi gapda gapning o‘zgargan tartibi ega va kesimga tegishli?

**A) Shovulladi tun bo‘yi shamol.**

B) *Qaldiroqlar ko‘chdi larzakor.*

C) *Men nechun sevaman O‘zbekistonni?!*

D) *Arra tortar, Nosirning*
*Boshi egik, ko‘zi nam.*

1037. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301246)
Qaysi qatorda uyushiq bo‘lakli gap va qo‘shma gap juftligi berilgan?

A) *Tig‘ yarasi tuzaladi, lekin til yarasi tuzalmaydi.*
*Hamma chuqur xo‘rsindi, Anorxon piq-piq yig‘ladi.*

**B) Pulemyot, miltiqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola chaqalarning yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi.**
**Turg‘unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so‘nggilari esa uni vahimaga soldi.**

C) *Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi.*
*Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo‘lamiz.*

D) *Bog‘chada yosh-yosh qizchalar va o‘g‘il bolalar davra qurib o‘ynashmoqda.*
*Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.*

1038. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301247)
Qaysi qatordagi gapda uyushiq hol ot va fe’l so‘z turkumlari bilan ifodalangan?

A) *U hayajon bilan, tez-tez va bo‘g‘ilib so‘zlar edi.*

**B) Podsho goh kulib, goh jiddiy o‘y bilan quloq soldi.**

C) *Saida goh afsuslanib, goh kuyib, goh kulib gapirib berdi.*

D) *Ufqqa tutashib ketgan polizlar va tokzorlar qizg‘ish, qahrabo tusda tovlanadi.*

1039. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301248)
**Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga - Roziyani avvalgiday go‘zal, shod ko‘rish niyatiga - Sattor bir lahzada yetdi.** Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?

A) *uyushiq bo‘lakli gap*

**B) uyushiq va ajratilgan bo‘lakli gap**

C) *ajratilgan bo‘lakli gap*

D) *bir necha ergash gapli qo‘shma gap*

1040. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301249)
Ko‘makchili boshqaruv qatnashgan gapni toping.

A) *Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo‘lning azobidan ham ortiqroq bo‘ldi.*

B) *Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi.*

**C) Ota yuz-qo‘llarini yuvgandan so‘ng sal nariga borib o‘tirdi.**

D) *O‘quvchi bolalarga, yigit va qizlarga bag‘ishlab yozilgan qo‘shiqlar ko‘p.*

1041. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301250)
Qaysi qatorda sodda gap berilgan?

A) *Yurtim, dalalaring bebaho, tuprog‘ing tabarruk.*

B) *Ayol kishiga, avvalo, ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi.*

**C) Kuchli shovqin nafaqat katta yoshdagi kishilar, shuningdek, o‘quvchilarning faoliyatiga ham zarar keltiradi.**

D) *Yigit-qizlarimiz O‘zbekistonning, insoniyatning bolasi bo‘lsa, hamma faxrlanadi.*

1042. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301251)
Qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

**A) Bahrom kanizagiga ko‘z tashlaydi, ammo uning hayratlanmaganligi Bahromni darg‘azab etadi.**

B) *Bir kuni sarkarda ovdan qaytayotib, Bahromni o‘z oromgohiga taklif qiladi.*

C) *Haqiqatan, bu kelajakka dadil intilayotgan qalbning o‘z hayotidan mamnunligi, xolos.*

D) *Har bir inson fikr yuritish qobiliyatiga ega.*

1043. 7.2-2 file-» 40 - 2 - - (301252)
Qaysi gapda <u>ham</u> bog‘lovchisi uyushiq kesimlarni bog‘lagan?

A) *Qalam ham daftar bo‘lsin yo‘ldoshing.*

**B) Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar.**

C) *Haftalar o‘tdi ham tugadi savdo.*

D) *Ishim to‘g‘rilanib ketdi ham yerim o‘zimga qoldi.*

1044. 7.2-2 file-» 71 - 5 - - (301253)
Qaysi gapda ibora ega vazifasida qo‘llangan?

**A) Ayol kishiga qo‘l ko‘tarish erkakning ishi emas.**

B) *Ko‘zimning ostiga olib yurgan bir popukday qiz bor.*

C) *Saida uning kecha to‘qimi teskari bo‘lib yurgani va hozir qildan qiyiq topayotganining sababini darrov fahmladi.*

D) *Bir odam yozda mehnatimni "suv" qidi.*

1045. 7.2-2 file-» 1 - 39 - - (301254)
Hosilimiz mo‘l bo‘lsa, uyimiz donga to‘lsa, turmish bo‘lar farovon.
Berilgan gapdagi birinchi va ikkinchi gaplar qanday gaplar hisoblanadi?

A) *aniqlovchi ergash gap*

B) *to‘ldiruvchi ergash gap*

<u>C) *hol ergash gap*</u>

D) *bosh gap*

1046. 7.2-2 file-» 1 - 39 - - (301255)
Quyidagi qo‘shma gap qismlari qanday munosabatni ifodalayapti?
Shu payt boshimiz ustida chaqmoq yarq etdi va momaqaldiroq gumburladi.

A) *payt munosabatini*

**B) sabab-natija munosabatini**

C) *zidlik munosabatini*

D) *birinchi gap mazmuni ikkinchi gap orqali izohlanmoqda*

1047. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400232)
Qaysi qatorda <u>-sa</u> shart mayli qo‘shimchasi orqali ifodalangan mustaqil kesim shakli berilgan?

A) *Qalb salomat bo‘lsa, aql ham, fikr ham salomat bo‘ladi.*

**B) Qani til bo‘lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa.**

C) *Sen yig‘lasang, men ham qo‘shilib yig‘lab yuboraman.*

D) *Berilgan gaplarning barchasida <u>-sa</u> shart mayli nomustaqil kesim shaklini yuzaga keltiryapti.*

1048. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400233)
Qaysi qatorda atov gap berilmagan?

A) *Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib, saxovat bilan nur socha boshladi.*

B) *Mehnat. Mehnatning tagi rohat.*

C) *Hamon yodimdadir: gul chog‘i erdi.*

**D) Sovuq qattiq. Izg‘irin ko‘z ochirgani qo‘ymaydi.**

1049. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400234)
Eganing ishtirokiga ko‘ra sodda gaplarning turlari haqida berilgan noto‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) *Ega ishtirok etmagan gaplar shaxs tushunchasi ifodasiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi, ya’ni egasi yashiringan va egasiz gaplar.*

B) *Egasiz gaplarning uch ko‘rinishi bor, ya’ni shaxsi noma’lum gaplar, atov gaplar, so‘z-gaplar.*

**C) Egasi umumlashgan gaplar o‘z ichida ikkiga bo‘linadi, ya’ni egasi ma’lum va egasi yashiringan gaplar.**

D) *Berilgan hukmlarning barchasi to‘g‘ri.*

1050. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400235)
Qaysi qatorda shaxsi noma’lum gap berilgan?
1. Yo‘lda biroz to‘xtashga to‘g‘ri kelib qoldi.
2. Ko‘nglida armon qolmasligi uchun chilyosin qildirishga to‘g‘ri keldi.
3. Yo‘lda ukam menga to‘g‘ri kelib qoldi.
4. To‘garakka barvaqt borishga to‘g‘ri keldi.

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 4* C) *1, 2, 3* **D)** *1, 2, 4*

1051. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400236)
**Hammani kuldirish uchun ataylab shunday kiyindi.**
Ushbu gapda holning ma’no turlariga to‘g‘ri izoh berilgan qatorni toping.

A) *1 ta sabab, 1 ta maqsad, 1 ta vaziyat holi*

**B) 2 ta maqsad, 1 ta vaziyat holi**

C) *1 ta maqsad, 2 ta vaziyat holi*

D) *2 ta sabab, 1 ta vaziyat holi*

1052. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400237)
Qaysi gapda ajratilgan bo‘lak qo‘llangan?

A) *Bosh turmushim to‘ri, ko‘nglimning jo‘ri – bularning hammasi sensan, Vatanim.*

**B) Uyda ko‘p ish qildi – supurdi, kir yuvdi, tozaladi.**

C) *Gulzorning narigi tomonida daroyi, husayni, yakdona, charos, kishmish – turli uzum ishkomlari bor edi.*

D) *Berilgan gaplarda ajratilgan bo‘lak qo‘llanmagan.*

1053. 7.2-2 file-» 5 - 1 - - (400238)
Qaysi gapda sifatlovchi-aniqlovchilar belgini qabartirib, ortiq darajasini ko‘rsatib kelgan?

A) *Uzun-uzun arg‘amchi yerda yotsa, maylimi?*

B) *Hayotdek go‘zal, ilhombaxsh, musaffo tilimizni sevaylik.*

C) *Osmon o‘pgan tog‘larning muammosini biringiz, geolog, erta qilur hal.*

**D) Barcha gaplarda sifatlovchi-aniqlovchilar belgining ortiq darajasini ifodalash uchun xizmat qilgan.**

1054. 7.2-2 file-» 40 - 3 - - (400239)
Chiqish kelishigidagi so‘z sabab holi vazifasida qo‘llangan gapni toping.

A) *Tilning aqldan oldin ketishiga yo‘l qo‘yma.*

B) *Po‘lat o‘zini kulgidan to‘xtatolmasdi.*

C) *Aql aqldan quvvat oladi.*

**D) Yuragim hayajondan gupillab uradi.**

1055. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400240)
Qaysi gapda murakkab ot kesim qo‘llangan?

A) *O‘sha kuni sovuq qattiq edi.*

B) *Men kutib olishim kerak.*

C) *Hammasini aytib berishing darkor.*

**D) berilgan barcha gaplarda**

1056. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400241)
Bog‘lamali ot kesim qo‘llangan gapni toping.

**A) Har bir o‘quvchi uy vazifasini puxta bajarishi kerak.**

B) *Barcha qo‘shimcha daromadlar hisoblandi.*

C) *Bizga izlanuvchan yoshlar kerak.*

D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

1057. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400242)
Ravish holi takroriy ravishdosh bilan ifodalangan gapni toping.

A) *Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi va dona-dona gapirdi.*

**B) Tiniq suvdan hovuch-hovuch oldi, qonib-qonib ichdi.**

C) *Yoqimli shamol g‘ir-g‘ir esadi.*

D) *Nizomjon bo‘lgan voqeani oqizmay-tomizmay aytib berishga majbur bo‘ldi.*

1058. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400243)
Sabab holining ifodalanishida qaysi kelishik qo‘shimchasi faol ishtirok etadi?

A) *jo‘nalish kelishigi* B) *o‘rin-payt kelishigi* **C)** *chiqish kelishigi*
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

1059. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400244)
Ibora bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchili gapni toping.

**A) U o‘z obro‘si, g‘ururiga birovning oz-moz til tegizishini ko‘tarmas edi.**

B) *Bo‘linganni bo‘ri yer.*

C) *U uyiga tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib qaytdi.*

D) *Ertalabdan kapalagimni uchirib yubordingiz.*

1060. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400245)

**Uning nurlarida qishning poyonsiz oq ko‘rpasi mayda oltin uchqunlatib, hammayoqni chuqur jimjitlik bilan o‘rab yotardi.**

Ushbu gapda nechta o‘rinda aniqlovchi qo‘llangan?

A) *4 ta* B) *5 ta* **C)** *6 ta* D) *7 ta*

1061. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400246)

Quyidagi gapda qo‘llangan aniqlovchilar sonini toping.

**Unda oqila qizlarimiz tikuvchilik san’atini, bichuvchilik mahoratini, kashtado‘zlik va zardo‘zlik sirlarini, popopchilik kasbini o‘rganadilar.**

A) *4 ta* B) *5 ta* **C)** *6 ta* D) *7 ta*

1062. 7.2-2 file-» 40 - 4 - - (400247)

Kiritma qo‘llangan gapni toping.

A) *Uning boshida do‘ppi, Marg‘ilon nusxa do‘ppi bor edi.*

**B) Chindan ham, mashina dehqonning og‘irini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi.**

C) *Biz, yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz.*

D) *Muhimi shuki, siz o‘quvchilarga keraksiz.*

1063. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400248)

**Beva ayol farzandlarini mashaqqat bilan - uning eri frontta halok bo‘lgan edi - qattiq qiyinchiliklarni ko‘rib voyaga yetkazdi.**

Ushbu gapga qaysi qatorda to‘g‘ri tavsif berilgan?

A) *tarkibida kiritma gap mavjud bo‘lgan gap*

**B) tarkibida ajratilgan bo‘lak va murakkab kiritma mavjud bo‘lgan gap**

C) *tarkibida vositasiz to‘ldiruvchi, ravish holi va murakkab kiritma mavjud bo‘lgan gap*

D) *tarkibida murakkab kiritma va uyushiq hollar mavjud bo‘lgan gap*

1064. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400249)

**Bugun soat 2 da - buni sizga aytish yodimdan chiqayozibdi - tushlikdan keyin yozuvchilar bilan uchrashuv bo‘lar ekan.**

Berilgan gap qaysi qatorda to‘g‘ri tasvirlangan?

A) *tarkibida kiritma mavjud bo‘lgan sodda gap*

**B) tarkibida ajratilgan bo‘lak va murakkab kiritma mavjud bo‘lgan gap**

C) *tarkibida murakkab kiritma va uyushiq bo‘laklar mavjud bo‘lgan gap*

D) *tarkibida sodda kiritma va uyushiq bo‘laklar mavjud bo‘lgan gap*

1065. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400250)

Shaxsi noma’lum gap qaysi javobda berilgan?

A) *Eshik ochiq bo‘lsa ham so‘rab kir.*

B) *Bu yerda o‘rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak.*

**C) Ko‘p o‘tmay tandir kabobni ochish marosimi boshlanadi.**

D) *Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.*

1066. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400251)

Sodda gapning to‘liq sintaktik tahlilida quyidagi vazifalardan qaysilarini amalga oshirish kerak? 1) gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi bo‘yicha tahlil; 2) gap bo‘laklarini aniqlash; 3) gapda qaysi so‘z turkumiga oid so‘zlar borligini aniqlash; 4) gap qurilish bo‘yicha tahlil; 5) gapda nechta tinish belgisi borligini aniqlash

A) *2, 3, 4* **B)** *1, 2, 4* C) *1, 2, 3, 4* D) *1, 2, 3, 5*

1067. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400252)

So‘zlovchining o‘z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatliligi darajasini bildiruvchi kiritma qaysi gapda mavjud?

A) *Demak, ertalab uchrashamiz.*

B) *Yaxshi hamki, vaqtida yetib keldik.*

**C) Birinchidan, bu borada siz nohaqsiz.**

D) *Yaxshi kunlarga yetib keldik, inshoolloh.*

1068. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400253)

Ajratilgan hol vazifasida ko‘pincha holning qaysi ma’no turlari keladi?

**A) payt holi va o‘rin holi**

B) *ravish holi va daraja-miqdor holi*

C) *sabab holi va maqsad holi*

D) *o‘rin holi va sabab holi*

1069. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400254)

**Ertaga qishloqqa - buni sizga aytish yodimdan ko‘tarilibdi - do‘stlaringiz huzuriga ketayapmiz.**

Berilgan gap qaysi javobda to‘g‘ri tavsiflangan?

A) *tarkibida kiritma gap mavjud bo‘lgan gap*

**B) tarkibida ajratilgan bo‘lak va murakkab kiritma mavjud bo‘lgan gap**

C) *tarkibida murakkab kiritma va uyushiq hol mavjud bo‘lgan gap*

D) *tarkibida ajratilgan bo‘lak mavjud bo‘lgan gap*

1070. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400255)
Gapning fikriy mundarijasi nimada ifodalanadi?

A) *gapdan anglashilgan ma'noda*

**B) grammatik asosda**

C) *fe'l kesimning zamon ma'nosida*

D) *fe'l kesimning lug'aviy ma'nosida*

1071. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400256)
**Semiz qo'y go'shti o'z yog'iga qovurildi. - Yakka qolgan Hasanboy vijdon azobida o'z yog'iga qovurildi.**
Berilgan gaplardagi o'z yog'iga qovurildi birikmasi tarkibidagi so'zlar qaysi gap bo'laklari vazifasida kelgan?

A) *1-gapda: to'ldiruvchi, kesim; 2-gapda: kesim*

B) *har ikkala gapda kesim*

**C) 1-gapda: aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim; 2-gapda: kesim**

D) *har ikkala gapda: aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim*

1072. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400257)
**Shifokor dorini bolaning qulog'iga quydi. - Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga quydi.**
Berilgan gapdagi qulog'iga quydi birikmasi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) *1-gapda: qulog'iga - to'ldiruvchi, quydi - sodda kesim; 2-gapda qulog'iga quydi - sodda kesim*

**B) 1-gapda: qulog'iga - to'ldiruvchi, quydi - sodda kesim; 2-gapda qulog'iga quydi - murakkab kesim**

C) *har ikkala gapda: qulog'iga - to'ldiruvchi, quydi - sodda kesim*

D) *har ikkala gapda: qulog'iga quydi - murakkab kesim*

1073. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400258)
Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha tahlilni amalga oshirishda quyidagi vazifalardan qaysilarini bajarish kerak?
1) gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlash; 2) gapda uyushiq bo'laklar bor yoki yo'qligini aniqlash; 3) gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmagan bo'laklar bor yoki yo'qligini izohlash; 4) gap bo'laklari qanday so'z birikmalari tarkibida kelganini izohlash; 5) gap bo'laklarini belgilash; 6) gap bo'laklarining joylashuv tartibini izohlash

A) *1, 2, 3, 5, 6* **B)** *2, 3, 5, 6* C) *1, 2, 3, 5*
D) *1, 2, 3, 4, 5, 6*

1074. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400259)
**Suhbat asnosida uning hech narsaga tushunmayotgani, men bog'dan kelsam, u tog'dan kelayotgani, birdaniga sezilib qoldi.**
Berilgan gapdagi ibora qanday vazifani bajargan?

A) *uyushiq ega* **B)** *ajratilgan izohlovchi*
C) *sifatdosh* D) *kiritma gap*

1075. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400260)
**Majlis ishtirokchilaridan biri - ularning soni uncha ko'p emas edi - ko'zoynakli kishi qo'l ko'tarib so'z so'radi.**
Berilgan gap qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) *tarkibida murakkab kiritma bo'lgan sodda gap*

**B) tarkibida ajratilgan bo'lak va murakkab kiritma bo'lgan sodda gap**

C) *tarkibida ajratilgan bo'lak va uyushiq bo'lak mavjud bo'lgan sodda gap*

D) *aralash murakkab qo'shma gap*

1076. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400261)
Zidlik munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin?

A) *bog'lovchisiz va bog'langan qo'shma gaplar bilan*

**B) bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar bilan**

C) *faqat zidlov bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gaplar bilan*

D) *faqat bog'langan qo'shma gaplar bilan*

1077. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400262)
Sabab munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin?

A) *bog'lovchisiz va bog'langan qo'shma gaplar bilan*

**B) bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar bilan**

C) *faqat sabab bog'lovchisi bilan bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

D) *faqat sabab ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

1078. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400263)
Shart munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin?

A) *bog'lovchisiz va bog'langan qo'shma gaplar bilan*

**B) bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar bilan**

C) *faqat shart ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

D) *faqat kesimi -sa shaklli ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

1079. 7.2-2 file-» 11 - 4 - - (400264)
Payt munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin?

A) *bog'lovchisiz va ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

**B) bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar bilan**

C) *faqat payt ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

D) *kesimi payt ravishdoshi shaklini olgan ergash gapli qo'shma gaplar bilan*

1080. 7.2-2 file-» 1 - 44 - - (400265)
Quyidagi gapda na so'zi qanday gap bo'laklarini bog'lashga xizmat qilgan?
**Avvalo shuki, kovush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok.**

A) *kesim* **B)** *ega* C) *to'ldiruvchi*
D) *ega, to'ldiruvchi*

1081. 7.2-2 file-» 1 - 44 - - (400266)
Quyidagi she'rda qaysi gap bo'laklari uyushib kelgan?
**Na uyquga to'ygan va na kulguga,**
**Ko'rsa ko'z kuygudek kelinchak edim.** (S.Zunnunova)

**A)** *aniqlovchi* B) *to'ldiruvchi* C) *kesim*
D) *uyushiq bo'laklar mavjud emas*

1082. 7.2-2 file-» 1 - 44 - - (400267)
**Bu she'r menga bag'ishlangani uchungina emas, balki unda ulug' shoirning buloq suvlaridek musaffo qalbi mavj urib turgani uchun ham sevaman.**
Berilgan gapda **balki** bog'lovchisi qanday bo'laklarni bog'lab kelgan?

A) *sodda gaplarni* B) *uyushiq egani*
**C)** *uyushiq to'ldiruvchini*
D) *uyushiq kesimni*

1083. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700240)
Bog'lama ishtirok etmagan gapni aniqlang.

**A) Men aytmagan so'zni aytajak kimdir.**

B) *Birovni qarg'ash yoki so'kish gunohdir.*

C) *Ilm hayot yo'limizda so'nmas mash'aladir.*

D) *Barcha gaplarda bog'lama ishtirok etgan.*

1084. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700241)
Qaysi gapda sifatdosh sifatlovchi aniqlovchi va fe'l kesim vazifalarida kelgan?

A) *Qoradaryo hamisha to'lib oqqan, lekin hech qachon bunday suvsiz bo'lmagan.*

**B) Zebi yuragida tugilib yotgan zo'r tugunni yechib yuborgan edi.**

C) *Har holda menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topildi.*

D) *Ishlamagan – tishlamaydi.*

1085. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700242)
Yigit-qizlarimiz o'z aql-zakovati, kuch-qudratini to'la-to'kis namoyon qila olishi kerak.
Ushbu gapda juft so'zlar qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?

A) *ega, vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi*

**B) ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol**

C) *ega, vositasiz to'ldiruvchi, kesim*

D) *qaratqich aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi*

1086. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700243)
Islohotlarni chuqurlashtirish amalga oshirayotgan tadbirlarimizning samarasini yaxshilamoqda.
Ushbu gapda fe'lning vazifa shakllari qaysi gap bo'lagi vazifasiga ixtisoslashgan?
1) ega 2) kesim 3) aniqlovchi 4) to'ldiruvchi 5) hol

**A)** *1, 2, 3* B) *1 va 2* C) *2, 3, 4*
D) *1, 4, 5*

1087. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700244)
Tongdagi go'zalligingni ko'z-ko'z qilganingda, baxtdan, quvonchdan kundan kun munavvar oy kabi to'lib borayotgan jamolingni ko'rganimda yuragim yayrab ketadi.
Ushbu gapning kesimi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) *ketadi*

**B) yayrab ketadi**

C) *yayrab ketadi, to'lib borayotgan*

D) *yayrab ketadi, to'lib borayotgan, ko'z-ko'z qilganingda, ko'rganimda*

1088. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700245)
Qaysi qatorda holning ma'no jihatdan 3 turi mavjud?

A) *Sal o'tmay Shirinoy daladan qaytdi.*

B) *Ota yuvingandan so'ng sal nariga bordi.*

**C) Oz so'zlasang ham, doimo soz so'zla.**

D) *Barcha gaplarda holning ma'no jihatdan 2 turi mavjud.*

1089. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700246)
Qaysi gapda ibora ega vazifasida kelgan?

A) *Yo'qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi, jonimga oro kirdi.*

**B) Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi.**

C) *Kovushini to'g'rilab qo'yish kerak:qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi.*

D) *Barcha gaplarda ibora kesim vazifasida kelgan.*

1090. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700247)
Qaysi gapda qaratqich aniqlovchi uyushib kelgan?

A) *Yaxshi xislati bor:oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il- qizlarni ham-xullas, barchani sizlab gapirar edi.*

B) *Taram-taram olmalarni, asl nashvatilarni, po'sti yupqa shaftolilarni, quymoqqa o'xshash anjirlarni aytmaysizmi?*

**C) Saida kecha uning to'qimi teskari bo'lib yurgani va hozir qildan qiyiq topayotganining sababini fahmladi.**

D) *Barcha gaplarda vositasiz to'ldiruvchilar uyushib kelgan.*

1091. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700248)
1.Tinchlik tufayli yurt obod.
2.Uyalganidan qizarib-bo'zarib ketdi.
3.Shularni surishtirish uchun yelib-yugurdi.
4.O'ynab kelgani ko'chaga chiqdi.
Ushbu gaplarning qaysi birida sabab ma'nosini ifodalaydigan hol mavjud?

A) *1, 3*

**B) 1, 2**

C) *1, 2, 3*

D) *barchasida sabab holi ishtirok etgan*

1092. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700249)
Ertalab atayin siz bilan xayrlashmay ketibdi. Ushbu gapda holning qaysi turlari mavjud?

A) *payt va sabab holi*

B) *payt va maqsad holi*

**C) payt, maqsad va ravish holi**

D) *payt, sabab va ravish holi*

1093. 7.2-2 file-» 20 - 1 - - (700250)
Tarkibida ajratilgan bo'lak, kirish bo'lak va undalma mavjud bo'lgan gapni belgilang.

A) *Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida, besh yil birga xizmat qilganmiz, begim.*

B) *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, nega tilkalaysan bag'rimni, ohang!?*

**C) Xojam, yaxshiyamki, Sulton Mahmud yoshlik chog'larida, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, bu adolatli farmonni bergan ekan.**

D) *Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,*
*Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.*

1094. 7.2-2 file-» 1 - 47 - - (700251)
Qanday bo'lak aniqlanmish sanaladi?

A) *gapda o'zidan oldingi aniqlovchining ma'nosini izohlab kelgan bo'lak*

B) *aniqlovchiga nisbatan hokim bo'lgan bo'lak*

**C) aniqlovchi tobe bo'lgan hokim bo'lak**

D) *narsa-buyumni ifodalaydigan so'zga tobelanib, uning belgisini aniqlatadigan bo'lak*

1095. 7.2-2 file-» 1 - 47 - - (700252)
Qaratqichli aniqlovchilar qaralmish bilan munosabatga kirishganda quyida ko'rsatilgan qaysi shakllarda bo'lishi mumkin?
1) qaratqich va qaralmish belgili bo'ladi
2) qaratqich belgisiz, qaralmish belgili bo'ladi
3) qaratqich va qaralmish belgisiz bo'ladi
4) qaratqich belgili, qaralmish belgisiz bo'ladi.

<u>A) *1, 2, 3, 4*</u> B) *1, 2, 3* C) *1, 2, 4* D) *1, 3, 4*

1096. 7.2-2 file-» 1 - 47 - - (700253)
Qaysi vosita yordamida bosh gapga bog'langan ergash gapning kesimi III shaxs buyruq mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi?

**A) <u>deb</u> so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplarda**

B) *ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplarda*

C) *nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarda*

D) *shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplarda*

1097. 7.2-2 file-» 1 - 48 - - (700254)
Gap kesimi <u>hisoblanadi</u> bog'lamasi bilan shakllangan bo'lsa, gapning kesimi qanday kesim sanaladi?

A) *sodda fe'l kesim* B) *sodda ot kesim* <u>C) *qo'shma ot kesim*</u> D) *qo'shma fe'l kesim*

1098. 7.2-2 file-» 20 - 3 - - (700255)
**Shuni bilingki, kitob bolani ham aqlan, ham ma'nan boyitadi. Istiqlol davri bolalari g'ayratli va shijoatlidir. Biz mana shu shijoat va shiddatni to'g'ri yo'lga yo'naltira olishimiz kerak. Shundagina o'z maqsadimizga erishamiz va farovon hayot bizga muyassar bo'ladi.**
Ushbu matnda gapning qanday turlari bor?
1) sodda gap; 2) bog'langan qo'shma gap; 3) ergashgan qo'shma gap; 4) bog'lovchisiz qo'shma gap; 5) murakkab qo'shma gap

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 2, 3, 5* <u>C) *1, 2, 3*</u> D) *2, 3, 4*

1099. 7.2-2 file-» 12 - 4 - - (700256)
Bo‘yim barobar oltin-kumush menga ortiqchadir, ammo agar bir xazinangizdan to‘la foydalanishga ruxsat bo‘lsa, bu men uchun katta mukofot bo‘ladi.
Ushbu gap – . . .

A) *zidlov bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap.*
B) *shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gap.*
C) *bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap.*
**D) aralash murakkab qo‘shma gap.**

1100. 7.2-2 file-» 12 - 4 - - (700257)
Mehmon kelsa eshikdan,
Rizqi kirar teshikdan.
Ushbu gapdagi kesimlarni aniqlang.

A) *eshikdan, teshikdan* B) *kelsa, teshikdan*
**C)** *kelsa, kirar* D) *eshikdan, kirar*

1101. 7.2-2 file-» 12 - 4 - - (700258)
Boshimda o‘ynar qamchilar, qon ko‘zlarimdan tomchilar, bir benavo gul yanchilar, ozodkorim kelmasa.
Ushbu qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlarini belgilang.

A) *qamchilar, tomchilar, yanchilar, kelmasa*
**B) o‘ynar, tomchilar, yanchilar, kelmasa**
C) *o‘ynar, ko‘zlarimdan, yanchilar, kelmasa*
D) *qamchilar, tomchilar, yanchilar, ozodkorim*

1102. 7.2-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715149)
**”Qizim, umring uzoq bo‘lsin”, – dedi yo‘lovchi.**
Qaysi qatorda mazkur ko‘chirma gapli qo‘shma gap o‘zlashtirma gapga to‘g‘ri aylantirilgan?

**A) Yo‘lovchi qizga umri uzoq bo‘lishini tiladi.**
B) *Yo‘lovchi qizga umri uzoq bo‘lishini aytdi.*
C) *Yo‘lovchi: ”Umring uzoq bo‘lsin, qizim”, – dedi.*
D) *Yo‘lovchi qizga umrining uzoq ekanini uqtirdi.*

1103. 7.2-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715150)
Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda ko‘chirma gap tarkibidagi undov so‘zlar qanday bo‘lakka aylanadi?

A) *chiqish kelishigidagi to‘ldiruvchiga*
**B) undov so‘zlar tushirib qoldiriladi**
C) *o‘zlashtirma gapning egasiga*
D) *tushum kelishigidagi to‘ldiruvchiga*

1104. 7.2-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715151)
Ayiruv bog‘lovchisi yordamida birikkan uyushiq aniqlovchi qatnashgan gapni aniqlang.

A) *Goh qor, goh yomg‘ir yog‘adi.*
B) *Bog‘imizdagi na qizil, na oq atirgullar ochildi.*
C) *Qizlar goh undan, goh bundan gaplashib, hovli aylanishdi.*
**D) Bir akamning, bir ukamning muammosi chiqib turadi.**

1105. 7.2-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715152)
Bu ayyomda gina-kuduratlar va araz unutiladi, xalqlar, insonlar murosaga keladi, ahillik, birdamlik, mehribonlik qaror topadi. (I.Karimov)
Ushbu gap . . .

A) *uyushiq bo‘lakli sodda gap*
**B) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap**
C) *uyushiq kesimli sodda gap*
D) *yoyiq sodda gap*

1106. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239765)
**Режадаги зарур ишларни амалга оширишга вақт етказа олмаяпман, сен бўлса фақат дам олайлик дейсан.**
Ушбу гап қўшма гапларнинг қайси турига мансуб?

**A)** *боғланган қўшма гап*
B) *эргашган қўшма гап*
C) *боғловчисиз қўшма гап*
D) *мураккаб қўшма гап*

1107. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239766)
Қайси қаторда боғланган қўшма гап берилган?

**A) Доно айбни ўзидан ахтаради, аҳмоқ бўлса дўстини айблайди.**
B) *Ғайратлининг юраги қайнар, Ғайратсизнинг юраги ўйнар.*
C) *Сўзнинг юмшоғи ғазабни сўндиради, Сўзнинг қаттиғи одамни ўлдиради.*
D) *Берилган барча гаплар боғловчисиз қўшма гап ҳисобланади.*

1108. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239768)
Эргаш гапни бош гапга боғлаш учун хизмат қиладиган қуйидаги воситаларнинг қайсилари бош гап бошида келади?

A) *чунки, негаки* **B)** *шунинг учун, шу боис*
C) *гўё, бамисоли* D) *-ки, токи*

1109. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239770)
Қуйидаги воситаларнинг қайси бири билан боғланганда қўшма гап ”бош гап + эргаш гап” шаклида бўлади?
1) мақсад боғловчилари; 2) сабаб боғловчилари; 3) кўмакчили қурилмалар; 4) деб ёрдамчи сўзи; 5) нисбий сўзлар; 6) -ки юкламаси

**A)** *1, 2, 6* B) *3, 4, 5* C) *фақат 6*
D) *1, 2, 3, 4*

1110. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239773)
Қайси воситалар билан боғланганда эргаш гап бош гапда ифодаланган мазмуннинг мақсади ёки сабабини билдиради?

A) *шунинг учун, шу сабабли кўмакчили қурилмалар ёрдамида*
B) *чунки, негаки сабаб боғловчилари ёрдамида*
**C) деб боғловчи вазифасидаги сўз ёрдамида**
D) *токи мақсад боғловчиси ёрдамида*

1111. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239774)
Қайси восита билан боғланганда эргаш гап бош гап таркибидаги кўрсатиш олмоши маъносини изоҳлаб келади?

A) *-са шарт майли қўшимчаси ёрдамида*
**B) -ки юкламаси ёрдамида**
C) *деб боғловчи вазифасидаги сўз ёрдамида*
D) *шу боис кўмакчили қурилма ёрдамида*

1112. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239775)
Нисбий сўзли эргашган қўшма гап қайси қаторда берилган?

A) *Шундай одамлар борки, улар билан гаплашиб баҳра оласан.*
B) *Шуни англадимки, инсон қобилияти чексиз экан.*
**C) Кимнинг кўнгли очиқ бўлса, унинг эл ўртасидаги мартабаси улуғ бўлади.**
D) *Берилган гапларнинг барчаси нисбий сўзли эргашган қўшма гап саналади.*

1113. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239777)
Қайси жавобда эргашган қўшма гапларнинг содда гап билан маънодошлиги тўғри берилган?

A) *Шуни билингки, кенгга кенг дунё, торга тор дунё. - Дунё кенгга кенг, торга тордир.*
B) *Шунга хурсандмизки, болалар ўз йўлини топиб кетишди. - Болаларнинг ўз йўлини топиб кетишгани яхши бўлди.*
**C) Шуни сездимки, оила аъзолари бир-бири билан жуда иттифоқ экан. - Оила аъзоларининг бир-бири билан жуда иттифоқ эканлигини сездим.**
D) *Барча гапларда эргашган қўшма гапларнинг содда гап билан маънодошлиги тўғри берилган.*

1114. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239778)
**Масаланинг моҳияти шу эканки, бош врач қабулхонасига кичкина телефонограмма тушибди.**
Берилган қўшма гапнинг турини аниқланг.

A) *эга эргаш гапли қўшма гап*
**B)** *кесим эргаш гапли қўшма гап*
C) *тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гап*
D) *ҳол эргаш гапли қўшма гап*

1115. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239779)
**Бунинг натижаси шу бўлдики, Тўлаганнинг қаншарига мушт тушди.**
Ушбу гап эргаш гапли қўшма гапнинг қайси турига мансуб?

A) *эга эргаш гапли қўшма гап*
**B)** *кесим эргаш гапли қўшма гап*
C) *натижа (ҳол) эргаш гапли қўшма гап*
D) *аниқловчи эргаш гапли қўшма гап*

1116. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239782)
Нисбий сўзлар ёрдамида боғланган ҳол эргаш гапли қўшма гап берилган жавобни топинг.

A) *Ҳар ким ўз оғзининг қоровули бўлса, унинг нафаси ҳеч қачон бўғилмайди.*
**B) Сой қанчалик тез оқса, у шунчалик саёз бўлади.**
C) *Одамлар ишдан қолмасин деб, маросимни соат 5 га тайин қилганмиз.*
D) *Нима рўзғорга керак бўлса, дадам ўшани бозордан келтираверар эди.*

1117. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239783)
Қайси жавобда фақат ҳол эргаш гапли қўшма гаплар берилган?

A) *Ёдингизда сақлангки, бировга ёлғон гапириш энг катта гуноҳдир. Кечқурун ош сузсак, бир насиба кам.*

B) *Ҳали Онахоннинг билмаганлари шу қадар кўп эдики, сўраб охирига етолмасдай кўринди. Анварга шуниси қизиқ туюлдики, бу ерда ҳамма дарахтлар бир чизиқ устида саф тургандай кўринарди.*

**C) Бошингга ташвиш тушмаса, қайтиб келмасдинг. Ойна опа хатни охиригача ўқий олмади, чунки ҳовлининг эшигини кимдир тақиллата бошлади.**

D) *Қаерда аҳиллик бўлса, ўша ерда қут-барака бўлади. Қалбингиз нимани буюрса, сиз менга шуни буюринг.*

1118. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239784)
**Бу сувни ичгандан сўнг ким ёлғон гапирса, қулоғи ўсиб кетармиш.**
Ушбу қўшма гап тури қайси қаторда тўғри изоҳланган?

A) *пайт эргаш гапли қўшма гап*

B) *ҳол эргаш гапли қўшма гап*

C) *эга эргаш гапли қўшма гап*

**D)** *аниқловчи эргаш гапли қўшма гап*

1119. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239786)
**Йигитлар дарахтларнинг остини юмшатдилар // қизлар мактаб ҳовлисини супурдилар.**
Ушбу боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасига қандай тиниш белгиси қўйилиши керак?

**A)** *вергул* B) *тире* C) *икки нуқта* D) *нуқтали вергул*

1120. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239787)
Қайси боғловчисиз қўшма гап таркибида икки нуқта нотўғри ишлатилган?

A) *Орзум шул: ўчмасин ёнган чироғинг.*

B) *Менинг бир жайдари фалсафамдир шу: Ҳаргиз илтимосга кунинг қолмасин.*

**C) Яна увлар даҳшат шамоли: Кўкни қора булут қучади.**

D) *Барча гапларда икки нуқта тўғри ишлатилган.*

1121. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239788)
Бир неча эргаш гапли мураккаб қўшма гаплар тўғри кўрсатилган жавобни белгиланг.
1. Халқимиз шуни истайдики, юртимиз тинч бўлсин, турмушимиз фаровон бўлсин, мустақиллигимиз барқарор бўлсин.
2. Тол экдир сув бўйига,
Соя-салқин бўлсин деб,
Ғайрат қилган ботирлар
Ётиб дамин олсин деб.
3. Ғаним келса, хонумони кул бўлур,
Ўз юртида пачақлаш маъқул бўлур.

A) *фақат 1* **B)** *1, 2* C) *2, 3* D) *1, 2, 3*

1122. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239789)
**Одам юракдан қайнаб кулса, соғлиги яхшиланади, руҳи тетиклашади, иштаҳаси очилади, умри узаяди.**
Ушбу мураккаб қўшма гап турини аниқланг.

A) *бир неча эргаш гапли мураккаб қўшма гап*

**B) бир неча бош гапли мураккаб қўшма гап**

C) *аралаш мураккаб қўшма гап*

D) *қисмлари уюшган мураккаб қўшма гап*

1123. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239790)
**Қувишга қувдим-у, ҳали ҳам ичим ачийди, бола бечора нима гуноҳ қилибди.**
Ушбу қўшма гап турини аниқланг.

A) *зидлов боғловчилари ёрдамида боғланган қўшма гап*

B) *боғловчисиз қўшма гап*

**C) аралаш мураккаб қўшма гап**

D) *қисмлари уюшган мураккаб қўшма гап*

1124. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239791)
**Ўзбекнинг кураши ҳамиша ҳалол,**
**Унда йўқдир ғирром, йўқдир ёмонлик,**
**Доимо дўстларга тилайди камол,**
**Тилайди барчага дўстлик, омонлик.**
Ушбу шеърий парча нечта содда гапдан ташкил топган?

A) *3 та* B) *4 та* **C)** *5 та* D) *6 та*

1125. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239792)
**Авлиёлар босган тупроқ азиз дерлар,**
**Қат-қатидан чиқаверар экан сирлар,**
**Ҳар тупроқдан ҳар кун ўтмас ахир пирлар,**
**Кўкрагимни ҳайрат тиклар, Темур бобо.**
Ушбу шеърий парча мураккаб қўшма гапларнинг қайси турига мансуб?

A) *бир неча эргаш гапли қўшма гап*

B) *бир неча бош гапли қўшма гап*

C) *аралаш мураккаб қўшма гап*

**D)** *қисмлари уюшган мураккаб қўшма гап*

1126. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (239793)
Кўчирма гап ўзлаштирма гапга айлантирилганда юзага келадиган шаклий ўзгаришлар қайси жавобда нотўғри изоҳланган?

A) *кўчирма гапнинг эгаси қаратқич аниқловчига айлантирилади*
B) *муаллиф гапининг эгаси ўзлаштирма гапнинг эгасига айланади*
**C) кўчирма гапнинг кесими ўзлаштирма гапнинг кесими бўлиб келади**
D) *ундалма чиқиш келишигидаги тўлдирувчига айлантирилади*

1127. 7.3-2 file-» 41 - 5 - - (241300)
**Ўзбек ёшларининг пешонаси шунинг учун ҳам ёруғ, иқболи баландки, уларнинг Ўзбекистондек жаннатмонанд юрти бор.**
Мураккаб қўшма гапнинг турини аниқланг.

A) *аралаш мураккаб қўшма гап*
B) *бир неча эргаш гапли қўшма гап*
C) *қисмлари уюшган мураккаб қўшма гап*
**D) бир неча бош гапли мураккаб қўшма гап**

1128. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301256)
**Bilingki, jim turib salomat bo‘lish gapirib malomatga qolishdan afzal.**
Ushbu gapning turini aniqlang.

A) *kirish so‘zli sodda gap*
B) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
C) *kesim ergash gapli qo‘shma gap*
**D) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap**

1129. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301257)
Ergash gapli qo‘shma gaplarning qaysi turida ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin kelishi mumkin?
1) kesim ergash gap; 2) ega ergash gap;
3) to‘ldiruvchi ergash gap; 4) aniqlovchi ergash gap

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *2, 3, 4* C) *3, 4* D) *1, 2*

1130. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301258)
Darak gap shaklidagi ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda darak gap egasi qanday shaklda bo‘ladi?

A) *ega tushirib qoldiriladi*
**B) qaratuvchi aniqlovchiga aylantiriladi**
C) *o‘zlashtirma gap egasi bo‘lib gap boshida keladi*
D) *sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to‘ldiruvchiga alantiriladi*

1131. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301259)
Bog‘langan qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

**A) Yaxshilik qilmoqlik ulug‘ fazilatdir, uning qadriga yetmaslik esa illatdir.**
B) *Shamol qay tarafga essa, maysa ham o‘sha tomonga egiladi.*
C) *Daryo shovillab oqar, uning muzdek shamoli menga zavq bag‘ishlardi.*
D) *Kim birovlarga yaxshilik qilsa, uning obro‘yi baland bo‘ladi.*

1132. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301260)
Aralash murakkab qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

A) *Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini va uning atrofini supurdilar, o‘qituvchilar barcha ishlarga bosh-qosh bo‘ldilar.*
B) *Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ham ovozi chiqmay qoldi, hamma o‘zini salqinga oldi.*
C) *Kimki umid bilan daraxt o‘tqazsa, bir kuni kelib bu daraxt shig‘il meva beradi, uni ekkan egasiga olqish-u rahmatlar yog‘diradi.*
**D) Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, sen esa akangga yordamchilik qilasan.**

1133. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301261)
**Dutor chalib o‘tirsam, tori uzilib ketdi.**
Ushbu qo‘shma gapning turini aniqlang.

A) *kesim ergash gapli qo‘shma gap*
B) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*
C) *aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap*
**D) hol ergash gapli qo‘shma gap**

1134. 7.3-2 file-» 1 - 38 - - (301262)
**Dutor chalib o‘tirsam, tori uzilib ketdi.**
Ushbu gap hol ergash gapning qaysi turiga mansub?

**A)** *payt ergash gap* B) *o‘rin ergash gap*
C) *sabab ergash gap* D) *maqsad ergash gap*

1135. 7.3-2 file-» 41 - 4 - - (301263)
Ergash gapning qaysi turi bosh gapga ko‘makchili qurilmalar vositasida bog‘lanadi?

A) *to‘ldiruvchi ergash gap*
**B)** *sabab ergash gap* C) *maqsad ergash gap*
D) *miqdor-daraja ergash gap*

1136. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301264)
Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.
1. Ba'zan qurbaqalarning qurillashi quloqqa chalinib, kishiga rohat beradi.
2. Kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi.
3. Dasturxon ustida dam o'zbek kuylari, dam hind qo'shiqlari ijro qilinardi.
4. Mahsulot aynigan yoki agrotexnika qoidalari buzilgan.

A) *3 va 4* **B)** *faqat 4* C) *1 va 3* D) *1, 2, 3, 4*

1137. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301265)
**Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo'lsa faqat dam olaylik deysan.**
Ushbu gap qo'shma gaplarning qaysi turiga mansub?

**A)** *bog'langan qo'shma gap*
B) *ergashgan qo'shma gap*
C) *bog'lovchisiz qo'shma gap*
D) *murakkab qo'shma gap*

1138. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301266)
Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan?

**A) Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.**
B) *G'ayratlining yuragi qaynar, G'ayratsizning yuragi o'ynar.*
C) *So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, So'zning qattig'i odamni o'ldiradi.*
D) *Berilgan barcha gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanadi.*

1139. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301267)
Ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalarning qaysilari bosh gap tarkibida bo'ladi?
1) chunki; 2) shuning uchun; 3) go'yo; 4) negaki; 5) -ki; 6) toki

A) *1, 2* B) *4, 5, 6* C) *3, 5, 6* **D)** *2, 5*

1140. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301268)
Ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan quyidagi vositalarning qaysilari bosh gap boshida keladi?

A) *chunki, negaki*
**B)** *shuning uchun, shu bois*
C) *go'yo, bamisoli* D) *-ki, toki*

1141. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301269)
Quyidagi vositalarning qaysi biri bilan bog'langanda qo'shma gap "ergash gap + bosh gap" shaklida bo'ladi?
1) chunki; 2) shuning uchun; 3) negaki; 4) deb; 5) mabodo; 6) -ki

**A)** *2, 4, 5* B) *1, 2, 3* C) *4, 5, 6* D) *4, 6*

1142. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301270)
Quyidagi vositalarning qaysi biri bilan bog'langanda qo'shma gap "bosh gap + ergash gap" shaklida bo'ladi?
1) maqsad bog'lovchilari; 2) sabab bog'lovchilari; 3) ko'makchili qurilmalar; 4) deb yordamchi so'zi; 5) nisbiy so'zlar; 6) -ki yuklamasi

**A)** *1, 2, 6* B) *3, 4, 5* C) *faqat 6* D) *1, 2, 3, 4*

1143. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301271)
Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?
1. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.
2. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.
3. Mabodo boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir.
4. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning hammasini jam etib bir kitob yozmoq darkor.

A) *1, 2* B) *2, 3, 4* **C)** *1, 2, 3* D) *1, 2, 3, 4*

1144. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301272)
Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gap qaysi javobda berilgan?

A) *Shu mo'jaz uyimda yonsin deb chiroq, Ne aziz zotlarga yondashdim gohi.*
B) *Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni quvadi.*
**C) Ilmsiz inson - mevasiz daraxt, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.**
D) *Ishonchim komilki, qasd qilganlar, albatta past bo'ladi.*

1145. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301273)
Qaysi vositalar bilan bog'langanda ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadi yoki sababini bildiradi?

A) *shuning uchun, shu sababli ko'makchili qurilmalar yordamida*
B) *chunki, negaki sabab bog'lovchilari yordamida*
**C) deb bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida**
D) *toki maqsad bog'lovchisi yordamida*

1146. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301274)
Qaysi vosita bilan bog‘langanda ergash gap bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi ma’nosini izohlab keladi?

A) *-sa shart mayli qo‘shimchasi yordamida*
**B) -ki yuklamasi yordamida**
C) *deb bog‘lovchi vazifasidagi so‘z yordamida*
D) *shu bois ko‘makchili qurilma yordamida*

1147. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301275)
Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan.*
B) *Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan.*
**C) Kimning ko‘ngli ochiq bo‘lsa, uning el o‘rtasidagi martabasi ulug‘ bo‘ladi.**
D) *Berilgan gaplarning barchasi nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gap sanaladi.*

1148. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301276)
Qaysi javobda ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan ma’nodoshligi to‘g‘ri berilgan?

A) *Shuni bilingki, kengga keng dunyo, torga tor dunyo. - Dunyo kengga keng, torga tordir.*
B) *Shunga xursandmizki, bolalar o‘z yo‘lini topib ketishdi. - Bolalarning o‘z yo‘lini topib ketishgani yaxshi bo‘ldi.*
**C) Shuni sezdimki, oila a’zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan. - Oila a’zolarining bir-biri bilan juda ittifoq ekanligini sezdim.**
D) *Barcha gaplarda ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan ma’nodoshligi to‘g‘ri berilgan.*

1149. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301277)
**Masalaning mohiyati shu ekanki, bosh vrach qabulxonasiga kichkina telefonogramma tushibdi.**
Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlang.

A) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
**B)** *kesim ergash gapli qo‘shma gap*
C) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*
D) *hol ergash gapli qo‘shma gap*

1150. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301278)
**Buning natijasi shu bo‘ldiki, To‘laganning qanshariga musht tushdi.**
Ushbu gap ergash gapli qo‘shma gapning qaysi turiga mansub?

A) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
**B)** *kesim ergash gapli qo‘shma gap*
C) *natija (hol) ergash gapli qo‘shma gap*
D) *aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap*

1151. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301279)
**Kim birovga yaxshilik qilsa, . . .**
Ushbu ergash gapga bosh gapni qo‘shish orqali ergash gapli qo‘shma gapning qaysi turini hosil qilish mumkin?
1) ega ergash gapli qo‘shma gap; 2) aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap; 3) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

A) *faqat 1* B) *1, 2* C) *2, 3* **D)** *1, 2, 3*

1152. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301280)
Nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langan hol ergash gapli qo‘shma gap berilgan javobni toping.

A) *Har kim o‘z og‘zining qorovuli bo‘lsa, uning nafasi hech qachon bo‘g‘ilmaydi.*
**B) Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo‘ladi.**
C) *Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni soat 5 ga tayin qilganmiz.*
D) *Nima ro‘zg‘orga kerak bo‘lsa, dadam o‘shani bozordan keltiraverar edi.*

1153. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301281)
Qaysi javobda faqat hol ergash gapli qo‘shma gaplar berilgan?

A) *Yodingizda saqlangki, birovga yolg‘on gapirish eng katta gunohdir. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam.*
B) *Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko‘p ediki, so‘rab oxiriga yetolmasday ko‘rindi. Anvarga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turganday ko‘rinardi.*
**C) Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding. Oyna opa xatni oxirigacha o‘qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi.**
D) *Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda qut-baraka bo‘ladi. Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring.*

1154. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301282)
**Bu suvni ichgandan so‘ng kim yolg‘on gapirsa, qulog‘i o‘sib ketarmish.**
Ushbu qo‘shma gap turi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A) *payt ergash gapli qo‘shma gap*
B) *hol ergash gapli qo‘shma gap*
C) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
**D)** *aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap*

1155. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301283)
**Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar // qizlar maktab hovlisini supurdilar.**
Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yilishi kerak?

**A)** *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta*
D) *nuqtali vergul*

1156. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301284)
Qaysi bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibida ikki nuqta noto‘g‘ri ishlatilgan?

A) *Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing.*
B) *Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*
**C) Yana uvlar dahshat shamoli: Ko‘kni qora bulut quchadi.**
D) *Barcha gaplarda ikki nuqta to‘g‘ri ishlatilgan.*

1157. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301285)
Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1. Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo‘lsin, turmushimiz farovon bo‘lsin, mustaqilligimiz barqaror bo‘lsin.
2. Tol ekdir suv bo‘yiga,
Soya-salqin bo‘lsin deb,
G‘ayrat qilgan botirlar
Yotib damin olsin deb.
3. G‘anim kelsa, xonumoni kul bo‘lur,
O‘z yurtida pachaqlash ma’qul bo‘lur.

A) *faqat 1* **B)** *1, 2* C) *2, 3* D) *1, 2, 3*

1158. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301286)
**Odam yurakdan qaynab kulsa, sog‘ligi yaxshilanadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi.**
Ushbu murakkab qo‘shma gap turini aniqlang.

A) *bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap*
**B) bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap**
C) *aralash murakkab qo‘shma gap*
D) *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*

1159. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301287)
**Quvishga quvdim-u, hali ham ichim achiydi, bola bechora nima gunoh qilibdi.**
Ushbu qo‘shma gap turini aniqlang.

A) *zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gap*
B) *bog‘lovchisiz qo‘shma gap*
**C) aralash murakkab qo‘shma gap**
D) *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*

1160. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301288)
**O‘zbekning kurashi hamisha halol,**
**Unda yo‘qdir g‘irrom, yo‘qdir yomonlik,**
**Doimo do‘stlarga tilaydi kamol,**
**Tilaydi barchaga do‘stlik, omonlik.**
Ushbu she’riy parcha nechta sodda gapdan tashkil topgan?

A) *3 ta* B) *4 ta* **C)** *5 ta* D) *6 ta*

1161. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301289)
**Avliyolar bosgan tuproq aziz derlar,**
**Qat-qatidan chiqaverar ekan sirlar,**
**Har tuproqdan har kun o‘tmas axir pirlar,**
**Ko‘kragimni hayrat tiklar, Temur bobo.**
Ushbu she’riy parcha murakkab qo‘shma gaplarning qaysi turiga mansub?

A) *bir necha ergash gapli qo‘shma gap*
B) *bir necha bosh gapli qo‘shma gap*
C) *aralash murakkab qo‘shma gap*
**D)** *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*

1162. 7.3-2 file-» 98 - 1 - - (301290)
Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda yuzaga keladigan shakliy o‘zgarishlar qaysi javobda noto‘g‘ri izohlangan?

A) *ko‘chirma gapning egasi qaratqich aniqlovchiga aylantiriladi*
B) *muallif gapining egasi o‘zlashtirma gapning egasiga aylanadi*
**C) ko‘chirma gapning kesimi o‘zlashtirma gapning kesimi bo‘lib keladi**
D) *undalma chiqish kelishigidagi to‘ldiruvchiga aylantiriladi*

1163. 7.3-2 file-» 41 - 5 - - (301291)
**O‘zbek yoshlarining peshonasi shuning uchun ham yorug‘, iqboli balandki, ularning O‘zbekistondek jannatmonand yurti bor.**
Murakkab qo‘shma gapning turini aniqlang.

A) *aralash murakkab qo‘shma gap*
B) *bir necha ergash gapli qo‘shma gap*
C) *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*
**D) bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap**

1164. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400268)
Ega ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.
1. Kim ko‘p o‘qisa, dunyoqarashi keng bo‘ladi.
2. Kim alam chekmaydi umrida bir bor,
U meni anglamas, anglamas aslo.
3. Kimki bo‘lsa dilozor, undan el-u yurt bezor.
4. Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondin kafan.

A) *faqat 2* **B)** *2, 4* C) *1, 2, 4*
D) *1, 2, 3, 4*

1165. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400269)
O‘rin ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.
1. Katta arava qaysi yo‘ldan yursa, kichik arava ham xuddi shu yo‘ldan yuradi.
2. Qayerda ish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha yerda rivojlanish bo‘ladi.
3. Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda qut-baraka bo‘ladi.
4. Ahillik bor yerda temir suvga cho‘kmaydi.

**A)** *2, 3* B) *2, 3, 4* C) *1, 2, 3* D) *1, 2, 3, 4*

1166. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400270)
Kesim ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.
1. Buning natijasi shu bo‘ldiki, To‘laganning qanshariga musht tushdi.
2. Donolarning o‘giti shundayki, so‘zning lazzati gapirishda emas, balki eshitishdadir.
3. Qizig‘i shundaki, shu ko‘rinishiga ovozi muloyim edi.
4. Umidim uldurkim, so‘zim martabasi avjdan quyi inmagay.

A) *3, 4* B) *1, 2, 3* C) *1, 3, 4* **D)** *1, 2, 3, 4*

1167. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400271)
Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.
1. Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim,
Qo‘lidan davlati ketmasin uning.
2. Bu suvni ichgandan so‘ng kim yolg‘on gapirsa, qulog‘i o‘sib ketarmish.
3. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.
4. Vaziyat shundayki, hamma og‘irlik bizga tushgan.

**A)** *1, 2, 3* B) *1, 3, 4* C) *2, 3, 4* D) *1, 2, 3, 4*

1168. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400272)
-sa shart mayli qo‘shimchasi yordamida bosh gapga bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
1. O‘simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo‘l hosil olasan.
2. Oqsoqol qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda ish bir tartibda boradi.
3. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding.
4. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam.

A) *1 va 2* **B)** *3 va 4* C) *1, 2, 3* D) *1, 2, 3, 4*

1169. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400273)
**”Oltin makre – kamyob baliqlarning biri, - dedi Edigey, - u dengiz tubida yashaydi, jussasi xiylagina katta, lekin uning xosiyati go‘zalligida: boshidan to dumining uchigacha oltin singari tovlanib turadi, shuning uchun ham uni oltin makre deb aytishadi.”**
Ushbu murakkab qo‘shma gap tarkibida nechta sodda gap bor?

A) *5 ta* B) *6 ta* **C)** *7 ta* D) *8 ta*

1170. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400274)
Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning qaysi birida ko‘chirma gap qismi ergashgan qo‘shma gap shaklida berilgan?

A) *”Kitob – bir bog‘, yozuvlar esa uning gullaridir”, - deb yozadi Qayum Nozimiy.*
**B) ”So‘z san’atining qudrati shundaki, - deydi Asqad Muxtor, - u hayotda aynan bo‘lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi”.**
C) *”Tilingni o‘z ixtiyoringda asra, so‘zingni ehtiyot bilan so‘zla”, - deydi Alisher Navoiy.*
D) *”Biz yagona daraxtning butoqlaridek butun bo‘lgan taqdirimizdagina kuch-qudrat kasb etamiz”, - deydi O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva.*

1171. 7.3-2 file-» 5 - 1 - - (400275)
**Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim,**
**Qo‘lidan davlati ketmasin uning.**
Ushbu qo‘shma gap qismlarini bog‘lash uchun xizmat qilayotgan vositani ko‘rsating.

A) *bog‘lovchi vazifasidagi bo‘lsa so‘zi yordamida*
**B) nisbiy so‘zlar yordamida**
C) *-sa shart mayli qo‘shimchasi yordamida*
D) *grammatik vositalarsiz, ohang yordamida*

1172. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400276)
Qiyoslash-zidlash munosabatli bog‘langan qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

A) *Yigitning so‘zi singuncha, ho‘kizning shoxi sinsin.*
**B) Yaxshilik qilmoqlik ulug‘ fazilatdir, buning qadriga yetmaslik esa illatdir.**
C) *Kasalning kelishi oson, lekin ketishi ancha qiyindir.*
D) *Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘ qolar.*

1173. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400277)
Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

**A) Aql - eskirmas kiyim, bilim bo'lsa tuganmas buloqdir.**

B) *Manzuraning yuziga dam issiq, dam oqshom shabadasi uriladi.*

C) *Dugonalar ish bilan band bo'lishdi, suhbat negadir qovushmadi.*

D) *Vali yana ertasiga saharlab uyg'onganda, G'ulomjon hujrasida yo'q edi.*

1174. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400278)
Qaysi qatordagi ergashgan qo'shma gap tarkibida bosh gap ergash gapdan oldin qo'llangan?

**A) Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.**

B) *Men bilgan yovuz kishilar u yerda bor, shuning uchun men bormayman.*

C) *Olim bo'lsang, olam seniki.*

D) *Qo'rqoq keta turib maqtansa, jasur qaytib kelib maqtanadi.*

1175. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400279)
Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) *Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.*

B) *Shamol qay tarafga essa, maysalar ham o'sha tomonga egiladi.*

**C) Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.**

D) *Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalar kuchayar.*

1176. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400280)
Maqsad bog'lovchisi qo'llangan ergashgan qo'shma gapni toping.

A) *Odamlar yaxshi yashasin deb, mahallamizni obod qildik.*

**B) Ona yerimizni asrang, toki bu meros avlodlarga sog'-omon yeta olsin.**

C) *Hosil mo'l bo'lishi uchun, bahordan ter to'kdik.*

D) *Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman.*

1177. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400281)
Ergash gap bosh gapga **deb** so'zi yordamida birikkanda qanday qo'shma gap hosil bo'ladi?

A) *maqsad ergash gapli qo'shma gap*

B) *sabab ergash gapli qo'shma gap*

C) *to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap*

**D) barcha javoblar to'g'ri**

1178. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400282)
Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

**A) Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz.**

B) *Kim harakat qilsa, u baraka topadi.*

C) *Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi.*

D) *Odamlarga qanchalik yaxshilik qilsang, el seni shunchalik e'zozlaydi.*

1179. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400283)
Qaysi qatorda ergashgan qo'shma gapning sodda gap bilan ma'nodoshligi noto'g'ri berilgan?

A) *Shuni bilingki, kengga keng dunyo, torga tor dunyo. - Dunyoning kengga keng, torga torligini bilib oling.*

**B) Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson egib oladi. - Mustaqil fikrlamagan odamning egilishi oson bo'ladi.**

C) *Saxiylikni odat qilgan bo'lsa, qo'lidan davlati ketmasin uning. - Saxiylikni odat qilgan odamning qo'lidan davlati ketmasin.*

D) *Shunday oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi. - Tarbiyaga e'tibor bermaydigan oilalar bor.*

1180. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400284)
**Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi.**
Ushbu gap . . .

**A) kesim ergash gapli qo'shma gap**

B) *to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap*

C) *ega ergash gapli qo'shma gap*

D) *kiritma gapli sodda gap*

1181. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400285)
Nisbiy so'z yordamida birikkan ega ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) *Shunisi qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.*

**B) Kimki ilm urug'ini sepsa, u ulug'lik mevasini teradi.**

C) *Bu savollardan ma'lum bo'ldiki, aybnoma uydirma emas.*

D) *Eng yaxshi yo'l shuki, yaxshi do'st yor-diyordan ayrilishni ixtiyor etmaydi.*

1182. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400286)
**Kim** nisbiy so'zi qaysi ergashgan qo'shma gap tarkibida qo'llanishi mumkin?

A) *ega ergash gapli qo'shma gap*

B) *aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap*

C) *to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap*

**D) barcha javoblar to'g'ri**

1183. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400287)
**Bu gap kutilmagan bo‘lsa ham, Mirhamidxo‘janing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq yuzi oqardi, oq oralagan cho‘qqi soqoli xiyol titradi.**
Ushbu gap . . .

**A) bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap**
B) *bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap*
C) *aralash murakkab qo‘shma gap*
D) *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*

1184. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400288)
**Ko‘lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida titrayotgan ikki-uchta o‘rdak ko‘rindi.**
Ushbu gap . . .

A) *bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap*
B) *bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap*
**C) aralash murakkab qo‘shma gap**
D) *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*

1185. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400289)
Bir necha bosh gapli qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

**A) Kimning qalbi pok bo‘lsa, uning ishlari o‘z-o‘zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo‘ladi.**
B) *Shuni unutmangki, siz kelajagimizsiz va butun umidimiz sizlardan.*
C) *Shunday bo‘lmog‘iga barcha asoslar bor edi, chunki ular bir qishloqda o‘sib ulg‘aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo‘lday ayon edi.*
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

1186. 7.3-2 file-» 40 - 4 - - (400290)
Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda ko‘chirma gap egasi qanday bo‘lak vazifasida keladi?

A) *ega* B) *to‘ldiruvchi*
C) *qaratqich aniqlovchi* D) *kesim*

1187. 7.3-2 file-» 11 - 4 - - (400291)
Qismlari o‘rtasida qiyoslash va zidlash munosabati bo‘lgan qo‘shma gap qaysi javobda keltirilgan?

A) *Agar qiz bo‘lsang, otingni Kimsanoy qo‘yaman, agar o‘g‘il bo‘lsang, Kimsanboy qo‘yaman.*
B) *Aql ko‘pga yetkazadi, hunar bo‘lsa insonni ko‘kka ko‘taradi.*
**C) To‘g‘ri so‘z tosh yoradi, egri so‘z bosh yoradi.**
D) *Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak.*

1188. 7.3-2 file-» 11 - 4 - - (400292)
Qismlari o‘rtasida zidlash munosabati bo‘lmagan qo‘shma gap qaysi javobda berilgan?

A) *Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan esa dog‘ qoladi.*
**B) Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak.**
C) *Jahl - dushman, aql esa do‘stdir.*
D) *Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to‘g‘rilik bo‘lsa insonni saodatga boshlaydi.*

1189. 7.3-2 file-» 11 - 4 - - (400293)
**Odam borki, odamlarning naqshidir.**
(A.Navoiy)
Ushbu gap qo‘shma gapning qaysi turiga kiradi?

A) *kesim ergash gapli qo‘shma gap*
B) *shart ergash gapli qo‘shma gap*
**C) aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap**
D) *o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap*

1190. 7.3-2 file-» 11 - 4 - - (400294)
**Shunday bo‘lmog‘iga barcha asoslar bor edi, chunki ular bir qishloqda o‘sib-ulg‘aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo‘lday ayon edi.**
Berilgan gap qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap*
B) *natija ergash gapli qo‘shma gap*
**C) bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap**
D) *bir necha ergash gapli aralash murakkab qo‘shma gap*

1191. 7.3-2 file-» 11 - 4 - - (400295)
**Har kimning zari bo‘lmasa-da, ammo hunari bo‘lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo‘lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog‘i lozim.**
Berilgan gapda qanday bog‘lovchi vositalardan foydalanilgan?

A) *ohang, fe’lning shart mayli shakli,* **bo‘lsa** *bog‘lovchisi, teng bog‘lovchi, ko‘makchili qurilma*
B) *ohang, yuklama,* **bo‘lsa** *bog‘lovchisi, ko‘makchili qurilma, teng bog‘lovchi*
**C) ohang, fe’lning shart mayli shakli, yuklama, ko‘makchili qurilma, teng bog‘lovchi**
D) *yuklama, ohang, zidlov bog‘lovchisi, ko‘makchili qurilma,* **bo‘lsa** *bog‘lovchisi*

1192. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700259)
Bog‘langan qo‘shma gapning payt, sabab-natija munosabati ifodalangan qismlarini qaysi bog‘lovchilar bog‘lab keladi?

**A) biriktiruv bog‘lovchisi**
B) *zidlov bog‘lovchisi*
C) *ayiruv bog‘lovchisi*
D) *inkor bog‘lovchisi*

1193. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700260)
Bosh gapda ifodalangan mazmunning qaysi belgisini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko‘makchili qurilmalar vositasida bog‘lanadi?

A) *maqsadini* B) *shartini* C) *natijasini* **D)** *sababini*

1194. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700261)
Qaysi gapda ergash gap bosh gapdan oldin kelgan?

A) *Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon kishining gapi ko‘p bo‘ladi.*
**B) Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim, Qo‘lidan davlati ketmasin uning.**
C) *Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon.*
D) *Kitob mening do‘stim, chunki u – bilim manbai.*

1195. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700262)
Qaysi ergashgan qo‘shma gapdagi bosh gap ergash gapga ergashtiruvchi bog‘lovchi bilan bog‘lanmagan?

A) *Misralarda so‘zlar gavhar kabi yonadi, yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.*
B) *Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.*
C) *Soliqni bermangiz deyman, chunki sizning itoatingiz menga bundog‘ to‘nlar berar.*
**D) Ikkovi ham men bilan qadrdonlardek so‘rashdi, shuning uchun darrov suhbatimizga jon kirdi.**

1196. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700263)
Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o‘shaniki bo‘ladi.
Ushbu gap ergashgan qo‘shma gapning qaysi turi?

A) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
**B) kesim ergash gapli qo‘shma gap**
C) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*
D) *hol ergash gapli qo‘shma gap*

1197. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700265)
Odamlarimizning huquqiy ongi yuksak bo‘lsa, har kim o‘z haqini tanisa va o‘z-o‘zini himoya qilishni bilsa, demokratik jamiyatga erishgan bo‘lamiz.
Ushbu gap murakkab qo‘shma gapning qaysi turi?

A) *bir necha bosh gapli qo‘shma gap*
**B) bir necha ergash gapli qo‘shma gap**
C) *qismlari uyushgan qo‘shma gap*
D) *aralash murakkab qo‘shma gap*

1198. 7.3-2 file-» 40 - 6 - - (700266)
Teng bog‘lovchi qaysi gapda qo‘shma gaplarni bog‘lamagan?

**A) Sobir nafaqat o‘qishda, balki sportda ham eng faol o‘quvchi.**
B) *U rostini gapirib bergani uchun onasi urishmadi, balki yolg‘on gapirish odobli bolaning ishi emasligini aytdi.*
C) *Oy goh eshik tirqishidan mo‘ralar, goh bulutlar orasida g‘oyib bo‘lardi.*
D) *U chiroqni o‘chirib sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.*

1199. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700267)
Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.
1. Kimning quroli bilim bo‘lsa, uni porloq kelajak kutadi.
2. Kimning ko‘ngli to‘g‘ri bo‘lsa, yo‘li ham to‘g‘ri bo‘ladi.
3.Hayot shundayki, uning sinovlaridan hamma ham muvaffaqiyatli o‘tolmaydi.
4.Sevgi shunday navbahorki, u tikandan gul qilur.

A) *1, 2* **B)** *2, 4* C) *2, 3, 4* D) *1, 2, 3, 4*

1200. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700268)
Sarpardaning chap tomonida, baland qilib to‘shalgan oq kigizlar ustida, egniga uzun qora chakmon kiygan bir odam (Yo Rab!-Bu odam G‘aznaviy edi!) uzala tushib yotar edi.
Ushbu gap haqida berilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.
1) qo‘shma gap 2) murakkab qo‘shma gap 3) ajratilgan bo‘lak qatnashgan sodda gap 4) kiritma gap qatnashgan sodda gap

A) *1 va 2* B) *1 va4* **C)** *3 va 4* D) *faqat 1*

1201. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700269)
Berilgan gaplarning qaysi biri havola bo‘lakli qo‘shma gap sanaladi?
1.Shunday odamlar borki, odamlarning naqshidir.
2.Toleim shulki, Vatanda bir guliston tanladim.
3.Kimning himmati baland bo‘lsa, uning qadr-qimmati ham baland bo‘ladi.
4.Har kimki hayotga xo‘mrayib boqsa, hayot ham unga zarda bilan boqadi.

A) *1 va 2* B) *3 va 4* C) *1, 2, 3*
**D)** *1, 2, 3, 4*

1202. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700270)
Kishi dardiga kim hamdard emasdir,
Kishi nazdida ul mard emasdir.
Ushbu gap . . .

A) *bog‘lovchisiz qo‘shma gap.*
B) *natija ergash gapli qo‘shma gap.*
**C) ega ergash gapli qo‘shma gap.**
D) *shart ergash gapli qo‘shma gap.*

1203. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700271)
Odami ersang, demagil odami,
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.
Navoiyning ushbu mashhur bayti qo‘shma gapning qaysi turi sanaladi?

A) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
**B) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap**
C) *aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap*
D) *kesim ergash gapli qo‘shma gap*

1204. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700272)
Umidim uldurkim, so‘zim martabasi avjdin quyi inmagay.
Navoiy qalamiga mansub ushbu satrlar qo‘shma gapning qaysi turi sanaladi?

A) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
B) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*
C) *aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap*
**D) kesim ergash gapli qo‘shma gap**

1205. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700273)
Kimki bir tovoq osh-chun qul ersa, kerakdir yuziga qozon qarosi.
Ushbu gap qo‘shma gapning qaysi turi sanaladi?

A) *ega ergash gapli qo‘shma gap*
B) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*
**C) aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap**
D) *hol ergash gapli qo‘shma gap*

1206. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700274)
1. Alam qiladigan joyi shundaki, uning yurak dardlarini hech kim tinglagisi kelmasdi.
2.Shunisi borki, biz mahallalarni obod qilishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.
3.Kimki hayotga xo‘mrayib boqsa, hayot ham unga zarda bilan qaraydi.
Ushbu gaplar qo‘shma gapning qaysi turiga mansub?

A) *1, 2, 3-to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar*
B) *1, 3-to‘ldiruvchi, 2-ega ergash gapli qo‘shma gap*
C) *1-kesim, 2, 3-ega ergash gapli qo‘shma gap*
**D) 1-kesim, 2-ega, 3-to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap**

1207. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700275)
Berilgan gaplarning qaysi biri to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap emas?

**A) Shunisi muhimki, biz kelajagi buyuk davlat farzandlarimiz.**
B) *Shuni bilingki, yalqovlik muhtojlik eshigidir.*
C) *Shuni unutmasligingiz kerakki, Vatanning istiqboli sizning qo‘lingizda.*
D) *barchasi to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*

1208. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700276)
Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning qaysi birida ko‘chirma gap qismi ega ergash gapli qo‘shma gapga teng?

A) *Shunda podshoh jahl bilan debdi: ”Sen aytgan rost gapdan ko‘ra uning yolg‘oni menga ko‘proq ma’qul tushdi, chunki uning yolg‘oni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi”.*
**B) Sofdil vazirlardan biri: ”Ey podshohi olam, har kim g‘azabini ichiga yutsa, u gunohkorning gunohidan o‘tadi ”, – debdi.**
C) *Ikkinchi vazir: ”Bu asir podshohni haqorat qildi va sha’niga yomon gaplar aytdi”, -debdi.*
D) *Kimki ilm urug‘ini sepsa, u ulug‘lik mevasini teradi.*

1209. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700277)
Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning qaysi birida ko‘chirma gap qismi bog‘langan qo‘shma gapga teng?

A) *Shunda podshoh jahl bilan debdi: ”Sen aytgan rost gapdan ko‘ra uning yolg‘oni menga ko‘proq ma’qul tushdi, chunki uning yolg‘oni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi.”*
B) *Sofdil vazirlardan biri: ”Ey podshohi olam, har kim g‘azabini ichiga yutsa, u gunohkorning gunohidan o‘tadi ”, – debdi.*
**C) Ikkinchi vazir: ”Bu asir podshohni haqorat qildi va sha’niga yomon gaplar aytdi”, - debdi.**
D) *Ro‘paradagi tog‘ning qora bag‘ridan tutun ko‘tarildi va u yerdan yo‘tal tovushi eshitildi.*

1210. 7.3-2 file-» 20 - 1 - - (700278)
Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning qaysi birida ko‘chirma gap qismi sabab ergash gapli qo‘shma gapga teng?

**A) Shunda podshoh jahl bilan debdi: ”Sen aytgan rost gapdan ko‘ra uning yolg‘oni menga ko‘proq ma’qul tushdi, chunki uning yolg‘oni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi.”**
B) *Sofdil vazirlardan biri: ”Ey podshohi olam, har kim g‘azabini ichiga yutsa, u gunohkorning gunohidan o‘tadi ”, – debdi.*
C) *Ikkinchi vazir: ”Bu asir podshohni haqorat qildi va sha’niga yomon gaplar aytdi”, -debdi.*
D) *Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bunday rohatlar bergay.*

1211. 7.3-2 file-» 1 - 47 - - (700279)
Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi quyidagi vositalarning qaysi biri bosh gap tarkibida keladi?
1) shart mayli shaklidagi fe’l
2) ko‘makchili qurilmalar;
3) nisbiy so‘zlarga mansub bo‘lgan so‘roq olmoshlari;
4) nisbiy so‘zlarga mansub ko‘rsatish olmoshlari va -ki yuklamasi.

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 4* C) *3, 4* **D) *2, 4***

1212. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700280)
Murakkab qo‘shma gaplar necha guruhga bo‘linadi?

A) *2* B) *3* **C) *4*** D) *5*

1213. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700281)
Kuz quruq keldi, hosil butun yig‘ildi, yerlar shudgor qilindi.
Berilgan gap murakkab qo‘shma gapning qaysi turiga mansub?

A) *bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap*
B) *bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap*
C) *aralash murakkab qo‘shma gap*
**D) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap**

1214. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700282)
Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap berilgan qatorni toping.

A) *Tovus o‘zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o‘zining sharaf-u shonini saqlaydi va o‘ziga hech qachon gard yuqtirmaydi.*
B) *Donolarning o‘giti shundaki, so‘zning lazzati gapirishda emas, balki eshitishdadir.*
C) *Har kimning zari bo‘lmasa-da, ammo hunari bo‘lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo‘lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog‘i lozim.*
**D) Kimning bilagida kuchi bo‘lsa, kim ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o‘sha zarbdor bo‘ladi.**

1215. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700283)
Ko‘makchili qurilmalar bosh gapda ifodalangan qanday mazmunni bildiruvchi ergash gaplarni bosh gapga bog‘laydi?

**A) mazmunning sababini**
B) *mazmunning sababini va shartini*
C) *mazmunning sababini, shartini va maqsadini*
D) *mazmunning sababini, shartini, maqsadini yoki qiyosini*

1216. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700284)
Qaysi ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘langan ergashgan qo‘shma gaplar

qolipida bo‘ladi?
1) sabab ergashtiruvchi bog‘lovchilar
2) maqsad ergashtiruvchi bog‘lovchilar
3) shart ergashtiruvchi bog‘lovchilar
4) qiyoslash-chog‘ishtiruv ergashtiruvchi bog‘lovchilar

A) *1, 2, 3, 4* B) *2, 3, 4* **C) *1, 2, 4***
D) *1, 2*

1217. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700285)
Qaysi ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘langan ergashgan qo‘shma gaplar

qolipida bo‘ladi?
1)sabab ergashtiruvchi bog‘lovchilar
2)maqsad ergashtiruvchi bog‘lovchilar
3)shart ergashtiruvchi bog‘lovchilar
4)qiyoslash-chog‘ishtiruv ergashtiruvchi bog‘lovchilar

A) *1, 2* B) *3, 4* **C)** *3* D) *2*

1218. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700286)
Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.(A.Oripov)
Ushbu gapda ergash gapning qanday ma’no ifodalayotganligini aniqlang.

A) *sabab* **B)** *maqsad* C) *shart*
D) *qiyoslash –chog‘ishtiruv*

1219. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700287)

qolipli qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Kim harakat qilsa, u baraka topadi.*
**B) Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan.**
C) *Yozi bilan mehnat qildik, shu sababli mo‘l hosil oldik.*
D) *Agar boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir.*

1220. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700288)

qolipli qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to‘g‘rilik bo‘lsa uni saodatga boshlaydi.*
B) *Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.*
**C) Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo‘l.**
D) *Shunday o‘zgarishlar bo‘lmoqdaki, aqling bovar qilmaydi.*

1221. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700289)

qolipli qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Kim oldin musht ko‘tarsa, u ojiz bo‘ladi.*
B) *Toleim shulki, jahonda bir guliston tanladim.*
C) *O‘zimiz juda cho‘llab kelgan edik, shuning uchun kechirdik.*
**D) Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin.(A.Oripov)**

1222. 7.3-2 file-» 1 - 48 - - (700290)
Qaysi qo‘shma gap qolipi noto‘g‘ri berilgan?

A)

B)

**C)**

D)

1223. 7.3-2 file-» 20 - 3 - - (700291)
**Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo‘lsa, sen siringning asiri bo‘lib qolasan.**
Ushbu gap murakkab qo‘shma gapning qaysi turi hisoblanadi?

A) *bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap*
B) *bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap*
**C) aralash murakkab qo‘shma gap**
D) *berilgan gap murakkab qo‘shma gap hisoblanmaydi*

1224. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700292)
Shuni unutmaginki, g‘alvirda suv turmas.
Ushbu gap haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.

A) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, ergash gap bosh gapga ko‘rsatish olmoshi vositasida bog‘langan*
**B) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, ergash gap bosh gapga yuklama yordamida bog‘langan**
C) *bog‘lovchisiz qo‘shma gap, sodda gaplar ohang yordamida bog‘langan*
D) *bog‘langan qo‘shma gap, sodda gaplar yuklama yordamida bog‘langan*

1225. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700293)

Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi.

Ergash gapning kesimini aniqlang.

A) *shundaki* B) *muloyim* **C)** *muloyim edi* D) *edi*

1226. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700294)

Hol ergash gaplar bosh gapga qanday vositalar yordamida bog'lanadi?

1) nisbiy so'zlar; 2) shart mayli shakli; 3) sabab, maqsad, shart bog'lovchilari; 4) ohang; 5) deb so'zi.

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B)** *1, 2, 3, 5* C) *1, 3, 5* D) *1, 3, 4, 5*

1227. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700295)

Ko'makchili qurilmalar haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

**A) Ko'makchili qurilma bosh gap tarkibida qo'llanadi.**

B) *Ko'makchili qurilma ergash gap tarkibida qo'llanadi.*

C) *Ko'makchili qurilma bosh gap tarkibida ham, ergash gap tarkibida ham qo'llanadi.*

D) *Ko'makchili qurilma ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vosita emas.*

1228. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700296)

Qaysi gapda ergashgan qo'shma gap sodda gapga noto'g'ri aylantirilgan?

A) *Kim ko'p bilsa, u kamgap bo'ladi. – Ko'p bilgan kamgap bo'ladi.*

B) *Shunday xursandmizki, bolalar o'z yo'lini topib ketishdi. – Bolalar o'z yo'lini topib ketishganiga xursandmiz.*

**C) Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin. – Men sherik qilib olishim uchun siz ishonch bildiring.**

D) *barcha qo'shma gaplar sodda gapga to'g'ri aylantirilgan*

1229. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700297)

Shunisi qiziqarli ediki, ko'm-ko'k bahor osmoni bolalar uchirgan anvoyi rang varraklarga to'lib ketardi.

Ushbu gap – . . .

A) *aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.*

B) *to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.*

C) *kesim ergash gapli qo'shma gap.*

**D) ega ergash gapli qo'shma gap.**

1230. 7.3-2 file-» 12 - 4 - - (700298)

Ergash gapli qo'shma gapning qaysi turida ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar, shart mayli shakli, sabab, maqsad, shart bog'lovchilari, deb so'zi yordamida bog'lanadi?

A) *aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap*

B) *to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap*

**C) hol ergash gapli qo'shma gap**

D) *ega ergash gapli qo'shma gap*

1231. 7.3-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715165)

**Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, shuning uchun mevasiz daraxtni kesib yondirgin.**

Qo'shma gapning turini va bog'lovchi vositasini aniqlang.

A) *bog'langan qo'shma gap, teng bog'lovchi*

B) *bog'lovchisiz qo'shma gap, ohang*

**C) ergashgan qo'shma gap, ko'makchili qurilma**

D) *murakkab qo'shma gap, teng bog'lovchi*

1232. 7.3-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715166)

Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap keltirilgan?

A) *Aminmanki, loyihamiz barcha tomonidan yaxshi kutib olinadi.*

B) *Shuni bilingki, u bolani ham aqlan, ham ma'naviy jihatdan boyitadi.*

**C) Kim birovlarga yaxshilik qilsa, obro'yi baland bo'ladi.**

D) *Katta arava qayerdan yursa, kichik arava ham shu yerdan yuradi.*

1233. 7.3-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715167)

Qaysi qatorda bog'lovchisiz qo'shma gap qolipi to'g'ri ko'rsatilgan?

A)

B)

**C)**

D)

1234. 7.3-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715168)
Qaysi qatorda qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap keltirilgan?

**A) O‘sha yillar ... mashoq terar edik, mol boqardik, g‘o‘za jo‘yakka kultivatsiya yurgizardik.**

B) *Hosilimiz mo‘l bo‘lsa, uyimiz donga to‘lsa, turmush bo‘lar farovon.*

C) *Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va ko‘zlari dumaloq shakl olgandi.*

D) *Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so‘zini qaytarma, chunki u sening uchun ko‘zgudir.*

1235. 7.3-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715169)
Shubha yo‘qki, inson qaysi millat, dinga, qaysi xalq – u elatga mansub bo‘lmasin, u, avvalambor, tabiat farzandidir. (I.Karimov) Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?

A) *kiritma qatnashgan sodda gap*

**B) bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap**

C) *to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap*

D) *aralash murakkab qo‘shma gap*

1236. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231455)
**Билингки, жим туриб саломат бўлиш гапириб маломатга қолишдан афзал.**
Ушбу гапнинг турини аниқланг.

A) *кириш сўзли содда гап*

B) *эга эргаш гапли қўшма гап*

C) *кесим эргаш гапли қўшма гап*

**D) тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гап**

1237. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231456)
Эргаш гапли қўшма гапларнинг қайси турида эргаш гап бош гапдан олдин ёки кейин келиши мумкин?
1) кесим эргаш гап; 2) эга эргаш гап;
3) тўлдирувчи эргаш гап; 4) аниқловчи эргаш гап

A) *1, 2, 3, 4* **B)** *2, 3, 4* C) *3, 4* D) *1, 2*

1238. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231458)
Дарак гап шаклидаги кўчирма гаплар ўзлаштирма гапга айлантирилганда дарак гап эгаси қандай шаклда бўлади?

A) *эга тушириб қолдирилади*

**B) қаратувчи аниқловчига айлантирилади**

C) *ўзлаштирма гап эгаси бўлиб гап бошида келади*

D) *сифатдош ёки ҳаракат номи билан ифодаланган тўлдирувчига алантирилади*

1239. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231460)
Боғланган қўшма гап берилган қаторни топинг.

**A) Яхшилик қилмоқлик улуғ фазилатдир, унинг қадрига етмаслик эса иллатдир.**

B) *Шамол қай тарафга эсса, майса ҳам ўша томонга эгилади.*

C) *Дарё шовиллаб оқар, унинг муздек шамоли менга завқ бағишларди.*

D) *Ким бировларга яхшилик қилса, унинг обрўйи баланд бўлади.*

1240. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231465)
Аралаш мураккаб қўшма гап берилган қаторни топинг.

A) *Йигитлар дарахтларнинг остини юмшатдилар, қизлар мактаб ҳовлисини ва унинг атрофини супурдилар, ўқитувчилар барча ишларга бош-қош бўлдилар.*

B) *Кун шу қадар исидики, чумчуқларнинг ҳам овози чиқмай қолди, ҳамма ўзини салқинга олди.*

C) *Кимки умид билан дарахт ўтқазса, бир куни келиб бу дарахт шиғил мева беради, уни эккан эгасига олқиш-у раҳматлар ёғдиради.*

**D) Аканг армиядан келса, иссиқхонани ишга соламиз, сен эса акангга ёрдамчилик қиласан.**

1241. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231467)
**Дутор чалиб ўтирсам, тори узилиб кетди.**
Ушбу қўшма гапнинг турини аниқланг.

A) *кесим эргаш гапли қўшма гап*

B) *тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гап*

C) *аниқловчи эргаш гапли қўшма гап*

**D) ҳол эргаш гапли қўшма гап**

1242. 7.3-4 file-» 1 - 38 - - (231468)
**Дутор чалиб ўтирсам, тори узилиб кетди.**
Ушбу гап ҳол эргаш гапнинг қайси турига мансуб?

**A)** *пайт эргаш гап* B) *ўрин эргаш гап*
C) *сабаб эргаш гап* D) *мақсад эргаш гап*

1243. 7.3-4 file-» 41 - 4 - - (231578)
Эргаш гапнинг қайси тури бош гапга кўмакчили қурилмалар воситасида боғланади?

A) *тўлдирувчи эргаш гап*
**B)** *сабаб эргаш гап* C) *мақсад эргаш гап*
D) *миқдор-даража эргаш гап*

1244. 7.3-4 file-» 98 - 1 - - (239764)
Айирув боғловчилари ёрдамида боғланган қўшма гап берилган қаторни топинг.
1. Баъзан қурбақаларнинг қуриллаши қулоққа чалиниб, кишига роҳат беради.
2. Курашда гоҳ униси, гоҳ буниси ютади.
3. Дастурхон устида дам ўзбек куйлари, дам ҳинд қўшиқлари ижро қилинарди.
4. Маҳсулот айниган ёки агротехника қоидалари бузилган.

A) *3 ва 4* **B) *фақат 4*** C) *1 ва 3*
D) *1, 2, 3, 4*

1245. 7.3-4 file-» 98 - 1 - - (239767)
Эргаш гапни бош гапга боғлаш учун хизмат қиладиган воситаларнинг қайсилари бош гап таркибида бўлади?
1) чунки; 2) шунинг учун; 3) гўё; 4) негаки; 5) -ки; 6) токи

A) *1, 2* B) *4, 5, 6* C) *3, 5, 6* **D) *2, 5***

1246. 7.3-4 file-» 98 - 1 - - (239769)
Қуйидаги воситаларнинг қайси бири билан боғланганда қўшма гап "эргаш гап + бош гап" шаклида бўлади?
1) чунки; 2) шунинг учун; 3) негаки; 4) деб; 5) мабодо; 6) -ки

**A) *2, 4, 5*** B) *1, 2, 3* C) *4, 5, 6* D) *4, 6*

1247. 7.3-4 file-» 98 - 1 - - (239771)
Эргаштирувчи боғловчили эргашган қўшма гап қайси қаторда берилган?
1. Виждонни асрангиз ҳар недан ортиқ,
Боболардан қолган ноёб бу тортиқ,
Токи авлодларга етолсин омон.
2. Мисраларда сўзлар гавҳар каби ёнади, гўё янги ранглар, янги жилвалар билан порлайди.
3. Мабодо бошингга қилич келса ҳам, тўғри гапир.
4. Сиз Ҳиндистонда неники кўрган бўлсангиз, шуларнинг ҳаммасини жам этиб бир китоб ёзмоқ даркор.

A) *1, 2* B) *2, 3, 4* **C) *1, 2, 3*** D) *1, 2, 3, 4*

1248. 7.3-4 file-» 98 - 1 - - (239772)
Кўмакчили қурилмалар ёрдамида эргашган қўшма гап қайси жавобда берилган?

A) *Шу мўъжаз уйимда ёнсин деб чироқ, Не азиз зотларга ёндашдим гоҳи.*
B) *Одобли одам табибга ўхшайди, чунки у билан суҳбатлашиш кўнгилдаги ғамни қувади.*
**C) Илмсиз инсон - мевасиз дарахт, шунинг учун ҳар вақт илм олиш илинжида бўл.**
D) *Ишончим комилки, қасд қилганлар, албатта паст бўлади.*

1249. 7.3-4 file-» 98 - 1 - - (239781)
**Ким бировга яхшилик қилса, ...**
Ушбу эргаш гапга бош гапни қўшиш орқали эргаш гапли қўшма гапнинг қайси турини ҳосил қилиш мумкин?
1) эга эргаш гапли қўшма гап; 2) аниқловчи эргаш гапли қўшма гап; 3) тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гап

A) *фақат 1* B) *1, 2* C) *2, 3* **D) *1, 2, 3***

1250. 8.1-2 file-» 1 - 38 - - (231473)
Қайси гапда қўшма гапни ташкил этган содда гаплар орасига тиниш белгиси нотўғри қўйилган?

A) *Шу феъллари яхши: ҳеч кимни бировнинг олдида беҳурмат қилмайдилар.*
B) *Қирқ тўрт сўмдан йигирма етти сўмни олиб ташласак – ўн етти сўм қолди.*
**C) Бора-бора уларнинг ҳам кўзи очилади: паст-баландни ажратиб олишади.**
D) *Ёз охирида Самарқандда кечалари салқин, кундузлари иссиқ бўлади: кечалари шабада тоғдан салқин ва роҳатбахш ҳаво келтиради.*

1251. 8.1-2 file-» 1 - 38 - - (231474)
**Саида бунга жуда суюнди демак, ҳисобот юзасидан бўладиган музокара қизғин тус олади.**
Ушбу қўшма гапни ташкил этган содда гаплар орасига қандай тиниш белгиси қўйилади?

A) *вергул* B) *тире* **C) *икки нуқта***
D) *нуқтали вергул*

1252. 8.1-2 file-» 41 - 4 - - (231577)
**Қиз уни ушлаб олгани уринди// жуда қийналиб кетди// қўлларига тикан кирди// юзи ва билаклари тирмаланди.**
Белгилар ўрнига қандай тиниш белгилари қўйилади?

A) *чизиқча, вергул, вергул*
B) *икки нуқта, вергул, вергул*
C) *икки нуқта, нуқтали вергул, вергул*
**D) вергул, икки нуқта, вергул**

1253. 8.1-2 file-» 40 - 2 - - (240447)
Қайси гапда тире нотўғри қўйилган?

**A) Мен - саккизинчи синф ўқувчиларидан бириман.**
B) *Ҳосилнинг отаси - сув, онаси - ер.*
C) *Юлдуз - аълочиларимиздан.*
D) *Бу - сиз учун катта синов.*

1254. 8.1-2 file-» 40 - 2 - - (240475)
Қайси гапда учта ўринда вергул қўйилиши лозим?

A) *Йўқ бўлмайди машинада режадаги пахтани териб олсак ҳам катта гап.*

**B) Хўш мулла Мамасодиқ соғлиқ қалай таҳсил нечук?**

C) *Кун санаяпсизми Жўра деди Абдураҳмон.*

D) *Йўқ йўқ мен бошқа нарса демоқчи эдим.*

1255. 8.1-2 file-» 40 - 2 - - (240476)
Қайси гапда тиниш белгиси нотўғри қўлланган?

A) *Бора-бора уларнинг ҳам кўзи очилади, паст-баландни ажратиб олишади.*

B) *Мақтанчоқ бўлманг - хижолат тортмайсиз.*

**C) Урилмоқ ҳам фойда - пишиқ бўласиз, тажриба ҳосил қиласиз.**

D) *Кимки меҳнатнинг зўрини қидирибди - одамнинг сараси ана шу.*

1256. 8.1-2 file-» 41 - 5 - - (241298)
Ажратилган бўлак кенгайиб, уюшиб гап охирида келса, ундан олдин қандай тиниш белгиси қўйилади?

**A)** *тире* B) *вергул* C) *нуқтали вергул*
D) *икки нуқта*

1257. 8.1-2 file-» 41 - 5 - - (241299)
**Ватанимиз – келгусида буюк давлат бўлади.**
Нима учун эгадан сўнг тире қўйилган?

A) *эга ва кесим от сўз туркуми билан ифодалангани учун*

**B) эга мантиқий урғу олгани учун**

C) *эга таркибида эгалик қўшимчаси бўлгани учун*

D) *гапнинг кесими мураккаб от-кесим бўлгани учун*

1258. 8.1-2 file-» 1 - 39 - - (241391)
У оппоқ соқоли билан фарзандларини ҳам, невараларини ҳам, қўшни ўғил-қизларни ҳам, кўча-кўйдаги бегона болаларни ҳам хуллас барчани сизлаб гапирарди.
Ушбу гапда умумлаштирувчи сўздан олдин қандай тиниш белгиси қўйилиши керак?

A) *тире* B) *икки нуқта* **C)** *вергул*
D) *ҳеч қандай тиниш белгиси қўйилмайди*

1259. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241721)
Вергул, тире, икки нуқта, нуқтали вергул каби тиниш белгилари қўшма гапнинг қайси турида қўлланиши мумкин?

**A)** *боғловчисиз қўшма гапларда*
B) *эргашган қўшма гапларда*
C) *боғланган қўшма гапларда*
D) *берилган қўшма гапларнинг барчасида*

1260. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241722)
Қўшма гап қисмлари орасида қандай муносабат ифодаланганда, улар орасига тире қўйилмайди?

A) *ўхшатиш муносабати*
B) *зидлаш муносабати* C) *шарт муносабати*
**D)** *изоҳлаш муносабати*

1261. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241723)
**Бизнинг қароримиз шу мажлисда ҳаммамиз сўзга чиқамиз.**
Ушбу қўшма гап қисмлари орасига қайси тиниш белгисини қўйиш керак?

A) *вергул* B) *тире* **C)** *икки нуқта*
D) *нуқтали вергул*

1262. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241724)
**Хадича хола болалик чоғидаги сингари унинг белига нон тугиб берди, пешонасидан ўпди, дуо қилди // ирим қилиб ўзи кузатгани чиқмади.**
Ушбу қўшма гапда // белгиси ўрнида қандай тиниш белгиси қўйилади?

A) *вергул* B) *тире* C) *икки нуқта*
**D)** *нуқтали вергул*

1263. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241725)
**Борлиқ жим ҳар битта дарчада зангори шуълалар порлайди.**
Мазкур қўшма гап қисмлари орасига қандай тиниш белгиси қўйилади?

A) *вергул* B) *тире* **C)** *икки нуқта*
D) *нуқтали вергул*

1264. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241726)
Қуйидаги гапларнинг қайси бирида вергул ишлатилади?

A) *Бизга шу нарса аниқ меҳнат инсонни улуғлайди.*

B) *Ўзи юзсиз сўзи тузсиз.*

**C) Пазандаси ёпади ширмон Қарилари кутади меҳмон.**

D) *Шинель жиққа ҳўл Бектемирнинг юзидан томчилар қуйилар эди.*

1265. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241727)

**Саодатхон дарчани очиб юборди уйга муздай куз ҳавоси кирди.**

Ушбу қўшма гап қисмлари орасида қандай тиниш белгиси ишлатилади?

**A)** *вергул* B) *тире* C) *икки нуқта*
D) *нуқтали вергул*

1266. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241728)

**Аҳмад ва сен – икковингиз эртага вақтли келингиз.**

Ушбу гапда нима учун тире қўйилган?

A) *қўшма гап қисмлари орасида шарт муносабати ифодалангани учун*

B) *қўшма гап қисмлари орасида ўхшатиш муносабати ифодалангани учун*

**C) уюшиқ бўлаклардан сўнг умумлаштирувчи сўз келганлиги учун**

D) *қўшма гап қисмлари орасида изоҳлаш муносабати ифодалангани учун*

1267. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (241738)

**Эл сенга этса надомат дунёда туролмассан саломат.**

Ушбу қўшма гап қисмлари орасига қандай тиниш белгиси қўйилади?

**A)** *вергул* B) *тире* C) *икки нуқта*
D) *нуқтали вергул*

1268. 8.1-2 file-» 1 - 38 - - (301292)

Qaysi gapda qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga tinish belgisi noto‘g‘ri qo‘yilgan?

A) *Shu fe’llari yaxshi: hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.*

B) *Qirq to‘rt so‘mdan yigirma yetti so‘mni olib tashlasak – o‘n yetti so‘m qoldi.*

**C) Bora-bora ularning ham ko‘zi ochiladi: past-balandni ajratib olishadi.**

D) *Yoz oxirida Samarqandda kechalari salqin, kunduzlari issiq bo‘ladi: kechalari shabada tog‘dan salqin va rohatbaxsh havo keltiradi.*

1269. 8.1-2 file-» 1 - 38 - - (301293)

**Saida bunga juda suyundi demak, hisobot yuzasidan bo‘ladigan muzokara qizg‘in tus oladi.**

Ushbu qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) *vergul* B) *tire* **C)** *ikki nuqta*
D) *nuqtali vergul*

1270. 8.1-2 file-» 41 - 4 - - (301294)

**Qiz uni ushlab olgani urindi// juda qiynalib ketdi// qo‘llariga tikan kirdi// yuzi va bilaklari tirmalandi.**

Belgilar o‘rniga qanday tinish belgilari qo‘yiladi?

A) *chiziqcha, vergul, vergul*

B) *ikki nuqta, vergul, vergul*

C) *ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul*

**D) vergul, ikki nuqta, vergul**

1271. 8.1-2 file-» 40 - 2 - - (301295)

Qaysi gapda tire noto‘g‘ri qo‘yilgan?

**A) Men - sakkizinchi sinf o‘quvchilaridan biriman.**

B) *Hosilning otasi - suv, onasi - yer.*

C) *Yulduz - a’lochilarimizdan.*

D) *Bu - siz uchun katta sinov.*

1272. 8.1-2 file-» 40 - 2 - - (301296)

Qaysi gapda uchta o‘rinda vergul qo‘yilishi lozim?

A) *Yo‘q bo‘lmaydi mashinada rejadagi paxtani terib olsak ham katta gap.*

**B) Xo‘sh mulla Mamasodiq sog‘liq qalay tahsil nechuk?**

C) *Kun sanayapsizmi Jo‘ra dedi Abdurahmon.*

D) *Yo‘q yo‘q men boshqa narsa demoqchi edim.*

1273. 8.1-2 file-» 40 - 2 - - (301297)

Qaysi gapda tinish belgisi noto‘g‘ri qo‘llangan?

A) *Bora-bora ularning ham ko‘zi ochiladi, past-balandni ajratib olishadi.*

B) *Maqtanchoq bo‘lmang - xijolat tortmaysiz.*

**C) Urilmoq ham foyda - pishiq bo‘lasiz, tajriba hosil qilasiz.**

D) *Kimki mehnatning zo‘rini qidiribdi - odamning sarasi ana shu.*

1274. 8.1-2 file-» 41 - 5 - - (301298)

Ajratilgan bo‘lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, undan oldin qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

**A)** *tire* B) *vergul* C) *nuqtali vergul*
D) *ikki nuqta*

1275. 8.1-2 file-» 41 - 5 - - (301299)

**Vatanimiz – kelgusida buyuk davlat bo‘ladi.**

Nima uchun egadan so‘ng tire qo‘yilgan?

A) *ega va kesim ot so‘z turkumi bilan ifodalangani uchun*

**B) ega mantiqiy urg‘u olgani uchun**

C) *ega tarkibida egalik qo‘shimchasi bo‘lgani uchun*

D) *gapning kesimi murakkab ot-kesim bo‘lgani uchun*

1276. 8.1-2 file-» 1 - 39 - - (301300)
U oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo‘shni o‘g‘il-qizlarni ham, ko‘cha-ko‘ydagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi.
Ushbu gapda umumlashtiruvchi so‘zdan oldin qanday tinish belgisi qo‘yilishi kerak?
A) *tire* B) *ikki nuqta* **C)** *vergul*
D) *hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi*

1277. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301301)
Vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari qo‘shma gapning qaysi turida qo‘llanishi mumkin?
**A)** *bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda*
B) *ergashgan qo‘shma gaplarda*
C) *bog‘langan qo‘shma gaplarda*
D) *berilgan qo‘shma gaplarning barchasida*

1278. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301302)
Qo‘shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yilmaydi?
A) *o‘xshatish munosabati*
B) *zidlash munosabati* C) *shart munosabati*
**D)** *izohlash munosabati*

1279. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301303)
**Bizning qarorimiz shu majlisda hammamiz so‘zga chiqamiz.**
Ushbu qo‘shma gap qismlari orasiga qaysi tinish belgisini qo‘yish kerak?
A) *vergul* B) *tire* **C)** *ikki nuqta*
D) *nuqtali vergul*

1280. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301304)
**Xadicha xola bolalik chog‘idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o‘pdi, duo qildi // irim qilib o‘zi kuzatgani chiqmadi.**
Ushbu qo‘shma gapda // belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi qo‘yiladi?
A) *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta*
**D)** *nuqtali vergul*

1281. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301305)
**Borliq jim har bitta darchada zangori shu’lalar porlaydi.**
Mazkur qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?
A) *vergul* B) *tire* **C)** *ikki nuqta*
D) *nuqtali vergul*

1282. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301306)
Quyidagi gaplarning qaysi birida vergul ishlatiladi?
A) *Bizga shu narsa aniq mehnat insonni ulug‘laydi.*
B) *O‘zi yuzsiz so‘zi tuzsiz.*
**C) Pazandasi yopadi shirmon Qarilari kutadi mehmon.**
D) *Shinel jiqqa ho‘l Bektemirning yuzidan tomchilar quyilar edi.*

1283. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301307)
**Saodatxon darchani ochib yubordi uyga muzday kuz havosi kirdi.**
Ushbu qo‘shma gap qismlari orasida qanday tinish belgisi ishlatiladi?
**A)** *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta*
D) *nuqtali vergul*

1284. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301308)
**Ahmad va sen – ikkovingiz ertaga vaqtli kelingiz.**
Ushbu gapda nima uchun tire qo‘yilgan?
A) *qo‘shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalangani uchun*
B) *qo‘shma gap qismlari orasida o‘xshatish munosabati ifodalangani uchun*
**C) uyushiq bo‘laklardan so‘ng umumlashtiruvchi so‘z kelganligi uchun**
D) *qo‘shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun*

1285. 8.1-2 file-» 1 - 41 - - (301309)
**El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat.**
Ushbu qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?
**A)** *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta*
D) *nuqtali vergul*

1286. 8.1-2 file-» 5 - 1 - - (400296)
**Sayohatga chiqishdan oldin hamma narsani tayyorlab qo‘ydik oziq-ovqat kiyim kechak sovun va tish cho‘tkasigacha.**
Ushbu gapda umumlashtiruvchi bo‘lakdan keyin qanday tinish belgisi ishlatiladi?
A) *ikki nuqta*
B) *vergul*
C) *tire*
**D) hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi**

1287. 8.1-2 file-» 5 - 1 - - (400297)
Qaysi bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida tire ishlatilishi kerak?

A) *Chol aqlli odam // unga o‘rgatish ham mumkin, undan o‘rganish ham mumkin.*

**B) Men tirikman // o‘lja bo‘lmaydi otim.**

C) *Chol undan balandroq keldi // men brigadirlikdan tushmayman deb chiqib ketdi.*

D) *Bir vaqt dasturxon yozildi // turli taomlar keltirildi.*

1288. 8.1-2 file-» 40 - 4 - - (400298)
Qaysi qatorda ega va ot kesim orasida tire qo‘yilishi lozim?

A) *Qizilqum sahrosi // bepoyon.*

B) *Bizning sinfimiz // sakkizinchi.*

**C) Urush // quyon ovi emas.**

D) *Mening opam ham // talaba.*

1289. 8.1-2 file-» 40 - 4 - - (400299)
Qo‘shma gap qismlari orasida izohlash munosabati bo‘lganda ular orasida qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) *tire* **B)** *ikki nuqta* C) *nuqtali vergul* D) *vergul*

1290. 8.1-2 file-» 40 - 4 - - (400300)
Qo‘shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo‘lmagan voqealarni bildirsa, ular orasida qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) *tire* B) *ikki nuqta* **C)** *nuqtali vergul* D) *vergul*

1291. 8.1-2 file-» 40 - 4 - - (400301)
**G‘animlar duch kelar // jang bo‘lar puxta.**
Ushbu qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) *vergul* **B)** *tire* C) *ikki nuqta* D) *nuqtali vergul*

1292. 8.1-2 file-» 40 - 4 - - (400302)
Qaysi qatordagi bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida ikki nuqta qo‘yiladi?

A) *Eshakni yaydoq minib bo‘lmaydi // yiqitadi kishini.*

B) *To‘rt mashina o‘g‘it yubordik // fermerlarga vaqtida taqsimlansin.*

C) *Yuragida qanday dard bor // mana bu menga sir.*

**D) Mening bir jaydari falsafamdir shu // hargiz iltimosga kuning qolmasin.**

1293. 8.1-2 file-» 11 - 4 - - (400303)
Tinish belgilari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *nuqta, tire, davomli nuqta, qavs*

B) *so‘roq belgisi, undov belgisi, nuqta, tutuq belgisi*

**C) nuqta, vergul, qavs, qo‘shtirnoq**

D) *nuqta, ikki nuqta, uch nuqta, chiziqcha*

1294. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400304)
**Qiz avval qo‘rqdi uning Sidiqjon bilan so‘zlashib turganini emas bog‘ga tushganini bilsa ham terisiga somon tiqadi bu xususida otasining qamchisidan qon tomar edi keyin yangi olamga kirib otasining qamchisini ham jingul ostida pisib yotgan kurk tovuqni ham unutdi**
Berilgan gapda qo‘yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *vergul, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta*

**B) vergul, vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta**

C) *vergul, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, vergul, nuqta*

D) *vergul, vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, nuqta*

1295. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400305)
**Birov sening aybingni yuzingga aytsa so‘zini qaytarma chunki u sening uchun ko‘zgudir ko‘zgu xira bo‘lib qolsa boshqa aybingni ko‘rsatadimi**
Berilgan gapda qo‘yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *vergul, vergul, ikki nuqta, vergul, so‘roq belgisi*

B) *vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, so‘roq va undov belgilari*

**C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so‘roq belgisi**

D) *vergul, vergul, nuqtali vergul, tire, so‘roq belgisi*

1296. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400306)
Quyidagi gapda qo‘llash lozim bo‘lgan vergullar miqdori nechta?
**She’r shuning uchun muqaddaski uning bir vazni ilohiy bir vazni insoniydir uning bir satri osmoniy bir satri zaminiydir.** (A.Oripov)

A) *2 ta* **B)** *3 ta* C) *4 ta* D) *1 ta*

1297. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400307)
**Yaxshi xislatlari bor oppoq soqoli bilan farzandlarini ham nevaralarini ham qo‘shni ko‘chadagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi**
Berilgan gapda qo‘yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, nuqta*
B) *tire, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta*
C) *ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, vergul, vergul, nuqta*
**D) ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta**

1298. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400308)
Quyidagi hukmlarning qaysi biri to‘g‘ri?

A) *Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so‘ng hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi, muallifi qavs ichida yoziladi.*
**B) Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.**
C) *Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yozilmaydi.*
D) *Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so‘ng nuqta, so‘roq yoki undov belgilaridan biri qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yozilib, qavsdan keyin nuqta qo‘yiladi.*

1299. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400309)
**Yosh do‘stim o‘qituvchi ham xuddi onadek mehribon ulug‘ otadek bog‘bon mehnatkash ularni hurmat qil**
Berilgan gapda qo‘yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, undov belgisi*
B) *vergul, vergul, tire, vergul, tire, undov belgisi*
**C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi**
D) *vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi*

1300. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400310)
Telegramma matni boshqa ish qog‘ozlaridan nimasi bilan farq qiladi?

A) *jo‘natilayotgan xabar matnining qisqaligi bilan*
**B) jo‘natilayotgan xabar matnida tinish belgilarining qo‘yilmasligi bilan**
C) *aniq shaxsga qaratilganligi bilan*
D) *tez fursatda jo‘natilishi bilan*

1301. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400311)
**U ilonni aldagani uchun, ya’ni unga dunyodagi yeng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go‘shti ekanligini aytgani uchun ta’qibga uchragan emish.**
Berilgan gapdagi vergullarning qo‘yilishini quyidagi qaysi qoidalar bilan izohlash mumkin?

A) *uyushiq bo‘laklar ohang orqali bog‘lansa ular orasiga vergul qo‘yiladi*
**B) aniqlov bog‘lovchisidan oldin doimo vergul qo‘yiladi; uyushiq bo‘laklar sanash ohangi orqali bog‘langanda ular orasiga vergul qo‘yiladi**
C) *ajratilgan bo‘lak o‘zi izohlayotgan bo‘lakdan vergul bilan ajratiladi; zidlash munosabati ifodalangan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasiga vergul qo‘yiladi*
D) **ya’ni** *bog‘lovchisi aniqlov bog‘lovchisi sanaladi;* **inson** *va* **qurbaqa** *so‘zlari uyushiq bo‘lak hisoblanadi*

1302. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400312)
**Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin**
**Ne baxt Ra’no xaridoring talab ahlining Mirzosi.** (A.Qodiriy)
Mazkur baytda qaysi so‘zlardan keyin vergul qo‘yilishi kerak?

**A) jununidin, baxt, Ra’no**
B) *or etsa, jununidin, Ra’no, baxt*
C) *Layli, jununidin, baxt, Ra’no*
D) *haqlidir, jununidin, baxt, Ra’no*

1303. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400313)
**Lekin me’morning avvalo raiyat qolaversa saltanat oldidagi mavqei Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko‘rishga yo‘l qo‘ymas edi.** (Mirmuhsin)
Berilgan gapda qo‘yiladigan vergullar nima bilan bog‘liq?

A) *modal so‘z, kiritma*
**B)** *kiritma, uyushiq bo‘lak*
C) *kiritma, ajratilgan bo‘lak*
D) *kiritma, qo‘shma gap*

1304. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400314)
**Lekin me’morning avvalo raiyat qolaversa saltanat oldidagi mavqei Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko‘rishga yo‘l qo‘ymas edi.** (Mirmuhsin)
Berilgan gapda nechta vergul qo‘yilishi kerak?

A) *4 ta* B) *6 ta* **C)** *5 ta* D) *3 ta*

1305. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400315)
Quyida berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga qo'yilishi lozim bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1. Yuragida qanday dard bor mana bu menga sir.
2. Mening bir jaydari falsafam shu hargiz iltimosga kuning qolmasin.
3. To'rt mashina o'g'it yubordik fermerlarga vaqtida to'g'ri taqsimlansin.

A) *ikki nuqta, tire, ikki nuqta*
B) *vergul, ikki nuqta, tire*
C) *tire, ikki nuqta, vergul*
**D)** *tire, ikki nuqta, tire*

1306. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400316)
Quyidagi gapda qaysi so'zlardan keyin vergul qo'yilishi kerak?
**Yo'q faqat meni bilishmaydi lekin boshqalarni jumladan seni ham yaxshi bilishadi.**

A) *yo'q, bilishmaydi, lekin, ham*
B) *yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan*
**C) yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan, ham**
D) *yo'q, meni, bilishmaydi, jumladan*

1307. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400317)
Quyidagi gaplarning qaysinisida tinish belgilari to'g'ri qo'yilmagan?

A) *Nega yig'ladi? A? Yig'lanmasin!*
**B) O'n yil! O'n yildan beri kasal ekanmi!?**
C) *Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi.*
D) *Assalomu alaykum, hormang, ota!*

1308. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400318)
Qaysi bog'lovchilardan oldin yozuvda vergul qo'yiladi?

A) *biroq, chunki, agar, gar, toki, goh . . . goh*
**B) lekin, ya'ni, balki, chunki, negaki, takror qo'llanuvchi ayiruvchi bog'lovchilar**
C) *ammo, lekin, agar, gar, takror qo'llanuvchi ayiruvchi bog'lovchilar*
D) *ammo, lekin, biroq, agar, gar, toki, basharti*

1309. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400319)
Qaysi gapda tinish belgilari bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

A) - *Yoz, - deydi, - azizam, ma, qalam, daftar!*
**B) Balki kutar meni bir qiz, ko'zyoshlari oqizoq.**
C) *Mevani gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san'atdir.*
D) *Ishqilib, ilmli, yo hunarli bo'lish payida bo'linglar.*

1310. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400320)
Qaysi so'z turkumiga kiruvchi so'zlardan keyin yozuvda vergul qo'yiladi?

A) *maqsad bog'lovchisi, modal so'zlar, yuklamalar*
B) *sabab bog'lovchisi, undov so'zlar, modal so'zlar*
**C) undov so'zlar, modal so'zlar, yuklama bog'lovchilar**
D) *undov so'zlar, modal so'zlar*

1311. 8.1-2 file-» 1 - 44 - - (400321)
Qaysi bog'lovchilardan oldin yozuvda vergul qo'yiladi?

A) *biriktiruv bog'lovchilari, inkor bog'lovchisi, sabab bog'lovchilari*
**B) sabab bog'lovchilari, takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilari, zidlov bog'lovchilari, aniqlov bog'lovchisi**
C) *sabab bog'lovchilari, biriktiruv bog'lovchilari, shart bog'lovchilari, inkor bog'lovchisi*
D) *biriktiruv bog'lovchilaridan tashqari hamma bog'lovchilar*

1312. 8.1-2 file-» 40 - 6 - - (700299)
Yuragida qanday dard bor// mana bu menga sir.
Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A) *vergul* **B)** *tire* C) *nuqtali vergul*
D) *ikki nuqta*

1313. 8.1-2 file-» 40 - 6 - - (700300)
Kampirning jig'i - biyroni chiqdi// ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib// vaysaganicha// uyiga kirib ketdi.
Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

A) *ikki nuqta, tire, vergul*
B) *tire, vergul, vergul*
C) *ikki nuqta, vergul, vergul*
**D) nuqtali vergul, vergul, vergul**

1314. 8.1-2 file-» 20 - 1 - - (700301)
O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari //Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf-shonimiz sanaladi.
Ushbu gapda //belgisi o'rnida qanday tinish belgisi ishlatilishi kerak?

A) *vergul* B) *nuqtali vergul* **C)** *ikki nuqta*
D) *tire*

1315. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700302)
Quyidagi qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?
Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham
Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.

A) *vergul* **B) *nuqtali vergul*** C) *tire* D) *ikki nuqta*

1316. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700303)
Ish kuchini yelga berma yerga ber jamg‘armani selga berma elga ber.
Ushbu gapda qo‘llanishi kerak bo‘lgan tinish belgilari nomi va tartibi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *vergul, vergul, undov*
B) *vergul, vergul, vergul, undov*
C) *tire, vergul, tire, undov*
**D) vergul, nuqtali vergul, vergul, undov.**

1317. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700304)
Birov sening aybingni yuzingga aytsa so‘zini qaytarma chunki u sening uchun ko‘zgudir ko‘zgu xira bo‘lib qolsa boshqa aybingni ko‘rsatadimi
Ushbu gapda ishlatilishi zarur bo‘lgan tinish belgilarining nomi va tartibi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) *vergul, vergul, vergul, vergul, so‘roq belgisi*
B) *vergul, nuqtali vergul, vergul, vergul, so‘roq belgisi*
**C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so‘roq belgisi**
D) *vergul, vergul, ikki nuqta, vergul, so‘roq belgisi*

1318. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700305)
Berilgan gapda qaysi o‘rinlarda vergul (, ) qo‘yiladi?
Lekin (1) me’morning (2) avvalo (3) raiyat (4) qolaversa (5) saltanat oldidagi mavqeyi (6) Xuroson-u (7) Movarounnahrdagi shuhrati (8) unga qarshi keskin chora ko‘rishga (9) yo‘l qo‘ymas edi. (Mirmuhsin)

A) *1, 2, 4, 6, 8, 9* B) *4, 6, 8* **C) *2, 3, 4, 5, 6*** D) *2, 3, 6, 8*

1319. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700306)
Yozuvda qaysi bog‘lovchilardan oldin doim vergul qo‘yiladi?
1) sabab bog‘lovchilari; 2) aniqlov bog‘lovchilari; 3) shart bog‘lovchilari; 4) biriktiruv bog‘lovchilari; 5) zidlov bog‘lovchilari

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 2, 3, 5* **C) *1, 2, 5*** D) *2, 3, 5*

1320. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700307)
Istiqlol davri bolalari g‘ayratli(1) shijoatli(2) ko‘zida chaqini (3) ko‘ksida yolqini bor.
Ushbu gapda qaysi raqamlar o‘rnida vergul qo‘yiladi?

A) *1, 2, 3* **B) *1, 3*** C) *2, 3* D) *1, 2*

1321. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700308)
Istiqlol davri bolalari g‘ayratli shijoatli ko‘zida chaqini ko‘ksida yolqini bor.
Ushbu gapda shijoatli so‘zidan so‘ng qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

A) *vergul* B) *tire* **C) *nuqtali vergul*** D) *tinish belgisi qo‘yilmaydi*

1322. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700309)
Quyidagi gaplarning qaysi birida ikki nuqta qo‘yiladi?

**A) Saida bunga juda suyundi demak hisob yuzasidan bo‘ladigan muzokara qizg‘in tus oladi.**
B) *Bora-bora ularning ham ko‘zi ochiladi past-balandni ajratib olishadi.*
C) *Kimki mehnatning zo‘rini qidiribdi odamning sarasi ana shu.*
D) *El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat.*

1323. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700310)
Qaysi gapda qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga tire (–) qo‘yiladi?

A) *El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat.*
B) *Urilmoq ham foyda pishiq bo‘lasiz tajriba hosil qilasiz.*
C) *Shu fe’llari yaxshi hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.*
**D) Maqtanchoq bo‘lmang xijolat tortmaysiz.**

1324. 8.1-2 file-» 1 - 47 - - (700311)
Fe’l // atvorning o‘zgarmas darajada qat’iyligi // ayol tabiatiga yotdir //
Ushbu gapda // belgisi o‘rnida qo‘llanishi kerak bo‘lgan tinish belgilari tartibi va ularning nomi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) *chiziqcha, tire, nuqta*
B) *chiziqcha, ikki nuqta, nuqta*
C) *chiziqcha, vergul, nuqta*
**D) tire, nuqta**

1325. 8.1-2 file-» 1 - 48 - - (700312)
Vaqt xuftondan o‘tgan; juvozxonada chirog‘ ko‘rindi.(Oybek)
Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasiga nima uchun nuqtali vergul qo‘yilgan?

A) *Qo‘shma gap qismlari bir paytda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalaganligi uchun.*
B) *Qo‘shma gap qismlari orasida sabab munosabati ifodalanganligi uchun.*
C) *Qo‘shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganligi uchun.*
**D) Qo‘shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo‘lmaganligi uchun.**

1326. 8.1-2 file-» 1 - 48 - - (700313)
Ruboiyni ichida o‘qidi // yuzini tabassum qopladi.
Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

**A)** *vergul* B) *tire* C) *nuqtali vergul* D) *ikki nuqta*

1327. 8.1-2 file-» 1 - 48 - - (700314)
Mening bilishimcha, Qalandarov toshqin suv tegirmonni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham mumkin. (A.Qahhor)
Ushbu qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yilishi kerak?

A) *vergul* **B)** *ikki nuqta* C) *nuqtali vergul* D) *tire*

1328. 8.1-2 file-» 1 - 48 - - (700315)
Hayotning poyonsiz ummoni ichra
Bor shunday g‘ariblar – temirlar hissiz.(A.Oripov)
Ushbu gapda nima uchun tire (–) ishlatilgan?

A) *bog‘lovchisiz qo‘shma gapdagi ikkinchi gapning kesimi tushirilgani uchun*
B) *bog‘lamasiz qo‘llangan ot kesim bilan ega orasida*
C) *tenglik, taqqoslash ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lganligi uchun ular orasida*
**D) izohlovchi o‘xshatish ma’nosini bildirgani uchun izohlovchi bilan izohlanmish o‘rtasida**

1329. 8.1-2 file-» 1 - 48 - - (700316)
Ey inson, har bir so‘zni o‘ylab gapir tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi.
Ushbu bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

**A)** *ikki nuqta* B) *nuqtali vergul* C) *vergul* D) *tire*

1330. 8.1-2 file-» 20 - 3 - - (700317)
Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasiga, o‘xshatish munosabati ifodalanganda, tire qo‘yiladi. Qaysi gaplarda ushbu qoida asosida tire qo‘yilgan?
1) Yaxshi o‘g‘il – el obro‘si, yaxshi qiz – uy obro‘si. 2) Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi.
3) Vaqting ketdi – baxting ketdi. 4) Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht. 5) Suv keldi – nur keldi.

A) *1, 2, 3, 4, 5* **B)** *3, 5* C) *2, 3, 4, 5* D) *2, 4, 5*

1331. 8.1-2 file-» 12 - 4 - - (700318)
Turnalar arg‘imchog‘i g‘ira-shira osmon ortiga // bulutlar bag‘riga singiydi.
Ushbu gapda // belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi qo‘llanadi?

A) *vergul*
**B) tire**
C) *ikki nuqta*
D) *hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi*

1332. 8.1-2 file-» 12 - 4 - - (700319)
**Odam bolasi borki u shu ranglardan birini o‘ziniki qilib oladi butun taqdirini tarjimayi holini orzu-umidlarini va nihoyat olamni shu rang orqali ko‘radi.**
Ushbu gapda nechta vergul ishlatilishi lozim?

A) *4* B) *5* **C)** *6* D) *7*

1333. 8.1-2 file-» 11 - 6 - - 1 (715171)
Quyidagi gapda qanday tinish belgilari qo‘yilishi kerak?
Sekin unga yaqin bordim bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da qadrdon

A) *tire, vergul, undov belgisi*
**B) ikki nuqta, vergul, undov belgisi**
C) *nuqtali vergul, vergul, nuqta*
D) *tire, vergul, nuqta*

1334. 8.1-2 file-» 11 - 6 - - 1 (715172)
Quyidagi gapda qanday tinish belgilari qo‘yilishi kerak?
Halimaxonni ko‘rdim sira o‘zgarmabdi hamon o‘sha - o‘sha

**A) vergul, ikki nuqta, nuqta**
B) *tire, ikki nuqta, undov belgisi*
C) *tire, nuqtali vergul, nuqta*
D) *vergul, vergul, nuqta*

1335. 8.1-2 file-» 11 - 6 - - 1 (715173)
Quyidagi gapda nechta vergul qo'llanishi kerak? Bog'dan chiqish uchun bir necha odim yurgach ishkom ichida suyanib turgan qizga ko'zi tushdi uyalganidan bir zumda qizarib - bo'zarib ketdi ketmonga tikilib qadamini tezlatdi.

A) *1 ta* B) *3 ta* **C)** *2 ta* D) *4 ta*

1336. 8.1-2 file-» 20 - 2 - - 1 (715174)
**Men u yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim // kuzgi bug'doyning boshoqlari shira olayotgan vaqtda ola bulut paydo bo'lib, boshoqlar kuyib, qovjirab ketdi.** (S.Ahmad)
Ushbu gapda // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

A) *vergul* B) *tire* **C)** *ikki nuqta* D) *nuqtali vergul*

1337. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715175)
**O'zim injenerman O'zbekistonning, sizning yurtingizning ta'rifini eshitganman.**
Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday tinish belgisi ishlatiladi, nima uchun?

A) *ikki nuqta; izohlash munosabati bo'lgani uchun*
**B) nuqtali vergul; mazmunan unchalik yaqin bo'lmagani uchun**
C) *tire; zidlik munosabati bo'lgani uchun*
D) *vergul; bir paytda sodir bo'lgani uchun*

1338. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715176)
**Orzum shul o'chmasin yongan chirog'ing.**
Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday tinish belgisi ishlatiladi, nima uchun?

A) *nuqtali vergul; mazmunan uzoq bo'lgani uchun*
B) *tire; sababini ifodalagani uchun*
**C) ikki nuqta; izohlash munosabati ifodalangani uchun**
D) *vergul; voqea-hodisa ketma-ket ro'y bergani uchun*

1339. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715177)
Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchisi yordamida bog'lansa, ular orasida qanday belgi ishlatiladi?

A) *hech qanday belgi ishlatilmaydi* **B)** *vergul* C) *ikki nuqta* D) *tire*

1340. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715178)
Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?
1) ot kesim sifat turkumiga oid so'z bilan ifodalansa, ega va kesim o'rtasida tire ishlatiladi; 2) ot kesim va ega o'rtasida ham yordamchisi bo'lsa, tire qo'yilmaydi; 3) ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalansa, tire qo'yiladi; 4) kesim tartib son bilan ifodalansa, tire qo'yiladi.

A) *1, 2, 3* B) *2, 3* C) *2, 3, 4* **D)** *1, 4*

1341. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715179)
Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?
1) undalmalar gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi; 2) kiritmalar ikki nuqta bilan ajratiladi; 3) ajratilgan bo'laklar ko'p nuqta bilan ajratiladi; 4) gapning kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, bog'lamasiz qo'llanganda ega va kesim o'rtasiga tire qo'yiladi.

A) *1, 2* B) *1, 2, 4* **C)** *2, 3* D) *2, 3, 4*

1342. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715180)
Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida to'g'ri?
1) ko'chirma gaplar qo'shtirnoqqa olinadi;
2) istak gaplar oxirida undov belgisi qo'yiladi;
3) umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin tire qo'yiladi;
4) undalma alohida ohang bilan aytilsa, undan keyin undov belgisi qo'yiladi.

**A)** *1, 4* B) *2, 3, 4* C) *3, 4* D) *1, 2, 4*

1343. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715181)
Tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?
1) undov gap so'roq gapdan hosil bo'lsa, oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi; 2) buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi; 3) kesim ergash gap va bosh gap o'rtasida ikki nuqta ishlatiladi; 4) kiritma gaplar qo'shtirnoq bilan ajratiladi.

A) *1, 2, 3* B) *2, 3, 4* **C)** *3, 4* D) *1, 4*

1344. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715182)
**Urush – quyon ovi emas.**
Ushbu gapdagi tirening ishlatilish sababini aniqlang.

A) *izohlash munosabati bo'lgani uchun*
**B) ega ma'nosi ta'kidlangani uchun**
C) *bu gapda tire ishlatilmaydi, chunki ot kesim tarkibida bog'lama bor*
D) *o'xshatish munosabati ifodalangani uchun*

1345. 8.1-2 file-» 45 - 3 - - 1 (715183)
**Bu – sen uchun katta sinovdir.**
Ushbu gapdagi tirening ishlatilish sababini aniqlang.

**A) ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangani uchun**
B) *izohlash munosabati ifodalangani uchun*
C) *bu gapda tire ishlatilmaydi, chunki ot kesim tarkibida bog'lama bor*
D) *shart munosabati ifodalangani uchun*

1346. 8.1-2 file-» 1 - 50 - - 1 (715184)
Shubha yo'qki inson qaysi millat dinga qaysi xalq – elatga mansub bo'lmasin u avvalambor tabiat farzandidir. (I.Karimov)
Berilgan gapda nechta vergul qo'yilishi kerak?

A) *4 ta* B) *7 ta* **C) *6 ta*** D) *5 ta*

1347. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (231461)
Оммавий ахборот воситалари услуби қандай услуб саналади?

A) *бадиий услуб* B) *илмий услуб* **C) *публицистик услуб*** D) *расмий услуб*

1348. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (231469)
Кўчирма гапли қўшма гаплардаги муаллиф гапи ...

A) *бировнинг айнан келтирилган ёки ўзганинг ҳеч ўзгаришсиз нутққа олиб кирилган гапи*
**B) сўзловчининг гапи**
C) *тингловчининг гапи*
D) *мазмуни сақланиб, шакли ўзгартирилган гап*

1349. 9.1-1 file-» 41 - 4 - - (231590)
Эвфемизм нима?

A) *бошқа тиллардан кириб, ўзлашиб кетган сўзлар*
B) *нарса ёки табиат ҳодисаларининг хусусиятларини тасвирлаш учун уларнинг номига қўшиб ишлатиладиган сўзлар*
**C) қўпол, беодоб, ноқулай сўз ва сўз бирикмаларини сўзлашув тилига хос қулай сўз ва сўз бирикмалари билан алмаштириш**
D) *жонли тилда учрайдиган, лекин кенг истеъмолда қўлланмай, услубий маънода - айрим шахсларнинг хулқ- атворини, табиатини кўрсатиб турадиган сўзлар*

1350. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (232317)
Фақир Сизнинг хизматингизга бел боғлаган. (М. Осим)
Ушбу гапда кесим мазмунан қайси шахсни билдирган?

**A) *I шахс бирликни*** B) *II шахс бирликни* C) *III шахс бирликни* D) *III шахс кўпликни*

1351. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (232332)
Қайси қатордаги гапда паронимларнинг қўлланиши билан боғлиқ услубий хато мавжуд?

**A) Мажлисда камчиликлар бирма-бир саналиб, уларни тезда бартараф этиш кераклиги қайт этиб ўтилди.**
B) *От чопса, гумбурлар тоғнинг дараси.*
C) *Яхшига ёндаш, ёмондан қоч.*
D) *Бутун қишлоқ аҳли ҳашарга чиқди.*

1352. 9.1-1 file-» 40 - 1 - - (237890)
Қайси қатордаги гапда ўтган замон сифатдоши қўлланган?

A) *Ёқимли ёз шабадаси эндигина қад кўтариб келаётган ёш ниҳолларни тебратар эди.*
**B) Ваҳобжон бояги қиз кўрсатган уй эшигининг тугмасини босди.**
C) *Билмаслик айб эмас, билмаслигини бўйнига олмаслик айб.*
D) *Онанг кўзларига боқиб, унинг ҳис-хоҳишларини ўрган.*

1353. 9.1-1 file-» 98 - 1 - - (239794)
Муайян нутқий қолип, қатъий одат тусига кириб қолган шаклларга эга бўлган нутқ услуби қайси жавобда тўғри берилган?

A) *сўзлашув услуби* B) *илмий услуб* C) *публицистик услуб* **D) *расмий услуб***

1354. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (241302)
**Сажда айлар зоҳид ул меҳроб аро,**
**Мен қилурман сажда эгма қошима.**
(Машраб)
Байтда маъно кўчишининг қайси тури мавжуд?

A) *метафора* **B) *синекдоха*** C) *метонимия* D) *вазифадошлик*

1355. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (241305)
Адабий тилнинг ёзма шаклига хос бўлиб, муайян нутқий қолип, қатъий одат тусига кириб қолган шаклларга эга бўлган нутқ услуби қандай аталади?

A) *илмий услуб* B) *публицистик услуб* C) *бадиий услуб* **D) *расмий услуб***

1356. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (241306)
Тил бирлиги нима?

A) *грамматик маънони ифодалаш учун хизмат қиладиган тил воситаси*

B) *тил қонунлари асосида грамматик ва оҳанг жиҳатдан шаклланган, фикрни ифодалаш учун хизмат қиладиган нутқ бирлиги*

**C) бир-биридан вазифаси, ифода материали, тузилиши ва тизимдаги ўрни билан фарқланадиган тил ҳодисаси**

D) *сўзнинг шаклий қисми - грамматик шакли ифодалайдиган маъно*

1357. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (241314)
**Иброҳимжоннинг овозида заррача шикоят оҳанги йўқ эди. Аксинча, у алоҳида ғурур билан гапиради.**
Ушбу гапдаги феъл қайси замон маъносини ифодалаган?

A) *келаси замон* B) *ҳозирги замон* C) *ўтган замон* D) *ҳозирги ва келаси замон*

1358. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241316)
Қайси гапда кўчма маъноли сўз қўлланган?

A) *Элёрнинг вужудига оромбахш шабада югурди.*

B) *У кўл ёқасига келиб қолганини ҳам сезмади.*

C) *Чойхоначи ёши элликлардан ошиб қолган бўлса ҳам худди ўсмирлардай енгил қадам ташларди.*

**D) Берилган барча гапларда**

1359. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241319)
**Ўз жигарига ҳам раҳм-шафқат қилмайдилар!**
Ушбу гапда қандай маъно кўчиши мавжуд?

A) *метафора* B) *метонимия* C) *синекдоха*
D) *вазифадошлик*

1360. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241324)
Гапнинг кўчма – тагмаъноси ифодаланган қаторни топинг.

A) *Бизни "ҳомий"лардан ҳимоя қилғил, деган шарқ халқида пичинг-дуо бор. Хўш, жаноби олийлари, қайси шўрлик халқ Сизнинг "ҳимоянгизга" қолмиш интизор.*

B) *Дунёда ўзимиздан кейин қолдирадиган туёғимиз ... фақат шул Отабекдир.*

**C) - Сизга теккунча алвастига тегсам бўлмасмиди?!**
**- Афсуски, яқин қариндошлар орасида никоҳ ман қилинган.**

D) *Барча гапларда тагмаъно ифодаланган.*

1361. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241328)
Қайси гапда метафора усули билан маъно кўчиши ҳосил бўлган?

A) *Баҳор келинчакдек ясаниб келди.*

B) *Пўлатжоннинг тили танглайига ёпишиб қолгандек гапиролмас эди.*

**C) Қуёшнинг олтин қалами нур таратар эди.**

D) *Барча гапларда метафора усули мавжуд.*

1362. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241332)
Бажармоқ сўзи қуйидаги сўзлардан қайси бири билан маънодош?
1) адо этмоқ; 2) ўтамоқ; 3) битирмоқ;
4) ўринлатмоқ; 5) бажо қилмоқ

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 3, 5* C) *1, 2, 3, 5*
D) *3, 4, 5*

1363. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241341)
Зид сўзлар қўлланган гапни топинг.

A) *Совуқ шамол ўқтин-ўқтин эсиб, тўқайни аллақандай ваҳимага тўлдирди.*

**B) Бир нўноқни бир эпчил эплайди.**

C) *Шерали қўрқмас ва камтар, камгап ва қайсар бир бола эди.*

D) *Ёлғончининг сўзи рост бўлмас.*

1364. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241348)
Қайси қаторда ибораларнинг маъноси нотўғри берилган?

A) *кўз-кўз қилмоқ - мақтанмоқ, кўз остига олиш - мўлжаллаш*

**B) ови юрган - бахтли, дили пора -хафа бўлмоқ**

C) *кавушини тўғрилаб қўймоқ - ҳайдамоқ, йўқ ердаги - бўлмағур*

D) *ўрнига қўймоқ - бажармоқ, қўл урмоқ - тегмоқ*

1365. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241350)
Қайси қаторда от туркумига мансуб маънодош сўзлар берилган?

A) *қийинчилик, машаққат, заҳмат*
B) *касаллик, хасталик, бемор*
C) *ойдин, равшан, очиқ*
D) *кекса, мўйсафид, қари*

1366. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241351)
Қайси қаторда маънодош сўзлар сифат туркумига мансуб?

A) *вазифа, топшириқ, мажбурият*
B) *дўст, ўртоқ, биродар*
C) *шамол, тўфон, ел* D) *улуғ, буюк, улкан*

1367. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241352)
Кўчма маъноли сўз қайси гап таркибида қўлланган?

A) *Бекорчидан бемаза гап чиқади.*
B) *Қора кунда қул Тарлон қизга қайғудош келди.*
C) *Қадди рост шамнинг тилидан*
*Ўртанур парвона ҳам.*
**D) Барча гапларда кўчма маъноли сўз қўлланган.**

1368. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241353)
Синекдоха усули билан маъно кўчган гап берилган қаторни аниқланг.

**A) Дунёда ташвишларни кўп чекди бошим.**
B) *Умрини илмга бағишлаган одам абадий умрга эришади.*
C) *Эл оғзига элак тутиб бўлмайди.*
D) *Меҳмонлар учун мева-чева, қуюқ-суюқ тортилди.*

1369. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (241359)
Қайси гапда икки нуқта ишлатилади?

**A) Билди ота фойдасиздир қийнамоқ.**
B) *Тер тўкилди дур етиштирилди.*
C) *Эрталабки шафақ оловдай товланмайди у оч қизғиш тусда ёйилади.*
D) *Новча тераклар устида ойнинг кумуш парчаси сузади шамол новда ниҳолларни тебратади.*

1370. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (241371)
Ҳар бир фан соҳасининг ўзига хос атамаларига таянувчи, фикрни аниқ ва ихчам шаклда баён қилувчи услуб қандай номланади?

A) *публицистик услуб* B) *бадиий услуб* **C)** *илмий услуб* D) *расмий услуб*

1371. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (241373)
Кўк юзида сузиб юрган булут парчалари офтобни бир зумда юз қўйга соляпти.
(А. Қаҳҳор)
Ушбу гапда маъно кўчишнинг қайси тура мавжуд?

**A)** *метафора* B) *метонимия* C) *синекдоха*
D) *маъно кўчиши кузатилмайди*

1372. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (241378)
Капалакдай келиб, қошингга қўниб, Кўзингга термулиб умрим ўтсайди. (М. Юсуф)
Мазкур гапда қошингга қўниб бирикмасида маъно кўчишнинг қайси тури кузатилади?

A) *ўхшатиш* B) *метафора* **C)** *метонимия*
D) *синекдоха*

1373. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (241380)
Дарак гап шаклидаги кўчирма гап ўзлаштирма гапга айлантирилганда кўчирма гапнинг эгаси қандай бўлакка айлантирилади?

A) *тўлдирувчига* **B)** *қаратқич аниқловчига*
C) *ўзлаштирма гап эгасига*
D) *ўзлаштирма гап кесимига*

1374. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (241399)
Навоийнинг таъбири билан айтганда "гуҳари шариф" га тенг бўлган нарса нима?

A) *ота-она* B) *Ватан* **C)** *сўз*
D) *муҳаббат*

1375. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (301310)
Ommaviy axborot vositalari uslubi qanday uslub sanaladi?

A) *badiiy uslub* B) *ilmiy uslub*
**C)** *publitsistik uslub* D) *rasmiy uslub*

1376. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (301311)
Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplardagi muallif gapi . . .

A) *birovning aynan keltirilgan yoki o‘zganing hech o‘zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gapi*
**B) so‘zlovchining gapi**
C) *tinglovchining gapi*
D) *mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan gap*

1377. 9.1-1 file-» 41 - 4 - - (301312)
Evfemizm nima?

A) *boshqa tillardan kirib, o‘zlashib ketgan so‘zlar*
B) *narsa yoki tabiat hodisalarining xususiyatlarini tasvirlash uchun ularning nomiga qo‘shib ishlatiladigan so‘zlar*
**C) qo‘pol, beodob, noqulay so‘z va so‘z birikmalarini so‘zlashuv tiliga xos qulay so‘z va so‘z birikmalari bilan almashtirish**
D) *jonli tilda uchraydigan, lekin keng iste’molda qo‘llanmay, uslubiy ma’noda - ayrim shaxslarning xulq-atvorini, tabiatini ko‘rsatib turadigan so‘zlar*

1378. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (301313)
Faqir Sizning xizmatingizga bel bog‘lagan. (M. Osim)
Ushbu gapda kesim mazmunan qaysi shaxsni bildirgan?

**A)** *I shaxs birlikni* B) *II shaxs birlikni*
C) *III shaxs birlikni* D) *III shaxs ko‘plikni*

1379. 9.1-1 file-» 1 - 38 - - (301314)
Qaysi qatordagi gapda paronimlarning qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?

**A) Majlisda kamchiliklar birma-bir sanalib, ularni tezda bartaraf etish kerakligi qayt etib o'tildi.**
B) *Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.*
C) *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.*
D) *Butun qishloq ahli hasharga chiqdi.*

1380. 9.1-1 file-» 40 - 1 - - (301315)
Qaysi qatordagi gapda o'tgan zamon sifatdoshi qo'llangan?

A) *Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko'tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi.*
**B) Vahobjon boyagi qiz ko'rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi.**
C) *Bilmaslik ayb emas, bilmasligini bo'yniga olmaslik ayb.*
D) *Onang ko'zlariga boqib, uning his-xohishlarini o'rgan.*

1381. 9.1-1 file-» 98 - 1 - - (301316)
Muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) *so'zlashuv uslubi* B) *ilmiy uslub*
C) *publitsistik uslub* **D)** *rasmiy uslub*

1382. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (301317)
**Sajda aylar zohid ul mehrob aro,**
**Men qilurman sajda egma qoshima.**
(Mashrab)
Baytda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

A) *metafora* **B)** *sinekdoxa* C) *metonimiya*
D) *vazifadoshlik*

1383. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (301318)
Adabiy tilning yozma shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi qanday ataladi?

A) *ilmiy uslub* B) *publitsistik uslub*
C) *badiiy uslub* **D)** *rasmiy uslub*

1384. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (301319)
Til birligi nima?

A) *grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositasi*
B) *til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi*
**C) bir-biridan vazifasi, ifoda materiali, tuzilishi va tizimdagi o'rni bilan farqlanadigan til hodisasi**
D) *so'zning shakliy qismi - grammatik shakli ifodalaydigan ma'no*

1385. 9.1-1 file-» 41 - 5 - - (301320)
**Ibrohimjonning ovozida zarracha shikoyat ohangi yo'q edi. Aksincha, u alohida g'urur bilan gapiradi.**
Ushbu gapdagi fe'l qaysi zamon ma'nosini ifodalagan?

A) *kelasi zamon* B) *hozirgi zamon*
**C)** *o'tgan zamon* D) *hozirgi va kelasi zamon*

1386. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301321)
Qaysi gapda ko'chma ma'noli so'z qo'llangan?

A) *Elyorning vujudiga orombaxsh shabada yugurdi.*
B) *U ko'l yoqasiga kelib qolganini ham sezmadi.*
C) *Choyxonachi yoshi elliklardan oshib qolgan bo'lsa ham xuddi o'smirlarday yengil qadam tashlardi.*
**D) Berilgan barcha gaplarda**

1387. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301322)
**O'z jigariga ham rahm-shafqat qilmaydilar!**
Ushbu gapda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

A) *metafora* B) *metonimiya* **C)** *sinekdoxa*
D) *vazifadoshlik*

1388. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301323)
Gapning ko'chma – tagma'nosi ifodalangan qatorni toping.

A) *Bizni "homiy"lardan himoya qilg'il, degan sharq xalqida piching-duo bor. Xo'sh, janobi oliylari, qaysi sho'rlik xalq Sizning "himoyangizga" qolmish intizor.*
B) *Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz ... faqat shul Otabekdir.*
**C) - Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasmidi?!**
**- Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan.**
D) *Barcha gaplarda tagma'no ifodalangan.*

1389. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301324)
Qaysi gapda metafora usuli bilan ma'no ko'chishi hosil bo'lgan?

A) *Bahor kelinchakdek yasanib keldi.*
B) *Po'latjonning tili tanglayiga yopishib qolgandek gapirolmas edi.*
**C) Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.**
D) *Barcha gaplarda metafora usuli mavjud.*

1390. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301325)
Bajarmoq so'zi quyidagi so'zlardan qaysi biri bilan ma'nodosh?
1) ado etmoq; 2) o'tamoq; 3) bitirmoq;
4) o'rinlatmoq; 5) bajo qilmoq

**A)** *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 3, 5* C) *1, 2, 3, 5*
D) *3, 4, 5*

1391. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301326)
Zid so‘zlar qo‘llangan gapni toping.

A) *Sovuq shamol o‘qtin-o‘qtin esib, to‘qayni allaqanday vahimaga to‘ldirdi.*
**B) Bir no‘noqni bir epchil eplaydi.**
C) *Sherali qo‘rqmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola edi.*
D) *Yolg‘onchining so‘zi rost bo‘lmas.*

1392. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301327)
Qaysi qatorda shakldosh so‘zlar ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan?

A) *Gulshanda gullarni tebratar sabo,*
*Adashgan yo‘lchiday daydib yurar yel.*
B) *Minglab gulistonga, minglab chamanga,*
*Bahuzur ko‘rk bo‘lur undagi chiroy.*
**C) Yig‘latdi meni demayki, siqtatdi meni.**
D) *Bir shirin so‘z odamga asal bo‘lib tuyular.*

1393. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301328)
Qaysi qatorda iboralarning ma’nosi noto‘g‘ri berilgan?

A) *ko‘z-ko‘z qilmoq - maqtanmoq, ko‘z ostiga olish - mo‘ljallash*
**B) ovi yurgan - baxtli, dili pora -xafa bo‘lmoq**
C) *kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq - haydamoq, yo‘q yerdagi - bo‘lmag‘ur*
D) *o‘rniga qo‘ymoq - bajarmoq, qo‘l urmoq - tegmoq*

1394. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301329)
Qaysi qatorda ot turkumiga mansub ma’nodosh so‘zlar berilgan?

**A)** *qiyinchilik, mashaqqat, zahmat*
B) *kasallik, xastalik, bemor*
C) *oydin, ravshan, ochiq*
D) *keksa, mo‘ysafid, qari*

1395. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301330)
Qaysi qatorda ma’nodosh so‘zlar sifat turkumiga mansub?

A) *vazifa, topshiriq, majburiyat*
B) *do‘st, o‘rtoq, birodar*
C) *shamol, to‘fon, yel*
**D)** *ulug‘, buyuk, ulkan*

1396. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301331)
Ko‘chma ma’noli so‘z qaysi gap tarkibida qo‘llangan?

A) *Bekorchidan bemaza gap chiqadi.*
B) *Qora kunda qul Tarlon qizga qayg‘udosh keldi.*
C) *Qaddi rost shamning tilidan*
*O‘rtanur parvona ham.*
**D) Barcha gaplarda ko‘chma ma’noli so‘z qo‘llangan.**

1397. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301332)
Sinekdoxa usuli bilan ma’no ko‘chgan gap berilgan qatorni aniqlang.

**A) Dunyoda tashvishlarni ko‘p chekdi boshim.**
B) *Umrini ilmga bag‘ishlagan odam abadiy umrga erishadi.*
C) *El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi.*
D) *Mehmonlar uchun meva-cheva, quyuq-suyuq tortildi.*

1398. 9.1-1 file-» 71 - 5 - - (301333)
Qaysi gapda ikki nuqta ishlatiladi?

**A) Bildi ota foydasizdir qiynamoq.**
B) *Ter to‘kildi dur yetishtirildi.*
C) *Ertalabki shafaq olovday tovlanmaydi u och qizg‘ish tusda yoyiladi.*
D) *Novcha teraklar ustida oyning kumush parchasi suzadi shamol novda nihollarni tebratadi.*

1399. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (301334)
Har bir fan sohasining o‘ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub qanday nomlanadi?

A) *publitsistik uslub* B) *badiiy uslub*
**C)** *ilmiy uslub* D) *rasmiy uslub*

1400. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (301335)
Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti.
(A. Qahhor)
Ushbu gapda ma’no ko‘chishning qaysi tura mavjud?

**A)** *metafora* B) *metonimiya* C) *sinekdoxa*
D) *ma’no ko‘chishi kuzatilmaydi*

1401. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (301336)
Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib, Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi. (M. Yusuf)
Mazkur gapda qoshingga qo‘nib birikmasida ma’no ko‘chishning qaysi turi kuzatiladi?

A) *o‘xshatish* B) *metafora* **C)** *metonimiya*
D) *sinekdoxa*

1402. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (301337)
Darak gap shaklidagi ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda ko‘chirma gapning egasi qanday bo‘lakka aylantiriladi?

A) *to‘ldiruvchiga* **B)** *qaratqich aniqlovchiga*
C) *o‘zlashtirma gap egasiga*
D) *o‘zlashtirma gap kesimiga*

1403. 9.1-1 file-» 1 - 39 - - (301338)
Navoiyning ta’biri bilan aytganda ”guhari sharif” ga teng bo‘lgan narsa nima?

A) *ota-ona* B) *Vatan* **C)** *so‘z*
D) *muhabbat*

1404. 9.1-1 file-» 5 - 1 - - (400322)
Berilgan gaplarning qaysilarida tinish belgisini qo‘yish bilan ma’noda o‘zgarish yuz beradi (yangi ma’noli gaplar hosil bo‘ladi)?
1. Bu gaping yomon bo‘lmadi.
2. Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko‘rmaydi.
3. To‘g‘ri yo‘llarda ham mashaqqat bor.
4. Gullar chiroyli stolni bezab turibdi.

A) *faqat 3* B) *2, 3, 4* C) *2, 3*
**D)** *1, 2, 3, 4*

1405. 9.1-1 file-» 5 - 1 - - (400323)
**Bizni uchrashtirdi sirli bir shodlik,**
**Endi ayirmoqda anglab bo‘lmas g‘am.**
Ushbu qo‘shma gapda uslubiy ma’no hosil qiluvchi vositani ko‘rsating.

A) *bir xillik (parallellik)*
B) *gap bo‘laklarini tushirish (ellipsiya)*
C) *gap bo‘laklarini takrorlash*
**D) zid ma’noli (antonim) so‘zlarni qo‘llash**

1406. 9.1-1 file-» 5 - 1 - - (400324)
**Ichkari tarafdan keksa bir xodima – eshikochar xola ko‘rinib, Gulshanga salom berdi va "Xush keldilar!" - dedi.**
Ushbu gapda ostiga chizilgan birlikning shaxs-soni haqida ifodalangan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) *III shaxs ko‘plik shakli II shaxs ko‘plik ma’nosida*
**B) III shaxs ko‘plik shakli II shaxs birlik ma’nosida**
C) *III shaxs ko‘plik shakli III shaxs birlik ma’nosida*
D) *III shaxs birlik shakli III shaxs ko‘plik ma’nosida*

1407. 9.1-1 file-» 5 - 1 - - (400325)
Qaysi gapda ayrim shakllarni o‘zgartirish orqali qaratqich aniqlovchini sifatlovchi aniqlovchiga aylantirish mumkin?

A) *Bolalarning eng kattasi 16 yoshda.*
B) *Akramning ko‘ngliga tasalli, taskin beradigan narsa yo‘q.*
C) *U do‘stining beradigan javobini oldindan bilar edi.*
**D) Namanganning bu dongdor to‘quvchisini hamma taniydi.**

1408. 9.1-1 file-» 1 - 43 - - (400326)
Qaysi qatorda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xato mavjud?

**A) Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga solayapti.**
B) *Do‘stim, nimaning ko‘yida yuribsiz?*
C) *Bastakor she’rga kuy bastalamoqda.*
D) *Men ham uning ko‘yida sargardonman.*

1409. 9.1-1 file-» 40 - 3 - - (400327)
Qaysi qatorda ko‘chma ma’noli so‘z berilgan?

A) *Jahonda nimaiki oq bo‘lsa, unga ona suti timsoldir.*
B) *Ko‘ldagi suv jimirlab turar, silliq toshlarga ohista urilardi.*
**C) Elyorning vujudiga orombaxsh shabada yugurdi.**
D) *Yomon odamni tanqid qil, yaxshi odamga taqlid qil.*

1410. 9.1-1 file-» 40 - 3 - - (400328)
Sifat yasovchi **-siz** qo‘shimchasi quyidagilardan qaysi birlari bilan zid ma’noli hisoblanadi?
1) -li; 2) -dor; 3) ba-; 4) -mand; 5) ser-

A) *1, 2, 4, 5* B) *2, 3, 4, 5* **C)** *1, 2, 3, 5*
D) *1, 3, 4, 5*

1411. 9.1-1 file-» 40 - 3 - - (400329)
chizg‘ich, yulg‘ich so‘zlaridagi qo‘shimchalar qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A) *sifat va ot yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, o‘zaro shakldosh*
**B) ot va sifat yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, o‘zaro shakldosh**
C) *ot yasovchi va lug‘aviy shakl hosil qiluvchi qo‘shimcha bo‘lib, o‘zaro ko‘p ma’noli*
D) *har ikkalasi ot yasovchi bo‘lib, o‘zaro ko‘p ma’noli*

1412. 9.1-1 file-» 40 - 4 - - (400330)
Qaysi hukm noto‘g‘ri?

A) *So‘z birikmalari ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifodalashga xizmat qiladi.*
B) *So‘z - leksik hodisa, so‘z birikmasi grammatik hodisadir.*
**C) So‘z - tushuncha, so‘z birikmasi esa fikr ifodalaydi.**
D) *Lug‘atlarda so‘zning ma’nosini ochib berishda so‘z birikmalaridan foydalaniladi.*

1413. 9.1-1 file-» 1 - 44 - - (400331)
Qaysi qatorda gap bo‘laklarining me’yoriy tartibi ko‘rsatilgan?

A) *hol va to‘ldiruvchi kesimdan keyin, aniqlovchi egadan keyin keladi*
**B) hol va to‘ldiruvchi kesimdan oldin, aniqlovchi egadan oldin joylashadi**
C) *hol, to‘ldiruvchi va aniqlovchi kesimdan keyin joylashadi*
D) *ega kesimdan oldin, to‘ldiruvchi kesimdan keyin joylashadi*

1414. 9.1-1 file-» 1 - 44 - - (400332)
**Istadim sayr aylamoqni men g‘azal bo‘stonida** gapida qaysi bo‘laklar o‘z o‘rniga nisbatan oldinga o‘tib qolgan?

A) *ega, kesim* **B)** *kesim, to‘ldiruvchi*
C) *ega, to‘ldiruvchi, hol*
D) *barcha bo‘laklarning o‘rni o‘zgargan*

1415. 9.1-1 file-» 1 - 44 - - (400333)
**Istadim sayr aylamoqni men g‘azal bo‘stonida** gapida o‘rin holi me’yoriy tartibga ko‘ra qaysi bo‘lakdan oldin, qaysi bo‘lakdan keyin joylashishi lozim?

A) *to‘ldiruvchidan oldin, kesimdan keyin*
B) *to‘ldiruvchidan keyin, egadan oldin*
**C) egadan keyin, to‘ldiruvchidan oldin**
D) *o‘rin holi gapda me’yoriy tartibga ko‘ra joylashgan*

1416. 9.1-1 file-» 1 - 44 - - (400334)
Quyida berilgan gapdagi ismlar qaysi kelishik shakllari bilan turlangan?
**Bobosi so‘zini eshitgan nabira oldidagi kitoblarni taxlay boshladi, so‘ng tokchadan xurjunni olib, unga kitoblarni solishga shaylandi.**

A) *bosh kelishik, qaratqich kelishigi, chiqish kelishigi, tushum kelishigi*
**B) bosh kelishik, chiqish kelishigi, tushum kelishigi, qaratqich kelishigi, jo‘nalish kelishigi**
C) *barcha kelishik qo‘shimchalari*
D) *bosh kelishik, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, chiqish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi*

1417. 9.1-1 file-» 1 - 45 - - (400335)
**Durdona** so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma’noda qo‘llanmagan?

**A) Gullar ko‘pdir bu xilqat aro Durdonalar yanglig‘ sochilgan. (A.Isroil)**
B) *Mana, shundoq bitta afsona, Afsonalar ichra durdona. (Oybek)*
C) *"Jahon adabiyoti" jurnali dunyo adabiyoti durdonalarini nashr etishda jonbozlik ko‘rsatmoqda.*
D) *barcha gaplarda ko‘chma ma’noda qo‘llangan*

1418. 9.1-1 file-» 1 - 45 - - (400336)
**Dog‘** so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma’noda qo‘llanmagan?

A) *Qo‘rqoqlik dog‘ini o‘lim ham yuvolmaydi. (A.Muxtor)*
B) *Yaxshi so‘z - yurak yog‘i, yomon so‘z - yurak dog‘i. (Maqol)*
**C) Oyda ham dog‘ bor. (Maqol)**
D) *Bu gap bizning sha’nimizga dog‘ bo‘lishi mumkin.*

1419. 9.1-1 file-» 1 - 45 - - (400337)
**Sayding qo‘ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek.**
Furqatning ushbu misrasidagi **sayyora** so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *osmon jismi*
B) *quyosh atrofida aylanuvchi*
C) *muqim, doimiy*
**D)** *kezib yuruvchi, darbadar*

1420. 9.1-1 file-» 1 - 45 - - (400338)
Sinekdoxa yo‘li bilan ma’nosi ko‘chgan so‘z qaysi gapda mavjud?

**A) - Xudovando! Bu na ko‘rgilik. Endi netaman? To‘qqiz og‘izni qanday boqaman? (S.Siyoyev)**
B) *Yurt bu kun ohuday xo‘p ishvakordir, Sir kabi sermavjdir, Pomirday poydor. (A.Oripov)*
C) *Uning buvasi oppoq soqolli, har bir so‘zini salmoqlab aytadigan odam edi.*
D) *Mahkam ko‘zini yumib yotgan bo‘lsa-da, butun vujudi sergak.*

1421. 9.1-1 file-» 1 - 46 - - (400339)
Adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilinmagan uslub qanday nomlanadi?

A) *adabiy so‘zlashuv uslubi*
**B)** *oddiy so‘zlashuv uslubi*
C) *dialogik so‘zlashuv uslubi*
D) *erkin so‘zlashuv uslubi*

1422. 9.1-1 file-» 1 - 46 - - (400340)
**Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari tobora ko‘payib borayotgan edi.**
Ushbu gapda ma’no ko‘chishning qaysi turi mavjud?

**A)** *metafora* B) *metonimiya* C) *sinekdoxa* D) *vazifadoshlik*

1423. 9.1-1 file-» 1 - 46 - - (400341)
Uslubiy betaraf so‘zlarni belgilang.

A) *traktor, plug, mufta* B) *ega, gap, undosh*
C) *futbol, kurash, shaxmat*
**D)** *go‘sht, gap, choyxona*

1424. 9.1-1 file-» 40 - 6 - - (700320)
Quyidagilardan qaysi xususiyat publitsistik uslubga xos?
1) kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘lishi; 2) axborot berish va ta’sir qilish; 3) obrazlilik; 4) soddalik, tushunarlilik, ta’sirchanlik; 5) adabiy til me’yoriga qat’iy amal qilish.

A) *1, 2, 5* B) *2, 3, 4* **C)** *2, 4, 5* D) *1, 3, 5*

1425. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700321)
Qaysi gapda vositasiz to‘ldiruvchini qaratqich aniqlovchi o‘rnida qo‘llash orqali uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan?

A) *Amir bizning holimizdan shunchalar bexabar ekanki, ko‘rib hayrat barmog‘ini tishladim.*
**B) Ammo siyosiy ishlarni to‘qson foizini kengashga qo‘yib, bir ulushini qilichga qoldirishga o‘rgangan Temurbek boshqacha o‘ylardi.**
C) *Yurtning daxlsizligini ta’minlaydigan bu qonunlar mamlakat hukmdorining o‘ng qo‘lidir.*
D) *Berilgan gaplarda vositasiz to‘ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlatilgan.*

1426. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700322)
Tanklar, zambaraklar ag‘anab yotibdi.Bir jangchining peshonasi bog‘langan, bir jangchining esa yelkasidan qon oqmoqda. (Shuhrat)
Ushbu gapda zamon qo‘shimchalaridagi ko‘chish hodisasini izohlang.

A) *o‘tgan zamon shakli orqali hozirgi zamon ma’nosi ifodalangan*
**B) hozirgi zamon shakli orqali o‘tgan zamon ma’nosi ifodalangan**
C) *o‘tgan zamon shakli orqali kelasi zamon ma’nosi ifodalangan*
D) *ushbu gapdagi zamon qo‘shimchalarida ko‘chish yo‘q*

1427. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700323)
Tuzsiz she’rlarim deb shirindan shirin
Bolalarim yurar oyoq uchida. (M.Yusuf)
Ushbu satrda ma’no ko‘chishining qaysi ko‘rinishi bor?

**A)** *metafora* B) *metonimiya* C) *sinekdoxa* D) *vazifadoshlik*

1428. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700324)
1.Samovarda osh yedik.
2.Navoiyni kechadan beri ko‘tarib yuribman.
3. ”Rossiya”ga qanday borsam bo‘ladi?
4.Bulutlar orasidan quyosh kulib qaraydi.
Ushbu gaplarda ma’no ko‘chishining qaysi ko‘rinishi bor?

A) *1, 4-metafora;2, 3-metonimiya*
B) *1-sinekdoxa, 2, 3-metonimiya, 4-metafora*
**C) 1, 2, 3-metonimiya, 4-metafora**
D) *barchasi metonimiya*

1429. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700325)
Ko‘plik shakli hurmat ma’nosini ifodalaganda, ko‘plik va egalik qo‘shimchasi qanday o‘rinlashadi?

A) *hurmat ma’nosini ifodalagan ko‘plik shakli hamma vaqt egalik qo‘shimchasidan oldin keladi*
B) *hurmat ma’nosini ifodalagan ko‘plik shakli hamma vaqt egalik qo‘shimchasidan keyin keladi*
**C) ko‘plik qo‘shimchasi hurmat ma’nosini ifodalaganda, qaysi shaxsdagi egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanishiga ko‘ra undan oldin yoki keyin kelishi mumkin**
D) *ko‘plik qo‘shimchasi hurmat ma’nosini ifodalaganda, egalik qo‘shimchasining qo‘llanish-qo‘llanmasligi ahamiyatga ega emas*

1430. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700326)
Adabiy til uslublarining qaysi biri inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi?

A) *publitsistik uslub* B) *ilmiy uslub*
**C)** *badiiy uslub* D) *so‘zlashuv uslubi*

1431. 9.1-1 file-» 20 - 1 - - (700327)
Bu uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da’vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Ushbu ta’rif adabiy til uslublarining qaysi biri haqida?

A) *publitsistik uslub* B) *ilmiy uslub*
C) *so‘zlashuv uslubi* **D)** *rasmiy uslub*

1432. 9.1-1 file-» 1 - 47 - - (700328)
Butun va qismni bildirishda qaysi kelishik qo'shimchalari ba'zan almashinib ishlatilishi mumkin?

A) *qaratqich bilan bosh kelishik*
**B) tushum bilan chiqish kelishigi**
C) *o'rin-payt bilan jo'nalish kelishigi*
D) *tushum bilan jo'nalish kelishigi*

1433. 9.1-1 file-» 1 - 47 - - (700329)
O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni necha moddadan iborat?

A) *20* **B)** *24* C) *25* D) *26*

1434. 9.1-1 file-» 1 - 47 - - (700330)
Qaysi gaplarda urg'u ko'zlar, atlas so'zlarining birinchi bo'g'iniga tushadi?
1. Ko'zlar inson qalbining oynasidir.
2. Chin inson birovga yaxshilik ko'zlar.
3. Tikuvchi atlas ko'ylak tikdi.
4. Geografiya o'qituvchimiz darsga atlas olib kirdi.
5. O'zbek qizlariga atlas juda yarashadi.

A) *1, 4* B) *2, 3, 5* **C)** *2, 4* D) *1, 2, 5*

1435. 9.1-1 file-» 1 - 48 - - (700331)
-dek qo'shimchasi qaysi ko'makchi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?

A) *bo'ylab* B) *yarasha* **C)** *yanglig'* D) *asosan*

1436. 9.1-1 file-» 1 - 48 - - (700332)
Davlat tili haqidagi qonunning qaysi moddasida davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidasi va normalariga rioya etilishi qayd qilingan?

A) *5-moddasida* **B)** *7- moddasida* C) *10-moddasida* D) *16-moddasida*

1437. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700333)
Yulduzni benarvon uradigan iborasining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) *o'taketgan sho'x* B) *o'taketgan qaysar* **C)** *o'taketgan olg'ir* D) *o'taketgan maqtanchoq*

1438. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700334)
Tanimasman, ko'rmasman, yot u men uchun,
Baski biror do'zaxidir, shilqim, besubut.
Besubut so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) *ko'p gapiradigan* B) *yolg'on gapiradigan* C) *uyalmaydigan* **D)** *va'dasida turmaydigan*

1439. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700335)
O'rtog'im birdan kulib yubordi, o'zi juda serzavq, dali-g'uli, sho'x bola, - deydi Musavoy. (Oybek) Ajratib ko'rsatilgan so'zga ma'nodosh iborani aniqlang.

A) *yulduzni benarvon uradigan*
**B)** *ko'nglida kiri yo'q* C) *do'ppisi yarimta*
D) *og'zi qulog'ida*

1440. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700336)
Berilgan gaplarda dam so'zi qanday so'zlarga ma'nodosh bo'la olishini mos ravishda aniqlang.
1. Bir dam o'zini yo'qotib, esankirab qoldi.
2. Ot pishqirgan damiga erir tog'dagi qorlar.
3. Ibrohimov oyog'ini yozgani o'rnidan turdi va ayvonning damiga borib ... uzoqdagi kaptarrang tog'larga qaradi.
4. Xanjarini qinidan sug'urib oldi-da, damini oydinga solib boqdi.

A) *lahza, nafas, tig', chet*
B) *lahza, chet, nafas, tig'*
**C)** *lahza, nafas, chet, tig'*
D) *lahza, tig', chet, nafas*

1441. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700337)
Dunyoda diyonat hali mavjuddir,
Hali mard yigitlar yashab yuribdi. (A.Oripov)
Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshini toping.

**A)** *vijdon* B) *haqiqat* C) *savob* D) *yorug'lik*

1442. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700338)
Yomon so'zi qaysi gapda og'ir, xatarli ma'nosida qo'llangan?

A) *Hoy do'stim, birovning do'ppisini birovga uddalab kiygizish yomonmi?*
B) *Ostonada turish yomon bo'ladi, qizim, joyingizni bilib o'tiring.*
C) *Inoyat oqsoqol uni ko'pchilik o'rtasida yomon haqorat qilgan edi.*
**D) Yarasi yomon, hushsiz holda hiqillab-hiqillab yotibdi.**

1443. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700339)
Mulk so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llanmagan?

**A) Davlat mulkini, xalq mulkini ko'z qorachig'iday saqlashimiz kerak.**
B) *Oybek qalamiga mansub asarlar allaqachon qardosh xalqlarning ma'naviy mulkiga aylandi.*
C) *Husn mulkida kishi tanho bo'lurmu muncha ham.*
D) *barcha gaplarda mulk so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan*

1444. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700340)
Uning roziligini olmasdan turib, bu ishga oyoq qo‘yish mumkin emas.
Oyoq qo‘ymoq iborasi qanday ma’no anglatadi?

A) *ishga yakun yasamoq* **B)** *ishga kirishmoq*
C) *ishni uddalamoq* D) *ishga bormoq*

1445. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700341)
Sayramoq so‘zi qaysi gapda salbiy ma’noda qo‘llangan?

A) *Tolda chumchuq sayraydi,*
*Tol bargini chaynaydi.*
B) *Dutorimning torlari qo‘sh bulbuldek sayraydi.*
C) *Bir zumda pulemyotlar sayrab ketdi.*
**D) Jo‘ralari orasida ”shirinsuxanlik” bilan tanilgan Olimxon sayrayverdi.**

1446. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700342)
Buning natijasi shu bo‘ldiki, To‘laganning qanshariga musht tushdi.
Qanshar so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

A) *peshonaning chekka qismi*
B) *yuzning jag‘ qismi*
**C) burunning ikki qosh o‘rtasidagi yuqori qismi**
D) *boshning orqa qismi*

1447. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700343)
1. Kun qiyomdan og‘di.
2. Shavla qiyomiga yetib pishgan edi.
3. Kampir o‘ng qo‘liga nonni oldi-da, piyoladagi qiyomga botirdi.
Berilgan gaplarda qo‘llangan qiyom so‘zi haqida to‘g‘ri fikr qaysi javobda berilgan?

A) *uchala gapda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan*
B) *uchala gapda shakldosh so‘zlar qo‘llangan*
C) *ikkinchi va uchinchi gapda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan*
**D) birinchi va ikkinchi gapda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan**

1448. 9.1-1 file-» 12 - 3 - - (700344)
1. Anvar ham muloyimgina kulimsirab olgach ... yana qalamini qoralab qog‘oz ustiga bir-ikki kalima yozdi.
2. Bu bilan men Zokir ota bilan Ro‘zimatni qoralab, o‘zimni oqlamoqchi emasman.
3. Nizomov oltmishni qoralagan baqaloq kishi edi.
Gaplarda qo‘llangan qoralamoq so‘zi haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.

**A) uchala gapda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan**
B) *uchala gapda shakldosh so‘zlar qo‘llangan*
C) *birinchi va ikkinchi gapda bir so‘zning turli ma’nolari qo‘llangan*
D) *ikkinchi va uchinchi gapda shakldosh so‘zlar qo‘llangan*

1449. 9.1-1 file-» 40 - 5 - - 1 (715185)
Qaysi qatordagi birikuvlarda tobe so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

**A) iliq munosabat, chuqur tekshirmoq, xira odam**
B) *ishning ko‘zi, qozonning qulog‘i, yo‘l yoqasi*
C) *sovuq havo, boshi og‘rimoq, qalb izhori*
D) *qalin qor, sergo‘sht ovqat, qo‘l qovushtirmoq*

1450. 9.1-1 file-» 40 - 5 - - 1 (715186)
Qaysi qatorda zid ma’noli so‘zlar birgalikda yangi so‘z hosil qilgan?

A) *yaxshi-yomon, yangi-eski, oq-qora*
**B) yosh-u qari, achchiq-chuchuk, uzoq-yaqindan**
C) *uzun-qisqa, kecha-kunduz, ozg‘in-semiz*
D) *katta-kichik, urush-tinchlik, baland-past*

1451. 9.1-1 file-» 40 - 5 - - 1 (715187)
Nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi birliklarni toping.

**A) ibora, tasviriy ifoda**
B) *ma’nodosh so‘z, ko‘p ma’noli so‘z*
C) *so‘z birikmasi, gap*
D) *sanalgan barcha birliklar*

1452. 9.1-1 file-» 40 - 5 - - 1 (715188)
Qaysi qatordagi kelishik shakllari ko‘makchilar bilan ma’nodosh (sinonim) bo‘la oladi?

A) *Ashulalarida Vatanni madh etdi.*
B) *Mahallada duv-duv gap tarqaldi.*
C) *Botirning ahvoliga achindi.*
**D) berilgan barcha gaplarda**

1453. 9.1-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715196)
Quyidagi birikmalardan qaysilarida xoslik, umumdan ajratilganlik ma’nosi ifodalangan?

A) *ilon zahri, inson qadri*
B) *Vatan tuyg‘usi, ona mehri*
C) *mening opam, daftar varag‘i*
**D) Bobur bog‘i, Yangiqo‘rg‘on tumani**

1454. 9.1-1 file-» 45 - 3 - - 1 (715197)
Ko‘makchi qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantirilsa, qanday o‘zgarish ro‘y beradi?

**A) ko‘makchili qurilma tushiriladi, ergashgan gap kengaygan birikmali sabab holiga aylantiriladi**
B) *ko‘makchili qurilma saqlanadi va ergash gap bir bo‘lak bo‘lib qoladi*
C) *ko‘makchi qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplarni sodda gapga aylantirib bo‘lmaydi*
D) *ergash gapning egasi tushiriladi va bosh gap kengaygan birikmaga aylantiriladi*

1455. 9.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715198)
Qaysi qatorda munosabat shakllari to‘g‘ri va to‘liq keltirilgan?

A) *egalik, kelishik, fe’lning sifatdosh shakli*
B) *egalik, kelishik, shaxs-son, fe’lning bo‘lishsizlik shakli*
C) *egalik, kelishik, shaxs-son*
**D) egalik, kelishik, shaxs-son, zamon, mayl shakllari**

1456. 10.1-2 file-» 41 - 4 - - (301339)
”Kuntug‘mish” dostonining qaysi xalq baxshilaridan yozib olingan variantlari mavjud?

A) *Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Islom Shoir, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li*
**B) Egamberdi Ollamurod o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li**
C) *Saidmurod Lanoq o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Umir baxshi shoir, Berdi baxshi*
D) *Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bo‘ron shoir*

1457. 10.1-2 file-» 41 - 4 - - (301340)
”Kuntug‘mish” dostonida Kuntug‘mishni halokatdan saqlab qolgan timsol kim?

A) *Xolmo‘min yasovulboshi*
B) *Qilichxon laqabli podsho*
C) *Qatag‘anlik Olim sayyod*
**D)** *Qosim qofilaboshi*

1458. 10.1-2 file-» 41 - 4 - - (301341)
”Kuntug‘mish” dostonidagi Kuntug‘mish va Xolbeka taqdirini qaysi timsollarsiz to‘laqonli tasavvur qilish qiyin?

**A) Mullavachcha, Zamonqul, Qosim**
B) *Xolmo‘min, Qilichxon, Azbarxo‘ja*
C) *Shoir vazir, Avliyoi Qoraxon, Mullavachcha*
D) *Xolmo‘min, Toir vazir, Zamonqul*

1459. 10.1-2 file-» 80 - 4 - - (301342)
”Osmondan bir ko‘k kaptar quyulib kelib, bir surhoil gardon, ofatijon, pista dahan bir ajab nozanin pari bo‘lib turdi, irqi olmaday pishgan, qora zulfi och beliga tushgan, ko‘rganning aqli shoshgan, jamoliga oy-u kunlar talashgan ajab bir parizod”.
Ta’riflangan qahramon nomi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *Barchin* B) *Xolbeka* **C)** *Malika Ayyor*
D) *Gulqiz pari*

1460. 10.1-2 file-» 80 - 4 - - (301343)
Davlatimdan sholi-sholdan o‘rayman,
Gul tarzim sarg‘ayib, senga qarayman.
Gul yuzli jononim sendan so‘rayman,
Bir pari paykarim, qaydan bo‘lasan?
Bu qaysi qahramonning so‘rovi?

**A)** *Go‘ro‘g‘li* B) *Avaz* C) *Alpomish*
D) *Kuntug‘mish*

1461. 10.1-2 file-» 80 - 4 - - (301344)
Xalq dostonlarida chavandozlarni o‘limdan qutqarib qolgan otlar nomini belgilang.

A) *Jiyronqush, Qora tulpor*
**B)** *G‘irot, Boychibor* C) *Raxsh, Ko‘kdo‘nan*
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

1462. 10.1-2 file-» 80 - 4 - - (301345)
Soqolim oqarib, yoshim qaytanda,
Yor xanjari o‘rtab ketdi bag‘rimni.
Tishim tushib, oyoq go‘rga yetkanda,
Axtaraman Malikaday parimni.
Ushbu so‘zlar qaysi qahramonga tegishli?

A) *Kuntug‘mish* B) *Hasanxon*
**C)** *Go‘ro‘g‘li* D) *Kayqubod*

1463. 10.1-2 file-» 80 - 5 - - (301346)
”Malika Ayyor” dostonida yasama tilla sher ichida kim bor edi?

A) *Shoqalandar* B) *Shozargar* **C)** *Avaz*
D) *Tillaqiz*

1464. 10.1-2 file-» 80 - 5 - - (301347)
"Malika Ayyor" dostonida yuz quti ichidan qutilib chiqqan, qirq gazlik quduqqa tashlab, tosh bilan to'ldirib, ustidan qo'rg'oshin quyib tashlaganda ham qutilib ketavergan qahramon kim edi?

**A)** *Shozargar* B) *Shoqalandar* C) *Avaz* D) *Asad mergan*

1465. 10.1-2 file-» 80 - 5 - - (301348)
"Haqiqat izlagan senga osildi, Assalomu alaykum, dorning og'ochi",- degan nola kimga tegishli?

A) *Kuntug'mish* B) *Barchin* C) *Alpomish* **D)** *Xolbeka*

1466. 10.1-2 file-» 80 - 5 - - (301349)
Qaysi dostonda bir-birini tanimasdan, birgalikda sevikli yor uchun izlanib, kurashib, ko'p tilsimli sarguzashtlarni boshidan kechirgan ota va o'g'il obrazi berilgan?

A) *"Ravshan" dostoni*
B) *"Alpomish" dostoni*
**C)** *"Malika Ayyor" dostoni*
D) *"Kuntug'mish" dostoni*

1467. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301350)
"Go'ro'g'li" dostoni turkumiga qancha doston kiradi?

**A)** *100 dan ortiq* B) *45 ta* C) *42 ta* D) *70 dan ortiq*

1468. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301351)
Qaysi javobda "Ravshan" dostonidagi epizodik obrazlar ko'rsatilgan?
1) Kampir ena; 2) Oqqiz; 3) aka-uka kallar; 4) Gulqiz; 5) Maston onasi; 6) 500 nafar mirboz

A) *1, 2, 3* **B)** *1, 2, 3, 5* C) *2, 5* D) *1, 2, 3, 4, 5, 6*

1469. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301352)
"Alpomish" dostonining yozib olingan variantlari soni qancha?

A) *100 dan ortiq* **B)** *40 dan ortiq* C) *70 dan ortiq* D) *50 dan ortiq*

1470. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301353)
"Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman",- deb va'da bergan "Alpomish" dostonidagi qalandarsifat kishi aslida kim edi?

A) *Qutbi Zamon* B) *Rajabxo'ja eshon pir* C) *Bobo Qambar* **D)** *Shohimardon pir*

1471. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301354)
Qaysi qahramonning o'ng kiftida Shohimardon pirning qo'l izlari o'rni bor edi?

**A)** *Alpomish* B) *Ravshan* C) *Barchin* D) *Go'ro'g'li*

1472. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301355)
"Alpomish" dostonida bir qancha xotinlar marosimi badiiy talqin etilgan. Shu marosim nomlarini to'g'ri belgilang.
1) "It irillar"; 2) "Kampir o'ldi"; 3) "Soch siypatar"; 4) "Qo'l ushlatar"; 5) "To'qqiz tovuq"; 6) "Surpa soldi"; 7) "Ko'rpa bichdi"

**A)** *1, 2, 3, 4* B) *1, 2, 3, 4, 5, 6, 7* C) *3, 4, 5, 7* D) *2, 5, 6, 7*

1473. 10.1-2 file-» 99 - 1 - - (301356)
"Alpomish" dostonida Alpomish, Qorajon, Barchinga tushlari vositasida nimaga ishora qilinadi?

A) *Alpomish g'alabasiga* B) *do'stlikka* **C)** *kelajak taqdirga* D) *to'rtta shartni bajarishga*

1474. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301357)
"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonda "sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar" deb ta'riflangan qahramonlar nomini belgilang.

A) *Ravshan, Hasanxon*
B) *Aynoq kal, Jaynoq kal, Ersak kal, Tersak kal*
C) *Alpomish, Qorajon*
**D) Avazxon, Hasanxon**

1475. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301358)
"Shunday niginga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor, har yerda suluv barno qiz bo'lsa, oti bor..." Ushbu tilsimli ashyo uchraydigan dostonni ko'rsating.

**A)** *"Ravshan" dostoni*
B) *"Kuntug'mish" dostoni*
C) *"Alpomish" dostoni*
D) *"Malika Ayyor" dostoni*

1476. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301359)
Qahramonlarga devlar yordam beradigan doston nomini belgilang.

A) *"Kuntug'mish"* **B)** *"Malika Ayyor"* C) *"Alpomish"* D) *"Ravshan"*

1477. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301360)
"Malika Ayyor" dostonida "bir pari paykarim", "Zulayho nishonim", "chehrasi xandonim" deya ta'rif berilgan qahramon nomini toping.

A) *Gulqiz* B) *Tillaqiz* **C)** *Malika Ayyor* D) *Gulzamon*

1478. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301361)
Alpomish qalmoq yurtiga ketayotganda ruhlantirib, dalda bergan kim edi?

A) *Boybo'ri* B) *Qultoy* **C)** *Qaldirg'och* D) *Yartiboy baxshi*

1479. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301362)
"Alpomish" dostonida alplar "Kelganboy" deb kimni aytishar edi?

A) *Alpomishni* B) *Kayqubodni*
**C)** *Boysarini* D) *Qalmoqshohni*

1480. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301363)
"Malika Ayyor" dostonida Tillaqizga oshiq bo'lgan, ko'p sinovlardan o'tgan qahramon nomini belgilang.

A) *Avaz* B) *Asad va Shodmon merganlar*
**C)** *Shozargar* D) *Shoqalandar*

1481. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301364)
Qorong'ilikda parilar, devlar yasagan, ko'rganlar darmonda va ko'rmaganlar armonda qoladigan shahar nomi qaysi dostonda uchraydi?

A) *"Ravshan" dostonida Shirvon*
B) *"Alpomish" dostonida Oynako'l*
C) *"Kuntug'mish" dostonida Zangar yurti*
**D)** *"Malika Ayyor" dostonida Torkiston*

1482. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301365)
Malika Ayyor o'z yurtini necha kunlik yo'lda deydi?

**A)** *oltmish yillik* B) *uch kunlik*
C) *to'qson kunlik* D) *ellik yillik*

1483. 10.1-2 file-» 80 - 6 - - (301366)
Malika Ayyorning tilsimli tulporini belgilang.

A) *Saman* **B)** *Qora tulpor* C) *Maqotil*
D) *Ko'kdo'nan*

1484. 10.1-2 file-» 1 - 41 - - (301367)
Folklorshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra nechanchi asrda yirik dostonchilik maktablari paydo bo'lgan?

A) *XI - XII asrlarda* **B)** *XV - XVI asrlarda*
C) *XVI - XIX asrlarda* D) *XX asr boshlarida*

1485. 10.1-2 file-» 5 - 1 - - (400342)
"Qisas ar-Rabg'uziy"da tasvirlanishicha, Odamga sajda qilmagan farishta kim edi?

A) *Azroil* **B)** *Azozil* C) *Mikoil*
D) *Isrofil*

1486. 10.1-2 file-» 1 - 43 - - (400343)
"Alpomish" dostonida Barchin ushbu so'zlarni kimga qarata aytadi?
Yiqmasangiz, to'ram, navbat tilayin,
Erkak libosini o'zim kiyayin.
Bor kuchimni bilagima jiyayin,
Bul qalmoqni pora-pora qilayin.

**A)** *Hakimbekka* B) *Ko'kaldoshga*
C) *Qorajonga* D) *Qo'shquloqqa*

1487. 10.1-2 file-» 11 - 2 - - (400344)
"To'g'ri bo'ling - bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang - xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang - baxtsiz bo'lmaysiz". Bu maslahatlar qaysi ertakda aytilgan?

**A)** *"Uch og'a-ini botirlar"* B) *"Susambil"*
C) *"Malikai Husnobod"*
D) *"Zumrad va Qimmat"*

1488. 10.1-2 file-» 11 - 3 - - (400345)
Xalq dostonlariga xos xususiyat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1. Xalq dostonlari qahramonlari favqulodda xususiyatga ega bo'ladi.
2. Xalq dostonlari qahramonlari qaltis sinovlarga duch keladi.
3. Xalq dostonlari she'riy va nasriy yo'lda yaratiladi.
4. Xalq dostonlari asosan yozma dostonlar ta'sirida yaratiladi.
5. Xalq dostonlari yirik hajmli va muallifi noma'lum bo'ladi.
6. Xalq dostonlari aytilish usuliga ko'ra qahramonlik, jangnoma, romantik, tarixiy va kitobiy dostonlarga bo'linadi

**A)** *1, 2, 3, 5* B) *1, 2, 3, 4, 5, 6*
C) *1, 2, 4, 5* D) *1, 2, 3, 5, 6*

1489. 10.1-2 file-» 11 - 3 - - (400346)
Qaysi dostonchilik yo'nalishida doston musiqa asbobisiz aytiladi?

A) *Qashqadaryo-Surxondaryo* **B)** *Farg'ona*
C) *Xorazm* D) *Samarqand*

1490. 10.1-2 file-» 11 - 3 - - (400347)
Ma'lum afsonaviy yoki an'anaviy sujetning biror adib tomonidan qayta ishlanib, adabiylashtirilgan nusxasi bo'lgan janr nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *afsona* B) *xalq dostonlari*
C) *adabiy ertak* **D)** *xalq kitoblari*

1491. 10.1-2 file-» 99 - 2 - - (400348)
"Qilichxon" laqabi bilan tanilgan shoh obrazi qaysi asar qahramoni?

A) *"Shohnoma"* B) *"Xudoynoma"*
**C)** *"Kuntug'mish"* D) *"Rustamxon"*

1492. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400349)
To'yda izza bo'lgan aka-ukalar obrazi qaysi asarda berilgan?

A) *"Uch og'a-ini botirlar"* **B)** *"Alpomish"*
C) *"Ravshan"* D) *"Kachal polvon"*

1493. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400350)
"Alpomish"da Boysaribiy "Mening toza ulsizligim bildirdi" deb qaysi voqeaga ishora qiladi?
**A)** *zakot voqeasiga* B) *ko'chishga*
C) *qalmoq muzofotiga*
D) *zindonga tushishiga*

1494. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400351)
"Alpomish"da Eliboylar nomi bilan qanday ijtimoiy tabaqa tilga olinadi?
A) *ko'chmanchilar* B) *qalmoqlar*
**C)** *chorvadorlar* D) *dehqonlar*

1495. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400352)
Barchinning poygasiga Qalmoq yurtidan qancha ot qatnashadi?
A) *100 ta* B) *99 ta* C) *500 ta*
**D)** *499 ta*

1496. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400353)
Rajabxo'ja pir obrazi qaysi xalq dostonida uchraydi?
**A)** *"Alpomish"da* B) *"Malika ayyor"da*
C) *"Ravshan"da* D) *"Kuntug'mish"da*

1497. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400354)
"Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema"
degan chaqiriqni Qorajonga qarata kim aytgan?
**A)** *Rajabxo'ja eshon* B) *Barchin*
C) *Alpomish* D) *Qutbi zamon*

1498. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400355)
Poyga oxirida Boychibor qaysi ot bilan quvlashib, yo'l talashib, poyganing oldini oladi?
A) *Saman* **B)** *Ko'kdo'nan* C) *Ko'ktoy*
D) *Oqto'sh*

1499. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400356)
Dostonlarda asosan necha bo'g'inli she'riy ifodalar uchraydi?
**A)** *7, 8, 11* B) *7, 8, 9* C) *6, 7, 11*
D) *7, 8, 12*

1500. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400357)
"Alpomish" dostonida uchraydigan sinchi obrazi qaysi javobda berilgan?
A) *Tersak* **B)** *Ko'sa* C) *Haqdil*
D) *Ko'kaman*

1501. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400358)
"Alpomish" dostonida tasvirlanishicha, "Bir kam to'qson alp otdan tappa-tappa tashlab, qo'l qovushtirib ta'zim qildi". Ular kimga ta'zim qildilar?
A) *Barchinga* B) *poygaga yig'ilganlarga*
**C)** *Alpomishga* D) *Qutbi zamon pirga*

1502. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400359)
"Alpomish"da o'z vazifasini haqqoniy bajarib, haq so'zni so'zlab ikki ko'zidan ayrilgan obraz nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
**A)** *Ko'sa* B) *Rajabxo'ja eshon*
C) *Yartiboy* D) *Sinchi Tersak*

1503. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400360)
Qaysi asarda kitob orqali o'g'il bilan ota o'rtasida saxiylik va baxillik haqida suhbat bo'lib o'tadi?
A) *"Ravshan"da* **B)** *"Alpomish"da*
C) *"Sab'ai sayyor"da* D) *"Qobusnoma"da*

1504. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400361)
"Shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib uchchovini ham maktabga qo'ydi". "Alpomish"dan olingan ushbu parchada qanday she'riy san'at qo'llangan?
A) *epilog* B) *talmeh* **C)** *saj'*
D) *uslubiy formula*

1505. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400362)
"Malika ayyor" dostonida kishining aslida kimligini bexato payqay biladigan sinchi qiz obrazi qaysi javobda berilgan?
A) *Malika ayyor* B) *Tillaqiz* C) *Zamongul*
**D)** *Gulqiz*

1506. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400363)
"Malika ayyor" dostonida o'zgalar qismatini bashorat qila olsa ham, o'z qismatini bilmaydigan bashoratchi obrazi qaysi javobda berilgan?
A) *Shoqalandar* B) *Malika ayyor*
**C)** *Tillaqiz* D) *Shozargar*

1507. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400364)
Otim - Yo'lchi, o'zim yurgan qalandar, Valiulloh nom ko'tarib yuraman, Qalandar zohir surat muqarrar, deb Shoqalandar kimga o'zini tanishtiradi?
**A)** *Qosimshohga* B) *Avazga*
C) *Shozargarga* D) *Shahzoda Mahmudga*

1508. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400365)
O'n qo'lima o'n bir uzuk,
Taqib qo'yinglar, qizlarim.
Zarli kovush chang bo'lmasin,
Qoqib qo'yinglar, qizlarim.
Ushbu xalq qo'shig'idan olingan to'rtlik qaysi asarda keltirilgan?
A) *"Mehr va Suhayl"da*
**B)** *"Malika ayyor"da* C) *"Ravshan"da*
D) *xalq termalarida*

1509. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400366)
"Malika ayyor"da "Maydon qurib o'lmoq erga savobdir", - deb e'tiqodiga qarshi bormaydigan jangchi obrazini toping.

A) *Mahmud* B) *Avaz* **C)** *Shodmon* D) *Asad*

1510. 10.1-2 file-» 99 - 3 - - (400367)
"Malika ayyor"da Avaz o'zini Maqotilga tanishtirar ekan, o'zini nimaga qiyoslaydi?

A) *Go'ro'g'liga* B) *Rustamga* C) *devlarga* **D)** *ajdarhoga*

1511. 10.1-2 file-» 45 - 2 - - (700346)
"Alpomish" dostonida "Xudoning yaratgan sheri" deya ta'riflangan obraz qaysi?

A) *Alpomish* **B)** *Shohimardon pir* C) *Qorajon* D) *Ko'kaldosh*

1512. 10.1-2 file-» 45 - 2 - - (700347)
Alpomish dostonida tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi deya ta'riflangan qahramon qaysi?

A) *Alpomish* **B)** *Shohimardon pir* C) *Rajabxo'ja Eshon* D) *Qorajon*

1513. 10.1-2 file-» 45 - 1 - - (700348)
"Kuntug'mish" dostonida Azbarxo'ja Kuntug'mishni kigiz ostiga bostirib, bolalarini tashlab ketgan edi. O'sha cho'l nomini ko'rsating.

**A)** *Zarchaman* B) *Chilbir* C) *Mirzacho'l* D) *Qizilqum*

1514. 10.1-2 file-» 45 - 1 - - (700349)
Xalq dostonlarida maydon talashayotgan otlar holati yoki jang ko'rinishi tasviri necha bo'g'inli misralarda keladi?

A) *11 bo'g'inli* B) *13 bo'g'inli* **C)** *8 bo'g'inli* D) *6 bo'g'inli*

1515. 10.1-2 file-» 1 - 49 - - (700350)
"Ravshan" dostonidagi kampirning yilqi tulporini suyagidan tanuvchi, qilichning o'tkirini qinidan biluvchi o'g'lining oti qaysi qatorda berilgan?

A) *Aynoq kal* B) *Jaynoq kal* C) *Ersak kal* **D)** *Tersak kal*

1516. 10.1-2 file-» 11 - 7 - - (700351)
**Shukur, ajalimiz yetgani yo'q ekan, o'lmay shu tog'ga keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo'lsa kerak.** Berilgan gap qaysi asarda kimlar tomonidan aytilgan?

A) *"Uch og'a-ini botirlar", uch aka-uka*
B) *"Alpomish", Alpomish va Qorajon*
**C) "Kuntug'mish", Kuntug'mish va Xolbeka**
D) *"Susambil", eshak, ho'kiz, xo'roz, kalamushlar va arilar*

1517. 10.1-2 file-» 11 - 7 - - (700352)
Qaysi xalq dostoni qahramoni "Qush uchmagan cho'llardan, So'na yuzgan ko'llardan, odami yo'q yo'llardan, Dim uchi yo'q cho'llardan qistab o'tib boradi"?

A) *"Ravshan", Ravshan*
B) *"Kuntug'mish", Kuntug'mish*
**C)** *"Ravshan", Hasanxon*
D) *"Alpomish", Alpomish*

1518. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700353)
Quyida berilgan qahramonlar nimaning ramzi ekanligi to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) Kuntug'di; 2) Oyto'ldi; 3) O'gdulmish; 4) O'zg'urmish;
a) sog'lomlik ramzi; b) aql va zakovat ramzi; c) adolat ramzi; d) baxt va davlat ramzi

A) *1-b, 2-d, 3-a, 4-c* B) *1-a, 2-c, 3-b, 4-d* C) *1-a, 2-b, 3-c, 4-d* **D)** *1-c, 2-d, 3-b, 4-a*

1519. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700354)
8-sinf darsligida "Kuntug'mish" dostonining qaysi baxshidan yozib olingan nusxasi keltirilgan?

A) *Bekmurod Jo'raboy o'g'li*
B) *Nurmon Abdivoy o'g'li*
**C)** *Ergash Jumanbulbul o'g'li*
D) *Egamberdi Ollomurod*

1520. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700355)
"Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish va Xolbeka ichiga solingan xom teri necha kun deganda otning dumidan uzilib, tushib qoladi?

A) *3 kun* B) *7 kun* **C)** *6 kun* D) *9 kun*

1521. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700356)
"Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish va Xolbekaning xom teri ichidan chiqib olishiga nima yordam beradi?

A) *baytal* **B)** *quzg'un* C) *cho'l jonivorlari* D) *it*

1522. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700357)
Qaysi folklor asarida Qur'oni Karimni o'rtaga qo'yib do'st tutingan, lekin bunga amal qilmagan xiyonatkor odam obrazi bor?

A) *"Ravshan"* **B)** *"Kuntug'mish"* C) *"Uch og'a-ini botirlar"* D) *"Susambil"*

1523. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700358)
"Kuntug'mish" dostonida qaysi daryo nomi keltirilgan?

A) *Mug'ol* **B)** *Tajang* C) *Amudaryo* D) *Sirdaryo*

1524. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700359)
"Alpomish" dostonidagi Kelganboy kim?

A) *Alpomish* B) *Qorajon* C) *Boybo'ri* **D)** *Boysari*

1525. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700360)
Og'zaki folklorning dramatik turiga kiruvchi janrlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

**A) askiya, og'zaki drama, xalq teatrlari, qo'g'irchoq o'yini**
B) *askiya, masal, xalq teatrlari, qo'g'irchoq o'yini*
C) *doston, xalq teatrlari, askiya*
D) *doston, masal, askiya*

1526. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700361)
Yortiboy oqsoqol personaji qaysi asarda qatnashadi?

A) *"Susambil"* **B) *"Alpomish"***
C) *"Ravshan"* D) *"Kuntug'mish"*

1527. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700362)
"Alpomish" dostonida Barchinning ko'rgan tushi ta'birini kim aytib beradi?

A) *onasi* B) *otasi* **C) *Suqsuroy***
D) *o'zi topadi*

1528. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700363)
"Alpomish" dostonida Alpomish tomonidan Barchinga sovchi bo'lib borgan kim edi?

A) *Alpomishning o'zi* **B) *Qorajon***
C) *Qaldirg'och oyim* D) *Alpomishning onasi*

1529. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700364)
"Alpomish" dostonida tasvirlangan poygada qalmoq yurtidan nechta ot qatnashadi?

A) *500 ta* **B) *499 ta*** C) *40 ta* D) *41 ta*

1530. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - (700365)
**Aybsiz do'st axtargan ...**
Maqolning davomi qaysi javobda berilgan?

A) *odamning o'zi aybli* **B) *do'stsiz qolar***
C) *o'ziga do'st topolmas*
D) *odam - o'ziga dushman*

1531. 10.1-2 file-» 20 - 3 - - (700366)
"Kuntug'mish" dostoni qahramonlari haqida bildirilgan fikrlarning qaysi biri noto'g'ri?
1) Kuntug'mish – Avliyoyi Qoraxonning o'g'li; 2) Kuntug'mish – Qilichxon laqabli Avliyo otaning o'g'li; 3) Kuntug'mish – No'g'ay podshosining o'g'li; 4) Xolbeka – Zangar podshosining qizi; 5) Xolbeka – Shoir vazirning qizi; 6) Xolbeka – Tohir vazirning qizi.

A) *1, 2, 5, 6* B) *3, 5* **C) *4, 6*** D) *1, 5, 6*

1532. 10.1-2 file-» 20 - 3 - - (700367)
**Otimni ... deydi. Men ...ning xoniman,**
**Dilbaridan ayrilib, men bir ajab sarsoniman,**
**O'ldirib ikki qo'zimni diydayi giryoniman,**
**Onadin baxti qaro tug'dim, shuning hayroniman.**
Dostondan olingan ushbu parchada nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan nomlarni belgilang.

A) *Alpomish, Qo'ng'irot*
B) *Ravshan, Chambil* C) *Qorajon, Kashal*
**D) *Kuntug'mish, No'g'ay***

1533. 10.1-2 file-» 20 - 3 - - (700368)
"Kuntug'mish" dostonida dastlab Kuntug'mish bilan do'stlashib, so'ng o'z manfaatini deb unga xiyonat qilgan qahramon kim?

A) *Buvraxon* **B) *Azbarxo'ja***
C) *Xolmo'min* D) *Qosim*

1534. 10.1-2 file-» 11 - 9 - - (700369)
Mosuvoday ko'kka uchdim,
Ajal sharobidan ichdim,
Bu dunyo bahridan kechdim,
Qalandar bo'lganim bo'lgan, – degan so'zlarni qaysi xalq dostoni qahramoni aytadi?

A) *"Alpomish", Alpomish*
B) *"Ravshan", Hasanxon*
**C) *"Kuntug'mish", shahzoda***
D) *"Kuntug'mish", Qoraxon podsho*

1535. 10.1-2 file-» 11 - 9 - - (700370)
Yaxshilarning yuzin ko'rsang – jannatdir,
Yomon odam qilgan ishi – minnatdir,
Achchig'lanmay javob bergin, chirog'im,
Ot so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir.
"Kuntug'mish" dostonida bu so'zlarni kim aytgan?

A) *cho'pon* **B) *Gurkiboy*** C) *Mohiboy*
D) *Kuntug'mish*

1536. 10.1-2 file-» 11 - 9 - - (700371)
"Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mish dorga osish uchun olib kelingan o'g'illarini qanday tanib qoladi?

A) *Xolbekaning "Voh, Mohi" deb yig'laganidan*
B) *Azbarxo'janing so'zlaridan*
**C) Mohining so'zlaridan**
D) *Gurkining so'zlaridan*

1537. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715200)
Farg'onada ertak qanday ataladi?

A) *ushuk* B) *varsaki* **C) *matal***
D) *cho'pchak*

1538. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715201)
Xorazmda ertak qanday ataladi?
A) *ushuk* **B)** *varsaki* C) *matal*
D) *cho'pchak*

1539. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715202)
"Ochildasturxon" ertagi qaysi turkum ertaklariga mansub?
**A) sehrli ertaklar**
B) *hayotiy-maishiy ertaklar*
C) *hayvonlar haqidagi ertaklar*
D) *hajviy ertaklar*

1540. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715203)
Shukur Sa'dulla qalamiga mansub she'riy ertaklarni belgilang.
1) "Ayyor chumchuq"; 2) "No'xat polvon";
3) "Kachal polvon"; 4) "Laqma it";
5) "Yoriltosh"; 6) "Afsona yaratgan qiz"
**A)** *1, 2, 4* B) *1, 2, 3, 4* C) *1, 2, 3, 5, 6*
D) *2, 3, 5, 6*

1541. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715204)
Qaysi ertak qahramoni yuragi va ko'ziga ko'zgu parchasi tushib qolgach, buvisini masxaralaydigan, qo'ni-qo'shnilar ustidan kuladigan, chiroyli gullarni toptaydigan bolaga aylanib qoladi?
**A)** *"Qor malikasi"* B) *"Dyumchaxon"*
C) *"Suv parisi"* D) *"Bronza to'ng'iz"*

1542. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715205)
"Manas" qirg'iz xalq eposi, "Qirq qiz" qoraqalpoq xalq dostoni qaysi adib tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan?
**A)** *Mirtemir* B) *Hamid Olimjon*
C) *Oybek* D) *Usmon Nosir*

1543. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715206)
Xorazmda doston aytuvchilar nima deb ataladi?
A) *shoir* **B)** *xalfa* C) *baxshi* D) *oqin*

1544. 10.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715207)
Qaysi dostonda "G'aribning ko'nglini ovlamoq savob", "Qilichdan seskanmas botirning tani", "Gavharni ne bilsin ushalgan sopol", "Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, yomon odam qilgan ishi minnatdir" kabi baytlar hikmatli so'zlar darajasiga ko'tarilgan?
A) *"Malikai ayyor"* B) *"Ravshan"*
C) *"Alpomish"* **D)** *"Kuntug'mish"*

1545. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715208)
Xalq og'zaki ijodidagi qaysi qahramon ikki asrandi o'g'ilni tarbiya qilib katta qiladi?
A) *Boybo'ri* B) *Hasanxon* C) *Qilichxon*
**D)** *Go'ro'g'li*

1546. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715209)
"Ravshan" dostoni qahramoni Ravshan nima uchun zindonga tushib qoladi?
**A) yosh va tajribasiz bo'lganligi uchun**
B) *o'zga dinga kirmaganligi uchun*
C) *xonga gap qaytargani uchun*
D) *Zulxumorni sevganligi uchun*

1547. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715210)
"Ravshan" dostonida Ravshanni qutqarish uchun kelgan Hasanxonni birinchi bo'lib kim tanib qoladi?
A) *Aynoq kal* **B)** *Jaynoq kal* C) *Ersak kal*
D) *Tersak kal*

1548. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715211)
"Ravshan" dostonida Ravshanning bandi qilingani haqida xat kelganida berilgan muhlatning necha kuni qolgan edi?
A) *30 kun* B) *40 kun* **C)** *20 kun*
D) *1 hafta*

1549. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715212)
Sharq bozorining jonli tasviri qaysi xalq dostonida berilgan?
A) *"Alpomish"* **B)** *"Ravshan"*
C) *"Malikai ayyor"* D) *"Kuntug'mish"*

1550. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715213)
Dostonchilik taraqqiyotida eng rivojlangan davr qaysi asrga to'g'ri keladi?
A) *XV-XVI asrlar* B) *XX asr boshlari*
**C)** *XIX-XX asrlar* D) *XVIII asr*

1551. 10.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715214)
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi unvoni qachon ta'sis etilgan?
A) *2001-yil* **B)** *2000-yil* C) *1997-yil*
D) *1991-yil*

1552. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301368)
Nodonlardan hatto do'zax ham hazar qiladi, "Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardin", - deb kuyingan shoir nomini belgilang.
A) *Navoiy* B) *Turdi Farog'iy*
**C)** *Ahmad Yassaviy* D) *Mashrab*

1553. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301369)
"Qisasi Rabg'uziy"ga ko'ra, "Ilohi, man o'zimni dono bilib yurur erdim, Maning bilganim bu mo'rchaning oldida hech nimarsa ekan", - deb tavba qilgan zot nomini aniqlang.
A) *Dovud* **B)** *Sulaymon* C) *Namrud*
D) *No'shiravon*

1554. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301370)
"Qutadg'u bilig"da: "Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat bo'ladi, Hamma nafas oluvchi tiriklar bularga hojatmand bo'ladi", - deb qaysi toifaga ta'rif beriladi?

A) *hunarmandlarga*
B) *g'ulom (qul), kanizaklarga*
C) *savdogarlarga* **D)** *dehqonlarga*

1555. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301371)
"Avesto"da "shafqatli, qudratli, bilgich, tik qomat va uyg'oq, yuz ming tuman ko'zli", - deya ta'riflangan zot kim?

**A)** *Mitra* B) *Axura Mazda (Xo'rmuzd)*
C) *Axriman* D) *Axura Varya*

1556. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301372)
Xoja haqida ma'lumotlar qaysi manba orqali yetib kelgan?

**A)** *"Muzakkiri ahbob" tazkirasi*
B) *"Majolis un-nafois" tazkirasi*
C) *"Boburnoma"*
D) *Xojaning o'z asarlari orqali*

1557. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301373)
Ulki, ogahlarning ogahidur,
Fazlu donish sipehrining mahidur.
So'zi ortuq durur guhardin ham,
Fazlu donishda olam ichra olam.
Ogahiyga berilgan ushbu ta'rif kim tomonidan bitilgan?

**A)** *Komil Xorazmiy*
B) *Muhammad Rahim II - Feruz* C) *Munis*
D) *Tabibiy*

1558. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301374)
Amiriyning juda uzoq yillardan buyon mashhur "Chorzarb" kuyiga solinib, qo'shiq sifatida aytib kelinayotgan g'azalini belgilang.

A) *"Lab uyur takallumg'a, zulfingni parishon qil"*
**B) "Qoshingg'a teguzmagil qalamni"**
C) *"Junun daryosi tug'yon aylamakni mendin o'rgandi"*
D) *"Ishq asrorin pinhon aylaram ag'yor aro"*

1559. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301375)
Qaysi shoir "husn"ni "Mus'haf" ("Qur'on") ga, "meng" (xol) ni oyatga o'xshatib, yor go'zalligini tasvirlashdan maqsad Alloh ekanligiga ishora qilgan?

A) *Lutfiy* B) *Amiriy* **C)** *Atoyi*
D) *Uvaysiy*

1560. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301376)
"Ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulqlig', islom yo'rig'lig', odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi..." deya ta'riflangan hukmdor nomini belgilang.

A) *Muhammad Xo'jabek* B) *Husayn Boyqaro*
C) *Dod Sipohsolor*
**D)** *Nosiruddin To'qbug'abek*

1561. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301377)
Shoir Yusuf Saryomiy o'z she'rida "karomatlar xazinasi", "oriflar sultoni" deya kimni ta'riflagan?

A) *Bahovuddin Naqshband* B) *Mashrab*
**C)** *Ahmad Yassaviy* D) *So'fi Olloyor*

1562. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301378)
G'azaliyotga dialog (savol-javob) usulini kiritgan shoirni aniqlang.

**A)** *Lutfiy* B) *Atoyi* C) *Navoiy*
D) *Xorazmiy*

1563. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301379)
Yorning yuzini jannat bog'iga, ma'shuqaning o'zini esa "rashki rizvon" (jannatning rashkini keltiruvchi) deya ta'riflagan shoir kim?

A) *Atoyi* B) *Navoiy* C) *Xorazmiy*
**D)** *Lutfiy*

1564. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301380)
"Majolis un-nafois" tazkirasida "Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar (e'tiqod qo'yganlar) va bag'oyat ta'rifin qilurlar", - deb kimga ta'rif berilgan?

**A)** *Sakkokiy* B) *Navoiy* C) *Lutfiy*
D) *Haydar Xorazmiy*

1565. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301381)
Yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o'xshatgan shoir nomini belgilang.

A) *Lutfiy* **B)** *Atoyi* C) *Navoiy*
D) *Xorazmiy*

1566. 11.1-1 file-» 80 - 4 - - (301382)
Mumtoz shoirlarimizdan kimning devoni "Faqrnoma" deb atalgan so'zboshi bilan boshlanadi?

A) *Atoyi* **B)** *Ahmad Yassaviy*
C) *Mashrab* D) *Navoiy*

1567. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301383)
"O'n ikkida bu sirlarni ko'rdim mano",- deya din, dunyo va tasavvuf sirlarini yilma-yil o'rganib borganini aytgan avliyo-shoirni belgilang.

A) *Najmiddin Kubro*
B) *Bahovuddin Naqshband*
**C)** *Ahmad Yassaviy* D) *Boborahim Mashrab*

1568. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301384)
Oh urarman, oh urarman,
Ohlarim tutgay seni.
Ko‘z yoshim daryo bo‘lib,
...
Qo‘shiqning to‘rtinchi misrasini toping.
A) *Uvoli tutgay seni* **B)** *Baliqlari yutgay seni*
C) *Qarg‘ishlarim urgay seni*
D) *Ko‘z yoshlarim tutgay seni*

1569. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301385)
Yusuf Xos Hojib nimani insonlar yo‘lini yorituvchi mash’alaga qiyoslagan?
**A)** *ilmni* B) *quyoshni* C) *odobni*
D) *adolatni*

1570. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301386)
Alisher Navoiy kimlarning muhabbati tufayli o‘z muhabbatini ham hikoya qilib, doston bitajagini yozgan?
A) *Farhod va Shirin* B) *Layli va Majnun*
**C)** *Shayx San’on va tarso qiz*
D) *Bahrom va Dilorom*

1571. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301387)
So‘fiylikda inson fe’lining eng katta qusurlaridan biri nima?
**A)** *kibru havo, manmanlik*
B) *ochko‘zlik, yebto‘ymaslik*
C) *baxillik, xasislik*
D) *hasadgo‘ylik, ko‘rolmaslik*

1572. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301388)
Ma’rifiy yo‘nalishda bitilgan, ma’rifatdan, pokiza tuyg‘ulardan yiroq zamondoshlari haqidagi nadomatlari ifodalangan ”Buxl eliga demagil, ey zubdayi davron so‘zung” misrasi bilan boshlanadigan g‘azal muallifini belgilang.
A) *Navoiy* B) *Bobur* **C)** *Komil*
D) *Furqat*

1573. 11.1-1 file-» 80 - 5 - - (301389)
Bashariyatning qabohati va saodati, ilm rivoji va madaniyatning axloqqa ta’siri, moddiy ne’matlar istifodasi kabi masalalar haqidagi qaysi falsafiy-lirik doston ozarbayjon adabiyotining nodir namunasi hisoblanadi?
A) *”Laylovu Majnun”* B) *”Maxzan ul-asror”*
**C)** *”Alvohi intiboh”* D) *”Shikoyatnoma”*

1574. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301390)
Sharqda devon tuzish uchun quyidagi qaysi qoida va tartiblarga rioya qilingan?
1. G‘azallar alifbo tartibida joylashtiriladi.
2. Alifboni belgilashda misraning boshidagi harf hisobga olinadi.
3. Alifboni belgilashda misra oxiridagi harf hisobga olinadi.
4. Barcha harflarga tugaydigan g‘azallar bo‘lishi shart.
5. Debocha bo‘lishi shart.
6. Har bir devonda 10 dan ortiq janrlar qo‘llanishi shart.
A) *1, 2, 4* B) *1, 2, 5* **C)** *1, 3, 4*
D) *1, 2, 3, 4, 5, 6*

1575. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301391)
Muqimiy ”Sayohatnoma” asarida o‘ndan ortiq qishloqlarni tilga oladi va qaysi qishloq aholisining iqtisodi yaxshi ekanligini ko‘rib mamnuniyat bilan qayd etadi?
A) *Rafqon* **B)** *Nursux* C) *Isfara*
D) *Yakkatut*

1576. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301392)
Rim viloyatida musiqa yordamida bebosh tuyalarni qo‘lga o‘rgatish odati haqida kimning asarida aytiladi?
A) *Abulg‘oziy, ”Shajarai turk”da*
B) *Navoiy, ”Sab’ai sayyor”da*
**C)** *Rabg‘uziy, ”Qisasi Rabg‘uziy”da*
D) *As-Saolibiy, ”Yatimat ut-dahr”da*

1577. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301393)
Navoiy ”Xamsa” dostonlarining qaysi biri muqaddimasida ”Xamsa” yozishdagi o‘ziga xos yo‘riqlarini bayon etgan?
A) *”Hayratul-abror”da*
B) *”Saddi Iskandariy”da*
**C)** *”Farhod va Shirin”da*
D) *”Sab’ai sayyor”da*

1578. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301394)
Ma’lumki, Navoiyning ”Hayrat ul-abror” dostoni 63 bobdan iborat. Shundan necha bobi xotimadan iborat?
**A)** *2* B) *3* C) *1* D) *4*

1579. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301395)
Navoiy ”Hayrat ul-abror”ning birinchi maqolotida nima haqida yozgan?
A) *so‘z haqida* B) *rostlik haqida*
C) *adolat haqida* **D)** *iymon haqida*

1580. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301396)
Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.
Navoiy ushbu hikmatli misralarini qaysi asarida yozgan?

**A)** *"Hayrat ul-abror"da*
B) *"Lison ut-tayr"da*
C) *"Mahbub ul-qulub"da*
D) *"Nazm ul-javohir"da*

1581. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301397)
Bu bo'lg'ay dardu ishq oyini vah-vah!
Vafou mehr sharti, ollah-ollah!
Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay!
G'amidan beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay!
Bu tanbehlar Navoiyning qaysi asaridan olingan va kimning kimga aytgan tanbehi?

**A) "Farhod va Shirin"dan, Farhodning Xusravga**
B) *"Layli va Majnun"dan, Qaysning Ibn Salomga*
C) *"Sab'ai sayyor"dan, Suhaylning Jobirga*
D) *"Sab'ai sayyor"dan, Diloromning Bahromga*

1582. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301398)
Navoiy qaysi asarini "shavq dostoni" deb ataydi?

A) *"Layli va Majnun"ni*
**B)** *"Farhod va Shirin"ni*
C) *"Sab'ai sayyor"ni* D) *"Lison ut-tayr"ni*

1583. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301399)
Navoiy "Xamsa"ning qaysi qahramonini "bir yilda Qur'oni karimni yod oldi", deydi?

A) *Shayx Roziyni* B) *Qaysni*
C) *Shayx San'onni* **D)** *Farhodni*

1584. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301400)
Navoiy "Xamsa" qahramonlaridan qaysi birini "dard elining shohi", "dard o'ti ogohi" deb ta'riflaydi?

A) *Qaysni* **B)** *Farhodni* C) *Bahromni*
D) *Laylini*

1585. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301401)
Laylining otasi nima sababdan qizini Qaysga berishni lozim topmadi?

**A)** *malomatga qolgani uchun*
B) *nasabda teng ko'rmaydi*
C) *mavqeda teng ko'rmaydi*
D) *boylikda teng ko'rmaydi*

1586. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301402)
As'hobg'a mayli lolavu bog',
Ul ikki ichinda loladek dog'.
As'hobg'a g'uncha sari ohang,
Bu ikki nechukki g'uncha diltang.
Navoiy ushbu tasvirda "ul ikki", "bu ikki" deb talmeh yordamida o'zining qaysi qahramonlariga ishora qilgan?

A) *Farhod, Shirin* **B)** *Layli, Majnun*
C) *Bahrom, Dilorom* D) *Vasiq, Uzro*

1587. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301403)
Navoiyning qaysi badiiy qahramoni muhabbat uchun o'z kanizlari oldida yer o'padi?

A) *Shirin* B) *Dilorom* **C)** *Layli*
D) *Luboti Chin*

1588. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301404)
Qaysi tazkirada Mashrab haqida ma'lumot bor?

A) *"Majmuat ush-shuaro"*
B) *"Tazkirat ul-avliyo"*
**C)** *"Tazkirai qalandaron"*
D) *"Tazkirai avliyoi turkiy"*

1589. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301405)
Bobur "Boburnoma"da qaysi shaharning o'ziga xos bozori haqida yozib o'tadi?

A) *Toshkent* B) *Buxoro* C) *Andijon*
**D)** *Samarqand*

1590. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301406)
"Qissai Mashrab"da aytilishicha, Mashrab Ofoq Xoja huzuriga borganda, hazrat Mashrabdan kimning g'azalini o'qishni so'raydi?

**A)** *Hofiz Sheroziy* B) *Navoiy* C) *Lutfiy*
D) *Sa'diy Sheroziy*

1591. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301407)
Siyosat va davlatga munosabat borasidagi mulohazalar bayon etilgan "Qasidai nasihat" kimning asari?

A) *Mashrab* B) *Munis* C) *Navoiy*
**D)** *Ogahiy*

1592. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301408)
Qaysi shoir to'qqiz yoshida
"Mening maktab aro buldur murodim,
Xatimdek chiqsa imloyu savodim" deb yozgan va 21-22 yoshida devon tartib bergan edi?

**A)** *Furqat* B) *Hamza* C) *Fitrat*
D) *Avloniy*

1593. 11.1-1 file-» 99 - 1 - - (301409)
Furqat Istambulda yozgan "Sabog'a xitob" she'rida qaysi shahardagi do'stlarini eslaydi?

A) *Yorkentdagi* **B)** *Toshkentdagi*
C) *Qo'qondagi* D) *Marg'ilondagi*

1594. 11.1-1 file-» 1 - 42 - - (400368)
Jomiy ”Xamsa”sining birinchi dostoni qaysi?
A) *”Mahzan ul-asror”* B) *”Matla ul-anvor”* C) *”Hayrat ul-abror”* **D)** *”Tuhfat ul-ahror”*

1595. 11.1-1 file-» 5 - 1 - - (400369)
”Qutadg‘u bilig” muallifining ta’kidlashicha, uning asarini chinliklar va mochinliklar qanday atashgan?
**A) chinliklar - ”Adab ul-muluk”, mochinliklar - ”Amin ul-mamlakat”**
B) *chinliklar - ”Ziynat ul-umaro”, mochinliklar - ”Shohnomayi turkiy”*
C) *chinliklar - ”Adab ul-muluk”, mochinliklar - ”Rangnomayi muluk”*
D) *chinliklar - ”Ziynat ul-umaro”, mochinliklar - ”Amin ul-mamlakat”*

1596. 11.1-1 file-» 5 - 1 - - (400370)
Yusuf Xos Hojibning ”Qutadg‘u bilig” dostoni qaysi xalq orasida ”Shohnomayi turkiy” nomi bilan shuhrat topgan?
A) *chinliklar* B) *mochinliklar* **C)** *eronliklar* D) *turonliklar*

1597. 11.1-1 file-» 5 - 1 - - (400371)
”Qutadg‘u bilig” asari nomini ”Baxtga eltuvchi bilim”, ”Saodatga yo‘llovchi bilim” deb tarjima qilish mumkin. Bu asar nomini ”Baxtliklanish bilimi” deb kim o‘girgan?
A) *Boqijon To‘xliyev* B) *Qayum Karimov* C) *Oybek* **D)** *Fitrat*

1598. 11.1-1 file-» 5 - 1 - - (400372)
Raqiblarga qilur la’ling tabassum,
Qonimni g‘ussadin toshurmog‘ing ne?
Ko‘ngul shishasida mehring mayidir
Jafo birla anga tosh urmog‘ing ne?
Ushbu g‘azal parchasida qanday san’at qo‘llangan?
A) *talmeh* B) *tasvir* C) *tasdir* **D)** *tajnis*

1599. 11.1-1 file-» 11 - 2 - - (400373)
”**So‘zda, Navoiy, ne desang chin degil, Rost navo nag‘maga tahsin degil**” bayti Alisher Navoiyning qaysi asaridan olingan?
A) *”Lison ut-tayr”* B) *”Mahbub ul-qulub”* **C)** *”Hayrat ul-abror”* D) *”Farhod va Shirin”*

1600. 11.1-1 file-» 11 - 2 - - (400374)
She’riy asarlarining yarmini ruboiylar tashkil qilgan shoir . . .
A) *Sakkokiy* **B)** *Bobur* C) *Atoyi* D) *Nodira*

1601. 11.1-1 file-» 11 - 2 - - (400375)
Bobur ”Ko‘ngli tilagan murodiga yetsa kishi . . . ” deb boshlanuvchi ruboiysini qachon yozgan?
A) *Kobulni zabt etgan vaqtda*
B) *umrining so‘nggi yillarida*
**C) Andijondan ketib, tog‘u toshlarda yurgan vaqtida**
D) *Hindistonni zabt etish arafasida*

1602. 11.1-1 file-» 11 - 2 - - (400376)
Muqimiyning ”Sayohatnoma” asarida qaysi joy firdavs bog‘iga o‘xshatiladi?
A) *Do‘rmancha* B) *Oltiariq* **C)** *Roshidon* D) *O‘ltarma*

1603. 11.1-1 file-» 11 - 2 - - (400377)
Volter va Gyote o‘z she’rlarida qaysi Sharq shoiriga murojaat qilganlar?
A) *Boburga* B) *Alisher Navoiyga* C) *Mashrabga* **D)** *Sa’diy Sheroziyga*

1604. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400378)
Islomgacha bo‘lgan davrdagi turkiy adabiyot namunalari qaysi javobda ko‘rsatilgan?
**A) ”Avesto”, O‘rxun-Enasoy obidalari**
B) *”Qutadg‘u bilig”, ”Hikmatlar”*
C) *”Shayboniynoma”, ”Miftoh ul-adl”*
D) *”Avesto”, ”Ogohnoma”*

1605. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400379)
Islom ta’siri davridagi turkiy adabiyot namunalari qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *”Avesto”, ”Ogohnoma”*
**B) ”Qutadg‘u bilig”, ”Hikmatlar”**
C) *”Qutadg‘u bilig”, ”Javohirlar sandig‘i”*
D) *O‘rxun-Enasoy obidalari, xalq qo‘shiqlari*

1606. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400380)
Ilk uyg‘onish davridagi turkiy adabiyot namunalari qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *”Avesto”, O‘rxun-Enasoy obidalari*
B) *”Shayboniynoma”, ”Miftoh ul-adl”*
**C) ”Qutadg‘u bilig”, ”Hikmatlar”**
D) *”Zarbulmasal”, ”Ogohnoma”*

1607. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400381)
Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti namunalari qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *”Qutadg‘u bilig”, ”Hikmatlar”*
B) *”Zarbulmasal”, ”Ogohnoma”*
**C) ”Shayboniynoma”, ”Miftoh ul-adl”**
D) *”Kecha va kunduz”, ”O‘tkan kunlar”*

1608. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400382)
Xonliklar davri oʻzbek adabiyoti namunalari qaysi javobda koʻrsatilgan?

A) *"Avesto", Oʻrxun-Enasoy obidalari*
B) *"Shayboniynoma", "Miftoh ul-adl"*
C) *"Qutadgʻu bilig", "Hikmatlar"*
**D) "Zarbulmasal", "Ogohnoma"**

1609. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400383)
"Ishq oʻzingdan xalos boʻlib, sevgiling sifatlari bilan yashamoqdir" degan soʻzlar kim tomonidan aytilgan?

A) *Mashrab* **B)** *Mansur Halloj*
C) *Nasimiy* D) *Ahmad Yassaviy*

1610. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400384)
Muhammad Shayboniy haqida qaysi adiblar asar yaratgan?

A) *Binoiy, Bobur* **B)** *Binoiy, Poʻlkan Shoir*
C) *Bobur, Mulla Shodiy*
D) *Poʻlkan Shoir, Ogahiy*

1611. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400385)
"Olti yildan baqqa qancha pullar sarf qilib" oʻgʻlini nega, nima maqsadda oʻqitganini oʻzi ham deyarli tushunmaydigan shaxs obrazi qaysi asarda tasvirlangan?

A) *S.Ahmad, "Ufq"*
B) *Fitrat, "Abulfayzxon"*
C) *A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon"*
**D) Hamza, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari"**

1612. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400386)
Alisher Navoiy qaysi shoirni turkiygoʻylarning "mashohiri" (mashhuri) deb tilga olgan?

A) *Lutfiyni* **B)** *Gadoiyni* C) *Yugnakiyni*
D) *Otoyini*

1613. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400387)
Beqiyos husn timsoli sifatida tilga olinadigan "Yusuf" nomi gʻazal baytlarida asosan qaysi nom bilan birga uchraydi?

A) *Layli* B) *Sulaymon* C) *Shirin*
**D)** *Ya'qub*

1614. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400388)
Bizgacha 18 ta she'ri yetib kelgan shoir nomi qaysi javobda koʻrsatilgan?

A) *Sakkokiy* **B)** *Turdi*
C) *Shermuhammad Munis* D) *Mirzo Gʻolib*

1615. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400389)
Qaysi shoir asosan hajman ixcham gʻazallar yaratgan?

A) *Navoiy* **B)** *Bobur* C) *Ogahiy*
D) *Furqat*

1616. 11.1-1 file-» 11 - 3 - - (400390)
Quyidagi misralar qaysi shoir qalamiga mansub?
**Eshikka koʻp qarayberma san,**
**Gulbogʻingga, baribir, yoʻl bor ...**
**Oqshom menga niqob ostidan**
**Ohu koʻzin suzdi gulruxsor.**

A) *M.Yusuf* B) *E.Vohidov* **C)** *S.Yesenin*
D) *R.Hamzatov*

1617. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400391)
Mirzo Ulugʻbek saroyida xizmat qilgan shoir nomi qaysi qatorda berilgan?

A) *Jomiy* B) *Navoiy* **C)** *Atoyi*
D) *Ali Qushchi*

1618. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400392)
Mirzo Ulugʻbekning akasi Boysunqur Mirzo Hirotda mutaxassislarni toʻplab qaysi asarning 40 dan ortiq nusxasini qiyosiy oʻrganishga buyurdi?

A) *"Qutadgʻu bilig"* B) *"Qobusnoma"*
C) *"Xamsa"* **D)** *"Shohnoma"*

1619. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400393)
Firdavsiyning "Shohnoma" asarida qaysi shoh tushida davlat bayrogʻining qulaganini koʻradi va qarshi tomonga magʻlub boʻlishdan qoʻrqib, sulh taklif etadi?

**A)** *Afrosiyob* B) *Siyovush* C) *Faridun*
D) *Jamshid*

1620. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400394)
Sosoniylar amri bilan yozilib, keyinchalik arab tiliga 9 marta tarjima qilingan asar nomi qaysi qatorda berilgan?

**A)** *"Xudoynoma"* B) *"Shohnoma"*
C) *"Gershaspnoma"*
D) *"Shohnomai Mansuriy"*

1621. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400395)
Alisher Navoiy "Deyin" radifli 7 baytli gʻazalida "deyin" soʻzini badiiy maqsad uchun necha marta qoʻllagan?

A) *14 marta* **B)** *20 marta* C) *7 marta*
D) *8 marta*

1622. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400396)
Nodiraning turkiy devonidan necha gʻazal oʻrin olgan?

A) *600 ta* B) *260 ta* C) *240 ta*
**D)** *189 ta*

1623. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400397)
"Adab ul-muluk", "Amin ul-mamlakat", "Ziynat ul-umaro", "Pandnomayi mulk" nomlari bilan mashhur boʻlgan asarni belgilang.

A) *"Xudoynoma"* B) *"Shohnoma"*
**C)** *"Qutadgʻu bilig"* D) *"Qobusnoma"*

1624. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400398)
Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Namangan nusxasi haqida dastlab kim ma'lumot beradi?

A) *J. Amedeye* B) *Muhammad Hoji*
C) *Fitrat* **D)** *Valizoda*

1625. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400399)
**Beklikka tekkan dard davosi aql va bilim,**
**Uni aql bilan emla, ey xalqi muloyim.**
kabi didaktik baytlar muallifi kim?

**A)** *Yusuf Xos Hojib* B) *Ahmad Yugnakiy*
C) *Mahmud Koshg'ariy* D) *Alisher Navoiy*

1626. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400400)
Turkiy adabiyotda g'azalning ilk namunasi qaysi asarda uchraydi?

A) *"Qutadg'u bilig"da*
B) *"Devonu lug'otit turk"da*
C) *"Muhabbatnoma"da*
**D)** *"Qisas-ar Rabg'uziy"da*

1627. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400401)
O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida yozilishicha, shahzoda Abdulatif "Padarkush ... toju taxt ... olti oydan oshmaydur ..." degan dahshatli fikrni kimning kitobidan o'qiydi?

A) *Xusrav Dehlaviyning* B) *Amir Temurning*
**C)** *Nizomiy Ganjaviyning*
D) *Ali Samarqandiyning*

1628. 11.1-1 file-» 99 - 2 - - (400402)
O'zbek kelinchagi tasvirida maxsus g'azal yozgan shoir nomini ko'rsating.

**A)** *Furqat* B) *Muqimiy* C) *E.Vohidov*
D) *Chustiy*

1629. 11.1-1 file-» 45 - 2 - - (700372)
Qaysi hukmdorga nisbatan "olam podshohi", "gulchehralar molik riqobi", "ohu nazarlar shahriyori" kabi ifodalar qo'llangan?

**A)** *Muhammad Xo'jabekka*
B) *Husayn Boyqaroga* C) *Shoh G'oziyga*
D) *No'shiravon Odilga*

1630. 11.1-1 file-» 45 - 2 - - (700373)
Firdavsiy qalamiga mansub "Shohnoma" asari necha baytni o'z ichiga olgan?

**A)** *60 ming* B) *100 ming* C) *80 ming*
D) *25 ming*

1631. 11.1-1 file-» 45 - 2 - - (700374)
Quyidagi berilgan asarlarning qaysi birida bosh g'oya – Vatanni ulug'lash, xalq qudrati va salohiyatini ko'z-ko'z qilish, elning yetuk farzandlari qadrini ko'tarish, shu tariqa o'quvchiga kuchli vatanparvarlik hissini uyg'otishga qaratilgan?

**A)** *"Shohnoma"* B) *"Guliston"*
C) *"Hibat ul-haqoyiq"*
D) *"Qissasi Rabg'uziy"*

1632. 11.1-1 file-» 45 - 2 - - (700375)
Mashrab haqidagi quyidagi fikrlar qaysi asardan olingan?
"U bolaligidan majnuntabiat, so'fiysurat, odamovi va xomush qiyofada yuradi. Uning g'ayritabiiy odatlari, gap-so'zlari, yurgan yo'lida aytadigan bayt-u g'azallari ota-onasi va xaloyiqni hayron qoldiradi".

A) *"Tazkirai Qalandar"*
**B)** *"Qissai Mashrab"*
C) *"Mehribonim, qaydasan"*
D) *"Mabdai nur"*

1633. 11.1-1 file-» 45 - 1 - - (700376)
Quyidagi asarlar va ularning muallifi to'g'ri berilgan qatorni toping.
1) "Haqiqatnoma"; 2) "Taashshuqnoma";
3) "Sadoqatnoma"; 4) "Latofatnoma";
5) "Dahnoma".
a) Xojandiy; b) Yusuf Amiriy; c) Said Ahmad;
d) Sayyid Qosimiy.

**A) 1-d; 2-c; 3-d; 4-a; 5-b**
B) *1-c; 2-d; 3-a; 4-d; 5-b*
C) *1-b; 2-d; 3-a; 4-d; 5-d*
D) *1-c; 2-b; 3-b; 4-a; 5-a*

1634. 11.1-1 file-» 45 - 1 - - (700377)
"Boburnoma"da Samarqandning qaysi bog'ini ta'riflaganda "ul ko'shkta Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar" deyiladi?

A) *Bog'i Bo'ldu* **B)** *Bog'i Dilkusho*
C) *Bog'i Chanor* D) *Bog'i Shamol*

1635. 11.1-1 file-» 1 - 49 - - (700378)
Navoiy "Xamsa"sidagi hajm jihatdan eng katta asarni toping.

A) *"Hayrat ul-abror"* B) *"Farhod va Shirin"*
**C)** *"Saddi Iskandariy"* D) *"Sab'ai sayyor"*

1636. 11.1-1 file-» 1 - 49 - - (700379)
Furqatning qaysi g'azali Fuzuliy g'azaliga nazira sifatida yaratilgan?

A) *"Nozik"* B) *"Fasli Navbahor"*
C) *"Ul qorako'z ko'zlariga ..."*
**D)** *"Surmadin ko'zlar qaro"*

1637. 11.1-1 file-» 1 - 49 - - (700380)
Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridan olingan qaysi masalda erki o'zida bo'lmagan kishining fojiasi ko'rsatilgan?

A) *"Maymun va Najjor"*
B) *"Toshbaqa va chayon"*
C) *"Tuya bilan bo'taloq"*
D) *"Kabutar bilan zog'"*

1638. 11.1-1 file-» 1 - 49 - - (700381)
Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari didaktik adabiyotning qay turiga mansub?

A) *nasriy*
B) *nasriy-she'riy*
**C) she'riy**
D) *"Hayrat ul-abror" didaktik asar hisoblanmaydi*

1639. 11.1-1 file-» 1 - 49 - - (700382)
Nasriy-she'riy didaktik asarni toping.

A) *Xoja, "Miftoh ul-adl"*
**B) Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub"**
C) *Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig"*
D) *Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror"*

1640. 11.1-1 file-» 1 - 49 - - (700383)
Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarkim, muqim ermasmen.
Boburning ushbu ruboiysida qo'llangan laim so'zining ma'nodoshini toping.

A) *oltin* B) *xazinabon* C) *mansabdor* D) *gado*

1641. 11.1-1 file-» 11 - 7 - - (700384)
Haqqoki, qilich kelsa boshimg'a, eshikingdin,
Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.
Lutfiy qalamiga mansub ushbu baytda "guzar" so'zi qanday ma'noda qo'llangan?

A) *kelish* B) *ketish* C) *o'tish* D) *qaytish*

1642. 11.1-1 file-» 11 - 7 - - (700385)
"Firoqnoma" asarini Nodira qaysi taxallus bilan bitgan?

A) *Maknuna* B) *taxallus qo'llamagan* C) *Nodira* D) *Komila*

1643. 11.1-1 file-» 11 - 7 - - (700386)
"O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)" asarining muallifi kim?

A) *H.H.Niyoziy* B) *M.Abdurashidxonov* C) *A.Avloniy* D) *Fitrat*

1644. 11.1-1 file-» 11 - 7 - - (700387)
Bir xil janrda yozilgan asarlar qaysi javobda qayd qilingan?

A) *Muqimiy "Sayohatnoma", Yusuf Amiriy "Dahnoma"*
B) *Navoiy "Mahbub ul-qulub", Xorazmiy "Muhabbatnoma"*
**C) "Kalila va Dimna", Shukrullo "Javohirlar sandig'i"**
D) *O.Yoqubov "Izlayman", O'.Hoshimov "Nur borki, soya bor"*

1645. 11.1-1 file-» 11 - 7 - - (700388)
"Milodiy 1508-1509-yillarda arab yozuvi asosida turkiy alifboda ko'chirilgan nusxa. Bu nisbatan to'laroq – jami 473 baytdan iborat". Yuqoridagi ma'lumot qaysi asar haqida?

A) *Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"*
**B) Xorazmiy "Muhabbatnoma"**
C) *Firdavsiy "Shohnoma"*
D) *Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq"*

1646. 11.1-1 file-» 20 - 3 - - (700389)
Firdavsiy "Shohnoma"sida qaysi davrgacha bo'lgan tarix yoritilgan?

A) *eng qadimgi davrdan boshlab Iskandar Zulqarnayn bosqini (mil.avv. III asr)gacha bo'lgan davr*
**B) Iskandar Zulqarnayn bosqini (mil.avv. III asr)dan to arablar bostirib kelib, sosoniy hukmdor Yazdigird III qatl etilgan yilgacha bo'lgan davr**
C) *Eronda hukm surgan uch sulola - peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar davriga oid voqealar*
D) *eng qadimgi davrdan Firdavsiy yashab ijod qilgan davrgacha bo'lgan tarix*

1647. 11.1-1 file-» 20 - 3 - - (700390)
Poytaxtimizdagi "O'zbekiston milliy bog'i"da Alisher Navoiy haykali ustida bino qilingan toq girdiga Navoiyning qaysi mashhur bayti o'yib yozilgan?

A) *Odami ersang, demagil odami*
*Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.*
**B) Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',**
**Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.**
C) *Hunarni asrabon netgumdur oxir,*
*Olib tufroqqami ketgumdur oxir.*
D) *Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,*
*Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q.*

1648. 11.1-1 file-» 20 - 3 - - (700391)
Qaysi temuriy hukmdor olimlarni to‘plab, ”Shohnoma”ning 40 dan ortiq nusxasini qiyosiy o‘rganib, mukammal holga keltirilgan yagona ilmiy-tanqidiy matn tuzishga buyruq bergan?
A) *Amir Temur* B) *Husayn Boyqaro*
C) *Mirzo Ulug‘bek* **D)** *Boysunqur Mirzo*

1649. 11.1-1 file-» 20 - 3 - - (700392)
” ...ning turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she’rlari bor va u Nizomiyning ”Maxzan ul-asror”iga o‘zbek tilida javob yozib, uni shahzoda Iskandar otiga bag‘ishladi”.
Ushbu misralar kim haqida va kim tomonidan bitilgan?
A) *Durbek haqida M.Samarqandiy*
B) *Qutb Xorazmiy haqida Navoiy*
**C) Haydar Xorazmiy haqida D.Samarqandiy**
D) *Haydar Xorazmiy haqida Navoiy*

1650. 11.1-1 file-» 20 - 3 - - (700393)
”Yana mavlono Haydar Xorazmiy turkigo‘yning ”Gulshan ul-asror”idur, pand-u nasihatga yaxshi abyoti bor.”
Haydar Xorazmiy haqidagi ushbu ta’rif muallifi kim?
A) *Navoiy* **B)** *Bobur* C) *D.Samarqandiy*
D) *Fitrat*

1651. 11.1-1 file-» 20 - 3 - - (700394)
Firdavsiy ”Shohnoma”sini to‘lig‘icha o‘zbek tiliga o‘girgan ijodkor kim?
A) *Shoislom Shomuhammedov*
B) *Hamid G‘ulom va Nazarmat*
C) *Jumaniyoz Jabborov*
**D) asar hali to‘lig‘icha o‘girilmagan**

1652. 11.1-1 file-» 11 - 9 - - (700395)
”Qutadg‘u bilig” asarini bugungi o‘zbek tiliga baytma-bayt ilmiy tarjima qilgan olimning ismi sharifi qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *Boqijon To‘xliyev* B) *To‘ra Mirzayev*
**C)** *Qayum Karimov* D) *Ergash Ochilov*

1653. 11.1-1 file-» 11 - 9 - - (700396)
Quyidagi qaysi asarda nomi ”quyosh”, ”jabr yetkazuvchi” ma’nolarini bildiruvchi personajlar ishtirok etadi?
**A) A.Navoiy, ”Mehr va Suhayl”**
B) *”Kuntug‘mish” dostoni*
C) *Yusuf Xos Hojib, ”Qutadg‘u bilig”*
D) *Gulxaniy, ”Zarbulmasal”*

1654. 11.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715215)
Qaysi olim amir chopariga: ”Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman”, – deb javob bergan?
A) *Abu Ali Ibn Sino* **B)** *Imom al-Buxoriy*
C) *Abu Nasr Forobiy*
D) *Abu Rayhon Beruniy*

1655. 11.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715216)
Kimki olmasa hayotdan ta’lim,
Unga o‘rgatolmas hech bir muallim.
Ushbu hikmatli so‘z muallifini aniqlang.
A) *Alisher Navoiy* B) *Sa’diy Sheroziy*
C) *Z.M.Bobur* **D)** *Rudakiy*

1656. 11.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715217)
Erki o‘zida bo‘lmagan kishining fojiasi qaysi masalda o‘z aksini topgan?
A) *”Maymun bilan Najjor”*
B) *”Dumsiz Eshak”*
**C) ”Tuya bilan Bo‘taloq”**
D) *”Toshbaqa bilan Chayon”*

1657. 11.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715218)
Turk dunyosida ”shamsul millat” – millat quyoshi deb ulug‘langan adibni ko‘rsating.
**A)** *Alisher Navoiy* B) *Jomiy*
C) *Sayid Hasan Ardasher*
D) *Pahlavon Mahmud*

1658. 11.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715219)
”Qutadg‘u bilig” asarini she’riy yo‘l bilan ommabop qilib o‘zbekchalashtirgan olimni ko‘rsating.
A) *Qayum Karimov* **B)** *Boqijon To‘xliyev*
C) *Begali Qosimov* D) *Naim Karimov*

1659. 11.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715220)
Quyidagi asarlarni ularning mualliflari bilan to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
A) *”Latofatnoma” – Xo‘jandiy, ”Dahnoma” – Yusuf Amiriy, ”Haqiqatnoma” – Said Ahmad*
B) *”Taashshuqnoma” – Said Ahmad, ”Latofatnoma” – Yusuf Amiriy*
**C) ”Haqiqatnoma” – Sayyid Qosimiy, ”Dahnoma” – Yusuf Amiriy**
D) *”Temurnoma” – Salohiddin Toshkandiy, ”Sadoqatnoma” – Yusuf Amiriy*

1660. 11.1-1 file-» 11 - 8 - - 1 (715221)
A.Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoya va masallarning bosh qahramonlari kimlar?

**A) tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblari**
B) *oʻtmishda yashab oʻtgan paygʻambarlar*
C) *hayvon va jonivorlar*
D) *shohlar va fuqaro*

1661. 11.1-1 file-» 11 - 8 - - 1 (715222)
A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga kiritgan eng muhim yangiligi nima edi?

A) *doston hajmini kengaytirishi*
**B) Farhodni bosh obraz qilib olishi**
C) *doston nomini oʻzgartirishi*
D) *dostondagi voqealarni oʻzgartirishi*

1662. 11.1-1 file-» 11 - 8 - - 1 (715223)
Badriddin Hiloliyning "Shoh va gado" asarini kim oʻzbekchaga tarjima qilgan?

A) *Navoiy* **B) *Ogahiy*** C) *Fitrat* D) *Nodira*

1663. 11.1-1 file-» 11 - 8 - - 1 (715224)
Kimning qaysi asarida saltanatni yuksaltiradigan 22 fazilat izohlangan?

A) *A.Navoiy, "Hayrat ul-abror"*
B) *Yusuf Xos Hojib, "Qutadgʻu bilig"*
**C) Ogahiy, "Ogohnoma"**
D) *Kaykovus, "Qobusnoma"*

1664. 11.1-1 file-» 11 - 8 - - 1 (715225)
Furqat ijodiy merosida nechta ilmiy asar bor?

A) *2 ta* B) *3 ta* **C) *4 ta*** D) *5 ta*

1665. 11.1-1 file-» 46 - 1 - - 1 (715226)
Uzun boʻylik boʻlib, ikki oyogʻining orasi bir kunlik yoʻl edi. Togʻning tepasida oʻtirib, qoʻli bilan dengizdan baliq ushlab, quyoshga tutib, pishirib yer edi.
"Qissasi Rabgʻuziy"dan olingan ushbu taʼrif kimga tegishli?

A) *Unuq* B) *Nuh* C) *Qorun* **D) *Avj***

1666. 11.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715227)
Mumtoz adabiyotda qoʻllanadigan nafs, dunyo tushunchalari qaysi obraz orqali ifodalanadi?

A) *maʼshuqa* B) *oshiq* **C) *raqib*** D) *shayton*

1667. 11.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715228)
Atoyining boshdan-oyoq savol tarzida yozilgan gʻazalini aniqlang.

A) *"Jamoling vasfini"*
B) *"Menga sen boʻlmasang"*
**C) *"Koʻngul olding, begim"***
D) *"Agar koʻngling tilar jonim"*

1668. 11.1-3 file-» 41 - 4 - - (301410)
Ani nazm etki, tarhi toza boʻlgʻay,
Ulusqa mayl beandoza boʻlgʻay.
Yoʻq ersa nazm qilgʻonni xaloyiq
Muqarrar aylamak sendin ne loyiq?
"Xamsa" yozishda oʻziga xos yoʻriqlar bayon etilgan yuqoridagi misralar Navoiyning qaysi dostonidan olingan?

A) *"Hayrat ul-abror"* B) *"Lison ut-tayr"*
C) *"Layli va Majnun"*
**D) *"Farhod va Shirin"***

1669. 11.1-3 file-» 41 - 4 - - (301411)
Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni
Bayt muallifi qaysi javobda berilgan?

A) *Komron mirzo* B) *Gulbadanbegim*
**C) *Nodira*** D) *Uvaysiy*

1670. 11.1-3 file-» 41 - 4 - - (301412)
1. "Kalila va Dimna" 2. Shukrullo "Javohirlar sandigʻi" 3. Navoiy "Mahbub ul-qulub" 4. Saʼdiy Sheroziy "Guliston" 5. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" 6. Kaykovus "Qobusnoma" 7. Xoja "Miftoh ul-adl" 8. Gulxaniy "Zarbulmasal" 9. Yusuf Xos Hojib "Qutadgʻu bilig"
Yuqoridagi didaktik asarlarning turlari qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) *1, 2, 3, 7 - nasriy didaktik asar; 4, 5 - nasriy-sheʼriy didaktik asar; 6, 8, 9 - sheʼriy didaktik asar*
B) *4, 7, 8, 9 - nasriy didaktik asar; 1, 2, 3 - nasriy-sheʼriy didaktik asar; 5, 6 - sheʼriy didaktik asar*
C) *3, 4, 7 - nasriy didaktik asar; 2, 5, 9 - nasriy-sheʼriy didaktik asar; 1, 6, 8 - sheʼriy didaktik asar*
**D) 1, 2, 6, 7 - nasriy didaktik asar; 3, 4, 8 - nasriy-sheʼriy didaktik asar; 5, 9 - sheʼriy didaktik asar**

1671. 11.1-3 file-» 41 - 4 - - (301413)
Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarining nechanchi majlisini temuriylarga mansub shoirlarga bagʻishlagan?

A) *sakkizinchi majlisini*
B) *beshinchi majlisini* **C) *yettinchi majlisini***
D) *toʻrtinchi majlisini*

1672. 11.1-3 file-» 41 - 4 - - (301414)
Ogahiyning musoviyattarafayn shaklida yozilgan g‘azali qaysi javobda berilgan?

A) *"Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsin..."*
B) *"Ul gul yuzi sahbodin gul gulmu ekan oyo"*
C) *"Mulku millatga emin o‘lsa agar ogohlar"*
**D) "Ul sho‘xki ochildi xatu ruxsori"**

1673. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301415)
"Joh bir kun eshikdan chiqib ketar, dag‘i oltunni, kumushni safarda haromiy olur, yo shaharda o‘g‘ri, yo sohibi yeb tugatur, ammo erdam (odob, hayo, yaxshi xulq) - bir chashma durexcerpturkim, doim suvi toshib kela durur, dag‘i erdam egasi davlatindan tushsa, qayg‘usi yo‘q turur. Aning uchunkim, erdam egasining davlati turur, qanda borsa oltun berurlar ..."
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) *"Qissasi Rabg‘uziy"dan*
B) *"Qutadg‘u bilig"dan*
**C)** *"Guliston bit turkiy"dan*
D) *"Hibatul-haqoyiq"dan*

1674. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301416)
Turdi Farog‘iyning quyidagi g‘azallaridan qaysi birida bevosita Subhonqulixon davlatini qoralash, ayblash kuchli?

A) *"Tor ko‘ngillik beklar, man-man demang, kenglik qiling..."*
**B) "Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk"**
C) *"Boshima bir ko‘hi g‘am bir ot kohu yemidin"*
D) *"Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko‘rdiman"*

1675. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301417)
O‘zbek shoiri Qutb 1342-yilda erkin tarjima asosida qaysi asarni yaratgan?

**A)** *"Xusrav va Shirin"*
B) *"Layli va Majnun"* C) *"Matla' ul-anvor"*
D) *"Gulshan ul-asror"*

1676. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301418)
XIV asrdagi turkiy adabiyotning qaynoq va markaziy nuqtasi sifatida tarixga kirgan shaharni begilang.

A) *Hirot* B) *Samarqand* **C)** *Oltin O‘rda*
D) *Bolasog‘un (Quz O‘rdu)*

1677. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301419)
Ahmad Yassaviy she'riyatidagi xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq timsollarni belgilang.

A) *ummat, shayton, oshiq*
**B)** *yo‘l, rabot, karvon* C) *zohid, oqil, rasul*
D) *rasul, ummat, shayton, oqil*

1678. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301420)
Mumtoz adabiyotimizda Yoqubning ayriliqdagi hayoti qanday sifatlash bilan ta'riflanadi?

A) *"Ro‘zi siyoh" (qaro kun)*
**B)** *"Bayt ul-hazan" (g‘am uyi)*
C) *"Shabi hijron" (ayriliq kechasi)*
D) *"Nori saqar" (do‘zax o‘ti)*

1679. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301421)
Qizning go‘zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo‘lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo‘lini yuvib suvni poklaydi.
Ushbu o‘xshatish kimning g‘azalida uchraydi?

A) *Lutfiy* **B)** *Atoyi* C) *Navoiy*
D) *Bobur*

1680. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301422)
Yuzungda o‘g‘on nuri ayondir,
Ko‘zingiz fitnai oxir zamondir. (Lutfiy)
Mazkur baytdagi "o‘g‘on nuri" nima?

**A)** *Olloh nuri* B) *ezgulik nuri*
C) *Yusufning nuri* D) *jannatning nuri*

1681. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301423)
Lutfiy Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarini kimning topshirig‘iga ko‘ra tarjima qilgan?

**A)** *Shohrux Mirzo* B) *Mironshoh*
C) *Abulqosim Bobur* D) *Ulug‘bek Mirzo*

1682. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301424)
Shaho, lutfingni topqom deb duochi banda Sakkokiy,
Belin joni bilan bog‘lab, bu xizmatg‘a ravon keldi.
Ushbu qasida kimga bag‘ishlangan?

A) *Shohrux Mirzoga* **B)** *Ulug‘bekka*
C) *Xalil Sultonga* D) *Arslon Xoja Tarxonga*

1683. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301425)
Ey sarvinoz, sen mening ko‘z yoshlarimga bir nazar sol.
Oqar suvga qarasa, ko‘ngil ravshan bo‘ladi, - deydilarku.
Ushbu o‘xshatish kimning g‘azalida uchraydi?

A) *Lutfiy* B) *Atoyi* C) *Navoiy*
**D)** *Sakkokiy*

1684. 11.1-3 file-» 80 - 4 - - (301426)
O‘zbek she'riyatiga, adabiyotiga qachondan boshlab "hikmat va san'at tajassumi" deb qaray boshlangan?

A) *XIII asrdan boshlab*
B) *XVIII asrdan buyon*
**C)** *XV asr ikkinchi yarmidan*
D) *XI asrdan boshlab*

1685. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301427)
"Dengiz suvi toshib yotgani ayon bo'lib tursa ham, it undan tili bilan ichadi", "O'z davringda baxtingni taqdir qo'lidan xalos et", "Odam uchun eng yaxshi xursandchilik - o'z qo'li bilan ekkan daraxt mevalarini yeyish".
Ushbu hikmatlar qaysi asardan olingan?
**A)** *"Yatimat ad-dahr" tazkirasidan*
B) *"Gulistoni bit-turkiy" asaridan*
C) *"Qisasi Rabg'uziy"dan*
D) *"Hayratul-abror" dostonidan*

1686. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301428)
Qaysi bitiktoshda: "uy, dunyogagina qaraydigan, ko'ziga faqat mol-mulk ko'rinadigan beklar, sizlar gumrohsizlar",- deya toshga yozib qo'yilgan?
**A)** *Kul Tigin bitiktoshida*
B) *Bilga xoqon bitiktoshida*
C) *To'nyuquq bitiktoshida*
D) *Eltarish xoqon bitigida*

1687. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301429)
"Baxillik dori bilan tuzatib bo'lmaydigan kasallikdir. Baxillik harislik (mol-dunyoga hirs qo'yish) bilan yonma-yon yuradi. Baxil mol-dunyoga quldir. Saxiyga esa mol-dunyo quldir"
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) *"Qutadg'u bilig"* **B)** *"Hibat ul-haqoyiq"*
C) *"Guliston bit-turkiy"*
D) *"Hayrat ul-abror"*

1688. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301430)
Alisher Navoiy: "Haq subhonahu taolo, agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqondur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur",- deb kimga baho bergan?
A) *Ahmad Yassaviy* **B)** *Ahmad Yugnakiy*
C) *Atoyi* D) *Yusuf Xos Hojib*

1689. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301431)
"Yurtda nizom va qoida ustivor bo'lib, shu darajada adolat qaror topadiki, xazina oltinga to'lib, qo'zi bo'ri bilan yonma-yon omonlikda yashay boshlaydi".
Ushbu holat qaysi asarda uchraydi?
A) *"Hibat ul-haqoyiq"* **B)** *"Qutadg'u bilig"*
C) *"Guliston bit-turkiy"*
D) *"Qisasi Rabg'uziy"*

1690. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301432)
Tarixchi Tabariyning fikricha, zamonasida undan go'zalroq ayol bo'lmagan deb kimni ta'riflashgan?
A) *Layli* **B)** *Shirin* C) *Dilorom*
D) *Ravshanak*

1691. 11.1-3 file-» 80 - 5 - - (301433)
Bir necha kun uyda edi poband,
Faryod anga goh baland-u goh past.
Yo'q kunduzu kecha xo'rdu xobi,
Dom ichida qushdek iztirobi.
Ushbu parchada qaysi qahramon holati tasvirlangan?
A) *Farhod* **B)** *Majnun* C) *Bahrom*
D) *Dilorom*

1692. 11.1-3 file-» 99 - 1 - - (301434)
Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,
Unda yo'q ibtido paydo, bunda yo'q intiho paydo.
Allohning azalligi, abadligi haqidagi ushbu bayt muallifini belgilang.
**A)** *Navoiy* B) *Bobur* C) *Mashrab*
D) *Yassaviy*

1693. 11.1-3 file-» 99 - 1 - - (301435)
Men xastaki, bu raqamni chektim,
Tahriri uchun qalamni chektim.
Yozmoqqa bu ishqi jovidona,
Maqsudim emas edi afsona.
"Layli va Majnun"dan olingan bu misralarda Navoiy nimaga diqqatni qaratganini ta'kidlaydi?
A) *zaminiy muhabbatga*
B) *eng dardli asarligiga* C) *afsona ekanligiga*
**D)** *asar mazmunining chuqurligiga*

1694. 11.1-3 file-» 99 - 1 - - (301436)
Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostonida qaysi shohga so'ngak olib kelgan darvish izohlari berilgan?
**A) "Saddi Iskandariy"da Iskandarga**
B) *"Saddi Iskandariy"da Chin xoqoniga*
C) *"Sab'ai sayyor"da Bahromga*
D) *"Farhod va Shirin"da Chin xoqoniga*

1695. 11.1-3 file-» 99 - 1 - - (301437)
Bobur "Boburnoma"da qaysi radifli g'azalning yozilish tarixini keltirgan?
A) *"mushkuldur"* B) *"topilmas"*
**C)** *"topmadim"* D) *"bor"*

1696. 11.1-3 file-» 99 - 1 - - (301438)
Bobur "Boburnoma"da qaysi shaharni erkalab "baldayi mahfuza" degan ta'rifni keltiradi?
A) *Buxoro* **B)** *Samarqand* C) *Andijon*
D) *Hirot*

1697. 11.1-3 file-» 99 - 1 - - (301439)
"Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo‘rg‘onidan so‘ng mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo‘lubtur. To‘qqiz tarnov suv kirar, bu ajabturkim bir yerdin chiqmas..."
"Boburnoma"dan olingan ushbu ajib tasvir qaysi shahar haqida?

A) *Buxoro* B) *Xo‘jand* C) *Qarshi*
**D)** *Andijon*

1698. 11.1-3 file-» 1 - 41 - - (301440)
Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" radifli g‘azaliga qaysi shoir nazira bitgan?

A) *Navoiy* B) *Husayniy* C) *Bobur*
**D)** *Mashrab*

1699. 11.1-3 file-» 1 - 42 - - (400403)
Komillikka erishish yo‘lida nafsning zarari haqida qaysi asarda "bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi" deb ta’kidlanadi?

A) *"Hibat ul-haqoyiq"* B) *"Devoni hikmat"*
**C)** *"Qisasi Rabg‘uziy"*
D) *"Farhod va Shirin"*

1700. 11.1-3 file-» 1 - 42 - - (400404)
Boburning yaqin navkarlaridan Xoja Kalon va Xoja Mirmaronlarning Hindiston issig‘iga chiday olmay, Kobul tomonga ketib qolganliklari munosabati bilan yozilgan qit’asi qaysi?

A) *"Vasldin so‘z derga yo‘q yoro manga"*

**B) "Ey, alarkim, bu Hind kishvaridin"**

C) *"Yuz shukr de, Boburki, karim-u Faffor"*

D) *"Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutingiz"*

1701. 11.1-3 file-» 1 - 42 - - (400405)
"Boburnoma"da Xoja Kalonning "Agar sog‘-salomat Sinddan o‘tib ketsam, Hindistonni yana havas qilsam, yuzim qora bo‘lsin" degan she’riga javoban Bobur qaysi she’rini bitgan?

A) *"Vasldin so‘z derga yo‘q yoro manga"*

B) *"Qadimni firoq mehnati yo qildi"*

C) *"Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur"*

**D) "Yuz shukr de, Boburki, karim-u G‘affor"**

1702. 11.1-3 file-» 1 - 42 - - (400406)
"Oshiqlik avvalo, or-nomusni mahkam ushlamoqdirki, bu bag‘oyat mushkul ishdir. Oshiq ohi yetti qavat osmonning pardasini uchirganda ham yuzidagi pardasini ko‘tarmaydi."
Bu fikr qaysi baytda o‘z ifodasini topgan?

A) *Agarchi bo‘lg‘oli ishqning asiri,*
*O‘tar aflokdin ohim nafiri.*

B) *Ayog‘ ostig‘a qolsa notavon mo‘r,*
*Ketursa qatlig‘a yuz ajdaho zo‘r.*

**C) Uchursa ohi yetti ko‘k niqobin, Yuzidin ochmag‘ay burqa-hijobin.**

D) *Ichimga shu’lai ishqing tutoshib, Tutoshib demakim, boshimdin oshib.*

1703. 11.1-3 file-» 1 - 42 - - (400407)
"Men bir paytlar shu butxonada peshvo-yo‘lboshchi edim. Men ham o‘z ahvolim to‘g‘risida bir tush ko‘rishni orzu qildim. Lekin ilm-u hikmat bunga mone’ edi. Oqibat havas g‘ulu qildi, kechasi beixtiyor butxonaga kirib ko‘zni yumdim, tush ko‘rdim."
"Sab’ayi sayyor" dostonida ushbu gaplarni kim aytgan?

A) *birinchi musofir*
**B)** *g‘or ichidagi bir nuroniy chol* C) *Sa’d*
D) *Qatron*

1704. 11.1-3 file-» 1 - 42 - - (400408)
"Har qanday yaxshi sozanda qancha yaxshi chalsa-yu, so‘zsiz (ashula aytmasdan) uzoq chalsa, undan aql ahllariga malol yetadi. Agar sozanda mashq orasida Navoiyning olov sochuvchi g‘azallaridan birontasini o‘qisa, u vaqt bazmda shovqin-suron qo‘zg‘aladi, eshituvchilar o‘z yoqalarini yirtadilar, oh-u voy bilan o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar."
Bu fikrlar qaysi asardan olingan?

A) *N.Ganjaviy "Mahzan ul-asror"*

**B) A.Navoiy "Hayrat ul-abror"**

C) *A.Jomiy "Tuhfat ul-ahror"*

D) *X.Dehlaviy "Matla ul-anvor"*

1705. 11.1-3 file-» 5 - 1 - - (400409)
Nasriy-she’riy didaktik asarlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
1) Sa’diy Sheroziy "Guliston";
2) Xoja "Gulzor"; 3) Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"; 4) Yusuf Xos Hojib "Qutadg‘u bilig"; 5) Gulxaniy "Zarbulmasal"; 6) Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror"

A) *1, 2, 3* B) *3, 5, 6* **C)** *1, 3, 5*
D) *2, 4, 5*

1706. 11.1-3 file-» 5 - 1 - - (400410)
Nasriy didaktik asarlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
1) Sa’diy Sheroziy ”Guliston”;
2) Kaykovus ”Qobusnoma”; 3) Alisher Navoiy ”Mahbub ul-qulub”; 4) Xoja ”Gulzor”;
5) Gulxaniy ”Zarbulmasal”; 6) Shukrullo ”Javohirlar sandig‘i”

A) *2, 3, 4* **B)** *2, 4, 6* C) *1, 2, 5* D) *2, 3, 6*

1707. 11.1-3 file-» 5 - 1 - - (400411)
Ishqiy g‘azallarda asosiy obraz kim hisoblanadi?
1) ma’shuqa; 2) oshiq; 3) raqib

A) *1* B) *2* C) *1 va 2* **D)** *1, 2, 3*

1708. 11.1-3 file-» 1 - 43 - - (400412)
”Samarqand qal’asining ichida bir qadimiy imorattur, ... ul gumbazning o‘rtasida yerga tepsalar, tamom gumbazdin ... un kelur, g‘arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas”. ”Boburnoma”dan olingan ushbu parchada qaysi masjid nazarda tutilgan?

**A) ”Masjidi Laqlaqa”**
B) *”Masjidi Muqatta” (Parcha-parcha masjid ma’nosida)*
C) *”Chilsutun”*
D) *”Ko‘hak”*

1709. 11.1-3 file-» 1 - 43 - - (400413)
Mashrab ijodida targ‘ib qilingan qalandarlik maslagi qaysi tariqat shoxobchasi hisoblanadi?

**A)** *Naqshbandiylik* B) *Yassaviylik* C) *Kubraviylik* D) *Qodiriylik*

1710. 11.1-3 file-» 11 - 3 - - (400414)
Quyidagi baytda Nodira kimga murojaat qilgan?
**Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,**
**Sen – shah-u men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.**

A) *Nasrulloxonga* B) *Allohga* C) *Amir Umarxonga* **D)** *Allohga va Amir Umarxonga*

1711. 11.1-3 file-» 11 - 3 - - (400415)
Qaysi shoirning g‘azalida siniq ko‘ngil vayron bo‘lgan Ka’baga qiyoslangan?

A) *Lutfiy* **B)** *Navoiy* C) *Bobur* D) *Furqat*

1712. 11.1-3 file-» 11 - 3 - - (400416)
Navoiyning ”Xarobot aro kirdim oshifta hol, May istarga ilgimda sing‘on safol” baytidagi ”sing‘on safol” nimaga ishora qiladi?

A) *hijronga* B) *g‘am-alamga* **C)** *vayron qalbga* D) *bevafo ma’shuqaga*

1713. 11.1-3 file-» 11 - 3 - - (400417)
Mashrabning boshqa so‘fiy shoirlardan farqi nimada edi?

A) *shoir she’rlarining bosh mavzusi - ilohiy ishq*
B) *Mashrabning she’rlari boshqa shoirlar she’ri bilan aralashib ketgan*
**C) Mashrab Allohga bo‘lgan muhabbatini oshkora kuylaydi**
D) *sanalganlarning barchasi*

1714. 11.1-3 file-» 11 - 3 - - (400418)
Qaysi adibning didaktik asarida Navoiyning ”Saddi Iskandariy” dostonidan ijodiy foydalanilgan?

**A) Xoja, ”Gulzor”**
B) *Shukrullo, ”Javohirlar sandig‘i”*
C) *Gulxaniy, ”Zarbulmasal”*
D) *Haydar Xorazmiy, ”Gulshan ul-asror”*

1715. 11.1-3 file-» 11 - 3 - - (400419)
”Falak” so‘zi mumtoz adabiyotda qanday ma’nolarda ishlatilgan?

A) *dunyo, zamon, taqdir* B) *dunyo, taqdir* **C)** *dunyo, zamon, taqdir, Alloh* D) *dunyo, tabiat, taqdir, qismat*

1716. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400420)
O‘z hikoyatini ”O‘sha darvesh men o‘zim edim” deb xotimalagan adib nomi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) *Nizomiy Ganjaviy* B) *Rabg‘uziy* **C)** *Sa’diy Sheroziy* D) *Xoja*

1717. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400421)
Navoiy ”Hayratul-abror” dostonining nechanchi bobida badiiy ijod, badiiy so‘zning qudrati va insonga ta’siri haqidagi mavzularni keng yoritgan?

**A)** *XIV va XV boblarda*
B) *X va XII boblarda*
C) *XV va XVI boblarda*
D) *XX va XXI boblarda*

1718. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400422)
Qaysi ulug‘ shoir o‘zining ruboiylaridan birida jon qancha shirin bo‘lmasin, lekin umr barchasidan azizroq, degan falsafani yoritib bera olgan?

A) *Lutfiy* **B)** *Navoiy* C) *Atoyi* D) *Bobur*

1719. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400423)
Qaysi mutafakkir shoir o‘z she’rlaridan birida kelajak avlodga - yoshlarga ”Kamol et kasbkim” deb samimiy istak bildirgan?

A) *Lutfiy* B) *Bobur* C) *Firdavsiy* **D)** *Navoiy*

1720. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400424)
Qaysi adib Qur'oni karim, hadis va Imom Ya'qub Sufyon, Majididin Anbugoniy, Qaffol Shoshiylarning tafsirlaridan foydalanib asar yaratgan?

**A)** *Rabg'uziy* B) *So'fi Olloyor*
C) *Mashrab* D) *Navoiy*

1721. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400425)
Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" asarida katta-kichik nasriy qissalardan tashqari necha misra she'rlar keltirgan?

A) *1000 misra* **B)** *600 misra*
C) *1200 misra* D) *380 misra*

1722. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400426)
Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi nechanchi iqlim yo'lidan kelgan musofir suv va quruqlikda zulmni o'ziga kasb qilib olgan zolim qaroqchi va uning makoni haqida ta'rif beradi?

**A)** *beshinchi iqlim* B) *birinchi iqlim*
C) *to'rtinchi iqlim* D) *oltinchi iqlim*

1723. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400427)
Aydi: "Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?"
Man dedim: "G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda."
Ushbu baytni Furqat qaysi g'azalida yozib, o'z hayoti bilan bog'liq qismatni ko'rsatib bergan?

A) *"Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar"*
B) *"Sabog'a xitob"*
**C) "Bir qamar siymoni ko'rdim baldai Kashmirda"**
D) *"Gap ta'rifida"*

1724. 11.1-3 file-» 99 - 2 - - (400428)
Bobur "Boburnoma"da keltirgan tasvirda "Elining orasida husn xayli bordur" deb san'atkorlariga alohida urg'u beradi. Bu tasvir qaysi shahar haqidadir?

A) *Farg'ona* B) *Samarqand* **C)** *Andijon*
D) *Toshkent*

1725. 11.1-3 file-» 11 - 5 - - (700398)
Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,
Kizb, der el, chin desa, yolg'on so'zin.
Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan ushbu baytning nasriy bayoni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) *Xato bilan yolg'on gapirish hisobga kirmaydi, chunki uning yolg'onligi bilingach, undan qochiladi.*
B) *Kimki yolg'onchi deb nom chiqargan bo'lsa, o'zinikilar ham, begonalar ham uni shu ot bilan chaqirar ekanlar, to'g'rilik nomi unga hech qaytib kelmaydi.*
**C) Kimki o'zini yolg'onchi sifatida tanitgan bo'lsa, rost gapirsa ham, xalq uning hamma gapini yolg'on hisoblaydi.**
D) *Kimki biror so'zninig yolg'onligini anglasa, uning yolg'on ekanligini el orasida kezib aytish kerak.*

1726. 11.1-3 file-» 11 - 5 - - (700400)
Alisher Navoiyning qaysi g'azalida tazod san'ati asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan?

A) *"Qilg'il"* **B)** *"Kelmadi"*
C) *"Bo'ldum sanga"* D) *"Deyin"*

1727. 11.1-3 file-» 45 - 2 - - (700401)
Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni 17-bobining boshlanmasi qaysi asar ta'sirida bitilgan?

A) *"Guliston"* B) *"Bo'ston"*
C) *"Mantiq ut-tayr"* **D)** *"Muhabbatnoma"*

1728. 11.1-3 file-» 45 - 1 - - (700402)
Qaysi shoir kecha va kunduzni bir chiroyli qiz yoki kelinchak kabi tasvirlab, Alloh uning qizil yuzida meng, ya'ni katta xol yaratdi, shuningdek, bo'yi bilan sochini teng yaratdi, deya turkiy adabiyotda badiiy topilma qildi?

A) *Atoyi* **B)** *Xorazmiy* C) *Lutfiy*
D) *Navoiy*

1729. 11.1-3 file-» 45 - 1 - - (700403)
Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining nechanchi bobi Farhod uchun yilning fasllariga moslab qurdirilgan 4 qasr ta'rifiga bag'ishlangan?

A) *16* **B)** *17* C) *18* D) *10*

1730. 11.1-3 file-» 45 - 1 - - (700404)
Qaysi shoirning g'azalida lirik qahramonning yuzi azbaroyi hijron azobini chekaverganidan sarg'ayib ketib, oltinni yashiradigan darajaga yetdi, ya'ni shunchalik sarg'aydiki, buning oldida tilloning sariqligi hech narsa bo'lmay qoldi, deb ta'riflanadi?

**A)** *Lutfiy* B) *Navoiy* C) *Ogahiy*
D) *Bobur*

1731. 11.1-3 file-» 45 - 1 - - (700405)
Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida insonni hayvondan ajratib turadigan asosiy mezon nima deydi?
A) *nutq* **B) *iymon*** C) *saxovat* D) *aql*

1732. 11.1-3 file-» 45 - 1 - - (700406)
Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay,
Ulusga mayl beandoza bo'lg'ay,
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Navoiyning yuqoridagi misralari qaysi asaridan olingan?
A) *"Layli va Majnun" xotimasidan*
B) *"Layli va Majnun" muqaddimasidan*
C) *"Farhod va Shirin" xotimasidan*
**D) "Farhod va Shirin" muqaddimasidan**

1733. 11.1-3 file-» 1 - 49 - - (700407)
Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonida asar voqealarini, hikoyalarini o'z vatani bo'lmish Xuroson, Movarounnahr hayoti bilan bog'lashga harakat qilib, qaysi shaharlar haqida hikoyalar kiritdi?
A) *Hirot, Samarqand*
B) *Astrobod, Hirot*
**C) Shahrisabz, Xorazm**
D) *Astrobod, Xorazm*

1734. 11.1-3 file-» 1 - 49 - - (700408)
Boburning qaysi masnaviysida Boburning ziddiyatga to'la hayoti yuksak badiiy ifoda etilgan?
A) *"Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi"*
**B) "Bir kecha xotirim mushavvash edi"**
C) *"Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen"*
D) *"Agarchi sensizin sabr aylamak ey, yor, mushkuldur"*

1735. 11.1-3 file-» 1 - 49 - - (700409)
Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida Boyo'g'li qizining qaliniga so'ragan vayronani Qo'qonda topilmasa yana qaysi muzofotdan topib berishga va'da beradi?
A) *Andijon* B) *Farg'ona* C) *Samarqand* **D) *Buxoro***

1736. 11.1-3 file-» 1 - 49 - - (700410)
**"Ilgimdin kelganicha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatiga intiqom malhamini qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganni ul hazrat arziga yetkurdim".**
Ushbu parcha Alisher Navoiyning qaysi asaridan olingan?
**A) *"Vaqfiya"*** B) *"Majolis un-nafois"* C) *"Munshaot"* D) *"Nasoyim ul-muhabbat"*

1737. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700411)
O'zaro mos javoblarni belgilang.
1) "Ne bo'lursan"; 2) "Deyin"; 3) "Sog'indim"; 4) "Ehtiyoj".
a) Uvaysiy g'azali; b) Lutfiy g'azali; c) Navoiy g'azali; d) Nodira g'azali.
A) *1-b, 2-d, 3-a, 4-c* B) *1-c, 2-d, 3-a, 4-b* **C) *1-b, 2-c, 3-a, 4-d*** D) *1-d, 2-c, 3-b, 4-a*

1738. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700412)
"U milodiy 1439-yili Hirotda uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan. 1823-yil fransuz sharqshunosi Jaubert Amedeye bu asar haqida ma'lumot chop ettirib, uni ilm ahliga tanishtiradi".
Ushbu fikr qaysi asar haqida?
A) *Xorazmiy, "Muhabbatnoma"*
B) *Lutfiy devoni*
C) *Alisher Navoiy, "Majolis un-nafois"*
**D) Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig"**

1739. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700413)
"Qutadg'u bilig" asarining 31-bobida qanday masala ko'tarilgan?
**A) *rahbar ma'naviyati***
B) *rostgo'ylik va yolg'onchilik*
C) *ilm o'rganish* D) *ota-ona hurmati*

1740. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700414)
Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi bilan bog'liq sanalar ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?
1) "O'qish kitobi", "Yengil adabiyot" darsliklarining yozilishi; 2) chet mamlakatlarga safar qilishi; 3) roman janridagi asarlar yaratishi; 4) "Maysaraning ishi" komediyasining yaratilishi; 5) bolalar va kattalar uchun maktablar ochishi; 6) "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasining yozilishi.
A) *1, 3, 2, 4, 5, 6*
**B) 2, 1, 5, 3, 6, 4**
C) *3, 2, 1, 4, 6, 5*
D) *1, 2, 3, 5, 4, 6*

1741. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700415)
Tugangan fahm etib umri baqosin,
Sovug' oh urdi yod aylab atosin.
Anosi ham ko'zi oldig'a keldi,
Ko'zidin ikki qonlig' rud ochildi.
Alisher Navoiy "Xamsa"sidan olingan bu baytlarda qaysi obrazning holati tasvirlangan?
A) *Layli* B) *Majnun* C) *Suhayl* **D) *Farhod***

1742. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700416)
**Sen agar zohir etding itlikni,**
**Men senga koʻrguzay yigitlikni.**
Ushbu soʻzlar qaysi asar qahramoniga tegishli?

**A) A.Navoiy ”Mehr va Suhayl”, Suhayl**
B) *A.Navoiy ”Farhod va Shirin”, Farhod*
C) *”Ravshan” dostoni, Ravshan*
D) *A.Firdavsiy ”Shohnoma”, Siyovush*

1743. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700417)
Qaysi asarda zulm yonib turgan oʻtga, adolat esa neʼmat undiruvchi suvga qiyoslab taʼriflangan?

A) *Alisher Navoiy ”Salotin bobida”, ”Hayrat ul-abror”*
**B) Yusuf Xos Hojib ”Qutadgʻu bilig”**
C) *Alisher Navoiy ”Shoh Gʻoziy hikoyati”*
D) *Ogahiy ”Ogohnoma”*

1744. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700418)
”Qutadgʻu bilig”da bek ikki narsa bilan elni buzadi, degan fikr aytilgan. Bu ikki narsa nima?

**A)** *zoʻrlik va gʻofillik*
B) *ilmsizlik va adolatsizlik*
C) *kaltabinlik va johillik*
D) *buzuq feʼllilik va yolgʻonchilik*

1745. 11.1-3 file-» 11 - 7 - - (700419)
Shaxsiy hayotida tirikchiligi ”chashmi soʻzan”, yaʼni igna teshigidan oʻtkazilayotgan ip kabi qiyin oʻtgan shoir kim?

A) *Muqimiy* B) *Maxmur* C) *Zavqiy*
**D)** *Turdi Farogʻiy*

1746. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700420)
Vasl aro koʻrdim, teng emish boʻyi-yu sochi,
Tun-kun teng ekan, zohir oʻlur boʻldi chun
Navroʻz.
Kun-tun tengligi boʻy bilan sochning barobarligiga qiyos qilingan ushbu bayt muallifi kim? Bunda shoir kimning baytidan ijodiy foydalangan?

A) *Bobur; Navoiyning*
B) *Navoiy; Lutfiyning*
C) *Xorazmiy; Navoiyning*
**D) Navoiy; Xorazmiyning**

1747. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700421)
Tilarmenkim, bizing til birla paydo
Kitobe aylasang bu qish qotimdo,
yaʼni ”bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (turkiyda) kitob yozsang”, deb iltimos qilgan maʼrifatparvar kim va uning tashabbusi bilan qaysi asar yuzaga kelgan?

**A) Muhammad Xoʻjabek, Xorazmiyning ”Muhabbatnoma”si**
B) *Tabgʻach Ulugʻ Bugʻra Qoraxon, Y.X.Hojibning ”Qutadgʻu bilig”i*
C) *Dod Sipohsolarbek, A.Yugnakiyning ”Hibat ul-haqoyiq”i*
D) *al-Muqtado, M.Koshgʻariyning ”Devoni lugʻotit turk”i*

1748. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700422)
Ellik yosh haqida ”qora quzgʻun tusidek boshimni oq (qush) qildi”, ”pistirma, yaʼni nogahoniy oʻlim boʻlmasa, u tomon boraman” mazmunidagi fikrlarni aytgan ijodkor kim?

A) *A.Navoiy* B) *A.Yugnakiy*
**C)** *Y.X.Hojib* D) *Gulxaniy*

1749. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700423)
Navoiy kimni sheʼriyatda toʻgʻri, oddiy ifoda yoʻsinidan foydalangani uchun ”turkona aytur edi” deb taʼriflaydi?

A) *Gadoiyni* **B)** *Atoiyni* C) *Sakkokiyni*
D) *Lutfiyni*

1750. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700424)
”Qisasi Rabgʻuziy”dagi ”Uzum” hikoyatida tasvirlanishicha, shayton uzumni nima bilan sugʻoradi?

A) *uzumni shayton emas, Nuh paygʻambar sugʻoradi*
B) *oʻzining qoni bilan*
**C) tulki, sher, toʻngʻizning qoni bilan**
D) *ayiq, yoʻlbars, itning qoni bilan*

1751. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700425)
” ... birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda begʻoyat va birining latif gʻazaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdur”.
Navoiyning ushbu taʼrifi qaysi ijodkorlar haqida?

A) *Atoiy va Lutfiy* B) *Atoiy va Xorazmiy*
**C)** *Sakkokiy va Lutfiy*
D) *Sakkokiy va Gadoiy*

1752. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700426)
”Mavlono ... turkigoʻydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida sheʼri shuhrat tutti”.
Navoiyning ushbu taʼrifi qaysi ijodkor haqida?

A) *Atoiy* B) *Sakkokiy* C) *Lutfiy*
**D)** *Gadoiy*

1753. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700427)
O'sib tuprog'im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtda evrildim, - deb o'z qismatiga ishora qilgan ijodkor kim?

A) *Nosir Xusrav* B) *Bobur*
**C)** *Sayfi Saroyi* D) *Furqat*

1754. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700428)
" ... 6 masnaviy kitob nazm qilibtur ... To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur. Yaxshi ruboiyoti bor. Yana musiqiyda yaxshi namalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bor". Ushbu ta'rif kimning qalamiga mansub va kim haqida bitilgan?

A) *Navoiy Lutfiy haqida*
**B)** *Bobur Navoiy haqida*
C) *Xondamir Navoiy haqida*
D) *Navoiy Jomiy haqida*

1755. 11.1-3 file-» 20 - 3 - - (700429)
Tamomi erur qashg'ariy til bila,
Ayitmish adib riqqati dil bila, - deb o'z asarini qashqarcha til bilan yozganini ta'kidlagan muallif kim?

A) *Y.X.Hojib* **B)** *A.Yugnakiy*
C) *M.Koshg'ariy* D) *S.Saroyi*

1756. 11.1-3 file-» 11 - 9 - - (700430)
Sayohatnoma janrining dastlabki namunalari qaysi adiblarning ijodida uchraydi?

A) *A.Navoiy, Lutfiy*
B) *Mirzo Bobur, Muqimiy*
**C)** *A.Navoiy, Mirzo Bobur*
D) *Muqimiy, Furqat*

1757. 11.1-3 file-» 11 - 9 - - (700431)
A.Navoiyning "Mehr va Suhayl" asarida Jobir qo'lida asira bo'lib turgan Mehr Suhayl ishqida vola-yu zor bo'lib, bog'ni aylanib yuradi. Bu bog'da xilma-xil daraxtlar ko'p, ammo bir guldan bo'lak gul yo'q edi. Bu gulning nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *atirgul* **B)** *nilufar* C) *lola*
D) *binafsha*

1758. 11.1-3 file-» 11 - 9 - - (700432)
Lutfiyning "Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur" deb boshlanuvchi g'azalida manzar kim?

A) *Alloh* **B)** *go'zal yor* C) *raqib*
D) *oshiq*

1759. 11.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715229)
"Guliston" va "Bo'ston" asarlarini Alisher Navoiy sevib o'qiganini o'zining qaysi asarida alohida ta'kidlab o'tgan?

A) *"Mezon ul-avzon"* **B)** *"Lison ut-tayr"*
C) *"Mahbub ul-qulub"* D) *"Hayrat ul-abror"*

1760. 11.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715230)
Alisher Navoiy qaysi asarida "Ilgimdan kelganicha, zulm tig'ini ushatib, mazlum jarohatiga intiqom malhamini qo'ydim. Va ilgimdan kelmaganini ul hazrat arziga yetkurdim" deb yozadi?

**A)** *"Vaqfiya"* B) *"Tarixi muluki ajam"*
C) *"Hayrat ul-abror"* D) *"Mahbub ul-qulub"*

1761. 11.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715231)
Maxmurning bizgacha qancha she'ri yetib kelgan?

A) *68 ta* B) *18 ta* **C)** *69 ta* D) *118 ta*

1762. 11.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715232)
Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" asarining qancha baytini Daqiqiyga nisbat berishadi?

**A)** *1000 bayt* B) *3000 bayt* C) *10000 bayt*
D) *600 bayt*

1763. 11.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715233)
Mumtoz adabiyotimizda qaysi adib o'z g'azalida ko'zni taroziga o'xshatib, bu borada xalq orasida "Kishining ko'zi tarozi" degan maqol borligini ta'kidlab o'tadi?

A) *Sakkokiy* **B)** *Lutfiy* C) *Atoyi*
D) *Gadoiy*

1764. 11.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715234)
Bobur Samarqandda bino qilgan Amir Temur bog'lariga ta'rif berar ekan, ularning qaysi birining ko'shkida Temurbekning Hindiston urushi tasviri keltirilganligini o'zining "Boburnoma" asarida aytib o'tadi?

A) *Bog'i Bo'ldu* B) *Bog'i Behisht*
**C)** *Bog'i Dilkusho* D) *Bog'i Maydon*

1765. 11.1-3 file-» 11 - 8 - - 1 (715235)
**Shabistonida tug'di bir yangi oy,**
**Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy.**
A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan ushbu baytda "yangi oy" birikmasining istioraviy ma'nosi nima?

A) *yangi davr boshlanishi*
B) *Shirinning go'zalligi*
**C) Farhodning tug'ilishi**
D) *Farhod va Shirin o'rtasida paydo bo'lgan ishq*

1766. 11.1-3 file-» 11 - 8 - - 1 (715236)
**Yuzinda ishq asrori yozilg'an,**
**Ichinda dard ta'vizi qozilg'an.**
"Farhod va Shirin" dostonidagi bu bayt kim haqida aytilgan?

A) *Shirin* **B)** *Farhod* C) *Chin xoqoni*
D) *Qoran*

1767. 11.1-3 file-» 11 - 8 - - 1 (715237)
**Ishq ila shohliq muvofiq emas,**
**Ishq bobida shoh sodiq emas.**
Ushbu bayt "Xamsa"ning qaysi dostonidan olingan?

**A)** *"Saba'i sayyor"* B) *"Farhod va Shirin"* C) *"Layli va Majnun"* D) *"Saddi Iskandariy"*

1768. 11.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715238)
Lutfiyning "Ne bo'lursan?" g'azalida yorning chiroyli yurishi nimaga o'xshatilgan?

A) *bulbulga* **B)** *tog' kakligiga* C) *tovusga* D) *maynaga*

1769. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301441)
Haynrix Haynening ilk she'riy to'plami qaysi javobda berilgan?

**A)** *"Qo'shiqlar kitobi"* B) *"E'tirof"* C) *"Qish ertagi"* D) *"Romansero"*

1770. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301442)
A.Oripovning "Sohibqiron" dramatik dostoni qahramonlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

**A) Buqalamun, Aloviddin, Amir Husayn, Hofiz Sheroziy**
B) *Qosimbek, Boyazid, Qozi Miskin, Buqalamun*
C) *Usta Temur Samarqandiy, Hofiz Sheroziy, Qosimbek, Shayxulislom Mavludbek*
D) *Amir Husayn, Aloviddin, Mavludbek, Buqalamun*

1771. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301443)
Zohir A'lamning "Afandining qirq bir pashshasi" qissasidagi qahramonlar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) *Muhsin guppi, Egamberdi, Abdukarim, Nodir mirshab*
**B) Tursunali, Sodir mirshab, Abdukarim, Muhsin guppi**
C) *Muhsin guppi, Nodir mirshab, Tilovberdi, Yusuf kontor*
D) *Nodir mirshab, Sodir mirshab, Tilovberdi, Muhsin guppi*

1772. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301444)
"Otoyining tug'ilgan yili", "Javob" asarlarining muallifi qaysi javobda berilgan?

A) *Murod Muhammad Do'st*
B) *Nazar Eshonqul* **C)** *Erkin A'zamov*
D) *Tog'ay Murod*

1773. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301445)
Asqad Muxtorning "Chinor" romani qahramonlari qaysi javobda berilgan?

A) *Bektemir, A'zamjon, Ochil buva, Akbarali*
**B) Ochil buva, Azimjon, Akbarali, Bektemir**
C) *A'zamjon, To'lanboy, Bektemir, Akbarali*
D) *Azimjon, Bektemir, Ochil buva, To'lanboy*

1774. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301446)
Muhammad Yusuf dostoni qaysi javobda berilgan?

**A)** *"Osmonning oxiri"* B) *"Iltijo"* C) *"Osmonimga olib ketaman"* D) *"Iqror"*

1775. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301447)
Mirkarim Osimning Alisher Navoiy haqida hikoya qiluvchi asarlari qaysi javobda berilgan?

A) *"Yoshlik ayyomining ilk bahori", "Karvon qo'ng'irog'i", "Shukuhli karvon"*
B) *"Elchilar", "Alisher Navoiy", "Bola Alisher"*
**C) "Badarg'a", "Astrobod", "Alisher Navoiy va Darvishali"**
D) *"Alisherning yoshligi", "Hayot bo'stoni", "Alisher Navoiy va Darvishali"*

1776. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301448)
A.S.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani qaysi asar ta'sirida yaratilgan?

A) *"Romeo va Julyetta"* **B)** *"Don Juan"* C) *"Yoz kechasidagi tush"* D) *"Romansero"*

1777. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301449)
Umar Xayyom ruboiylarini birinchi marta "hazaj" bahrining "axrab" va "axram" tarmoqlarida o'girgan tarjimon qaysi javobda berilgan?

A) *Shoislom Shomuhamedov*
B) *Erkin Vohidov* C) *Abdurauf Fitrat*
**D)** *Jamol Kamol*

1778. 12.1-1 file-» 41 - 4 - - (301450)
"Karvon qo'ng'irog'i" nomli asar yozgan ijodkorlar qaysi javobda berilgan?

A) *Omon Matjon, Barot Boyqobilov*
B) *Usmon Azimov, Mirtemir*
C) *Mirmuhsin, Omon Matjon*
**D) Omon Matjon, Mirkarim Osim**

1779. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301451)
Maqsud Shayxzoda "ma'rifatdan, hayotga muhabbatdan kam bo'lmagan darajadagi ehtiyoj sanalmog'i darkor", - deb nimani aytgan?

A) *ishq-muhabbatni* **B)** *she'riyatni*
C) *yigit kishining ilm-hunar o'rganishini*
D) *ota-onaga hurmatni*

1780. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301452)
Qaysi yozuvchi o‘z asarida eng qaltis ijtimoiy-siyosiy masalalar talqinida, imperiya siyosati, jadidchilik harakati ifodasida haqiqatga sodiq qolgan?
A) *Oybek* B) *Hamza* **C)** *Cho‘lpon*
D) *Abdulla Qahhor*

1781. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301453)
Pirimqul Qodirovning qaysi asari yaxlit sujet asosiga qurilgan emas, mustaqil hamda bir-birining uzviy davomi sifatida yigirma beshdan ortiq hikoyalardan tashkil topgan?
A) *"Yulduzli tunlar"*
B) *"Humoyun va Akbar"*
**C)** *"Ona lochin vidosi"* D) *"Uch ildiz"*

1782. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301454)
Kimning asarida odam jamiyatning iskanjasida xuddi shu koloniyadagi mahbus singari ojiz, nochor, huquqsiz va erki toptalgan holatda bo‘ladi deb ta’rif qilinadi?
A) *Alber Kamyu* B) *Umar Sayfiddin*
**C)** *Frans Kafka* D) *Rabindranat Thokur*

1783. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301455)
Rauf Parfini "yaralari ochiq shoir" deb ta’riflagan adib nomini belgilang.
**A)** *Asqad Muxtor* B) *Abdulla Oripov*
C) *Erkin Vohidov* D) *Said Ahmad*

1784. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301456)
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida saylovlarning adolatsiz o‘tkazilganligi poraxo‘rlikka yo‘l ochganini, saylovda yutib chiqish talabgorlarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketganini hajv qilgan shoir kim edi?
A) *Zavqiy* B) *Avaz O‘tar* **C)** *Muqimiy*
D) *Furqat*

1785. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301457)
XIX asrning 90-yillarida shoirning otasi, ikki ukasi vafot etadi. Umr yo‘ldoshi Tojibibining ko‘zlari ko‘rmay qoladi. Ma’rifatchilik adabiyotining vakili sifatida u mazlumlarni himoya qilish va adolatni tiklashga o‘zini javobgar deb hisoblar edi.
Bu fikrlar qaysi adib haqida?
**A)** *Zavqiy* B) *Avaz O‘tar* C) *Muqimiy*
D) *Furqat*

1786. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301458)
Ilk bor xuddi shu roman orqali o‘zbek xalqi o‘z bisotini, asl qiyofasini, ichki dunyosini kuchli va ojiz tomonlarini bor bo‘yicha go‘yo tiniq ko‘zgudagidek aniq ko‘rdi.
Ta’riflangan romanni toping.
A) *"Kecha va kunduz"*
B) *"Ulug‘bek xazinasi"* **C)** *"O‘tkan kunlar"*
D) *"Mehrobdan chayon"*

1787. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301459)
46 ta pastkash, yulg‘ich boylarni butun Farg‘ona vodiysiga sharmanda qilgan jasur shoir kim edi?
A) *Muqimiy* B) *Furqat* **C)** *Zavqiy*
D) *Avaz O‘tar*

1788. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301460)
Qaysi asarni o‘zbek o‘quvchisi, butun turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarning zukko kishilari bayramdek kutib olgan?
A) *"Kecha va kunduz"*
B) *"Ulug‘bek xazinasi"* C) *"Yulduzli tunlar"*
**D)** *"O‘tkan kunlar"*

1789. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301461)
Hamzaning o‘zbek dramaturgiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan 1926-1927-yillarda yaratilgan dramalarini belgilang.
**A) "Paranji sirlari", "Maysaraning ishi"**
B) *"Zaharli hayot", "Boy ila xizmatchi"*
C) *"Kim to‘g‘ri", "Burungi saylovlar"*
D) *"Tuhmatchilar jazosi", "Boy ila xizmatchi"*

1790. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301462)
Qaysi adibning ijodi sovet davrida bir yoqlama o‘rganilgan va haddan ziyod sovetlashtirilgan?
A) *Abdulla Qodiriy*
B) *Abdulhamid Cho‘lpon* C) *G‘afur G‘ulom*
**D)** *Hamza*

1791. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301463)
"Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin ko‘rganman, ular mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug‘dan o‘sib chiqqandek edilar".
Oybekning ushbu so‘zlari qaysi asari haqida aytilgan?
A) *"Qutlug‘ qon" romani*
**B)** *"Navoiy" romani* C) *"Ulug‘ yo‘l" romani*
D) *"Mashrab" lirik dostoni*

1792. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301464)
Azroilni ham dog‘da qoldirgan afandi obrazi kimning hikoyasida uchraydi?
A) *Zohir A’lam* B) *Anvar Obidjon*
**C)** *G‘afur G‘ulom* D) *Fitrat*

1793. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301465)
Cho'lponning taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan Toshkent jadidlarining sardori kim edi?

A) *Ubaydulla Xo'jayev*
**B)** *Munavvar qori Abdurashidxonov*
C) *Xurshid* D) *Behbudiy*

1794. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301466)
Cho'lpon "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadyor" hikoyalarini hamda "Yozuvchilarimizga", "Adabiyot nadur" nomli maqolalarini e'lon qilganda necha yoshda edi?

**A)** *16* B) *18* C) *19* D) *21*

1795. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301467)
Turkiston Muxtoriyatining kuychisi deb ta'riflangan shoir nomini belgilang.

A) *Abdulla Avloniy* B) *Fitrat*
**C)** *Cho'lpon* D) *Behbudiy*

1796. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301468)
O'zini "onhazratning otgan o'qlari" sanaydigan, xon haramini do'ndiq qizlar bilan to'ldirib turishni kasb qilib olgan Gulshan obrazi qaysi asarda uchraydi?

A) *"O'tkan kunlar" romanida*
B) *"Qutlug' qon" romanida*
C) *"Navoiy" romanida*
**D)** *"Mehrobdan chayon" romanida*

1797. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301469)
"Kuz yomg'iri" she'ri oktabr oyida Moskvada yozilgan. Bu she'r tabiatning rangin tasviri emas, balki qora qalam bilan chizilgan eskizidir. She'r muallifi kim?

**A)** *Cho'lpon* B) *Fitrat*
C) *Abdulla Qodiriy* D) *G'afur G'ulom*

1798. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301470)
Shoirlik menda bir soyami, deyman,
Har bir tushunchamni yoza olmagach.
Rassomdek xayolga chiza olmagach,
Haqir borlig'imga ko'p afsus yeyman.
She'r muallifini toping.

A) *G'afur G'ulom* B) *Oybek* **C)** *Cho'lpon*
D) *Hamza*

1799. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301471)
XX asr o'zbek madaniyat arboblari ichida birinchilardan bo'lib, "Devonu lug'atit turk"ni o'rganishga kirishgan, mo'g'ul tilining lug'atini tuzishga tayyorgarlik ko'rgan alloma ijodkor kim edi?

**A)** *Fitrat* B) *Behbudiy* C) *Oybek*
D) *Hamza*

1800. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301472)
Ma'rifatchilik adabiyotidagi eng yorqin iste'dod egasi deya ta'riflangan adib kim?

A) *Muqimiy* B) *Zavqiy* C) *Komil*
**D)** *Furqat*

1801. 12.1-1 file-» 80 - 4 - - (301473)
Yozuvchi Sa'dulla Siyoyev qaysi avliyo haqida ikki kitobdan iborat roman yozgan?

A) *Bahovuddin Naqshband* B) *Mashrab*
C) *So'fi Olloyor* **D)** *Ahmad Yassaviy*

1802. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301474)
Yo'ldosh Oxunboboyevning to'rtinchi kotibi bo'lgan, iste'dodli adibni belgilang.

A) *Rauf Parfi* **B)** *Mirtemir*
C) *Shukur Xolmirzayev* D) *Pirimqul Qodirov*

1803. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301475)
Qaysi yozuvchining asarlari og'ir o'qiladi? Ularni o'qib orom olish, lazzatlanish mumkin emas. Avvalo, ularni tushunish, qahramonlarning ruhiy holatini tuyish juda og'ir kechadi?

A) *Umar Xayyom* **B)** *Frans Kafka*
C) *Shekspir* D) *Firdavsiy*

1804. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301476)
Hamid Olimjonning o'zbek sahnasi yulduzi Shohida Mahzumova san'atidan ta'sirlanib yozgan she'rini belgilang.

A) *"Sevgi"*
B) *"Xayolimda bo'lding uzun kun"*
C) *"Kuygay"* **D)** *"Ofeliyaning o'limi"*

1805. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301477)
Qaysi salbiy qahramon "uzoqni ko'zlab ish tutadigan tadbirkor, dushmanini tashqaridan emas, avval ichdan, qatoridagilarni qo'lga olib, munofiq va xiyonatchilardan foydalanib mahv etish yo'lini tutadiganlar xilidan" deb ta'riflanadi?

A) *"O'tkan kunlar"da - Azizbek*
**B)** *"Abulfayzxon"da - Nodirshoh*
C) *"Mehrobdan chayon"da - Xudoyorxon*
D) *"Gamlet" tragediyasida - Klavdiy*

1806. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301478)
Abdulla Qodiriy qaysi asarida tarixiy haqiqatni, shaxslarni "orttirmay va kamitmay", o'z holicha ko'rsatish, "yo'qni yo'ndirmay, bor gaplarni yozish" yo'siniga amal qiladi?

A) *"O'tkan kunlar"*
B) *"Uloqda"*
**C) "Mehrobdan chayon"**
D) *"Kalvak mahzumning xotira daftaridan"*

1807. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301479)
Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg‘onlar,
U qo‘pol tushingiz qorlarda yo‘q bo‘lsin!
Ey, mening bog‘imdan mevamni terg‘onlar,
U qora boshingiz yerlarga ko‘milsin!
Ushbu misralar Cho‘lponning qaysi she’ridan keltirilgan?

A) *"Buzilgan o‘lkaga"* B) *"Kishan"*
C) *"Bahorni sog‘indim"* **D)** *"Xazon"*

1808. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301480)
Abdulla Qahhorning 1958-yilda chop etilgan va katta dovruq qozongan asarini belgilang.

**A)** *"Sinchalak" qissasi* B) *"Sarob" romani*
C) *"O‘tmishdan ertaklar" qissasi*
D) *"Qo‘shchinor chiroqlari" romani*

1809. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301481)
Bulutday kezsa xalq ichida shoir,
Xotirasi quyosh kabi qoladir.
Ko‘ngli ko‘targuncha har dargoh-gulshan,
Bilinmas nash’asi, g‘ami nimadan,
Hayoti ming quroq bir afsonadir.
Oybekning mazkur she’ri kimga bag‘ishlangan?

A) *Navoiyga* **B)** *Mashrabga* C) *Hamzaga*
D) *shoirlarga*

1810. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301482)
Frans Kafka qaysi asarida "shaxs hamma narsadan hur va yuqori turishi kerak" degan g‘oyani aks ettirgan?

**A)** *"Jarayon"* B) *"Begona"* C) *"Amerika"*
D) *"Qo‘rg‘on"*

1811. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301483)
"Ko‘hna dunyo" romanidagi soxta Ibn Sino nomi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

**A)** *Ibn Shahvoniy* B) *Piri Bukriy*
C) *Ibn Hasanak* D) *Ali G‘arib*

1812. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301484)
"Ko‘hna dunyo" romanidagi haqiqiy Ibn Sinoni haydab, soxta Ibn Sinoni boshga ko‘tarib, e’zozlagan kim edi?

A) *Sulton Mas’ud G‘aznaviy* B) *Xatlibegim*
**C)** *Sulton Mahmud G‘aznaviy*
D) *Abu Rayhon Beruniy*

1813. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301485)
O‘zbek milliy modern she’riyatining asoschilaridan biri va eng yirik vakili . . .

A) *Cho‘lpon* B) *Faxriyor*
C) *Shavkat Rahmon* **D)** *Rauf Parfi*

1814. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301486)
Shukur Xolmirzayevning qaysi hikoyasida bir millat, bir mamlakatning ma’lum bir bosqichdagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o‘z xarakterini o‘zi ochish yo‘sinida yoritiladi?

**A)** *"Xumor"* B) *"Bodom qishda gulladi"*
C) *"Tabassum"* D) *"O‘zbek xarakteri"*

1815. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301487)
Qaysi hikoyada "Xizr" qiyofasidagi podsho obrazi berilgan?

A) *"Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi"*
**B)** *"Hasan Kayfiy"*
C) *"Gilos danagidan tasbeh"*
D) *"Nur va soyalar"*

1816. 12.1-1 file-» 80 - 5 - - (301488)
Birinchilardan bo‘lib sho‘ro idoralaridagi mas’ul xodimlarning munofiqona basharalarini ochib tashlagan "zamon kuychisi" kim edi?

A) *Cho‘lpon* **B)** *Hamza* C) *Oybek*
D) *G‘afur G‘ulom*

1817. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301489)
Shoira Zulfiyaning fikricha, she’rlar qachon poeziyaga aylanadi?

A) *shaklan va mazmunan go‘zallashganda*
B) *matbuotda e’lon qilinganda*
**C) minglarcha kishilar o‘z qalbi va dili bilan his etganda**
D) *she’rlar ustida qunt va chidam bilan ishlaganda*

1818. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301490)
Ola ho‘kiz mojarosi qaysi asarda badiiy aks etgan?

A) *"Shum bola"da*
B) *"O‘tmishdan ertaklar"da*
C) *"Susambil"da* **D)** *"O‘g‘ri"da*

1819. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301491)
A.Qahhorning qaysi asarida holat va kechinmalar uchun "sovuq ter chiqmoq", "bir qarich cho‘kkanday bo‘lmoq", "tizzasi qaltiramoq", "tildan qolmoq", "yerga qapishib ketmoq", "lafzdan qaytmaslik", "yuragiga rahna solmoq", "dami ichiga tushmoq", "ko‘z oldiga kelmoq", "ko‘zlari jovdiramoq", "ko‘pi ketib ozi qolmoq", "o‘zini yerga tashlamoq", "yerning qa’riga yubormoq" kabi xalqona ibora va ifodalar o‘ta mahorat bilan qo‘llangan?

**A)** *"Dahshat"da*
B) *"O‘tmishdan ertaklar"da*
C) *"Og‘riq tishlar"da* D) *"Sinchalak"da*

1820. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301492)
1920-yillar adabiyotida sochmalari bilan mashhur bo‘lgan shoir kim edi?
A) *Oybek* B) *U.Nosir* **C)** *Mirtemir* D) *Mirmuhsin*

1821. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301493)
A.Qahhorning ”Dahshat” hikoyasi qahramoni Unsinga bir odamchalik yordam bergan jumla qaysi qatorda berilgan?
**A) ”O‘likning joni yo‘q”**
B) *Ganjiravonga jo‘nash umidi*
C) *Erining ”javob beraman” degani*
D) *”Bismillohir rahmonir rohim” kalimasi*

1822. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301494)
”Xalq orasida rasm bor, do‘st do‘stga safar qilib yonar (qaytar) bo‘lsa, bir hadya ola borurlar”, degan etnografik xarakterdagi ma’lumot kimning qaysi asarida keltirilgan?
A) *M.Koshg‘ariy, ”Devonu lug‘otit turk”*
**B)** *Rabg‘uziy, ”Qisasi Rabg‘uziy”*
C) *Abulg‘ozi Bahodirxon, ”Shajarai turk”*
D) *As-Saolibiy, ”Yatimat ud-dahr”*

1823. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301495)
”Nomoz o‘g‘ri”, ”Dahshat” singari asarlar yozmoqchi bo‘lib, materiallar to‘plagan adib kim edi?
A) *Fitrat* B) *Cho‘lpon* C) *A.Qahhor* **D)** *A.Qodiriy*

1824. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301496)
A.Qodiriy ”O‘tkan kunlar” romanida bir o‘rinda kitobxonni uch ayol bilan tanishtiradi. Bular kimlar?
**A)** *Oftoboyim, Oyshabibi, To‘ybeka*
B) *Oftoboyim, Oyshabibi, Kumushbibi*
C) *Oftoboyim, Kumushbibi, O‘zbekoyim*
D) *O‘zbekoyim, Zaynab, Xushro‘y*

1825. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301497)
Otabekni chiroyli yigit, aqllik yigit deb maqtagan, maqtay-maqtay ichagi uzilgan va o‘zi ham Qutidorning ”aqli balo” degan maqtoviga munosib topilgan obraz qaysi?
A) *Oyshabibi* **B)** *To‘ybeka* C) *Oftoboyim* D) *Oybadoq*

1826. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301498)
Cho‘ri qiz Hanifa qaysi asar personaji?
A) *”Mehrobdan chayon”* **B)** *”O‘tkan kunlar”* C) *”Sarbadorlar”* D) *”O‘tmishdan ertaklar”*

1827. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301499)
A.Qodiriyning ”O‘tkan kunlar” romanida ”Ota-onani haqsiz tashlab qo‘ymaslik va ota-ona orzusiga ham haq berish” kabi masalani kim Otabekka tushuntirgan edi?
A) *O‘zbekoyim* B) *Hasanali* **C)** *Yusufbek hoji* D) *Kumushbibi*

1828. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301500)
”Men g‘olibman. Buyuk lashkarman,
Bosib oldim sevgi yurtini” deya g‘ururlangan shoir kim?
A) *U.Nosir* **B)** *Cho‘lpon* C) *Fitrat* D) *Nozimaxonim*

1829. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301501)
Cho‘lponning ”Kecha va kunduz” romanida ”Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurtning obro‘yli odamlarini himoya qiladi. Obro‘y davlat bilan topiladi, muni bilasan . . . Sen xomsan siyosatga . . . ” degan fikrlar qaysi amaldor tilidan aytilgan?
A) *ellikboshi* B) *hokim to‘ra* **C)** *noyib to‘ra* D) *Zunnun*

1830. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301502)
Oybek qaysi she’rida 7 marta ”o‘n ikki” bilan bog‘liq obrazlar tizimini yaratgan?
A) *”Na’matak”* **B)** *”Tog‘ sayri”* C) *”Tong yulduzi”* D) *”Mashrab”*

1831. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301503)
Oybekning ”Qutlug‘ qon” romanida Unsinning onasidan yodgor qolgan yagona zeb-ziynati nima edi?
A) *tilla uzuk* B) *tilla bilakuzuk* **C)** *kumush bilakuzuk* D) *kumush halqa*

1832. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301504)
Oybekning ”Qutlug‘ qon” romanida Olimxon ellikboshi kimning taklifi bilan Yo‘lchini jazolashni rejalashtiradi?
**A)** *Hakimboyvachcha* B) *Mirzakarimboy* C) *Salimboyvachcha* D) *Tantiboyvachcha*

1833. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301505)
Oybek Mashrab ijodiga hurmat sifatida u haqida she’r va doston ham yozgan. Shu bilan birga u qaysi asarida ”choyxonadagi qalandar Mashrab g‘azalidan o‘qirdi”, deb qayd etadi?
**A)** *”Qutlug‘ qon”* B) *”Navoiy”* C) *”Ulug‘ yo‘l”* D) *”Bolalik”*

1834. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301506)
"Ulug'bek xazinasi" romanida taxtdan ayrilgan Ulug'bekning qimmatbaho xazinasi bo'lgan kitoblarni asrab qolishda Ali Qushchiga kim yordam beradi?

A) *Amir Jondor* **B)** *Qalandar Qarnoqiy*
C) *Bobo Temur* D) *Ibrohim Po'lat*

1835. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301507)
A.Oripovning qaysi she'rida G'.G'ulom, Shayxzoda, Ulug'bek mirzo, onasi, A.Temur bilan bog'liq chizgilar aks etgan?

A) *"Ko'zlarim yo'lingda"* B) *"Ruhim"*
C) *"Sarob"* **D)** *"Bahor"*

1836. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301508)
A.Oripov qaysi she'rida vallomat insonning mehrga, ishqqa, muhabbatga, haqqa, haqiqatga, nurga, ziyoga tashnaligi go'zal satrlarda ifoda etilgan?

A) *"Ruhim"* **B)** *"Genetika"*
C) *"Kuz manzarasi"* D) *"Bahor"*

1837. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301509)
Shekspirning "Otello" asarida Otello nima uchun ro'molchaga katta hurmat va e'tiqod bilan qaraydi?
1) muhabbat garovi deb biladi;
2) otasi onasiga sovg'a qilgani uchun;
3) onasidan yodgorlik bo'lgani uchun;
4) juda qimmatbaho bo'lgani uchun;
5) omad garovi bo'lgani uchun

**A)** *1, 2, 3* B) *1, 5* C) *4* D) *2, 3, 5*

1838. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301510)
N.Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" nomli hikoyasi qahramonini aniqlang.

A) *Gulsara* **B)** *Bayna momo* C) *Ko'klam*
D) *Zuhra momo*

1839. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301511)
O.Yoqubovning qaysi dramasida inson ko'ngli mayllariga e'tiborsizlik, vaqtida odamni qadrlamaslik singari holatlar aks etgan?

A) *"Bir koshona sirlari"*
B) *"Olma gullaganda"* **C)** *"Bir qadam yo'l"*
D) *"Bir kam dunyo"*

1840. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301513)
Milliy poeziyamizning tarixida qaysi shoir ikki so'zdan iborat:
Oy
Bolta
degan she'rini yozdi?

A) *A.Oripov* B) *M.Yusuf* C) *Sh.Rahmon*
**D)** *Faxriyor*

1841. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301514)
A.S.Pushkin o'zining qaysi asarida bir qizning soddagina dil izhorini pokiza bir sevgi zorini va keyinchalik bir o'ktam ayolga aylanishini badiiy talqin etgan?

**A)** *"Yevgeniy Onegin"* B) *"Kapitan qizi"*
C) *"Toppon xonim"* D) *"Belkin qissalari"*

1842. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301515)
Pushkinning "Ruslan va Lyudmila" asari qo'lyozmasi bilan tanishgan qaysi mashhur shoir Pushkinga: "G'olib shogirdga mag'lub ustozdan", degan yozuv bilan o'z portretini sovg'a qilgan?

A) *Ivan Rushin* **B)** *Jukovskiy* C) *Derjavin*
D) *Anton Delvig*

1843. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301516)
"Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir", - deya e'tirof etgan adib kim?

A) *Oybek* B) *O'.Hoshimov*
**C)** *Ch.Aytmatov* D) *O.Yoqubov*

1844. 12.1-1 file-» 99 - 1 - - (301517)
"Musibatnoma" kitobi qaysi adib qalamiga mansub?

A) *Derjavin* B) *Vilyam Shekspir*
**C)** *Grigor Narikatsi* D) *Geyne*

1845. 12.1-1 file-» 1 - 42 - - (400429)
Shavkat Rahmon qaysi chet el adibi she'rlarini o'zbekchaga tarjima qilib, "Saylanma" nomi bilan chop ettirdi?

A) *Robert Byorns* **B)** *Federiko Garsia Lorka*
C) *Gyote* D) *Xerald Fidjerald*

1846. 12.1-1 file-» 1 - 42 - - (400430)
Fitratning "og'ir yigit"ga murojaati bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig'i bo'lib eshitilgan she'rini toping.

A) *"Mirrix yulduziga"* **B)** *"O'git"*
C) *"Yurt qayg'usi" I* D) *"Yurt qayg'usi" II*

1847. 12.1-1 file-» 1 - 42 - - (400431)
To'ra Sulaymon qaysi she'rida odam bolasi ikki dunyo orasida muallaq qolmaslikni istasa, Yerga – o'zi singari odamlarga va Osmonga – o'zini yaratgan qudratga suyanmog'i lozimligini birgina misrada ifoda etadi?

A) *"Tavallo"* **B)** *"Armon"* C) *"Iltijo"*
D) *"Gul bir yon, chaman bir yon"*

1848. 12.1-1 file-» 1 - 42 - - (400432)
"Sarob" romani qahramonlari to‘g‘ri sanalgan qatorni belgilang.

**A) Rahimjon, Murodxo‘ja, Munisxon**
B) *Sarviniso, G‘afforjon, Azim*
C) *Saodat, Mehri, Saidiy*
D) *Nozik, Gulshan, Zarifa*

1849. 12.1-1 file-» 1 - 42 - - (400433)
"Jahon bast-u kushodi ilm birla,
Nadur dilni(ng) murodi ilm birla."
Ushbu satrlar qaysi ma’rifatparvar ijodiga tegishli?

A) *Komil* **B)** *Furqat* C) *Zavqiy*
D) *Muqimiy*

1850. 12.1-1 file-» 5 - 1 - - (400434)
Tarixiy mavzuda yaratilgan "Mashrab" dostoni, "Boqiy dunyo" she’riy romani, "Sarbadorlar", "Ulug‘ saltanat" romanlarining muallifi kim?

A) *Odil Yoqubov* **B)** *Muhammad Ali*
C) *Pirimqul Qodirov* D) *Tog‘ay Murod*

1851. 12.1-1 file-» 5 - 1 - - (400435)
Bayronning "Manfred", Nozim Hikmatning "Inson manzaralari", Mahmud Hodiyning "Ozodlik lavhalari", Karlo Kaladzening "Dengiz xayoli" kabi asarlarni o‘zbek tiliga o‘girgan tarjimon kim?

**A)** *Rauf Parfi* B) *Muhammad Ali*
C) *Tog‘ay Murod* D) *Shavkat Rahmon*

1852. 12.1-1 file-» 1 - 43 - - (400436)
Muhammad Alining nasrdagi birinchi yirik asari ....

A) *"Ulug‘ saltanat"* B) *"Mashrab"*
**C)** *"Sarbadorlar"* D) *"Boqiy dunyo"*

1853. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400437)
Ertak-doston janrining rivojiga hissa qo‘shgan ijodkorlar qaysi javobda keltirilgan?

A) *A.Qodiriy, Hamza, Cho‘lpon*
B) *E.Vohidov, S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev*
**C)** *A.Avloniy, Q.Hikmat, M.Shayxzoda*
D) *G‘.G‘ulom, A.Qahhor, S.Ahmad*

1854. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400438)
M.Shayxzodaning "Iskandar Zulqarnayn" asarida qanday g‘oya ilgari surilgan?

A) *vatan himoyasi*
B) *tinchlikni saqlash*
**C) hech bir yomonlikning jazosiz qolmasligi**
D) *bilim olishning zarurligi*

1855. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400439)
Birinchi o‘zbek yuristi taqdiri yoritilgan roman qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *"Kafansiz ko‘milganlar"*
**B)** *"Tirik ruhlar"*
C) *"Davr mening taqdirimda"*
D) *"Er boshiga ish tushsa"*

1856. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400440)
Hans Kristian Andersenning birinchi yirik asari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *"Qor malikasi"* B) *"Bulbul"*
C) *"Bronza to‘ng‘iz"* **D)** *"Improvizator"*

1857. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400441)
Hans Kristian Andersenning go‘zallik va ezgulikni ulug‘lovchi, soxtalik va qabihlikni qoralovchi ertagi qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *"Kumush tangacha"* B) *"Bronza to‘ng‘iz"*
**C)** *"Bulbul"* D) *"Dyumchaxon"*

1858. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400442)
Antuan de Sent-Ekzyuperi "Kichkina shahzoda" asarini kimga bag‘ishlagan?

A) *bolalarga* B) *otasiga* C) *uchuvchilarga*
**D)** *do‘stiga*

1859. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400443)
Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" ertagidagi asteroidlar nimaning ramzi?

A) *jamiyat qonunlarining*
B) *o‘zga sayyoralardagi hayotning*
**C) odamlarga xos fazilat va nuqsonlarning**
D) *ular ramziy ma’noga ega emas*

1860. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400444)
Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" ertagida Kichkina shahzoda nima uchun Yerni tark etadi?

A) *o‘z sayyorasini sog‘ingani uchun*
B) *cho‘l sharoitiga ko‘nika olmagani uchun*
**C) Yerda ezgulikni sof holda uchrata olmagani sababli**
D) *uchuvchi bilan chiqisha olmagani tufayli*

1861. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400445)
Hamza nima uchun o‘z taxallusiga "Hakimzoda" nomini qo‘shgan?

A) *hakim bo‘lgani uchun*
**B) otasi tabib bo‘lgani uchun**
C) *otasining ismi Hakim bo‘lgani uchun*
D) *bobosi mashhur tabib bo‘lgani uchun*

1862. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400446)
Hamzaning ”Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”dagi she’rlarning aksariyatida nima tasvirlangan?

A) *Shohimardon manzarasi*
B) *ona yurt tabiati va go‘zalligi*
**C) Turkiston o‘lkasi boshiga tushgan og‘ir kunlar**
D) *Farg‘ona vodiysining manzaralari*

1863. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400447)
Ezopning ”Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon” masalidan qanday xulosa kelib chiqadi?

A) *to‘g‘ri va rostgo‘y bo‘lish*
**B)** *do‘stga sadoqat* C) *haqiqatgo‘y bo‘lish*
D) *mehnatsevarlik*

1864. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400448)
Ezopning ”Kiyik bilan tokzor” masalidan qanday xulosa kelib chiqadi?

A) *kattalarga hurmatda bo‘lish*
B) *kamtar bo‘lishlik*
**C) yaxshilikka hamisha yaxshilik bilan javob qaytarish**
D) *yomonlikka yomonlik*

1865. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400449)
Ezopning ”Bo‘ri bilan laylak” masalidan qanday xulosa kelib chiqadi?

A) *yomonlikka ham yaxshilik bilan javob qaytarish*
**B) yaxshilikni uning qadriga yetadigan odamga qilish**
C) *yaxshi-yomonga barobar yaxshilik qilish*
D) *yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarish*

1866. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400450)
Ezopning ”Eshak bilan baqalar” masali mazmuni qaysi o‘zbek xalq maqoliga hamohang?

**A) Birni ko‘rib shukr qil, birni ko‘rib fikr qil.**
B) *Osmon uzoq, yer qattiq.*
C) *Sanamay sakkiz dema.*
D) *Buzoqning yugurgani somonxonagacha.*

1867. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400451)
Ezopning qaysi masalida o‘ziga ortiqcha baho berishning oqibati yoritilgan?

A) *”Eshak bilan baqalar”*
**B)** *”Burgut, zag‘cha va cho‘pon”*
C) *”Kiyik bilan tokzor”*
D) *”Bo‘ri bilan laylak”*

1868. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400452)
O‘zbek masalnavis shoirlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) *S.Abduqahhor, M.Yusuf, M.Xudoyqulov*
B) *A.Avloniy, Hamza, U.Nosir*
**C) A.Avloniy, Hamza, Ya.Qurbon**
D) *Shukrullo, T.Sulaymon, A.Suyun*

1869. 12.1-1 file-» 11 - 2 - - (400453)
Abdulla Oripovning ”O‘zbekiston” qasidasi necha satrlik nechta banddan iborat?

A) *8 satrlik 12 banddan*
B) *8 satrlik 10 banddan*
C) *10 satrlik 10 banddan*
**D)** *10 satrlik 14 banddan*

1870. 12.1-1 file-» 11 - 3 - - (400454)
Zamonaviy romanlar qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *A.Qodiriy, ”O‘tkan kunlar”; O.Yoqubov, ”Ulug‘bek xazinasi”*
B) *Oybek, ”Quyosh qoraymas”; Shuhrat, ”Shinelli yillar”*
**C) O.Yoqubov, ”Diyonat”; P.Qodirov, ”Olmos kamar”**
D) *M.Ismoiliy, ”Farg‘ona tong otguncha”; H.G‘ulom, ”Mash’al”*

1871. 12.1-1 file-» 11 - 3 - - (400455)
”Shum bola” asarining qaysi o‘rnida G‘.G‘ulomning Sharq xalqlari og‘zaki ijodidan ijodiy foydalanganligi ko‘rinadi?

A) *Shum bolaning qushlarga qatiq, suzma berib o‘ldirib qo‘yishi sujetida*
**B) Shum bolaning Sariboy bilan bo‘lgan suhbatida**
C) *Shum bolaning o‘sal bo‘lib qolgan ho‘kiz o‘rniga soppa-sog‘ eshakni so‘yib qo‘yishi epizodida*
D) *Sulton o‘g‘ri va kissavurlar bilan bo‘lgan uchrashuvida*

1872. 12.1-1 file-» 11 - 3 - - (400456)
J.Sviftning ”Gulliverning sayohatlari” romanidagi baland poshnalilar va past poshnalilar qaysi mamlakatda yashaydi?

A) *Blefusku* B) *Brobdingneg*
**C)** *Liliputiya* D) *Leputa*

1873. 12.1-1 file-» 11 - 3 - - (400457)
T.To‘la so‘zlari bilan aytganda, she’riyatimizga shamolday, bo‘ronday, to‘polon va to‘lqin bilan kirib kelgan shoir kim?

A) *H.Olimjon* **B)** *U.Nosir* C) *A.Oripov*
D) *U.Azim*

1874. 12.1-1 file-» 11 - 3 - - (400458)
Quyidagi misralar muallifi qaysi javobda ko‘rsatilgan?
**Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon,**
**Sarv-u sanobarimdir, soch bir yon, suman bir yon.**
A) *Mirtemir* B) *Abay* **C)** *To‘ra Sulaymon*
D) *Ergash Jumanbulbul o‘g‘li*

1875. 12.1-1 file-» 11 - 3 - - (400459)
Qaysi o‘zbek adibining birinchi yirik asari Istanbulda chop etilgan?
A) *Hamza* B) *Avloniy* C) *Almaiy*
**D)** *Fitrat*

1876. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400460)
Qaysi faylasuf shoir ”Salom” degan so‘zning salmog‘i”, ”Omon bo‘l!” tilagining sadoqati”, ”Xo‘sh, tinchlikmi?” so‘rashishining xosiyati” haqida to‘rtliklar yaratgan?
**A)** *M.Shayxzoda* B) *Bobur* C) *G‘.G‘ulom*
D) *M.Yusuf*

1877. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400461)
Qaysi adib qaysi hikoyasida o‘z otasi misolida qatag‘on davrining dahshatlarini badiiy talqin etgan?
A) *P.Qodirov, ”Jon shirin”*
B) *Shukrullo, ”Tirik ruhlar”*
**C) O.Yoqubov, ”Muzqaymoq”**
D) *T.Sulaymon, ”Iltijo”*

1878. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400462)
Mashhur adib Chingiz Aytmatov 1990-yilda qaysi romanini e’lon qildi?
A) *”Dengiz yoqalab chopayotgan olapar”*
B) *”Asrga tatigulik kun”* C) *”Qiyomat”*
**D)** *”Kassandra tamg‘asi”*

1879. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400463)
Chingiz Aytmatovning qaysi asari qahramonlari ”Boshqalar aytishi man etilgan, faqat podsholarning o‘zlari aytadigan qo‘shiqlar yo‘q” deb o‘z qo‘shiqlarini aytib bitirgandi?
**A)** *”Qiyomat”* B) *”Alvido, Gulsari”*
C) *”Oq kema”* D) *”Kassandra tamg‘asi”*

1880. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400464)
Qaysi qatorda hind adibi R.Thokurning o‘zbek tilida chop etilgan kitoblari nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) *”Chitra”, ”Qurbonlik”*
B) *”Hisob-kitob”, ”Lahza”*
**C) ”Nur va soyalar”, ”Ko‘zga tushgan cho‘p”**
D) *”Halokat”, ”Oqshom qo‘shiqlari”*

1881. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400465)
Mashhur bengal yozuvchisi Kashiram Das asarlari nomi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) *”Maxabxarata”, ”Tungi qo‘shiqlar”*
B) *”Kotxomala”, ”Jazo”*
C) *”Hisob-kitob”, ”Maxabxarata”*
**D) ”Dagarat”, ”Kotxomala”**

1882. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400466)
R.Thokur ”Nur va soyalar” asarida Shoshubushon haqida ”Bularni ko‘rib, u o‘zini turmadan ikkinchi daf’a ozod bo‘lganday his etdi”, deb yozadi. Shoshubushon ko‘rgan ”bular” aslida nima edi?
**A)** *kitoblar* B) *toshtaxtalar* C) *daraxtlar*
D) *maktublar*

1883. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400467)
Qaysi shoir o‘z she’rlarida ”Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromovlar”, ”Fayzullodek mardi maydonlar”, ”jayrondek termulgan Cho‘lponlar”, ”Olislarda qolgan Usmonlar”, ”Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar” kabi termalarni qo‘llagan?
A) *R.Parfi* B) *T.Sulaymon* **C)** *M.Yusuf*
D) *A.Oripov*

1884. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400468)
Hamza Hakimzoda Niyoziy qaysi asarida markaziy qahramon qilib yoshlarni tanlaydi?
**A) ”Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”**
B) *”Uchrashuv”*
C) *”Ilm hidoyati”*
D) *”Loshmon fojiasi”*

1885. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400469)
Qaysi qatorda H.Haynening majoziy dostoni nomi to‘g‘ri berilgan?
A) *”E’tirof”* **B)** *”Atta Troll”*
C) *”Qish ertagi”* D) *”Romansero”*

1886. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400470)
”Toshkand ustida qonliq bulutlar” nomli bob kimning qaysi asarida mavjud?
**A) A.Qodiriy, ”O‘tkan kunlar”**
B) *Z.Vosifiy, ”Badoye’ ul-vaqoye”*
C) *M.Shayxzoda, ”Toshkentnoma”*
D) *K.Xorazmiy, ”Dar bayoni ta’rifi tavsifi Toshkand”*

1887. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400471)
”Qaydadir yurtini eslab ingrar nay”, ”Nega muncha g‘amgin nayning navosi” kabi misrlarda nay bilan bog‘liq go‘zal obraz yaratgan shoir nomi qaysi qatorda berilgan?
A) *M.Yusuf* B) *E.Vohidov* **C)** *A.Oripov*
D) *O.Matjon*

1888. 12.1-1 file-» 99 - 2 - - (400472)
Mirtemirning yosh qalamkashlarga atab yozgan she'ri qaysi qatorda keltirilgan?
**A)** *"Kipriklarim"* B) *"O'zim bilaman"*
C) *"Pardalik"* D) *"Men seni . . . "*

1889. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - (700433)
Rus adibi Lermontovning "Maskarad" asarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girgan adibni aniqlang.
**A)** *M.T.Oybek* B) *Cho'lpon*
C) *Usmon Nosir* D) *Maqsud Shayxzoda*

1890. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700434)
Rasul Hamzatovning "Ona tilim" she'ri bilan quyidagi she'rlardan qaysi biri o'rtasida ruhiy yaqinlik bor?
**A) R.Parfining "Cho'lpon" she'ri**
B) *A.Oripov "Genetika" she'ri*
C) *H.H.Niyoziy "Dardiga darmon istamas" she'ri*
D) *Abay "O'lan" she'ri*

1891. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700435)
"Ilhomning vaqti yo'q – selday keladi" degan fikr qaysi shoirga tegishli?
**A)** *Usmon Nosir* B) *Rauf Parfi* C) *Oybek*
D) *Muhammad Yusuf*

1892. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700436)
Sofokl qalamiga mansub "Shoh Edip" asarini kim mahorat bilan o'zbekchalashtirgan?
**A)** *Asqad Muxtor* B) *A. Oripov*
C) *Cho'lpon* D) *Mirtemir*

1893. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700437)
R.Parfining qaysi she'ri A.Qodiriy xotirasiga bag'ishlangan?
**A)** *"Ona Turkiston"* B) *"Tong otmoqda"*
C) *"Sensiz"*
D) *"Assalomu alaykum dorning og'ochi!"*

1894. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700438)
"Chinor" romanidagi Akbaralini kim "mo'rt barg" deydi?
**A)** *Ochil bobo* B) *Azimjon*
C) *Sharofat xola* D) *Abdusamad*

1895. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700439)
Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G'afur G'ulom yumori, Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrlash fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan adib kim?
**A)** *Said Ahmad* B) *Odil Yoqubov*
C) *Erkin Vohidov* D) *O'tkir Hoshimov*

1896. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700440)
S.Yesenin qaysi she'rida Sharq va G'arb qiyosi, xotin-qizlariga munosabatining, ayollar erkining turlichaligini solishtirgan?
A) *"Xurosonda bir darvoza bor"*
**B) "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan"**
C) *"Singlimga xat"*
D) *"Bu dunyoda men bir yo'lovchi"*

1897. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700441)
"O'tkan kunlar" romanida Otabek kimni tulki deb ataydi?
A) *Homidni* B) *Mutalni*
C) *Normuhammad Qushbegi* **D)** *Azizbekni*

1898. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700442)
A.Oripovning quyidagi satrlarida nimaning timsoli chizilgan?
"Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida,
Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar,
Quyoshning erinchak yog'dularida,
Nafis yaltiraydi bargi xazonlar".
A) *bahor* B) *kuz* **C)** *vatan* D) *xalq*

1899. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700443)
"Qutlug' qon" romanida og'ir-bosiq, sabr-bardoshli, kechirimli sifatida tasvirlangan obraz qaysi?
A) *Shokir ota* B) *Hakimboyvachcha*
C) *Shoqosim* **D)** *Yo'lchi*

1900. 12.1-1 file-» 45 - 2 - - (700444)
Quyidagi shoirlardan qaysi birining she'riyatida yelda silkinayotgan ko'klam ko'kati dovdirab, yiqilib-surinib endigina oyoqqa turayotgan qo'zichoqqa o'xshatilgan?
A) *Sh.Rahmon* **B)** *A.Oripov* C) *H.Hayne*
D) *Oybek*

1901. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700445)
M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Mirzo Ulug'bek kimni "farzandi arjumand" deb ataydi?
**A)** *Ali Qushchini* B) *Abdulazizni*
C) *Abdulatifni* D) *Miram Chalabiyni*

1902. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700446)
"Muhabbat ul o'zi eski narsa, lekin har bir yurak uni yangilaydi" degan so'zlar kimga tegishli?
**A) tatar shoiri Hodi Toqtoshga**
B) *avar shoiri Rasul Hamzatovga*
C) *qozoq shoiri Abayga*
D) *fors-tojik adabiyoti vakili Bedilga*

1903. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700447)
Qaysi shoir o‘z she’rida hamma qulluq qilib turgan, ta’rifiga hamd-u sano keltirayotgan sevgiga qarshi bosh ko‘taradi?
**A)** *U.Nosir* B) *Cho‘lpon* C) *Mirtemir* D) *A.Oripov*

1904. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700448)
Fitrat quyidagi hududlardan qaysilarida jadid maktablarini ochadi?
**A) Shahrisabz va Karkida**
B) *Qo‘qon va Marg‘ilonda*
C) *Toshkentning Qashqar mahallasida*
D) *Andijon va Namanganda*

1905. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700449)
”Tilak”, ”Tong edi”, ”Totli damlar” singari she’riy asarlar muallifi kim?
**A)** *Asqad Muxtor* B) *Shuhrat* C) *Shukrullo* D) *M.Shayxzoda*

1906. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700450)
”Millatim nasli bashardur, Vatanim kurrayi arz, Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindan jon qarz” so‘zlari qaysi ma’rifatparvarga tegishli?
**A)** *Hamza* B) *Fitrat* C) *Cho‘lpon* D) *Avloniy*

1907. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700451)
T.Sulaymonning ”Iltijo” she’ridagi bahor nimaning ramziy timsoli bo‘lib gavdalanadi?
**A) Vatan, barcha tiriklikka jon ato etguvchi muqaddas yurt timsoli**
B) *yasharish va yangilanish timsoli*
C) *sadoqatsiz do‘st va bevafo yor timsoli*
D) *barcha go‘zalliklarning umumlashma timsoli*

1908. 12.1-1 file-» 45 - 1 - - (700452)
M.Yusufning qaysi she’ridagi lirik qahramon ”Uyg‘onsam - ko‘rpam kul, Yig‘lar sevgilim ... Ayiq bosgan gulday Ezildi ko‘nglim” deya yozg‘iradi?
**A)** *”Surat”* B) *”Yig‘lar yuragim”* C) *”Ko‘nglimda bir yor”* D) *”Mehr qolur”*

1909. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700453)
Mirtemirning ilk she’riy to‘plami qanday nomlangan?
A) *”Tanbur ovozi”* **B)** *”Shu’lalar qo‘ynida”* C) *”Zafar”* D) *”Tong”*

1910. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700454)
Cho‘lponning o‘zi izoh bergan, aruzda yozilgan asari qaysi?
A) *”Ko‘ngil”* B) *”Yong‘in”* C) *”Vijdon erki”* **D)** *”Kishan”*

1911. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700455)
Qaysi asarda bir oilaning uch avlodi hayoti misolida butun millatning taqdiri o‘ta ta’sirchan bo‘yoqlarda ifoda etiladi?
**A) Tog‘ay Murod, ”Otamdan qolgan dalalar”**
B) *P.Qodirov, ”Avlodlar dovoni”*
C) *O‘.Hoshimov, ”Ikki eshik orasi”*
D) *O.Yoqubov, ”Ko‘hna dunyo”*

1912. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700456)
Quyidagi qaysi personajlar A.Qodiriyning ”Mehrobdan chayon” romaniga tegishli?
A) *Mirobiddinxo‘ja, Hoshimjon, Qosim*
B) *Qoplonbek, Oymomo*
**C) Abudrahmon, Sultonali, Rahim**
D) *Nizom, Mavludbek, Sherxon*

1913. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700457)
Qaysi adib 1914-1915-yillarda ”Yangi saodat”, ”Uchrashuv” singari ”milliy roman”lar yaratgan?
A) *Abdurauf Fitrat*
**B)** *Hamza Hakimzoda Niyoziy*
C) *Abdulla Qodiriy* D) *Umar Sayfiddin*

1914. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700458)
G‘afur G‘ulomning qaysi she’rida shuhrat qozonmoq uchun Gerostratdek ibodatxonaga o‘t qo‘yish shart emasligi bayon qilingan?
A) *”Sog‘inish”* **B)** *”Vaqt”* C) *”Sen yetim emassan”* D) *”Kuzatish”*

1915. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700459)
Turg‘un, Esonboy, Orif sarkor, Nurxon obrazlari qaysi asarda uchraydi?
**A) Abdulla Qodiriy, ”Uloqda”**
B) *Oybek, ”Fonarchi ota”*
C) *O‘tkir Hoshimov, ”Dunyoning ishlari”*
D) *Tog‘ay Murod, ”Yulduzlar mangu yonadi”*

1916. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700460)
Buyuk ajdodimiz Beruniyning Xristofor Kolumbdan salkam besh yuz yil oldin Amerika qit’asini bashorat qilganligiga ishora qaysi asarda o‘z aksini topgan?
A) *E.Vohidov, ”O‘zbegim”*
**B)** *A.Oripov, ”O‘zbekiston”*
C) *Azim Suyun, ”O‘zbekiston”*
D) *Shavkat Rahmon, ”Turkiylar”*

1917. 12.1-1 file-» 1 - 49 - - (700461)
Birinchi o‘zbek roman-dilogiyasining muallifi kim?
A) *Abdulla Qodiriy*
**B)** *Abdulhamid Cho‘lpon* C) *Said Ahmad* D) *Oybek*

1918. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700462)
Bir adabiy turga mansub asarlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *Ch.Aytmatov, "Oq kema", A.S.Pushkin, "Erkinlik"*
B) *X.Do'stmuhammad, "Bozor", U.Azim, "Bir qadam yo'l"*
**C) M.Shayxzoda, "Jaloliddin Manguberdi", U.Nosir, "Dushman"**
D) *Sh.Xolmirzayev, "Olabo'ji", A.Suyun, "Oq va qora"*

1919. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700463)
XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz shoiri Herald Fitjerald qaysi shoirning asarlarini tarjima qilib nashr ettirgan?

A) *Bobur* B) *Alisher Navoiy*
**C)** *Umar Xayyom* D) *Bedil*

1920. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700464)
Usmon Nosir kimni o'zining eng buyuk ustozi deb hisoblagan edi?

A) *A.S.Pushkinni* **B)** *Cho'lponni*
C) *V.Shekspirni* D) *A.Navoiyni*

1921. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700466)
Qaysi dramada Samarqandni ko'rishni bir umr orzu qilib yashagan, lekin uni ko'rmay o'tib ketgan qariya ruhiyati tasvirlangan?

A) *Ilhom Hasan, "Bir kam dunyo"*
B) *Odil Yoqubov, "Bir koshona sirlari"*
**C) Usmon Azim, "Bir qadam yo'l"**
D) *Abdulla A'zam, "Dugohi Husayniy"*

1922. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700467)
Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining yetuk namunalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

**A) A.Qutbiddin "Izohsiz lug'at", Faxriyor "Ayolg'u", R.Parfi "Adashgan ruh"**
B) *R.Parfi "Munojot", A.Oripov "O'zbekiston", Zulfiya "Oydinda"*
C) *Sh.Rahmon "Turkiylar", E.Vohidov "O'zbegim", R.Parfi "Munojot"*
D) *A.Said "Tush", A.Oripov "Bahor", A.Suyun "Oq va qora"*

1923. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700468)
Lev Tolstoyning "Iqrornoma" asarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?

**A)** *O.Sharafiddinov* B) *I.G'afurov*
C) *N.Komilov* D) *A.Qahhor*

1924. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700469)
Bir adabiy turga mansub asarlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", M.Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek"*
B) *Oybek "Qutlug' qon", M.Ali "Gumbazdagi nur"*
C) *O'.Hoshimov "Qatag'on", N.Dumbadze "Hellados"*
**D) bir adabiy turga mansub asarlar berilmagan**

1925. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700471)
X.To'xtaboyev 14 yil davomida gazetada ishlagan vaqtida asosan qanday janrdagi asarlarni yozgan?

A) *maqola* B) *ocherk* **C)** *felyeton*
D) *intervyu*

1926. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700472)
"O'zbekyurt", "Sharq hikmati", "Ey do'st", "O'zlik" kitoblarining muallifi kim?

A) *Sh.Rahmon* B) *R.Parfi* **C)** *A.Suyun*
D) *A.Qutbiddin*

1927. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700473)
"Ochiq derazalar", "Yarador chaqmoq", "Haqqush qichqirig'i", "Ardaxiva" to'plamlarining muallifi kim?

A) *Sh.Rahmon* **B)** *O.Matjon* C) *M.Yusuf*
D) *A.Suyun*

1928. 12.1-1 file-» 11 - 7 - - (700474)
S.Yesenin qaysi she'rida Pushkin va Lermontovni tilga olib, o'zini ularga qiyoslaydi?

**A) "Singlimga xat"**
B) *"Ona ibodati"*
C) *"It haqida doston"*
D) *"Bu dunyoda men bir yo'lovchi ..."*

1929. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700475)
"Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am", "Oyoqlangan qo'ziday dovdirar yelda maysa", "Qaro sochlaringda oppoq alanga" kabi ajoyib tashbehlar yaratgan shoir kim?

**A)** *A.Oripov* B) *E.Vohidov*
C) *Sh.Rahmon* D) *M.Yusuf*

1930. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700476)
Qaysi adibning farzandi va yozgan asari qahramonining nomi bir xil?

**A)** *V.Shekspir* B) *H.Hayne* C) *R.Thokur*
D) *bunday hodisa bo'lmagan*

1931. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700477)
Fitratning XX asr boshlarida Toshkentda va Turkistonning boshqa chekkalarida bo'layotgan xunrezliklardan kuyunib yozgan she'ri qaysi?

**A) "Mirrix yulduziga"**
B) *"O'git"*
C) *"Go'zalim, bevafo gulistonim"*
D) *barcha javoblar to'g'ri*

1932. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700478)
Yetimlik nimadir, bizlardan so'ra,
O'ninchi yillarning sargardonligi,
Isitma aralash qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgusidan o'chmaydi sira . . .
satrlarining muallifi kim?

**A) *G'.G'ulom*** B) *Oybek* C) *Cho'lpon* D) *H.Olimjon*

1933. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700479)
Fitratning "O'git" she'rida kimlar millat dardiga najot sifatida tilga olingan?

A) *xalq* **B) *yigitlar*** C) *ziyolilar* D) *shoirlar*

1934. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700480)
G'.G'ulomning qaysi she'rida "o'zbek otasi"ning bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish siymosi yaratilgan?

A) *"Kuzatish"* **B) *"Sog'inish"*** C) *"Sen yetim emassan"* D) *"Vaqt"*

1935. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700481)
Qaysi adib A.Navoiy haqida jiddiy ilmiy tadqiqotlar yaratgan?

A) *G'.G'ulom* B) *H.H.Niyoziy* **C) *M.Shayxzoda*** D) *E.Vohidov*

1936. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700482)
Fitratning "O'git" she'ri sarlavhasi zamirida asosan qanday ma'no yotadi?

A) *pand-nasihat* B) *o'git-maslahat* **C) *chaqiruv, uyg'otish*** D) *iltimos, o'tinch*

1937. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700483)
Shafqatsiz realizm ko'rinishlarini o'zbek romanchiligiga olib kirgan adib nomi qaysi javobda qayd etilgan?

A) *O.Muxtor* B) *X.Do'stmuhammad* C) *Cho'lpon* **D) *A.Muxtor***

1938. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700484)
Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhorning eng yaxshi ijodiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan adib kim?

**A) *S.Ahmad*** B) *O'.Hoshimov* C) *N.Eshonqul* D) *O.Muxtor*

1939. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700485)
O'zbek milliy she'riyati, prozasi, maorifi, tilshunosligi, adabiyotshunosligi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalar oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo'shgan adib kim?

A) *H.H.Niyoziy* **B) *Fitrat*** C) *Cho'lpon* D) *Furqat*

1940. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700486)
"Jahon adabiyoti" jurnali qachon tashkil etildi?

A) *XX asr boshlarida* **B) *1997-yilda*** C) *XXI asr boshlarida* D) *1992-yilda*

1941. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700487)
U.Nosirning "Naxshon" dostonida "Kiprigi ko'ksiga soya solgan qiz" degan ta'rif bor. Bunday mubolag'ali tasvirni yana kimning she'rida uchratish mumkin?

A) *R.Parfi* B) *Sh.Rahmon* C) *A.Qutbiddin* **D) *M.Yusuf***

1942. 12.1-1 file-» 11 - 8 - - (700488)
R.Thokur qaysi asari uchun Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan?

A) *"Xalq qalbi"* B) *"Nur va soyalar"* **C) *"Gitanjali"*** D) *"Mening oltin Bengaliyam"*

1943. 12.1-1 file-» 20 - 3 - - (700489)
O'z ijodi, she'ri bahosini umrning bahosiga teng deb bilgan ijodkor kim?

A) *Cho'lpon* **B) *U.Nosir*** C) *M.Yusuf* D) *R.Parfi*

1944. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700490)
Yer kurrasiga, butun insoniyatga xavf solayotgan urushni, atom, vodorod bombasi kabi qirg'in qurollarini yaratuvchi kishilarni qoralab yozilgan asar qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *E.Vohidov, "Tirik sayyoralar"*
**B) Shukrullo, "Asr bahsi"**
C) *O'.Hoshimov, "Urushning so'nggi qurboni"*
D) *berilgan barcha asarlar*

1945. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700491)
Qaysi adib umrining so'nggi yillarida "Yodgorlik" deb nomlangan kitobini tayyorlab, unga eng sara she'rlarini kiritgan?

A) *G'.G'ulom* B) *Oybek* C) *Sh.Rahmon* **D) *Mirtemir***

1946. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700492)
"Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur" nomli asarlar muallifi kim?

A) *M.M.Do'st* **B) *X.Sultonov*** C) *E.A'zamov* D) *T.Murod*

1947. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700493)
O‘tgan asrning 70-yillarida yaratilgan asarlar qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *X.To‘xtaboyev, ”Sariq devni minib”, E.Vohidov, ”Tong nafasi”, A.Oripov, ”Mitti yulduz”*

**B) A.Suyun, ”Mening osmonim”, T.Murod, ”Yulduzlar mangu yonadi”, S.Ahmad, ”Kelinlar qo‘zg‘oloni”**

C) *M.Shayxzoda, ”Ko‘ngil deydiki”, G‘.G‘ulom, ”Sharqdan kelayotirman”, Oybek, ”Navoiy”*

D) *A.Qahhor, ”Sarob”, M.Shayxzoda, ”Uchinchi kitob”, G‘.G‘ulom, ”Shum bola”*

1948. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700494)
To‘ra Sulaymonning qaysi she’rida har bir fasl nomi ramziy ma’noni ifodalab kelgan?

**A)** *”Iltijo”* B) *”Tavallo”* C) *”Armon”* D) *”Gul bir yon, chaman bir yon”*

1949. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700495)
She’rim! Yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
U.Nosirning ”Yana she’rimga” asaridan olingan bu satrlar qaysi shoirning she’rlarini yodga tushiradi?

A) *Cho‘lponning ”Go‘zal” she’rini*

**B) Atoyi g‘azallaridan birini**

C) *A.Oripovning ”Bahor” she’rini*

D) *A.Navoiy g‘azallaridan birini*

1950. 12.1-1 file-» 11 - 9 - - (700496)
Mustaqillik davrining birinchi o‘n yilligida yaratilgan asarlar qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *A.Oripov, ”O‘zbekiston”, E.Vohidov, ”O‘zbegim”*

B) *A.Suyun, ”Olis tonglar”, R.Parfi, ”Tavba”*

**C) Sh.Xolmirzayev, ”Dinozavr”, T.Murod, ”Otamdan qolgan dalalar”**

D) *O.Matjon, ”Qush yo‘li”, A.Suyun, ”Bahodirning qilichi”*

1951. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715239)
”Zamon torlari”, ”Shu’la”, ”Olqishlarim” she’riy to‘plamlarining muallifi kim?

**A)** *Maqsud Shayxzoda* B) *G‘afur G‘ulom* C) *Hamid Olimjon* D) *Mirtemir*

1952. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715240)
Shukrulloning bolalar uchun yozgan kitoblarini belgilang.
1) ”Xatarli yo‘l”; 2) ”Bahor sovg‘asi”; 3) ”Yulduzlar”; 4) ”Tabassum o‘g‘rilari”

A) *1, 4* **B)** *2, 3* C) *1, 2, 3, 4* D) *1, 3*

1953. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715241)
Birinchi bo‘lib Mustaqillik ordeniga munosib ko‘rilgan adib –. . .

A) *Cho‘lpon.* **B)** *A.Qodiriy.* C) *Fitrat.* D) *A.Avloniy.*

1954. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715242)
Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqi qaysi hikoya personajlari?

A) *”Fonarchi ota”*

B) *”Bolaning ko‘ngli podsho”*

**C) ”Uloqda”**

D) *”Mening o‘g‘rigina bolam”*

1955. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715243)
Antuan de Sent-Ekzyuperining ”Kichkina shahzoda” asarida kichkina shahzoda qiyofasida qanday kuch namoyon bo‘ladi?

A) *do‘stlik* **B)** *ezgulik* C) *sadoqat* D) *insoniy ojizlik*

1956. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715244)
”Shu’lalar qo‘ynida” nomli ilk she’riy to‘plam muallifini aniqlang.

A) *Shukrullo* **B)** *Mirtemir* C) *Usmon Nosir* D) *Oybek*

1957. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715245)
Antuan de Sent-Ekzyuperining ilk yirik asari qanday nomlangan?

A) *”Tungi parvoz”* B) *”Uchuvchi”* **C)** *”Janub chopari”* D) *”Femina”*

1958. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715246)
G‘afur G‘ulom hikoyalari bilan qaysi g‘arb hikoyanavis yozuvchisining hikoyalari o‘rtasida muayyan o‘xshashlik, umumiylik bor?

A) *Hans Kristian Andersen* B) *Janni Rodari* **C)** *O.Genri* D) *Sharl Perro*

1959. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715247)
Abay she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan adibni aniqlang.

**A)** *Mirtemir* B) *G‘afur G‘ulom* C) *Erkin Vohidov* D) *Hamid Olimjon*

1960. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715248)
Nasriddin Afandi badiiy siymosi o‘zbek adabiyotida keng miqyosda ilk bor kimning asarida o‘z ifodasini topgan?

**A)** *Zohir A’lam* B) *Leonid Sobolev* C) *G‘afur G‘ulom* D) *Erkin Vohidov*

1961. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715249)
Bolgar yozuvchisi Pavel Vasilyevning ”To‘siq”, ”O‘lchamlar” kabi qissalarini, rus yozuvchisi Sergey Zaliginning ”Komissiya” romanini o‘zbek tiliga tarjima qilgan adibni aniqlang.
**A)** *Zohir A’lam* B) *Azim Suyun* C) *Tog‘ay Murod* D) *Usmon Azim*

1962. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715250)
O‘z she’riy kitoblaridan biriga ”Insonni tushunish” deb nom bergan shoirni aniqlang.
A) *Azim Suyun* **B)** *Usmon Azim* C) *Erkin Vohidov* D) *Maqsud Shayxzoda*

1963. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715251)
”Gulliverning sayohatlari” asaridagi Liliputiyada amaldorlarni qanday nom bilan atashgan?
A) *Tollgo fonak* B) *Gekina degul* C) *Lengrodegil* **D)** *Gurgo*

1964. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715252)
E.Seton-Tompsonning ”Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini qaysi adib o‘zbek tiliga tarjima qilgan?
A) *Usmon Azim* **B)** *Tog‘ay Murod* C) *Shukur Xolmirzayev* D) *Shavkat Rahmon*

1965. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715253)
Muhammad Ali qalamiga mansub roman-xronika asarni aniqlang.
A) *”Ulug‘ saltanat”*
B) *”Boqiy dunyo”*
**C) ”Abadiy sog‘inchlar”**
D) *”O‘z-o‘zingni anglab yet”*

1966. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715254)
Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub romanlarni aniqlang.
**A) ”So‘nggi bekat”, ”Qil ko‘prik”, ”Yo‘lovchi”**
B) *”Bulut to‘sgan oy”, ”Qil ko‘prik”, ”Dinozavr”*
C) *”Qahramonning so‘nggi kuni”, ”Yo‘lovchi”*
D) *”Dinozavr”, ”So‘nggi bekat”, ”Taqdir bashorati”*

1967. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715255)
Rasul Hamzatov she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan adibni belgilang.
**A)** *Erkin Vohidov* B) *Abdulla Oripov* C) *Mirtemir* D) *Xurshid Davron*

1968. 12.1-1 file-» 12 - 2 - - 1 (715256)
Sergey Yeseninning ”Singlimga xat” she’ri ta’sirida qaysi o‘zbek adibi ”Opamga xat” she’rini yozgan?
A) *Azim Suyun* **B)** *Usmon Azim* C) *Muhammad Yusuf* D) *Erkin Vohidov*

1969. 12.1-1 file-» 46 - 1 - - 1 (715257)
Qaysi shoir umrining oxirida ”Yodgorlik” deb nomlangan she’riy to‘plam tayyorladi?
A) *M.Yusuf* B) *M.Shayxzoda* C) *U.Nosir* **D)** *Mirtemir*

1970. 12.1-1 file-» 46 - 1 - - 1 (715258)
CH.Aytmatovning qaysi qissasida sho‘ro davlatining ayanchli tarixi yaxlit holda ochib beriladi?
A) *”Somon yo‘li”*
**B) ”Dengiz bo‘ylab chopayotgan olapar”**
C) *”Oq kema”*
D) *”Momo yer”*

1971. 12.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715259)
SH.Rahmonning she’riy to‘plamlari berilgan qatorni toping.
**A) ”Ochiq kunlar”, ”Uyg‘oq tog‘lar”**
B) *”Rangin lahzalar”, ”Aks-sado”*
C) *”Hulvo”, ”Xotirot”*
D) *”Yurak qirralari”, ”Sabr daraxti”*

1972. 12.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715260)
Husni o‘nboshi obrazi qaysi asarda berilgan?
A) *Sh.Xolmirzayev, ”Qora kamar”*
B) *Sh.Xolmirzayev, ”O‘zbeklar”*
**C)** *U.Sayfiddin, ”Naqarot”*
D) *M. Ali, ”Sarbadorlar”*

1973. 12.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715261)
Haqiqat va hurlikni e’tiqodiga aylantirgan ijodkor kim?
A) *U.Nosir* B) *Hamza* C) *Mirtemir* **D)** *Cho‘lpon*

1974. 12.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715262)
S.Yeseninning singlisiga atab yozgan asarlarini aniqlang.
1) ”Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan”;
2) ”Singlimga xat”;
3) ”Ayolga xat”;
4) ”Bu dunyoda men bir yo‘lovchi”;
5) ”Ona ibodati”.
**A)** *2, 4* B) *1, 2* C) *1, 5* D) *2, 3, 5*

1975. 12.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715263)
”Gulliverning sayohatlari” asarida tilga olingan Eybregem Pennell kim?
**A) ”Qaldirg‘och” kemasi qo‘mondoni**
B) *Gulliverning ustozi*
C) *jarroh*
D) *”Ohu” kemasi kapitani*

1976. 12.1-1 file-» 1 - 50 - - 1 (715264)
"Gulliverning sayohatlari" asarida liliputlar "gurgo" deganda kimni (nimani) nazarda tutishadi?

A) *miltiqni* **B)** *amaldorlarni*
C) *cho'ntakni* D) *imperatorni*

1977. 12.1-3 file-» 41 - 4 - - (301518)
"Bu baytda shoir kimni maqtagisi kelsa-maqtaydi, kimni yomon ko'rsa, undan alamini oladi, g'azal umumyo'nalishiga u qadar bog'lanmaydiganroq gapi bo'lsa ham, shu yerda aytib qoladi"
Mumtoz she'riyatdagi "begona bayt" haqida aytilgan yuqoridagi fikr kimga tegishli?

A) *Alisher Navoiy* B) *Erkin Vohidov*
C) *Bobur* **D)** *Abdulla Oripov*

1978. 12.1-3 file-» 41 - 4 - - (301519)
" ... U yerga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib, eri va o'g'lini otib tashlagan oqshomni ekar va so'ng yolg'iz o'zi hosilini ham yig'ib olardi..."
Parcha qaysi asardan olingan?

A) *Omon Muxtor "Tepalikdagi xaroba"*
B) *Luqmon Bo'rixon "Jaziramadagi odamlar"*
**C) Nazar Eshonqul "Shamolni tutib bo'lmaydi"**
D) *Xurshid Do'stmuhammad "Bozor"*

1979. 12.1-3 file-» 41 - 4 - - (301520)
Qaysi javobda hozirgi o'zbek dramaturgiyasining yutuqlari bo'lgan asarlar berilgan?

**A) "Jek London hikoyasidan so'ng", "Dugohi Husayniy", "Arabmuhammad Bahodirxon"**
B) *"Bir qadam yo'l", "Adashgan ruh", "Ayollar saltanati"*
C) *"Bir kam dunyo", "Bir koshona sirlari", "Oyloq kecha"*
D) *"Oriyat", "Ayolg'u", "Qon hidi"*

1980. 12.1-3 file-» 41 - 4 - - (301521)
O'zbek adabiyotida yaratilgan she'riy romanlar qaysi javobda berilgan?

**A) "Bir savol", "Boqiy dunyo", "Ziyod va Adiba"**
B) *"Izohsiz lug'at", "Turkiylar", "Boqiy dunyo"*
C) *"Ziyod va Adiba", "Boqiy dunyo", "Tilsim saltanati"*
D) *"Istig'for", "Ziyod va Adiba", "Boqiy dunyo"*

1981. 12.1-3 file-» 80 - 4 - - (301522)
"Kunduzi quyosh yanglig' suhbatdoshing, tunlari soyadek izdoshing bo'lib, kaftingga adovat tikanlari kirgudek bo'lsa, kipriklarim ignasi bilan chiqarsam edi..."
Ushbu noma qaysi qahramonga tegishli?

A) *Kumushning Otabekka xati ("O'tkan kunlar")*
**B) Shirinning Farhodga maktubi ("Farhod va Shirin")**
C) *Diloromning Bahromga xati ("Sab'ai sayyor")*
D) *Laylining Majnunga maktubi ("Layli va Majnun")*

1982. 12.1-3 file-» 80 - 4 - - (301523)
Urug' bo'lmish menga oybeklar aslan,
Kamolan oyga nisbat, balki o'nchand.
Otam kasbin desam dehqonchilikdir,
Bobom bo'lmish zamindori Samarqand.
Bu hasbi hol misralar muallifi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) *Muhammad Hodiy* B) *Amiriy*
**C)** *Mirzo G'olib* D) *Xusrav Dehlaviy*

1983. 12.1-3 file-» 80 - 4 - - (301524)
Yo rab, nechun zamona yo'qotmoqchi vujudim?!
Oshkor aytay: so'nuvchi tanga doir emasman.
Ne sababdin buncha ham yo'q oldingda qimmatim?
Men axir yoqut, zumrad - jinsi nodir emasman.
Misralar muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) *Mashrab* B) *Ogahiy* C) *Fuzuliy*
**D)** *Mirzo G'olib*

1984. 12.1-3 file-» 80 - 4 - - (301525)
Quyidagi qahramonlarning qaysi biri haqida "vujudida To'marisning qoni jo'sh urib turganiga ishonch hosil qilamiz"?

A) *Dildor ("Navoiy" romanida)*
**B) Yorqinoy ("Yorqinoy" dramasida)**
C) *Maryam ("Zaharli hayot..." dramasida)*
D) *Guloyim ("Muqanna" dramasida)*

1985. 12.1-3 file-» 80 - 4 - - (301526)
... xasta og'zing kam ochib, ibrat ko'zing ochg'il,
Ajabkim, qo'l yaqoda yurgudek turfa zamon bo'ldi.
Misra boshida tushirilgan taxallusni toping.

A) *Muqimiy* B) *Furqat* **C)** *Zavqiy*
D) *Hamza*

1986. 12.1-3 file-» 80 - 4 - - (301527)
Yolg‘iz qizini olti xotinlik eshonga nazr qilgan mutaassib ota obrazi qaysi asarda berilgan?

**A) "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasida**

B) *"Maysaraning ishi" dramasida*

C) *"Mehrobdan chayon" romanida*

D) *"Abulfayzxon" fojiasida*

1987. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301528)
Usmon Nosir "Monolog" she’rida "guldan yaralgan pari", "toshko‘ngilli" deb kimni ta’riflagan?

A) *Leonora* **B)** *Biatriche* C) *Ofeliya* D) *Dezdemona*

1988. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301529)
Shuhratparastlikka intilib, ibodatxonani yoqib yuborgan xudbin Gerostrat kimning she’rida qoralanadi?

A) *Hamid Olimjon* B) *Usmon Nosir* **C)** *G‘afur G‘ulom* D) *Rauf Parfi*

1989. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301530)
Suyukli yorni "kipriklari uzun kokillaridan", "barcha farishtalar sening qalbingda ijarada turgan qizlar men uchun",- deya ta’riflagan shoir nomini belgilang

A) *Abdulla Oripov* **B)** *Muhammad Yusuf* C) *Rauf Parfi* D) *Shavkat Rahmon*

1990. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301531)
Muhabbat! Bu so‘zni kimlar to‘qigan?
Go‘l shoir yozgan-u, tentak o‘qigan.
"Jaloliddin Manguberdi" dramasida ushbu so‘zlarni qaysi personaj aytgan?

A) *Sulton Xorazmshoh* B) *Amir Badriddin* C) *Yaroqbek* **D)** *Chingizxon*

1991. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301532)
Frans Kafkaning "Jarayon" romanida asar mohiyatini belgilovchi "Butun tuzumni yolg‘on zabt etajak" degan xulosani qaysi qahramon aytgan?

A) *ruhoniy* **B)** *Yozef* C) *tergovchi* D) *muallif*

1992. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301533)
Har qachon kulbama falon jonim,
Kelsa o‘tru chiqar anga jonim.
O‘lgudekman firoqidin emdi,
Kelmasa bo‘yniga erur qonim.
She’r muallifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *Navoiy* B) *Nodira* **C)** *Komil* D) *Muqimiy*

1993. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301534)
""Tavba" she’ri hur tug‘ilgan va bir umr erkka talpinib yashagan shaxsning bu yo‘ldagi yaxshi-yomon, qilgan-qilolmagan amallari uchun yaratganga munojotidir."
Ushbu ta’kid qaysi shoirga tegishli?

A) *Cho‘lpon* B) *Oybek* C) *Mirtemir* **D)** *Rauf Parfi*

1994. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301535)
Odil Yoqubovning qaysi qahramonini "vasvasa-yu tahlika, pushaymonlar iskanjasida" ko‘ramiz?

**A) "Ko‘hna dunyo" romanida Sulton Mahmudni**

B) *"Ulug‘bek xazinasi" romanida Amir Jondorni*

C) *"Muqaddas" qissasida Sharifjonni*

D) *"Bir koshona sirlari" dramasida Dilorani*

1995. 12.1-3 file-» 80 - 5 - - (301536)
Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,
Chopilgan oyog‘im bilan chopdim men.
Kesilgan qo‘limni sizga uzatdim,
Bu dunyo gullarga to‘ldi. Qotdim men.
She’r muallifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) *Cho‘lpon* **B)** *Rauf Parfi* C) *Faxriyor* D) *Shavkat Rahmon*

1996. 12.1-3 file-» 99 - 1 - - (301537)
"Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxslarni ko‘p uchratamiz. Shuning bilan birga, ularni naqadar kuchli irodaga molik bo‘lmasinlar, yana hissiyotlarga mag‘lub ko‘ramiz."
Ushbu fikrni qaysi adib qaysi asarida to‘lqinlanib yozgan?

A) *A.Qahhor, "Sinchalak"*

**B)** *A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon"*

C) *A.Qodiriy, "O‘tkan kunlar"*

D) *Oybek, "Navoiy"*

1997. 12.1-3 file-» 99 - 1 - - (301538)
A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida yozilishicha, Anvar tomonidan aytilgan qo‘rqinch va hayqiriq Xudoyorxonni insofga keltiradi. Qaysi qatorda o‘sha qo‘rqinch va hayqiriq to‘g‘ri berilgan?

A) *Men sizdan marhamat so‘rab kelgan emasman!*

B) *Men musulmonlik bilan o‘lishni o‘bdon bildim!*

**C) Sizda adolat bormi, janob!**

D) *Bir kambag‘al uylanmoqchi bo‘lgan qizga ham zo‘rlik qilish bormi, qiblayi olam?!*

1998. 12.1-3 file-» 99 - 1 - - (301539)
A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida yozilishicha, "Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorxonning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va bir oz so'z topolmagandek tamshanib turdi".
Keyin Anvarga qarata nima dedi?

A) *Chiqar buni, jallod!!!*

B) *Tuzumni unutding!*

C) *Pusulmonchilik qig'onsan-da!*

**D) Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!**

1999. 12.1-3 file-» 99 - 1 - - (301540)
Qaysi javobda "bo'lsam" radifli g'azal muallifi berilgan?

**A)** *H.Olimjon* B) *Navoiy* C) *Bobur*
D) *E.Vohidov*

2000. 12.1-3 file-» 99 - 1 - - (301541)
Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani qahramoni Zebini O'lka harbiy sudi necha yilga surgun qiladi?

**A)** *7* B) *8* C) *9* D) *10*

2001. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301542)
"Alximik" va "Beshinchi tog'" romanlarining muallifi kim?

**A)** *Paulo Koelo* B) *Xans Kristian Andersen*
C) *Antuan De Sent-Ekzyuperi*
D) *Frans Kafka*

2002. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301543)
1949-yilda nashr qilingan "Birinchi daftar" nomli asar kimning dastlabki she'rlar to'plami hisoblanadi?

A) *M. Shayxzoda* B) *Q. Muhammadiy*
C) *Mirtemir* **D)** *Shukrullo*

2003. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301544)
G'. G'ulomning "Shum bola" qissasidagi shum bolaning Sariboyni laqillatish sujeti aslida qaysi xalq ertagini yodga soladi?

A) *"Yolg'onchi cho'pon"*
B) *"Dono xizmatkor va yolg'onchi boy"*
**C)** *"Uch yolg'onda qirq yolg'on"*
D) *"Yolg'onchi aka-ukalar"*

2004. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301545)
"Mahmud Torobiy" tarixiy dramasi qaysi adib qalamiga mansub?

A) *Fitrat* B) *H. Olimjon* **C)** *Oybek*
D) *M. Osim*

2005. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301546)
Qaysi qatorda A. Muxtorning bolalarga bag'ishlangan hikoyalar to'plami nomi keltirilgan?

A) *"Chin yurakdan"* **B)** *"Hayotga chaqiriq"*
C) *"Quyosh belanchagi"*
D) *"Sizga aytar so'zim"*

2006. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301547)
"Tortiq" nomli dastlabki hikoyalar to'plamini xalqqa qaysi adib tortiq qilgan?

**A)** *S. Ahmad* B) *X. To'xtaboyev*
C) *M. Osim* D) *O. Yoqubov*

2007. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301548)
Qaysi ustoz adib S. Ahmadning "Ufq" romanidagi mahoratini "haqiqiy hayot manzarasi" deb ta'riflaydi?

A) *G'. G'ulom* B) *Oybek* C) *M. Osim*
**D)** *A. Qahhor*

2008. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301549)
T. Sulaymon qaysi she'rida "Maysadagi shudringlar - kimlarning ko'z yoshlari" degan falsafiy ifoda yaratgan?

A) *"Tavallo"* **B)** *"Iltijo"* C) *"Armon"*
D) *"Gul bir yon, chaman bir yon"*

2009. 12.1-3 file-» 1 - 41 - - (301550)
S. Yesenin "Ona ibodati" she'rida ona va o'g'il timsoli orqali qanday mavzuni yoritgan?

A) *oila mavzusi* B) *iltijo mavzusi*
**C)** *vatan mavzusi* D) *hijron mavzusi*

2010. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400473)
"Millatning o'zligini tayin etadigan eng so'nggi va bebaho xazina – milliy g'urur", degan shoir kim?

A) *Abdulla Oripov* **B)** *Omon Matjon*
C) *Erkin Vohidov* D) *Muhammad Yusuf*

2011. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400474)
Omon Matjonning "Eng so'nggi xazina" she'rida quyidagi misralar kimning tilidan aytilgan?
... dedi: Yurtga bir boq, oqsoqol,
Unda hali o'zi bilmas zo'r ganj bor!
Bu g'ururdir! U – har qalbning qa'rida!

A) *oqsoqol* **B)** *donishmand* C) *boshliq*
D) *og'a-ini*

2012. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400475)
Omon Matjonning qaysi she'ri "Miriyga o'xshatma"?

A) *"Qaysi yil ko'klamda..."* **B)** *"Qo'shiq"*
C) *"Ko'rdim: Shukur Burxon..."*
D) *"Eng so'nggi xazina"*

2013. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400476)
"Adabiyotda va tilda bir inqilob" yasash fikrida bo'lgan, yozuv tilini turk tili qoidalariga bo'ysundirish g'oyasi uchun kurashgan adib kim?

**A)** *Umar Sayfiddin* B) *Cho'lpon* C) *Behbudiy* D) *Fitrat*

2014. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400477)
"...Bosqinchi hech qachon bosib olgan fuqarosi boshini silamaydi! Silasa, aldash uchun silaydi... Lekin yomon aldangansan, jigar." Bu fikrlar qaysi asar qahramoniga tegishli?

A) *"Olmos kamar"* B) *"Ko'hna dunyo"* **C)** *"Qora kamar"* D) *"Jaloliddin Manguberdi"*

2015. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400478)
Qoraqalpoq shoiri Berdaq asarlarini kim tarjima qilgan?

**A)** *Muhammad Ali* B) *Erkin Vohidov* C) *Shavkat Rahmon* D) *Jamol Kamol*

2016. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400479)
Asqad Muxtorning "Chinor" romanida "mo'rt bir barg" deya kim tasvirlanadi?

A) *Ochil bobo* B) *Sharofat opa* **C)** *Akbarali* D) *Bektemir aka*

2017. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400480)
"Yuz shukr de, Boburki, karim-u G'affor
Berdi sanga Sind-u hind-u mulki bisyor"
deb boshlanadigan asar janrini toping.

**A)** *ruboiy* B) *g'azal* C) *fard* D) *masnaviy*

2018. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400481)
O'z otalarining ko'zlariga mil tortish darajasida yirtqich bo'lgan farzandlarning tubanliklari ta'sirli yo'sinda ko'rsatib berilgan dramatik asar qaysi?

A) *"Bir kam dunyo"* **B)** *"Arabmuhammad Bahodirxon"* C) *"Bir koshona sirlari"* D) *"Bir qadam yo'l"*

2019. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400482)
Buyruqlarni bajarishnigina bilgani, uning mohiyati, odamlarga foyda-zarari bilan qiziqmaganliklari uchun bosqinchilarga kerak bo'lgan, millatdoshlarini o'ylamaydigan, ularga achinmaydigan, odamiy haqidagi "ortiqcha" injiqliklardan xoli, shuning uchun kattalarning zanjirdagi itiday gapga aylanib qolgan amaldorlar timsoli kim?

**A)** *Akbarali* B) *Abdullatif* C) *Solih Maxdum* D) *Buzurg Ummid*

2020. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400483)
Qaysi mumtoz shoir o'zgalardan farqli ravishda o'zbek adiblari orasida birinchilardan bo'lib asarlarida odamni faqat ilohiy yaratiq sifatida emas, balki tirikchilik tashvishlari va ijtimoiy muammolarga ko'milgan oddiy inson sifatida aks ettiradi?

**A)** *Komil* B) *Zavqiy* C) *Muqimiy* D) *Furqat*

2021. 12.1-3 file-» 1 - 42 - - (400484)
"Oila va kishilar bilan muomala", "Hayot sha'mi", "Ochiq xat" kabi bo'limlar qaysi romanga tegishli?

A) *Oybek, "Navoiy"*
B) *A.Qodiriy, "O'tkan kunlar"*
**C) A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon"**
D) *P.Qodirov, "Yulduzli tunlar"*

2022. 12.1-3 file-» 11 - 2 - - (400485)
"Tun qancha qorong'u bo'lsa, oy shuncha yorug'" misrasi qaysi shoir qalamiga mansub?

A) *Cho'lpon* **B)** *U.Nosir* C) *R.Parfi* D) *Sh.Rahmon*

2023. 12.1-3 file-» 11 - 2 - - (400486)
A.Qahhor qaysi hodisani "Adabiyot uy daftarida bir odamning paydo bo'lishi" deb baholagan edi?

A) *ijobiy qahramonni*
B) *salbiy qahramonni*
**C) xarakter darajasiga olib chiqilgan qahramonni**
D) *tashqi va ichki portreti tasvirlangan personajni*

2024. 12.1-3 file-» 11 - 2 - - (400487)
Usmon Nosirning "Yo'lchi" she'ridagi lirik qahramon nima uchun qora rangli otda yo'lga chiqadi?

**A) jang va sinovlarga otlangani uchun**
B) *qayg'uli holatda bo'lgani uchun*
C) *mag'lub bo'lgani uchun*
D) *ot rangining she'r mazmuniga aloqasi yo'q*

2025. 12.1-3 file-» 11 - 3 - - (400488)
Bir adabiy turga munsub bo'lgan asarlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

**A) G'.G'ulom, "Shum bola"; J.Svift, "Gulliverning sayohatlari"; O'.Umarbekov, "Odam bo'lish qiyin"**
B) *Muqimiy, "Tanobchilar"; Gulxaniy, "Zarbulmasal"; Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror"*
C) *P.Qodirov, "Yulduzli tunlar"; M.Shayxzoda, "Toshkentnoma"; Bobur, "Boburnoma"*
D) *Xoja, "Miftoh ul-adl"; A.Navoiy, "Hayrat ul-abror"; H.Xorazmiy, "Gulshan ul-asror"*

2026. 12.1-3 file-» 11 - 3 - - (400489)
Bir xil janrda yozilgan asarlar qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

A) *H.Olimjon, ”Oygul bilan Baxtiyor”; Shukrullo, ”Umr haqida ertak”*
**B) O‘.Umarbekov, ”Odam bo‘lish qiyin”; Oybek, ”Quyosh qoraymas”**
C) *N.Dumbadze, ”Hellados”; Ch.Aytmatov, ”Yuzma-yuz”*
D) *Xorazmiy, ”Muhabbatnoma”; Nodira, ”Firoqnoma”*

2027. 12.1-3 file-» 11 - 3 - - (400490)
Bodringdan quyosh energiyasi ajratib olmoqchi bo‘lgan olim qaysi asarda uchraydi?

A) *A. de Sent Ekzyuperi, ”Kichkina shahzoda”*
**B) J.Svift, ”Gulliverning sayohatlari”**
C) *A. de Sent Ekzyuperi, ”Bulbul”*
D) *X.To‘xtaboyev, ”Sariq devni minib”*

2028. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400491)
P.Qodirov qaysi asarida neft konlarini izlovchilar hayotini qalamga olgan?

A) *”Meros”* B) *”Qora ko‘zlar”* **C)** *”Qadrim”* D) *”Uch ildiz”*

2029. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400492)
P.Qodirov ”Meros” asarida qanday kasb egalarining hayotini aks ettirgan?

A) *chorvadorlarning* B) *ziyolilarning* C) *neftchilarning* **D)** *paxtakorlarning*

2030. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400493)
P.Qodirovning ”Avlodlar dovoni” romanidagi to‘qima obrazlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

**A)** *Nizom, Hamida*
B) *Sherxon, Mirzo Hindol*
C) *Karamnisa, Pakavira*
D) *Bayramxon, Javhariy*

2031. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400494)
Maqsud Shayxzoda mushkullarni oson qiladigan uch do‘st haqida to‘rtlik yaratganda nimalarni nazarda tutgan?

A) *duo, mehnat, aql*
**B)** *g‘ayrat, mehnat, bilim*
C) *g‘ayrat, aql, kurash*
D) *duo, g‘ayrat, har qanday mehnat*

2032. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400495)
Jonatan Svift ”Gulliverning sayohatlari” asarining nechanchi qismida haqiqiy olimlar ustidan emas, soxta fan kishilari ustidan kuladi?

A) *1-qismida* B) *2-qismida* **C)** *3-qismida* D) *4-qismida*

2033. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400496)
O‘zining ijod jarayonini ota kasbi bilan taqqoslagan shoira kim?

A) *Halima Xudoyberdiyeva* **B)** *Zulfiya* C) *Uvaysiy* D) *Anbar Otin*

2034. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400497)
R.Thokur qaysi asarlarida mustamlakachilik zulmi, ijtimoiy adolatsizliklarni qoralab ko‘rsatadi?

A) *”Hisob-kitob”, ”Nur va soyalar”*
**B) ”Bibha sohili”, ”Donishmand Roja”**
C) *”Oqshom qo‘shiqlari”, ”Halokat”*
D) *”Jazo”, ”Tonggi qo‘shiqlar”*

2035. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400498)
Nay obrazi qo‘llangan asarlarni belgilang.

A) *”Iskandarnoma”, ”Jazo”*
**B) ”Iskandar Zulqarnayn”, ”Singlimga xat”**
C) *”Singlimga xat”, ”Bozor”*
D) *”Vatan uchun kurash”, ”Iskandar Zulqarnayn”*

2036. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400499)
M.Yusuf ”Surat” she’rida nimani aks ettirgan?

A) *ona halovatini* B) *tabiat manzarasini* C) *yor tasvirini* **D)** *o‘z ichki dunyosini*

2037. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400500)
Nodiraning ”Firoqnoma” asariga yaqin mavzuda qaysi shoir ”Ayol” nomli she’r yaratgan?

A) *M.Yusuf* **B)** *A.Oripov* C) *Zavqiy* D) *Fitrat*

2038. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400501)
A.Qahhor o‘zining qaysi asarida Boqijon Baqoyevdek fikrlash tarzi - mulohazalari betartib obrazni qo‘llagan?

A) *”Ayajonlarim”* B) *”O‘tmishdan ertaklar”* C) *”Zilzila”* **D)** *”Adabiyot muallimi”*

2039. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400502)
Maqsud Shayxzodaning ”Jaloliddin Manguberdi” dramasida Jaloliddin uni quchoqlab ”Ko‘rganimga o‘n yil bo‘ldi sizni, otaxon” deb e’zozlagan shaxs nomini belgilang.

**A)** *Elbars cho‘pon* B) *Temurmalik* C) *Nasafiy* D) *Xevaqiy*

2040. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400503)
Qaysi shoir ”Kuntug‘mish” dostoni qahramoni Xolbekaning ”Assalom alaykum, dorning og‘ochi” deb bolalari uchun faryod chekkanini naqorat o‘rnida qo‘llab oltilik usulda she’r yozgan?

**A)** *R.Parfi* B) *O.Matjon* C) *E.Vohidov* D) *M.Yusuf*

2041. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400504)
Rauf Parfi qaysi she'rni uchlik va to'rtlik shakllaridan foydalanib yozgan?
A) *"Xato qildim, sevgilim"* **B)** *"Tavba"*
C) *"Diloromning ko'zlari"* D) *"Shoir"*

2042. 12.1-3 file-» 99 - 2 - - (400505)
Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi nechanchi ko'rinishida Son tog'idagi qal'a maydonidagi voqealar aks etgan?
A) *7-ko'rinish* **B)** *6-ko'rinish*
C) *3-ko'rinish* D) *9-ko'rinish*

2043. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700497)
Hayotda doim chinakam va pok insonlar bilan diydorlashish orzusi qaysi asarlarda o'z ifodasini topgan?
A) *H.H.Niyoziy "Dardiga darmon istamas", T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi", A.Oripov "Genetika"*
B) *A.Qahhor "Dahshat", A.Suyun "Oq va qora", O'.Hoshimov "Urushning so'nggi qurboni"*
**C) A.Suyun "Oq va qora", A.de Sent Ekzyuperi "Kichkina shahzoda", A.Oripov "Genetika"**
D) *H.Olimjon "Oygul bilan Baxtiyor", Shukrullo "Umr haqida ertak", Oybek "Fonarchi ota"*

2044. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700498)
"Vatanni olib ketib bo'lmaydi ... Agar Vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo'lganda, u sariq chaqaga ham arzimasdi". Vatan haqidagi ushbu fikr qaysi asarda aytilgan?
A) *U. Sayfiddin, "Naqarot"*
**B)** *Ch.Aytmatov, "Qiyomat"*
C) *P. Qodirov, "Avlodlar dovoni"*
D) *O'. Umarbekov, "Qizimga maktublar"*

2045. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700499)
Qaysi shoir vodiydagi gullagan o'riklarni yerga qo'ngan oq bulutlarga, tundagi oq mash'alaga qiyoslab tasvirlagan?
A) *R.Parfi* **B)** *Sh.Rahmon* C) *O.Matjon*
D) *M.Yusuf*

2046. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700500)
Qaysi shoirlarning she'riy asarlarida buralib oqib kelayotgan suv noz bilan suzilib kelayotgan suluv, go'zal qizga qiyoslangan?
**A) Ogahiy "Bahor", Abay "Ko'klam"**
B) *Furqat "Fasli navbahor o'ldi", A. Oripov "Bahor"*
C) *Sh.Rahmon "Hamal", Oybek "Tog' sayri"*
D) *Zulfiya "Bahor keldi seni so'roqlab", Mirtemir "Qishlog'im"*

2047. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700501)
"Odam deb o'lgan odam - doim tirik". "O'zini deb yashagan - o'lik".
Mazkur gaplar qaysi badiiy asardan olingan va qaysi badiiy obrazlar tilidan aytilgan?
A) *S.Ahmad "Ufq" - Tursunboy, Ikromjon*
B) *Ch.Aytmatov "Oltovlon va yettinchi" - Guram Jo'xadze, Sandro*
C) *N. Dumbadze "Hellados" - Xrista Aleksandrid, Yanguli*
**D) A. Muxtor "Chinor" - Ochil buva, Akbarali**

2048. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700502)
Vatan mustaqilligi uchun kurashgan shaxslar obrazi qaysi javobdagi asarlarda yaratilgan?
**A) Sh.Xolmirzayev "Qora kamar"; Ch.Aytmatov "Oltovlon va yettinchi"**
B) *P.Qodirov "Avlodlar dovoni", Muhammad Ali "Gumbazdagi nur"*
C) *A.de Sent Ekzyuperi "Kichkina shahzoda", T.Murod "Ot kishnagan oqshom"*
D) *E.Vohidov "Nido", Z.A'lam "Afandining qirq bir pashshasi"*

2049. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700503)
Jangda o'lgan emas biror bahodir ...
Shavkat Rahmonning she'riyatidan olingan bu misraning davomi qaysi javobda ko'rsatilgan?
A) *kurakka sanchilgan nomard tig'idan*
**B) bari halok bo'lgan xiyonatlardan**
C) *bariga orqadan sanchilgan xanjar*
D) *qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni*

2050. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700504)
Xalq ulkim, o'zining peshonasida
yulduzlar borini bilsa, quvonsa!
Xalq ulkim, g'ururi bo'lsa o'zida,
aslga ishonsa, soxtadan tonsa!
Ushbu she'riy parcha kimning qaysi asaridan olingan?
A) *R.Parfi "Ona Turkiston"*
**B)** *O.Matjon "Ko'rdim: Shukur Burhon ..."*
C) *Sh.Rahmon "Turkiylar"*
D) *R.Parfi "Cho'lpon"*

2051. 12.1-3 file-» 11 - 5 - - (700505)
Kuz barglarini yuragidan to'kilgan olovga, kuz mezonlarini chuvalgan o'ylariga, kuz quyoshini esa olis yoshlikda qolgan muhabbatga qiyoslab yozgan shoir kim?
**A)** *A. Oripov* B) *Sh.Rahmon* C) *R.Parfi*
D) *M. Yusuf*

2052. 12.1-3 file-» 45 - 2 - - (700506)
"Bu kitobni kitobxon boshdan oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi ... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost." Yuqoridagi so'zlar kimga tegishli va qaysi asar haqida so'z bormoqda?

**A) A.Qahhor "Ufq" haqida**
B) *Oybek "O'tkan kunlar" haqida*
C) *S.Ahmad "Chinor" haqida*
D) *O.Sharafiddinov "Shaytanat" haqida*

2053. 12.1-3 file-» 45 - 2 - - (700507)
"Odamga quvvat beradigan umid, uning boshini toshdan qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir" – deya ta'riflangan asar qaysi?

**A)** *"Ufq"* B) *"Mehrobdan chayon"*
C) *"O'tkan kunlar"*
D) *"O'tmishdan ertaklar"*

2054. 12.1-3 file-» 45 - 2 - - (700508)
M.Yusufning qaysi asari lirik qahramoni "umrini ko'ngliga topshirib qo'ygan"?

**A)** *"Surat"* B) *"Qora quyosh"*
C) *"Erka kiyik"* D) *"Madinaga"*

2055. 12.1-3 file-» 45 - 2 - - (700509)
Furqatning qaysi she'rida o'zining san'atkor do'sti Sa'dullo haqida gap ketadi?

A) *"Kishi holimni bilmas mehribonidin adashganman" muxammasida*
**B) Sayding qo'yaber sayyod" musaddasida**
C) *"Fasli navbahor o'ldi" g'azalida*
D) *"Surmadin ko'zlar qaro" g'azalida*

2056. 12.1-3 file-» 45 - 2 - - (700510)
A.Oripovning "Sohibqiron" dramasida Amir Temur tajribali hukmdor va o'ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlar deb qaysilarni aytadi?

A) *mo'l xazina, donolar kengashi, kuchli siyosat*
B) *mo'l xazina, adolat, donolar kengashi*
**C) mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar**
D) *yagona shoh, yengilmas askar, tayanch markaz*

2057. 12.1-3 file-» 45 - 1 - - (700511)
Hayot achchiq bir dori ... Ishq unga aralashtirilgan bir shakar! Bu dorini shakarsiz ichmoqchi bo'lganlarning holiga voy!
Yuqoridagi so'zlar qaysi asardan olingan?

**A) "Naqarot" U.Sayfiddin**
B) *"Qutadg'u bilig" Yusuf Xos Hojib*
C) *"Muhabbat" O'tkir Hoshimov*
D) *"Yevgeniy Onegin" Pushkin*

2058. 12.1-3 file-» 45 - 1 - - (700512)
Quyidagi asarlardan qaysi birida Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli teatr qurilishi haqida gap ketgan?

**A) M.Ali "Gumbazdagi nur"**
B) *M.Shayxzoda "Toshkentnoma"*
C) *T.To'la "Toshkentim"*
D) *A.Oripov "Sohibqiron"*

2059. 12.1-3 file-» 45 - 1 - - (700513)
Quyidagi asarlardan qaysilari roman-trilogiyaning mukammal namunalari hisoblanadi?
1) Jon Golsuorsi, "Forsaytlar haqida qo'shiq"; 2) Najib Mahfuz, "Xan al-Xalili"; 3) Vasiliy Yan, "So'nggi dengizgacha"; 4) V.Katayev, "Qora dengiz to'lqinlari"; 5) S.Ayniy, "Qullar"

**A)** *1, 2, 3* B) *1, 2, 4* C) *2, 3, 4*
D) *3, 4, 5*

2060. 12.1-3 file-» 1 - 49 - - (700514)
"O'tkan kunlar" romanida " ... Nax bizga kuyav bo'ladirg'on yigit ekan" deb Otabekni maqtagan personaj kim?

**A)** *To'ybeka* B) *Oftob oyim*
C) *Oysha opa* D) *Qutidor*

2061. 12.1-3 file-» 1 - 49 - - (700515)
"Ohu bolasi bu – ohuday boqqan, shervachchada esa sherning shiddati" satrlari Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingan?

A) *"Bahor"* B) *"Sarob"*
C) *"Yurtim shamoli"* **D)** *"Genetika"*

2062. 12.1-3 file-» 1 - 49 - - (700516)
Zulfiya qalamiga mansub poemalar nomi qaysi qatorda berilgan?

**A) "Mushoira", "Xotira siniqlari"**
B) *"O'ylar", "Kuylarim sizga"*
C) *"Shalola", "Tong qo'shig'i"*
D) *"Tun", "Hijron kunlarida"*

2063. 12.1-3 file-» 1 - 49 - - (700517)
G‘afur G‘ulomning "Shum bola" asarida Sariboy Yusuf kontorning mevazor bog‘i, bahavo shiyponini qanday qo‘lga kiritadi?

A) *aslida ota-bobosining mulki bo‘lganligi uchun undan tortib oladi*
B) *Yusuf kontorni avrab, arzon pulga sotib oladi*
**C) Yusuf kontor bilan qimor o‘ynab, yutib oladi**
D) *Sariboydan olgan qarzlari evaziga tortib oladi*

2064. 12.1-3 file-» 1 - 49 - - (700518)
Qaysi asarda darsga kelmay qolgan Tal’at ismli bolani o‘qituvchi urushgani, dadasidan qoraxat kelganini bilgach hamma, hatto muallimning o‘zi ham yig‘lagani haqida lavha bor?

**A) E.Vohidov, "Nido"**
B) *O‘.Hoshimov, "Urushning so‘nggi qurboni"*
C) *O.Yoqubov, "Muzqaymoq"*
D) *O‘.Hoshimov, "Ikki eshik orasi"*

2065. 12.1-3 file-» 1 - 49 - - (700519)
O‘lmas Umarbekov qalamiga mansub quyidagi asarlardan qaysilari pyesa janrida yozilgan?
1) "Odam bo‘lish qiyin"; 2) "Oq qaldirg‘och"; 3) "Yer yonganda"; 4) "Oqsoqol"; 5) "Fotima va Zuhra"

A) *1, 2, 5* **B)** *3, 4* C) *4, 5* D) *2, 3*

2066. 12.1-3 file-» 11 - 7 - - (700520)
O‘y-xayollarining tartibsiz va noizchil oqimini berish, o‘ychil inson tafakkuri va hissiyotining manzaralarini tasvirlash badiiy maqsadi bo‘lgan asar qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *Sh.Bo‘tayev "Sho‘rodan qolgan odamlar"*
**B) Ulug‘bek Abdulvahob "Yolg‘izlik"**
C) *Said Ahmad "Jimjitlik"*
D) *Sh.Xolmirzayev "Bulut to‘sgan oy"*

2067. 12.1-3 file-» 11 - 7 - - (700521)
Usmon Nosirning o‘z taqdiri haqidagi xavotirli bashorati uning qaysi she’rida ifodalangan?

A) *"Yana she’rimga"*
**B)** *"Nasimaga deganim"*
C) *"Dengiz oyna kabi yaltirar . . . "*
D) *"Yurak"*

2068. 12.1-3 file-» 11 - 7 - - (700522)
Asqad Muxtorning "Chinor" romanida Ochil buva Akbaralini qanday tanib qoladi?

A) *Akbaralining ko‘z qarashidan*
B) *Azimjonga o‘xshashligidan*
**C) Akbaralining ovozidan**
D) *Akbarali o‘zini buvasiga tanitadi*

2069. 12.1-3 file-» 11 - 7 - - (700523)
Qaysi shoir ko‘nglida yotgan armonni cho‘kib qolgan nortuyaga, quyosh tushmaydigan yerdagi erimay qolgan qorga qiyoslab ta’riflagan?

A) *Shavkat Rahmon* **B)** *To‘ra Sulaymon*
C) *Mirtemir* D) *Abay*

2070. 12.1-3 file-» 11 - 7 - - (700524)
"Oltovlon va yettinchi afsonasi" Chingiz Aytmatovning qaysi asaridan olingan?

A) *"Asrga tatigulik kun"* **B)** *"Qiyomat"*
C) *"Kassandra tamg‘asi"* D) *"Yuzma-yuz"*

2071. 12.1-3 file-» 11 - 7 - - (700525)
Omon Matjonning "Eng so‘nggi xazina" she’rida ta’kidlangan eng so‘nggi xazina nima?

A) *til* B) *kitoblar* **C)** *milliy g‘urur*
D) *yurt oqsoqollari*

2072. 12.1-3 file-» 11 - 8 - - (700526)
Yoasafo, hech kimsadan uyalmay bugun
Men yig‘layman, yurak qoni bilan yig‘layman!
Yetim qolgan el dardiga kuyib yig‘layman!
Bosh qo‘yaman tuprog‘iga ulug‘ insonning!
M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug‘bek" tarixiy fojiasidan olingan ushbu parcha kimning so‘zlari?

A) *Ali Qushchi* **B)** *Piri Zindoniy*
C) *Abdurazzoq Samarqandiy* D) *Ota Murod*

2073. 12.1-3 file-» 20 - 3 - - (700527)
Uni o‘zimizda "o‘zbekning Lermontovi", Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi", deb yozishdi.
Ushbu satrlar muallifi kim va ta’rif kim haqida?

A) *A.Oripov U.Nosir haqida*
B) *O.Sharafiddinov A.Oripov haqida*
**C) T.To‘la U.Nosir haqida**
D) *E.Vohidov G‘.G‘ulom haqida*

2074. 12.1-3 file-» 11 - 9 - - (700528)
O‘tgan asrning 60-yillarida yaratilgan asarlar qaysi javobda ko‘rsatilgan?

**A) X.To‘xtaboyev, "Sariq devni minib", E.Vohidov, "Tong nafasi", A.Oripov, "Mitti yulduz"**
B) *A.Suyun, "Mening osmonim", T.Murod, "Yulduzlar mangu yonadi", S.Ahmad, "Kelinlar qo‘zg‘oloni"*
C) *M.Shayxzoda, "Ko‘ngil deydiki", G‘.G‘ulom, "Sharqdan kelayotirman", Oybek, "Navoiy"*
D) *A.Qahhor, "Sarob", M.Shayxzoda, "Uchinchi kitob", G‘.G‘ulom, "Shum bola"*

2075. 12.1-3 file-» 11 - 9 - - (700529)
A.Qodiriyning ”Mehrobdan chayon” asarida o‘limga hukm qilingan Anvarning gunohidan kechishni Xudoyorxondan iltimos qilgan shaxs nomini belgilang.

**A)** *Muhammad Niyoz domla* B) *Sultonali* C) *Hudaychi* D) *Qobilboy*

2076. 12.1-3 file-» 11 - 9 - - (700530)
”Sevish kerak ... yashash shart emas”, – deb yozgan shoir kim?

A) *Sh.Rahmon* B) *A.S.Pushkin* C) *U.Nosir* **D)** *M.Yusuf*

2077. 12.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715265)
Maqsud Qoriyevning 60-yillarda yozgan nasriy asarlarining asosiy mavzusi nima haqida bo‘lgan?

A) *tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar*
B) *zamonaviy insonlar*
**C) yoshlar**
D) *avtobiografik (asarlar) voqealar*

2078. 12.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715266)
Mirtemirning qaysi she’rini uning ”Baliq ovi” she’rining mantiqiy davomi deyish mumkin?

A) *”Bulut”* B) *”Shudring”* **C)** *”Qishlog‘im”* D) *”To‘rg‘ay”*

2079. 12.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715267)
”Oyoq-qo‘ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo‘l bilan bo‘lsa ham tirikchilik payidan bo‘lsang edi, o‘g‘lim ... Axir kissa-karmon degan gaplar bo‘ladi. Naqdina pul ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo‘ladi. Naqdina bo‘lsin, bolam, naqdina bo‘lsin ... ”
”Shum bola” qissasida shum bolaga ushbu so‘zlarni kim aytgan?

**A)** *Eshon* B) *Sulton o‘g‘ri* C) *Sariboy* D) *Hoji bobo*

2080. 12.1-3 file-» 12 - 2 - - 1 (715268)
Shavkat Rahmonning ”Turkiylar” she’rida ”Ilvasin yigitlar, bobur yigitlar, sajdaga bosh qo‘ydi yovga ters qarab.” misralarida **ilvasin** so‘zining ma’nosi nima?

A) *yo‘lbarsning bir turi*
**B) qarchig‘aysimon yirtqich qush**
C) *burgut*
D) *mard, jasur*

2081. 12.1-3 file-» 11 - 8 - - 1 (715269)
O.Yoqubovning ”Ulug‘bek xazinasi” romanidagi Bobo Husayn ismli personaj kim edi?

A) *viloyat hokimi*
B) *amir*
**C) Ulug‘bekning suyukli navkari**
D) *Ulug‘bekning suyukli shogirdi*

2082. 12.1-3 file-» 11 - 8 - - 1 (715270)
Hamza Hakimzoda Niyoziyning ”Devoni Nihoniy” to‘plamiga qaysi davrda yozgan she’rlari kiritilgan va unda jami nechta she’r bor?

A) *1915-1920-yillar; 214 ta*
B) *XX asrning 20-yillari; 215 ta*
**C) 1905-yildan boshlab; 214 ta**
D) *barcha davrda; 215 ta*

2083. 12.1-3 file-» 11 - 8 - - 1 (715271)
Fitratning ”Mirrix yulduziga” she’ri lirik qahramonining aynan Mirrix yulduziga murojaat qilishining sababi nima?

A) *Mirrix sayyorasining ulkanligi*
B) *buning muhim sababi yo‘q*
**C) Mirrixning Hamal oyining homiysi va jang-u jadal ramzi ekanligi**
D) *Mirrixning Yerga yaqinligi*

2084. 12.1-3 file-» 46 - 1 - - 1 (715272)
Mirtemirning ”Qishlog‘im” she’rini qaysi she’rning mantiqiy davomi deyish mumkin?

A) *”Shudring”* B) *”To‘rg‘ay”* **C)** *”Baliq ovi”* D) *”Bulut”*

2085. 12.1-3 file-» 46 - 1 - - 1 (715273)
Antuan de Sent Ekzyuperi o‘zining qaysi romanida zamon va insonlar haqidagi o‘ylarini bayon qilgan?

A) *”Uchuvchi”* **B)** *”Erkaklar zamini”* C) *”Kichkina shahzoda”* D) *”Tungi parvoz”*

2086. 12.1-3 file-» 46 - 1 - - 1 (715274)
Qaysi yozuvchi o‘zi e’tirof etganidek, ”... bola va o‘smir ruhidagi go‘zallikni himoyalashga e’tibor” berib kelyapti?

**A)** *X.To‘xtaboyev* B) *E.Vohidov* C) *O‘.Hoshimov* D) *Shukrullo*

2087. 12.1-3 file-» 46 - 1 - - 1 (715275)
”Buncha bino qo‘yma zarrin choponlarga, Saratonda yaproq bo‘lgin dehqonlarga”, – misralari qaysi shoirning zamondoshlariga murojaati hisoblanadi?

**A)** *Iqbol Mirzo* B) *Azim Suyun* C) *Muhammad Yusuf* D) *Usmon Azim*

2088. 12.1-3 file-» 46 - 1 - - 1 (715276)
"She'r yaraldi dunyoda ilk bor, Ilk bor ohang shaklga kirdi" tarzidagi kutilmagan tashbeh qaysi shoir lirikasida uchraydi?

A) *Usmon Nosir* B) *Hamid Olimjon* **C)** *Muhammad Ali* D) *Mirtemir*

2089. 12.1-3 file-» 46 - 1 - - 1 (715277)
"Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi", "Og'ir tosh ko'chsa" hikoyalari muallifini toping.

A) *Said Ahmad* **B)** *Shukur Xolmirzayev* C) *O'lmas Umarbekov* D) *Abdulla Qahhor*

2090. 12.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715278)
T.Sulaymonning "Iltijo" she'rida sahro so'zi nimaning obrazi?

A) *xasis kishilarning* B) *yovuzlikning* **C)** *vatangado kimsalarning* D) *mehrsizlikning*

2091. 12.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715279)
"Mirzo Ulug'bek" fojiasida zindondan ozod qilingan Piri Zindoniy kimga topshirilishi kerak edi?

**A)** *Jomiy va Lutfiy panohiga* B) *Berdiyorga* C) *Shayxulislom panohiga* D) *Ota Murodga*

2092. 12.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715281)
She'riyatni oltin saroyga, Vatanni esa saroy bekasiga o'xshatgan shoir kim?

A) *R.Parfi* B) *O.Matjon* C) *SH.Rahmon* **D)** *M.Ali*

2093. 12.1-3 file-» 1 - 50 - - 1 (715282)
Sh.Rahmon qaysi she'rida o'ynoqi shu'lalarni bolalarga o'xshatgan?

**A)** *"Tong ochar ko'zlarin"* B) *"Oy sinig'i"* C) *"Hamal"* D) *"Savol"*

2094. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301551)
Mumtoz she'riyatda "begona bayt" tushunchasi nimani anglatadi?

A) *oshiqona g'azalning maqta'si*
B) *tazmin san'ati qo'llangan bayt*
**C) maqta'dan oldingi bayt**
D) *raddul-matla' san'ati qo'llangan bayt*

2095. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301552)
XIV asr o'zbek adabiyotida Xorazmiy qaysi janrlarning dastlabki namunalarini yaratdi?

A) *noma, ruboiy, tuyuq*
B) *noma, g'azal, tuyuq* **C)** *g'azal, qit'a, fard*
D) *g'azal, tuyuq, qit'a*

2096. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301553)
Turkiy va forsiy mumtoz adabiyotda shohlar haqidagi asarlar asosan aruzning qaysi vaznida bitilgan?

**A) mutaqoribi musammani mahzuf**
B) *hazaji musaddasi mahzuf*
C) *ramali musammani mahzuf*
D) *mutaqoribi musammani aslam*

2097. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301554)
"Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xorazmiy asar o'n bir nomadan tarkib topganligini aytadi?

A) *"Xotimat ul-kitob"da* B) *qit'ada* **C)** *masnaviyda* D) *munojotda*

2098. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301555)
"Qutadg'u bilig" dostonining muqaddimasi qanday yo'l bilan bitilgan?

**A) she'riy hamda nasriy**
B) *faqat she'riy*
C) *faqat nasriy*
D) *savol-javob, munozara shaklida*

2099. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301556)
Ko'ngil shishasida mehring mayidir,
Jafo birla anga tosh urmog'ing ne?
Baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?

A) *ishtiqoq* B) *tarse'* **C)** *tajnis* D) *tazod*

2100. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301557)
Muqayyad nima?

**A) raviy bilan tugallangan qofiya**
B) *misra o'rtasidagi ichki qofiya*
C) *raviydan keyin harflar kelgan qofiya*
D) *misra boshida kelgan qofiya*

2101. 13.1-2 file-» 41 - 4 - - (301558)
Maylni qo'yki, volau zor ul,
Jon berib vasliga xaridor ul.
Baytda shoir qanday she'riy san'atdan foydalangan?

**A)** *tanosub* B) *tazod* C) *tashbeh* D) *iyhom*

2102. 13.1-2 file-» 80 - 4 - - (301559)
Bu oqshom mahvashim ruxsori oy birla taloshibdur,
Emas anjum, falak ahli ochib ko'zlar qaroshibdur.

(Ogahiy)

Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.

A) *tazod* B) *raddi matla'* **C)** *husni ta'lil* D) *husni matla'*

2103. 13.1-2 file-» 80 - 4 - - (301560)
Adabiyotning boshqa turlariga qaraganda xarakterlarning yorqin, konfliktning esa o‘tkir bo‘lishini taqozo etuvchi adabiy tur — ...

**A)** *drama* B) *komediya* C) *lirika*
D) *epos*

2104. 13.1-2 file-» 80 - 4 - - (301561)
Noziklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi
O‘z haddini bilib, belidin o‘ltirur quyi. (Lutfiy)
Baytda qo‘llangan she'riy san'atni toping.

A) *tashbeh* **B)** *husni ta'lil* C) *tajohuli orif*
D) *ta'did*

2105. 13.1-2 file-» 80 - 4 - - (301562)
Agar g‘azalning birinchi, ikkinchi baytlari qofiyalanib kelsa, buni matla'ning pardozi deya qanday baho berishgan?

A) *husni matla'* B) *zebi matla'*
C) *zulqofiyatayn*
**D)** *zebi matla' va husni matla'*

2106. 13.1-2 file-» 80 - 4 - - (301563)
Mumtoz she'riyatda har bir ijodkorning maqomi, o‘rni dovrug‘i nima bilan belgilangan?

A) *doston yozgan-yozmaganligi bilan*
B) *16 janrda she'r yozganmi-yo‘qmi, shunisi bilan*
**C) g‘azalchilikdagi mahorati bilan**
D) *barcha javoblar to‘g‘ri*

2107. 13.1-2 file-» 80 - 4 - - (301564)
Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog‘a" ("Badiiylik ilmi") asari nima haqida?

**A) turkiy til she'riyati qoidalari haqida**
B) *qofiya va she'riy san'atlar haqida*
C) *san'atning turlari (rasm, adabiyot, raqs) haqida*
D) *Barcha javoblar to‘g‘ri*

2108. 13.1-2 file-» 80 - 5 - - (301565)
Navoiyning "Lolazor ermaski, ohimdin jahong‘a tushti o‘t" satri bilan boshlanadigan g‘azalga berilgan nazariy ta'rifni belgilang.

**A)** *tadrij asosidagi yakpora g‘azal*
B) *ruju san'ati asosidagi yakpora g‘azal*
C) *hasbi hol g‘azal*
D) *tazod san'atiga asoslangan g‘azal*

2109. 13.1-2 file-» 80 - 5 - - (301566)
Kimning she'rida o‘zini jamiyatning egasi deb hisoblaydigan, o‘zgalar taqdiriga xo‘jalik da'vo qiladigan "zo‘rlar" "Kibor cho‘qqilarda muzlagan bahor" tamsili orqali beriladi? "Qor cho‘qqilarni ko‘klamda ham tark etolmaganidek, "zo‘rlar" ning viqorida, kibrida shunday muzlaganlik, jonsizlik bor". Bu o‘xshatishlar kimning she'rida uchraydi?

A) *Mirtemir* B) *Faxriyor* **C)** *Rauf Parfi*
D) *Shavkat Rahmon*

2110. 13.1-2 file-» 80 - 5 - - (301567)
Qaysi adabiy atama yunoncha "sirli-sehrli" degan ma'noli so‘zdan yasalgan?

A) *peripetiya* B) *kulminatsiya*
**C)** *mistifikatsiya* D) *alliteratsiya*

2111. 13.1-2 file-» 99 - 1 - - (301568)
Ilmiy adabiyotlarda g‘azallar hajmi qancha deb qayd etiladi?

A) *5 baytdan 14 baytgacha*
B) *5 baytdan 15 baytgacha*
**C)** *3 baytdan 19 baytgacha*
D) *4 baytdan 16 baytgacha*

2112. 13.1-2 file-» 99 - 1 - - (301569)
Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyattin anjumanda.
Atoiy g‘azalining ushbu matlasida qanday she'riy san'at qo‘llangan?

A) *talmeh* B) *irsoli masal* C) *mubolag‘a*
**D)** *jonlantirish*

2113. 13.1-2 file-» 99 - 1 - - (301570)
Mumtoz she'riyatda ko‘p qo‘llanadigan "shisha", "ko‘za", "ayog‘", "kosa" kabi timsollar zamirida qanday tushuncha yashiringan?

**A)** *qalb va yurak* B) *mehr va muhabbat*
C) *oshiq va raqib* D) *ko‘z va yuz*

2114. 13.1-2 file-» 99 - 1 - - (301571)
Rabg‘uziy "Qisasi Rabg‘uziy"da ko‘plab badiiy san'atlardan foydalangan. Adib ta'rif va tavsif o‘rinlarida qaysi badiiy san'atni qo‘llagan?

**A)** *saj'* B) *tashbeh* C) *talmeh*
D) *tanosub*

2115. 13.1-2 file-» 99 - 1 - - (301572)
Adabiyotshunoslikda ilk bor "lirik qahramon" tushunchasi kim tomonidan qachon ishlatilgan?

A) *1929-yil, Fitrat* B) *1929-yil, Bartold*
**C)** *1921-yil, V.N.Tinyanov*
D) *1921-yil, Gorkiy*

2116. 13.1-2 file-» 80 - 6 - - (301573)
Adabiy asarda g‘oyaning, voqealarning ehtiros bilan, g‘oyat ta’sirchan, o‘quvchini hayrat va larzaga solar darajada ifoda etilishiga . . .

A) *peyzaj deyiladi* B) *remarka deyiladi*
C) *prolog deyiladi* **D)** *pafos deyiladi*

2117. 13.1-2 file-» 80 - 6 - - (301574)
Dramaturgiyada peripetiya san’ati yunon tilidan qanday ma’noni anglatadi?

**A)** *kutilmagan burilish* B) *ko‘tarinki kayfiyat*
C) *to‘qnashuv, ziddiyat* D) *echki qo‘shig‘i*

2118. 13.1-2 file-» 80 - 6 - - (301575)
Mumtoz she’riyatda boda qanday ma’noni anglatadi?

A) *kamolga yetgan kishining qalbi* **B)** *iymon*
C) *ishq*
D) *insonni yomonliklarga undovchi nafs*

2119. 13.1-2 file-» 80 - 6 - - (301576)
She’riy san’atlarning qaysi biri arabcha ”shaxslantirish” degan ma’noni anglatadi?

A) *tajnis* **B)** *tashxis* C) *tadrij* D) *tarse*

2120. 13.1-2 file-» 80 - 6 - - (301577)
Tasavvuf she’riyatida nimalar ko‘ngil (so‘fiy qalbi) ramzlari bo‘lib hisoblanadi?

**A)** *jom, qadah* B) *butxona, xarobot*
C) *gul, g‘am va shodlik uyi*
D) *jom, qadah, butxona, xarobot*

2121. 13.1-2 file-» 80 - 6 - - (301578)
Muhammad Yusufning ”Mehr qolur, muhabbat qolur” nomli she’ri qaysi shaklda yozilgan?

A) *muxammas (beshlik)*
**B)** *murabba (to‘rtlik)* C) *masnaviy (ikkilik)*
D) *barmoq vaznida, 8 bo‘g‘inli she’r*

2122. 13.1-2 file-» 1 - 42 - - (400506)
Din ofati ul mug‘bachayi mahliqodur,
Mayxora-yu bebok.
Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur,
Sarmast-u yaqom chok.
Navoiy ijodiga mansub ushbu bayt janrini toping.

A) *g‘azal* B) *qasida* **C)** *mustazod*
D) *tarje’band*

2123. 13.1-2 file-» 5 - 1 - - (400507)
Qaysi she’riy baytda kinoya tashbeh (ishora o‘xshatish) qo‘llangan?

A) *Ul ulus jondin ayru el yanglig‘,*
*Sayr etib suv yuzida yel yanglig‘.*
B) *Sanga binafsha kabi qaddi nigun*
*Bosh ko‘tara olmay uyatdin zabun.*
**C) Bo‘rini dog‘i galadin dur qil**
**Suv beribon bog‘ni ma’mur qil.**
D) *Baytlarning barchasida kinoya tashbeh (ishora o‘xshatish) qo‘llangan.*

2124. 13.1-2 file-» 5 - 1 - - (400508)
Berilgan she’riy baytlarning qaysisida muqayyad qofiya ishlatilgan?

**A) Ul na gumbazdur eshigi, tuynugidin yo‘q nishon.**
**Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.**
B) *Ul nadurkim sabz to‘nlik, yoz yog‘ochning boshida,*
*Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.*
C) *Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,*
*Gado bo‘lsam, ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.*
D) *Barcha baytlarda muqayyad qofiya qo‘llangan.*

2125. 13.1-2 file-» 5 - 1 - - (400509)
Berilgan she’riy baytlarning qaysisida mutlaq qofiya ishlatilgan?

A) *Ul na gumbazdur eshigi, tuynugidin yo‘q nishon*
*Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.*
**B) Ul nadurkim sabz to‘nlik, yoz yog‘ochning boshida,**
**Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.**
C) *Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi*
*Vujudin sham’i so‘zon aylamakni mendin o‘rgandi.*
D) *Barcha baytlarda qo‘llangan qofiya mutlaq qofiya sanaladi.*

2126. 13.1-2 file-» 5 - 1 - - (400510)
Mumtoz she’r ilmiga ko‘ra raviy so‘zning asosida bo‘lishi talab etilgan. Berilgan she’riy baytlarning qaysi birida ushbu talabdan chetga chiqish holati kuzatiladi?

A) *Ul nadurkim sabz to‘nlik, yoz yog‘ochning boshida,*
*Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.*
B) *Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,*
*Gado bo‘lsam, ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.*
**C) Ikki mahbubni ko‘rdim, bir-birisin ko‘rmagan,**
**Ikkisining o‘rtasida, do‘stlar qil ham sig‘magan.**
D) *Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi*
*Vujudin sham’i so‘zon aylamakni mendin o‘rgandi.*

2127. 13.1-2 file-» 5 - 1 - - (400511)
**Bo‘rini dog‘i galadin dur qil,**
**Suv beribon bog‘ni ma’mur qil.**
Ushbu she’riy baytda nechta kinoya tashbeh qo‘llangan?
A) *2 ta* B) *3 ta* **C)** *4 ta* D) *5 ta*

2128. 13.1-2 file-» 11 - 2 - - (400512)
Hadisning musnadi nima?
**A)** *roviylar ro‘yxati* B) *hadislar ro‘yxati* C) *hadis aytilgan vaqt* D) *hadis aytilgan joy*

2129. 13.1-2 file-» 11 - 2 - - (400513)
Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oyalar tashuvchi og‘zaki hikoyalar nima deyiladi?
A) *rivoyat* **B)** *ertak* C) *masal* D) *afsona*

2130. 13.1-2 file-» 11 - 2 - - (400514)
Misralardagi hijolar miqdori, ularning cho‘ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan she’r turini belgilang.
A) *oq she’r* **B)** *erkin she’r* C) *nasriy she’r* D) *mansuralar*

2131. 13.1-2 file-» 11 - 2 - - (400515)
Rivoyatlarning mavzuga ko‘ra turlari qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) *xalq rivoyatlari, tarixiy rivoyatlar*
B) *xalq rivoyatlari, toponimik rivoyatlar*
**C) tarixiy rivoyatlar, toponimik rivoyatlar**
D) *tarixiy rivoyatlar, zamonaviy rivoyatlar*

2132. 13.1-2 file-» 11 - 2 - - (400516)
Ertak qanday qismlardan tashkil topadi?
A) *kirish qismi, voqealar rivoji, qissadan hissa*
**B) kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanma**
C) *boshlanma, tugallanma, yechim*
D) *voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim*

2133. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400517)
Nasib, guzurgoh, madh, qasd singari maxsus qismlar qaysi janrga tegishli?
A) *hamd* B) *na’t* **C)** *qasida* D) *muashshar*

2134. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400518)
Qaysi janr qadimda ”qonug‘” deb atalgan?
A) *rivoyat* **B)** *qasida* C) *qo‘shiq* D) *she’r*

2135. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400519)
Qaysi janrda yozilgan badiiy asarda birinchi bandning maqta’si qolgan bandlarning so‘ngida ham takrorlanadi?
**A)** *tarje’band* B) *marsiya* C) *qit’a* D) *qo‘shiq*

2136. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400520)
Bandlardagi misralarning soniga ko‘ra musammatlarning nechta turi bor?
A) *10 ta* B) *9 ta* **C)** *8 ta* D) *5 ta*

2137. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400521)
Eron olimlari nimani ”bilimlar uchligi” deb ataganlar?
**A) uch yo‘nalishda o‘rganilgan she’riyat ilmini**
B) *arab, fors va turkiy tilda yozilgan adabiy asarlarni*
C) *arab, fors va turkiy tilda yozilgan ilmiy asarlarni*
D) *uch tilda ijod qilgan adiblarni*

2138. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400522)
She’riyat ilmiga doir turkiy tildagi asarni birinchi bo‘lib qaysi olim yaratgan?
A) *Ahmad Mansur Samarqandiy*
B) *Rashididdin Vatvot* **C)** *Ahmad Taroziy*
D) *Muhammad Rodiyoniy*

2139. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400523)
”Ilmi bade”’ning ikkinchi nomi qaysi javobda berilgan?
A) *poeziya* B) *ilmiy qofiya* **C)** *badoye us-sanoye* D) *ma’naviy san’atlar*

2140. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400524)
Mashrabning ”Ne g‘urbatlarni chektim, charxi bebunyod, dastingdan” deb boshlanuvchi asari qaysi janrga oid?
**A)** *musaddas* B) *muxammas* C) *g‘azal* D) *marsiya*

2141. 13.1-2 file-» 11 - 3 - - (400525)
Mashrab she’riyatiga xos janrlar qaysi javobda keltirilgan?
1) g‘azal; 2) qit’a; 3) mustazod; 4) murabba; 5) muxammas; 6) musaddas; 7) musabba; 8) tuyuq
A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 3, 4, 5, 6, 8* **C)** *1, 3, 4, 5, 6, 7* D) *1, 2, 3, 4, 5, 6*

2142. 13.1-2 file-» 99 - 2 - - (400526)
Navoiy ”so‘zchi holi” bilan bog‘liq she’rni lirikaning qaysi janrida yaratgan?
A) *masnaviy* B) *ruboiy* **C)** *qit’a* D) *fard*

2143. 13.1-2 file-» 99 - 2 - - (400527)
Nodira "Firoqnoma"ning naqorat qismida qo'llagan murojaat jumla qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
**A)** *"Yo rab"* B) *"Ey mug'anniy"* C) *"Ey shohim"* D) *"Yo falak"*

2144. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400528)
Fuzuliy o'zining qaysi asari bilan turkiy nasr taraqqiyotiga hissa qo'shdi?
**A)** *"Shikoyatnoma"* B) *"Rindi zohid"* C) *"Anis ul-qalb"* D) *"Suhbat al-asmor"*

2145. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400529)
Fuzuliyning "Parishon holing o'ldim, so'rmading holi parishonim" deb boshlanuvchi she'ri qaysi janrda yozilgan?
A) *g'azal* **B)** *murabba* C) *qit'a* D) *tarkibband*

2146. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400530)
Qaysi shoir o'z asarlaridan birida tazod san'ati vositasida saltanat ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish uchun qilinishi shart bo'lgan yigirma ikki sifatni va saltanatni tanazzulga olib boradigan o'n sakkiz illatni ko'rsatib beradi?
A) *Navoiy* B) *Bobur* **C)** *Ogahiy* D) *So'fi Olloyor*

2147. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400531)
Ahmad Yassaviy she'rlarida xalq og'zaki ijodi an'analari bilan bog'liq timsollar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) *ishq, oshiq, obid*
**B)** *yo'l, rabot, karvon, o'q*
C) *tolib, zohid, karvon, iymon*
D) *shayton, iymon, yo'l, pir*

2148. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400532)
She'rning bir turi sifatida "Munojotnoma" yozgan shoir nomini toping.
A) *Mashrab* B) *Fuzuliy* **C)** *Yassaviy* D) *Navoiy*

2149. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400533)
Ba'zi ishonchli manbalarda Yassaviyning hikmat janriga asos solib jami qancha hikmatlar aytganiga ishora qilinadi?
A) *500 ta* B) *26 ta atrofida* C) *3600 ta* **D)** *4400 ta*

2150. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400534)
Ahmad Yassaviy hikmatlaridan ta'sirlanib, shu yo'lda she'rlar yaratgan shoirlar nomini belgilang.
**A)** *Boqirg'oniy, Ubaydiy*
B) *Mashrab, Taroziy* C) *Sakkokiy, Gadoiy*
D) *Ubaydiy, Furqat*

2151. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400535)
Mirtemir qaysi she'rida Yusuf Xos Hojib obraz darajasida ishlatgan "qut" so'zini "baraka" obrazi darajasiga ko'taradi?
A) *"Baliq ovi"* **B)** *"Bulut"* C) *"To'rg'ay"* D) *"Shudring"*

2152. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400536)
Qaysi shoir inson yoshi bilan bog'lab to'rtlik, uchliklar yaratgan?
A) *Mashrab* B) *Navoiy* **C)** *Yassaviy* D) *Yugnakiy*

2153. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400537)
Kimning qaysi asarida 20 ta turkiy qabilalar nomi izohlari bilan keltirilgan?
A) *Navoiy, "Tarixi mulki ajam"*
B) *A.Bahodirxon, "Shajarai turk"*
C) *Bobur, "Boburnoma"*
**D)** *M.Koshg'ariy, "Devonu lug'otit-turk"*

2154. 13.1-2 file-» 99 - 3 - - (400538)
Adabiyotshunos sifatida "Fan ash-she'r" asarini yozgan alloma nomini toping.
A) *Abu Rayhon Beruniy* **B)** *Ibn Sino* C) *Al-Xorazmiy* D) *Abu Nasr Forobiy*

2155. 13.1-2 file-» 11 - 5 - - (700531)
Bir-biriga mos javoblarni belgilang.
1) barmoq vaznida yozilgan asar;
2) sarbast shaklida yozilgan asar;
3) aruz vaznida yozilgan asar; 4) oq she'r shaklida yozilgan asar.
a) E.Vohidov, "O'zbegim" b) M.Shayxzoda, "Mirzo Ulug'bek" c) U.Nosir, "Yana she'rimga" d) Mirtemir, "Onaginam".
A) *1-b; 2-d; 3-b; 4-a* **B)** *1-c; 2-d; 3-a; 4-b* C) *1-c; 2-a; 3-d; 4-b* D) *1-b; 2-c; 3-d; 4-a*

2156. 13.1-2 file-» 11 - 5 - - (700532)
Alisher Navoiyning qaysi g'azali birinchi misrasi uning so'nggi misrasi sifatida ham takrorlangan va bu qanday badiiy san'at hisoblanadi?
**A)** *"Deyin", radd ul-matla*
B) *"Bo'ldum sanga", ishtiqoq*
C) *"Deyin", to'liq qofiya*
D) *"Kelmadi", tanosub*

2157. 13.1-2 file-» 11 - 5 - - (700533)
Bir adabiy turga mansub asarlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *G'.G'ulom "Shum bola", Muqimiy "Tanobchilar", A.Suyun "Bahodirning qilichi"*

**B) Ch.Aytmatov "Qiyomat", O.Yoqubov "Izlayman", S.Ahmad "Tortiq"**

C) *O.Yoqubov "Yurak yonmog'i kerak", Z.A'lam "Baxtli bilet", T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi"*

D) *O.Yoqubov "Izlayman", S.Ahmad "Tortiq", T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi", Muqimiy "Tanobchilar"*

2158. 13.1-2 file-» 11 - 5 - - (700534)
Javoblar mosligini belgilang.
1) roman - dilogiya yozgan adiblar 2) roman - trilogiya yozgan adiblar 3) romanlar turkumi yozgan adiblar 4) roman - epopeya yozgan adiblar
a) Romen Rollan, Roje Marten dyu Gar
b) Oybek, Sadriddin Ayniy c) Hamid G'ulom, Mirzakarim Ismoiliy d) Vasiliy Yan, Lev Nikolayevich Tolstoy

A) *1-b; 2-d; 3-c; 4-a* B) *1-d; 2-a; 3-b; 4-c*
**C)** *1-c; 2-d; 3-a; 4-b* D) *1-d; 2-c; 3-a; 4-b*

2159. 13.1-2 file-» 11 - 5 - - (700535)
Mumtoz adabiyotda qanday xususiyat ma'shuqa go'zalligining muhim belgisi sanalgan?

A) *mehribonlik* **B)** *noziklik*
C) *hayoli bo'lishlik* D) *sadoqatlilik*

2160. 13.1-2 file-» 11 - 5 - - (700536)
Bir xil janrga mansub asarlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) *A.Qahhor "Dahshat", Ch.Aytmatov "Oq kema"*

**B) A.S.Pushkin "Yevgeniy Onegin", H.Sharipov "Bir savol"**

C) *O.Yoqubov "Muqaddas", O'.Hoshimov "Inson sadoqati"*

D) *A.Oripov "Sohibqiron", R.Parfi "Ona Turkiston"*

2161. 13.1-2 file-» 45 - 2 - - (700537)
Kim Sharq ko'proq nasihat yo'li bilan, G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini qayd etgan?

**A)** *Abu Ali ibn Sino* B) *Ozod Sharafiddinov*
C) *Farobiy* D) *Abdulla Qahhor*

2162. 13.1-2 file-» 45 - 2 - - (700539)
Adabiyotda ilk romanlar qachon va qaysi yo'l bilan yaratilgan?

**A) 2, 5 ming yil oldin, faqat sochma yo'lda qora so'z bilan yozilgan**

B) *1, 5 ming yil avval, sochma yo'lda*

C) *2, 5 ming yil avval, faqat she'riy yo'lda*

D) *1, 5 ming yil avval, she'riy yo'lda*

2163. 13.1-2 file-» 45 - 1 - - (700540)
Ogahiyning "Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z" baytida nechta tashxis bor?

**A)** *3 ta* B) *4 ta* C) *2 ta* D) *1 ta*

2164. 13.1-2 file-» 1 - 49 - - (700541)
So'fiylar nazdida nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik nima?

A) *ishq* B) *mayxona* C) *amal*
**D)** *dunyo*

2165. 13.1-2 file-» 1 - 49 - - (700542)
Pandona adabiyot - bu ...

A) *diniy adabiyot.* **B)** *didaktik adabiyot.*
C) *qadimiy adabiyot.* D) *nasriy adabiyot.*

2166. 13.1-2 file-» 1 - 49 - - (700543)
She'rning qaysi turi "mansuralar", "sochmalar" deb ham ataladi?

A) *oq she'r* B) *erkin she'r* C) *sarbast she'r*
**D)** *nasriy she'r*

2167. 13.1-2 file-» 1 - 49 - - (700544)
M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi qanday she'riy shaklda yozilgan?

A) *barmoq vaznida* **B)** *oq she'rda*
C) *erkin she'rda* D) *nasriy she'rda*

2168. 13.1-2 file-» 1 - 49 - - (700545)
Mansur she'rlar yana qanday atalishi mumkin?

A) *oq she'r* B) *erkin she'r* C) *sarbast she'r*
**D)** *nasriy she'r*

2169. 13.1-2 file-» 1 - 49 - - (700546)
She'r uchun uch xususiyat – ezgulik, go'zallik, donolik bo'lishi shart ekanligini kim ta'kidlagan edi?

A) *Usmon Nosir* B) *A.S.Pushkin*
**C)** *N.A.Dobrolyubov* D) *Ozod Sharafiddinov*

2170. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700547)
Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarida qaysi janrga oid qismlar forsiy tilda bitilgan?

**A)** *noma, g'azal, masnaviy*
B) *g'azal, masnaviy, qit'a*
C) *noma, fard, g'azal* D) *g'azal, fard, qit'a*

2171. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700548)
Oh-nola chekish tasavvufiy adabiyotda nimaga ishora hisoblanadi?

A) *haqqa yetishganlikka*
**B)** *ishqning komil bo‘lganiga*
C) *dunyo sirlariga* D) *nafsga*

2172. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700549)
Shaklan g‘azalga eng yaqin janr qaysi?

A) *fard* B) *masnaviy* **C)** *qit’a*
D) *ruboiy*

2173. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700550)
Tazmin musammatlar va ta’bi xud musammatlar musammatlarning qaysi tasnifiga kiradi?

A) *qofiya tizimi bo‘yicha tasnifga*
**B) yaratilish xususiyatiga ko‘ra tasnifga**
C) *bandlaridagi misralarning soniga ko‘ra tasnifga*
D) *qaysi davrda yaratilganligiga ko‘ra tasnifga*

2174. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700551)
Lutfiyning ”Xoh inon, xoh inonma” g‘azalida ohang ustuvorligini nima ta’minlagan?

**A) to‘rt so‘zdan iborat radifning sakkiz misrada qaytarilishi**
B) *radifda tazod san’atining mavjudligi*
C) *”inonma” so‘zining ishlatilishi*
D) *zimdan ilohiy ishqqa ishora qilinishi*

2175. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700552)
Nodiraning ”Firoqnoma” muashsharida radiflar qay holatda qo‘llangan?

A) *radif qo‘llanmagan*
B) *barcha bandlarda qo‘llangan*
**C) ayrim bandlarida radif qo‘llangan, ayrimlarida esa yo‘q**
D) *birinchi bandida radif qo‘llangan, qolganlarida esa yo‘q*

2176. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700553)
2000-yillar o‘zbek adabiyotida qaysi janrga oid asarlar jiddiy estetik xavfni paydo etdi?

A) *roman* B) *she’r* **C)** *komediya*
D) *hikoya*

2177. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700554)
**Birini Qipchoq-u Xitoy-u, birini Yuz, Nayman demang,**
**Qirq-u Yuz, Ming son bo‘lib, bir xon oyinlik qiling.**
Turdi Farog‘iyning ”Tor ko‘ngullik beklar . . . ” deb boshlanuvchi g‘azalida o‘zbek urug‘lari nomiga bog‘liq bo‘lgan qanday badiiy san’at qo‘llangan?

A) *tashbeh* B) *mubolag‘a* **C)** *tazod*
D) *irsoli masal*

2178. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700555)
Qanday tovushlar raviy bo‘la olmaydi?

A) *undosh tovushlar* B) *unli tovushlar*
**C)** *qisqa unlilar* D) *cho‘ziq unlilar*

2179. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700556)
Turdi Farog‘iyning ”Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko‘rdiman” misrasi bilan boshlanuvchi asari musammatning qaysi turiga kiradi?

A) *murabba* **B)** *muxammas* C) *musaddas*
D) *musamman*

2180. 13.1-2 file-» 11 - 7 - - (700557)
Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyattin anjumanda.
Atoyi qalamiga munsub ushbu baytdagi qofiyalar qofiyaning qaysi turiga kiradi va undagi raviy qaysi tovushdan iborat?

A) *muqayyad qofiya, d tovushi*
B) *mutlaq qofiya, d tovushi*
C) *muqayyad qofiya, n tovushi*
**D)** *mutlaq qofiya, n tovushi*

2181. 13.1-2 file-» 11 - 8 - - (700558)
**Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko‘ngul shom-u sahar**
**Bulbuldek aylar yuz navo ming nav’i faryod ustina.**
Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda qanday badiiy san’atlar qo‘llangan?

A) *mubolag‘a va tajnis*
B) *mubolag‘a va tashbeh*
C) *talmeh va tanosib* **D)** *tashbeh va tanosib*

2182. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700559)
She’r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama – . . .

A) *masnaviy.* B) *musamman.*
**C)** *musammat.* D) *muashshar.*

2183. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700560)
Musammatning uchlikdan o‘nlikkacha bo‘lgan turlari tartib bilan to‘g‘rri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
1) murabba’; 2) musaddas; 3) musallas;
4) muashshar; 5) mustasne’; 6) muxammas;
7) musamman; 8) musabba’.

A) *3, 1, 6, 8, 2, 7, 4, 5* B) *8, 2, 4, 5, 1, 3, 6, 7*
**C)** *3, 1, 6 , 2, 8, 7, 5, 4*
D) *1, 2, 3, 6, 7, 8, 4, 5*

2184. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700561)
Lutfiyning quyidagi qaysi g‘azali hazaji musaddasi mahzuf vaznida yaratilgan?

A) *"Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma"*
B) *"Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘ngildur bu ko‘ngil"*
**C) "Ayog‘ingga tushar har lahza gisu"**
D) *berilganlarning barchasi*

2185. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700562)
Ko‘zim namlik, dilim g‘amlik, jon alamlik
Nechuk iloj etorimni bilmam do‘stlar.
Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib
Qayu taraf ketorimni bilmam, do‘stlar.
A.Yassaviyning ushbu hikmati qaysi vaznda yaratilgan?

A) *aruzning hazaji musaddasi solim vaznida*
B) *aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida*
C) *barmoq vazninning 6+6=12 ko‘rinishida*
**D) barmoq vaznining 4+4+4=12 ko‘rinishida**

2186. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700563)
She’r ilmiga bag‘ishlangan turkiy tildagi ilk asar va uning muallifini belgilang.

**A) "Funun al-balog‘a", Ahmad Taroziy**
B) *"Tarjimon ul-Balog‘a", Muhammad Roduyoniy*
C) *"Kanzul g‘aroyib", Ahmad Mansur Samarqandiy*
D) *"Haqoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she’r", Rashididdin Vatvot*

2187. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700564)
Gahe eltub ayog‘ini o‘ziga,
Gahe surtub iligini ko‘ziga.
H.Xorazmiyning "Gul va Navro‘z" dostonidan olingan ushbu bayt qaysi san’at bilan ziynatlangan?

A) *ishtiqoq* B) *tajohuli orif* C) *iyhom* **D)** *tarse’*

2188. 13.1-2 file-» 20 - 3 - - (700565)
Qaysi badiiy san’at turi muayyan bir hodisani real - hayotiy mantiq bilan emas, balki shoirona xayol - badiiy mantiq bilan isbotlash asosida yuzaga keladi?

A) *laff va nashr* B) *radd us-sadr-ilal-hashv* **C)** *husni ta’lil* D) *tajohuli orif*

2189. 13.1-2 file-» 11 - 9 - - (700566)
H. Xorazmiyning "Gulshan-ul asror", Y.Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarlari qanday asar hisoblanadi?

A) *nasriy didaktik asar*
B) *nasriy-she’riy didaktik asar*
**C) she’riy didaktik asar**
D) *aralash turdagi didaktik asar*

2190. 13.1-2 file-» 11 - 9 - - (700567)
Bir adabiy turga mansub asarlar qaysi javobda keltirilgan?

A) *O‘.Hoshimov, "Urushning so‘nggi qurboni", T.Murod, "Yulduzlar mangu yonadi", S.Ahmad, "Kelinlar qo‘zg‘oloni"*
B) *R.Tagor, "Nur va soyalar", M.Shayxzoda, "Mirzo Ulug‘bek", V.Shekspir, "Gamlet"*
**C) O.Yoqubov, "Tengdoshlar", Oybek, "Navoiy", N.Dumbadze, "Hellados"**
D) *A.Oripov, "O‘zbekiston", E.Vohidov, "O‘zbegim" O.Sharafiddinov, "O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan"*

2191. 13.1-2 file-» 11 - 9 - - (700568)
Bir xil janrda yozilgan asarlar qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) *Xo‘jandiy, "Latofatnoma", Gulbadanbegim, "Humoyunnoma", Muqimiy, "Sayohatnoma"*
**B) S.Sheroziy, "Guliston", A.Navoiy, "Mahbub-ul qulub", Gulxaniy, "Zarbulmasal"**
C) *O‘.Hoshimov, "Nur borki, soya bor", O‘.Umarbekov, "Yoz yomg‘iri", Sh.Xolmirzayev, "Dinozavr"*
D) *Nodira, "Firoqnoma", Zulfiya, "Sensiz", A.Oripov, "Sohibqiron"*

2192. 13.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715283)
Maqol, matal, topishmoq o‘zbek folklorining qaysi turiga mansub?

A) *Epik tur* B) *Lirik tur* C) *Dramatik tur* **D)** *Maxsus tur*

2193. 13.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715284)
She’riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sarbast vaznlarida birdek yuksak saviyada ijod qilgan adibni aniqlang.

A) *Usmon Nosir* B) *Abdulla Oripov* **C)** *Erkin Vohidov* D) *Hamid Olimjon*

2194. 13.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715285)
Kim she’r uchun uch xususiyat – ezgulik, go‘zallik, donolik shart bo‘lishini ta’kidlaydi?

A) *Xurshid Davron* **B)** *N.A.Dobrolyubov* C) *A.S.Pushkin* D) *Usmon Nosir*

2195. 13.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715286)
Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlarini ko'rsating.

A) *"Muhokamat ul-lug'atayn", "Sab'atu abhur"*
B) *"Xazoyin ul-maoniy", "Xamsat ul-mutahayyirin"*
C) *"Tarixi muluki ajam", "Lison ut-tayr"*
**D) "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon"**

2196. 13.1-2 file-» 12 - 2 - - 1 (715287)
Zulm o'zinga fisqdur, ey hushyor,
Gum qil ani, bo'lsa sanga hush yor.
Ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?

A) *ishtiqoq* B) *tazod* C) *tashxis*
**D)** *tajnis*

2197. 13.1-2 file-» 11 - 8 - - 1 (715288)
**Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,**
**Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.**
Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan tashxis san'atiga nima asos bo'lgan?

A) *tabiat manzarasi*
**B)** *insonning o'zidagi holat, xislat*
C) *borliqning o'zi* D) *hayotiy tajriba*

2198. 13.1-2 file-» 46 - 1 - - 1 (715289)
Zamonaviy o'zbek adabiyotida yaratilgan didaktik asarni toping.

A) *"Kafansiz ko'milganlar"*
**B)** *"Javohirlar sandig'i"* C) *"Qutadg'u bilig"*
D) *"Hibat ul-haqoyiq"*

2199. 13.1-2 file-» 46 - 1 - - 1 (715290)
XIV asr o'zbek adabiyotida qit'a va fardning dastlabki namunalari kimning ijodida uchraydi?

A) *Lutfiy* B) *Bobur* C) *Ogahiy*
**D)** *Xorazmiy*

2200. 13.1-2 file-» 46 - 1 - - 1 (715291)
Mumtoz she'riyatimizning asosiy tasvir manbai nima?

A) *ko'z* **B)** *ko'ngil* C) *til* D) *ishq*